

UZBEKISTON

Taraqqiyoti va Tadqiqotlari Jurnali



2025 VOL. I, ISSUE 2

JOURNAL of UZBEKISTAN'S DEVELOPMENT and RESEARCH

ISSN 2181-2675

JOURNAL OF UZBEKISTAN'S
DEVELOPMENT AND RESEARCH

(JUDR)

Volume 1 Issue 2, 2025

ISSN: 2181-2675

XALQARO TADQIQOT LLC

www.ijournal.uz

Editorial Team

Saloxiddinova Nigoraxon Inomjonovna	Member, Editorial Board	Doctor of Philosophy (PhD) in philology sciences, Senior Lecturer of the Department of philology "UNIVERSITY OF ECONOMICS AND PEDAGOGY" NOTM
Yarkinova Barchinoy Bargiyevna	Member, Editorial Board	Doctor of Philosophy (PhD) in philology sciences, Senior Lecturer of the Department of philology "UNIVERSITY OF ECONOMICS AND PEDAGOGY" NOTM
Mamadaliyeva Nodira Isakovna	Member, Editorial Board	Doctor of Philosophy (PhD) in Biology Sciences, Associate Professor of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami
Atakulova Nargiza Baxtiyorjon qizi	Member, Editorial Board	Doctor of Philosophy in Chemical Sciences (PhD), Senior Lecturer in Chemistry Department of Andijan State University
Muxamedova Regina Suxrobovna	Member, Editorial Board	Doctor of Philosophy (PhD), in Pedagogical Sciences
Karimova Nozima Nurmukhamadovna	Member, Editorial Board	DSc, Associate Professor Institute for the Development of Professional Education, Department of "Personnel Management"
Matkarimova Sadokat Maksudovna	Member, Editorial Board	Doctor of History (Dsc), Head of the Department of History, Mamun University
Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna	Member, Editorial Board	Acting Professor of the Department of Educational Methodology Tashkent State Pedagogical University named after Nizami
Sadikova Shoista Akbarovna	Member, Editorial Board	Professor of the "Methodology of preschool education", Department of Tashkent State Pedagogical University
Murtozayeva Mahfuza Murtozayevna	Member, Editorial Board	Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor of the Department of Pedagogy and psychology of the Uzbekistan State University of World Languages
Djanpeisova Gauxar Erkinovna	Member, Editorial Board	Head of Department of Preschool Education and Correctional Pedagogy of the branch of the Russian State Pedagogical University named after A.I. Herzen in Tashkent, Pre-school (PhD)
Djamilova Nargiza Nuriddinovna	Member, Editorial Board	Professor of the Department of Educational Methodology, Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Pre-school (DSc)
Voxidova Norposhshaxon Xabibullayevna	Member, Editorial Board	Professor of the Department of Pedagogy of the Tashkent State Pedagogical University named after Nizami (Doctor of Pedagogical Sciences (DSc))
Ruzmetova Novval Vahabdjanovna	Member, Editorial Board	Acting docent of the Department of Uzbek Language and Foreign Languages Academy of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, (PhD) docent
Komilova Fotima Maximudovna	Member, Editorial Board	Doctor of Philosophy (Ph.D.) in Pedagogical Sciences, Associate Professor of the Department of Pedagogy, Andijan State University, Andijan, Uzbekistan
Kamilova Nargiza Abdukahorovna	Member, Editorial Board	Doctor of Philosophy (Ph.D.) in Economical Sciences, Associate Professor of the Department of Economic Theory, Samarkand Institute of Economics and Service, Samarkand, Uzbekistan
Muminova Nodira Maximudovna	Member, Editorial Board	Doctor of Philosophy (Ph.D.) in Philological Sciences, Senior Lecturer of the Department of Philology, "UNIVERSITY OF ECONOMICS AND PEDAGOGY" NOTM, Uzbekistan
Panjiev Normakhmat Panjievich	Member, Editorial Board	Candidate of Philological Sciences, Associate Professor of the Department of Russian Linguistics, Termez State University
Teshaboyev Oybek Abdumannob ugli	Member, Editorial Board	Doctor of Philosophy (Ph.D.) in Technical Sciences, Assistant, Department of General Engineering Sciences, Andijan Institute of Mechanical Engineering, Andijan, Uzbekistan



Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING INTELLEKTUAL IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Xalilov Farxod¹

Ruzieva Madina²

Alfraganus University

KEYWORDS

kreativlik, didaktik, ontogenetika, mustaqil ta'lif, yaratuvchilik jarayoni.

ABSTRACT

Maqolada bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlashda kreativlikni rivojlanishning axamiyati, bo'lajak pedagoglarni mustaqil ta'lif jarayonida kreativ sifatlarini rivojlanishning mavjud holati tahlil qilingan, va kreativlikni rivojlanishga oid ilmiy pedagogik va psixologik adabiyotlari o'rjinligan.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.1496177](https://doi.org/10.5281/zenodo.1496177)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

KIRISH

Ijtimoiy – iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar turli jabxalarda kreativ fikrlay oladigan kadrlarni ishlab chiqarishni har tomonlama maqullaydi. Janubiy Koreya Respublikasi, Germaniya, Fransiya va Yaponiyada talim oluvchilarning fikrlash erkinligini taminlash, mustaqil fikrlashini rivojlanish hamda buning yangilangan didaktik tizimini Life Skills yani “Xayotiy ko'nkmalar”ga bog'langan kompetensiyaviy yondashuv asosida talim oluvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlanishning ijtimoiy-pedagogik mexanizmini amaliyatga tatbiq etish bo'yicha tizimlashtirilgan ishlar olib borilmoqda.

Dunyo bo'y lab yetakchi oliy ta'lif muassasalari hamda ilmiy muassasalar tomonidan mustaqil fikrlash salohiyatini oshirish borasidagi bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jumladan, AQSHda joylashgan Sonoma davlat universiteti mustaqil fikrlashni rivojlanish bo'yicha zamonaviy tadqiqotlar olib boradi va ozi shu tajribalar asosida erishilayotgan natijalar yuzasidan ma'lumotlarni tarqatmoqda. Bundan tashqari, bu markaz, har yili tanqidiy fikrlash va ta'lifni isloq qilish yuzasidan o'tkaziladigan xalqaro konferensiya qiladi. U AQSh ta'lif vazirligi, kollejlar kengashi, Milliy ta'lif

¹ Alfraganus universitet Pedagogika fakultet "Pedagogika va psixologiya" kafedrasini dosenti, (PhD)

² Alfraganus universiteti 1-bosqich magistranti

assotsiatsiyasi, va ko'plab kolledj, universitet va maktablar bilan intellektual standartlarga asoslangan tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordamlashish uchun ishlar olib borilmoqda. Bunda, muayyan holatlarda mustaqil fikr yuritish insonning mustaqil ta'lif olishi bilan bog'liq holda qaraladi. Iodkorlik faoliyati esa, asosan, inson qo'li bilan yaratiladigan moddiy buyumlar yaratishni va takomillashtirish bilan bog'liq faoliyat sifatida o'rganilgan. Mustaqil va kreativ fikrlash talabalarning xulqida, ularning kundalik muloqotida, kasbiy faoliyatida qay darajada namoyon bo'lish masalalari yetarlicha ohib berilmagan.

Buyuk qomusiy olimlar Xoja Afzal, Jalol Hoqiy, Bahovuddin Naqshband, Abu Mansur Moturidiy, Abu Nasr Forobiy, Mirzajon Sheroziy, Abu Ali ibn Sino, Shayx Xovandi Tahir, Mir Sayid Jurjoniy, Mavlono Abdujabbor Xorazmiy, Abdurazzoq Samarcandiy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniylarning ilmiy meroslari talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish muammolarini hal etishda kerakli ma'lumot bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOOGIYA.

Talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish borasida Z.Nishanova, N.Alavutdinova, L.G rash, V.Karimova, M.Zayniddinova, K.Kenjabaeva, B.Xodjaev, S.Novoselova, Sh.Nurullaeva, M.Saidov, R.Sunnatova, Q.Husanboevalar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

P.Ya.Galperin, Ya.A.Ponomarev, I.Goldsteyn, M.Kortezzi, V.Kalveyt, T.V.Kudryavseva, A.Matyushkin, A.I.Leontev, G.Noyner, R.Fisher, S.L.Rubinshteyn, Yu.S.Stolyarov, D.Xamblin, V.S.Shubinskiy, A.F.Eskulovalar shaxs mustaqil fikrlash va ijodkorlik husuiyatlarini faollashtirishning pedagogik-psixologik omillari ustida ilmiy faoliyat olib borishgan.

MUHOKAMA

Ta'lilda mustaqil ta'lif olishning ahamiyati ortib borishi kelgusida pedagoglarning mustaqilligi, ijodiy qobiliyatligi va faolligini oshirishga olib keladi. Kredit-modul tizimida oliy ta'lif muassasi talabalari har doim o'qituvchi va kursdoshlaridan maslahat olish va yordam olish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'zaro yordamlashish jamoadagi hamjixatlikni mustaxkamlab, bir – biriga xurmat tuyg'usini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu o'rinda xurmatli prezidentimiz Shavkat Miromonovichning quyidagi gaplarini keltirib o'tish o'rinnlidir: "Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz."

Bu istak esa yoshlar ta'lif – tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan kasb egalarini yuksak kasbiy tayyorgarlikka, g'oyaviy – siyosiy e'tiqodga, tashkilotchilik va menejment malakalariga ega bo'lish kerakligini taqozo qilmoqda. Bu hol uzlusiz ta'lif tizimi va kasbhunar ta'limi muassasalari yangilanayotgan, ta'lif - tarbiyaning mazmuni, usullari, shakli,

vositalari majmuiga, o'quv – tarbiya jarayoniga o'zbekona urf – odatlar faol kirib borayotgan bir sharoitda yuz bermoqda. Diyormizda bo'layotgan bu kabi yangilanishlar har bir o'qituvchini novatorlikga, sharqona ish yuritishga, ishbilarmonlikka, tadbirkorlikka, ma'naviy – ma'rifiy ishlarning faol ishtirokchisi bo'lishga chorlaydi.

Oliy ta'iim tizimida ham chuqur islohatlar amalga oshirilmoqda. Oliy ta'lim tizimidagi davlat ta'lim standartlari takomillashtirildi, ya'ni bunda talabalarning bilimi, ko'nikma hamda malakalarini shakllantirishdan boshlab talabalarda ta'lim yo'nalishi hamda mutaxassisligi yuzasidan kasbiy kompetensiyani shakllantirish va takomillashtirishga qaratilmoqda. Xozirgi zamonaviy jamiyat uchun umuman yangicha qiyofadagi kadr talab qilinmoqda. Mutaxassis faol ijodiy fikrlovchi, izlanuvchi, ilmiy axborot va yangiliklarni mustaqil ravishda izlab topuvchi hamda ularni o'zining kasbiy faoliyatida qo'llay oluvchi mutaxassis bo'lib shakllanishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi kadrlar tayyorlashda mehnat bozorining talablaridan kelib chiqqan holda islohotlar sari yuksalmoqda. Ayni damda o'sib kelayotgan yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash g'oyasining oliy vazifasi ta'lim-tarbiya beruvchi tarbiyachilarni raqobatbardosh, kompetentli tarbiyachilarni tayyorlashdan iborat. Tezlikda o'zgarib borayotgan jamiyatimizdagi mактабгача та'lim muassasalarida ishlay oladigan, kasbiy faoliyatdagi turli muammo va masalalarni mustaqil va ijodiy yecha oladigan tarbiyachilarga yurtimizda talab tobora kuchayib bormoqda.

Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari mutaxassislar tomonidan bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda, talabalarni pedagogik faoliyatga yo'naltirilgan holda o'z kasbiy fanlaridan qo'llaniladigan o'qitish shakllari mazmuni, va metodlari bo'yicha ta'lim beriladi va ularda kasbiy kompetentliklari shakllantira boriladi. Shu tufayli, oliy ta'limni rivojlantirish, yangilash, takomillashtirishda zamonaviy extiyojlarini ta'minlay oladigan mutaxassislarini tayyorlashning asosiy usullaridan biri kasbiy mukammallik nuqtai nazaridan yondoshuv bo'lib hisoblanadi.

Kasbiy rivojlangan pedagoglarni tayyorlash berish raqobatbardoshlikda ularning butun dunyo standardartidan qolishmasligi, oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan pedagog kadrlarning raqobatbardoshligini ta'minlab beradi.

Kompetentlikning o'zi tarbiyachida umumiyligi dunyoqarashning yuqoriligi va madaniyatning yuksakligi, pedagogika-psixologiya, menejment va menejment nazariyasining ilmiy asoslari bo'yicha kompetensiyaning mavjudligi, mavjud bilimlarini amaliyotda rivojlantirishga ma'suliyat, sotsial va psixologik-pedagogik креативность как свойство целостной личности [А. М. Матюшкин, 1989; Е. Л. Яковleva, 1997; Дж. Батгерворт, 2000; Г. Шсптенлоэр, 2000].tajriba metodlarini bilish, pedagogik va boshqaruv ko'nikmalarining zaruriy majmuasiga ega bo'lishni nazarda tutadi, ya'ni kompetentlik - shaxsning yaxlit bir butun, ko'p omilli,murakkab va ko'pqirrali sifatidir.

Jahon oliy ta'limida o'quv faoliyati mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishning ijodkorlik mexanizmlari ta'limga tatbiq etilgan. Bu borada oliy ta'lim muassasalarida talabalarning tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil ta'lim jarayonini loyixalashtirish, talabalarning vaqtini tejash va undan unumli

foydalanish, elektron axborot ta'lif manbalarini yaratish, ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, talabalarda ijodiy fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha yirik loyihalarni amaliyatga tadbiq etishga doir tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

XULOSA

Ijodkor shaxsnинг shakllanishi hamda rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o'zgarishining o'zaro mutanosibligi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar hamda insonning – tug'ilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzlusizlik, avlodlar almashinuvini taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog'liq.

Ijodkor shaxsnинг shakllanishini shaxsnинг o'zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur'ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsnинг faolligi va ijodkor sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy hodisalarga bog'liq. Bugungi kun sharoitida sharoitda pedagogning ijodkorlik sifatlariga ega bo'lishi taqozo etadi.

REFERENCES

1. Xasanova Sh.T va boshqalar. Features of organizing steam education in Uzbekistan Solid State Technology Volume: 63 Issue: 1s Publication Year: 20201803-1808.
2. Avliyakulov N.X., Musaeva N.N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Yangi asr avlod, 2003. – 190 b.
3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lif muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: "Iste'dod" jamg'armasi, 2009. – 160 b.
4. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O'qituvchi, 2004. – 104 b.
5. Ana Dzingel, 2018 g. STEAM Play & Learn: 20 Fun Step-by-step Preschool Projects about Science, Technology, Engineering, Arts, and Math!



Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING INTELLEKTUAL IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Xalilov Farxod¹

Ruzieva Madina²

Alfraganus University

KEYWORDS

intellektual ijodiy qobiliyat, innovatsion ta'lif, pedagogika, interaktiv o'qitish, mustaqil fikrlash, tadqiqot faoliyati, kreativ tafakkur, STEAM-ta'lif, muammoli ta'lif.

ABSTRACT

Mazkur maqolada pedagogika oliy ta'lif muassasalari talabalarining intellektual ijodiy qobiliyatlarini rivojlanish mehanizmlari tahlil qilinadi. Talabalarning mustaqil fikrlash, innovatsion yondashuv va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini shakllantirish ta'lif jarayonining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada interaktiv o'qitish usullari, tadqiqot faoliyati, kreativ fikrlash mashg'ulotlari va psixologik qo'llab-quvvatlash kabi mehanizmlar ko'rib chiqiladi. Ta'lifda axborot texnologiyalari, STEAM-ta'lif va muammoli ta'lif metodlaridan foydalanish intellektual ijodiy qobiliyatlarni rivojlanishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy asoslanadi. Maqola pedagogika oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va innovatsion ta'lif yondashuvlarini joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.1496182](https://doi.org/10.5281/zenodo.1496182)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Kirish

Zamonaviy ta'lif tizimi oldida turli ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik o'zgarishlarga moslasha oladigan, ijodiy va tanqidiy fikrllovchi mutaxassislarni tayyorlash vazifasi turibdi. Ayniqsa, pedagogika oliy ta'lif muassasalari talabalari kelajakda jamiyatning ilmiy va ma'naviy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan mutaxassislar bo'lishgani uchun ularning intellektual ijodiy qobiliyatlarini rivojlanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Intellektual ijodiy qobiliyat - bu talabalar tomonidan yangi g'oyalar yaratish, muammolarni mustaqil hal qilish va innovatsion fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish jarayonidir. Ushbu qobiliyatlarni rivojlanish pedagogika ta'liming samaradorligini

¹ Alfraganus universitet Pedagogika fakultet "Pedagogika va psixologiya" kafedrasи dosenti, (PhD)

² Alfraganus universiteti 1-bosqich magistranti

oshirishga, ta'lim jarayonida yangicha yondashuvlar, texnologiyalar va metodlarni joriy etishga xizmat qiladi.

Mazkur maqolada pedagogika oliy ta'lim muassasalarida intellektual ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning mexanizmlari, jumladan, innovatsion ta'lim texnologiyalari, interaktiv o'qitish usullari, tadqiqot faoliyatini rag'batlantirish va kreativ tafakkurni shakllantirish usullari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim tizimida ushbu qobiliyatlarni rivojlantirish yo'llari bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

Adabiyotlar tahlili

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida intellektual ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish masalasi ko'plab ilmiy tadqiqotlarning diqqat markazida turibdi. Tadqiqotchilar ushbu yo'nalishda turli nazariy va amaliy yondashuvlarni ilgari surgan bo'lib, quyida eng muhim ilmiy ishlanmalar va ularning tahlili keltiriladi.

Ko'plab olimlar intellektual ijodiy qobiliyatni mustaqil fikrlash, muammolarni yechish va innovatsion yondashuv qobiliyati bilan bog'laydi. Guilford (1967) ijodiy tafakkurni divergent fikrlash bilan bog'lab, uni turli yo'nalishlarda rivojlantirish mumkinligini ta'kidlaydi. Torrance (1974) esa ijodiy qobiliyatni o'lchash va rivojlantirish bo'yicha test tizimini ishlab chiqqan.

O'zbek olimlari orasida X. Yo'ldoshev (2018) pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muammoli ta'lim va mustaqil tadqiqot usullarining o'rnnini tadqiq qilgan. Uning ta'kidlashicha, ijodiy qobiliyatni shakllantirish uchun innovatsion texnologiyalardan foydalanish zarur.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari va interaktiv o'qitish usullari talabalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Vygotsky (1986) o'z tadqiqotlarida ijodiy tafakkurni rivojlantirishda ijtimoiy muhitning ahamiyatini ta'kidlagan.

Jon Dewey (1933) esa tajriba asosida o'qitish modelini ilgari surgan bo'lib, bunda talabalar real hayotiy vaziyatlarni o'rganish orqali mustaqil fikrlashni shakllantiradi. Runco & Jaeger (2012) ta'limda kreativlikni rivojlantirish uchun muammoli ta'lim va loyiha asosida o'qitish usullarini tavsiya qilgan. O'zbekistonda ham bu borada ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. G'. Jo'raqulov (2020) pedagogik innovatsiyalar va ularning oliy ta'limdagi roli bo'yicha tadqiqotlar olib borgan bo'lib, u zamonaviy ta'lim texnologiyalari, xususan, STEAM-ta'lim, muammoli ta'lim va ijodiy yondashuvlarning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslab bergen.

Tadqiqot faoliyati va akademik yozuvni shakllantirish orqali talabalarning mustaqil fikrashi va innovatsion qarashlarini rivojlantirish mumkin. Biggs & Tang (2011) oliy ta'limda konstruktiv ta'lim yondashuvi orqali ijodiy tafakkurni rivojlantirish mumkinligini ko'rsatgan. Robinson (2017) esa ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish uchun muammoli vaziyatlar yaratish va tadqiqot loyihalarini tatbiq etish zarurligini ta'kidlaydi. Freire (1993) ta'limda tanqidiy fikrlash muhimligini ta'kidlab, dialogik yondashuv orqali talabalarni fikrlashga undash mumkinligini ko'rsatadi. Amabile (1996) esa ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish uchun psixologik qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish tizimi muhimligini

ta'kidlaydi. O'zbekiston ta'lism strategiyasi (2030) da esa kreativ va innovatsion fikrlovchi mutaxassislarini tayyorlash ustuvor yo'naliishlardan biri sifatida belgilangan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, intellektual ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha turli nazariy yondashuvlar mavjud bo'lib, ulardan samarali foydalanish oliy ta'lism muassasalarida ta'lism sifatini oshirishga xizmat qiladi. Innovatsion texnologiyalar, tadqiqot faoliyati, interaktiv yondashuvlar va mustaqil fikrlash usullari ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismlaridir. O'zbekiston ta'lism tizimida ham bu borada ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda va ilg'or tajribalar joriy etilmoqda.

Tadqiqot natijalari

Mazkur tadqiqot pedagogika oliy ta'lism muassasalarini talabalarining intellektual ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish mexanizmlarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot jarayonida innovatsion ta'lism texnologiyalari, interaktiv o'qitish usullari, tadqiqot faoliyati va mustaqil fikrlashni rivojlantirish usullari ko'rib chiqildi. Quyida tadqiqot natijalari yoritiladi.

Tadqiqotda pedagogika oliy ta'lism muassasalarining 3-4-kurs talabalari ishtirok etdi. Ularning intellektual ijodiy qobiliyat darajasi quyidagi mezonlar asosida baholandi:

Divergent fikrlash darajasi – talabalar bir muammoning turli yechimlarini topish qobiliyatiga ega yoki yo'qligi.

Muammolarni hal qilish qobiliyati – talabalar real hayotiy vaziyatlarga yechim topa olishi.

Mustaqil tadqiqot olib borish layoqati – talabalar ilmiy izlanishlarga jalb qilinganligi va mustaqil fikrlash darajasi.

So'rovnomalar, testlar va kuzatuvlar orqali olingan natijalar quyidagicha:

- 32% talabalar ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish bo'yicha yuqori natija ko'rsatdi.
- 48% talabalar o'rtacha darajada, ya'ni ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lsa-da, amaliyotga tadbiq etishda qiyinchiliklarga duch keladi.
- 20% talabalar esa mustaqil fikrlash va kreativ tafakkur jihatdan sust rivojlangan.

Bu natijalar shuni ko'rsatadiki, aksariyat talabalar ijodiy tafakkur qilishga moyil bo'lsalar-da, uni amaliyotda qo'llashda muayyan qiyinchiliklarga duch keladilar. Tadqiqot doirasida quyidagi ta'lism usullari sinovdan o'tkazildi:

Interaktiv metodlar – muammoli ta'lism, loyiha usuli, aqliy hujum, faset usuli.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish – virtual laboratoriylar, raqamli platformalar, STEAM metodikasi.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb qilish – talabalarni startap va innovatsion loyihalarda qatnashishga undash.

Bu usullarni qo'llash natijasida:

- Interaktiv usullar joriy qilingan guruhlarda talabalar 45% ga faolroq bo'lishdi va mustaqil fikrlashlari yaxshilandi.
- STEAM-ta'lism asosida o'qitilgan talabalar yangi muammolarga 30% tezroq yechim topishga muvaffaq bo'ldi.

- Ilmiy-tadqiqot faoliyatida ishtirok etgan talabalar nazariy bilimlarini amaliyatga tatbiq etish qobiliyatini 35% ga oshirishdi.

Bu esa, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish talabalarning intellektual ijodiy qobiliyatlarini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilishini ko'rsatdi.

Tadqiqot davomida aniqlangan asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

1. An'anaviy ta'lim metodlariga haddan tashqari tayanish – talabalar mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvga yetarlicha imkoniyatga ega emas.
2. Talabalarning ilmiy-tadqiqotga kam jalg qilinishi – ko'pchilik talabalar nazariy bilimlarni amaliyatda qo'llash imkoniyatiga ega emas.
3. Motivatsiya va rag'batlantirish tizimining yetishmovchiligi – ijodiy ishlanmalar uchun talabalarni rag'batlantirish tizimi yetarli darajada shakllanmagan.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi va sinovdan o'tkazildi:

Muammoli ta'lim va loyiha asosida o'qitish – talabalarni real muammolarni hal qilishga yo'naltirish.

STEAM yondashuvi – talabalar ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun fanlararo integratsiyaga asoslangan metodlardan foydalanish.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatiga kengroq jalg qilish – talabalarni mustaqil izlanish va ilmiy ishlarga jalg qilish orqali ularning innovatsion tafakkurini rivojlantirish.

Bu yondashuvlarni qo'llash natijasida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini o'rtacha 40% ga oshdi, mustaqil fikrlash darajasi esa 35% ga yaxshilandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadi, interaktiv ta'lim texnologiyalari, innovatsion o'qitish usullari va mustaqil tadqiqot faoliyati pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning intellektual ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun samarali vositalar hisoblanadi. Shu sababli, ta'lim jarayonida muammoli ta'lim, ilmiy-tadqiqot faoliyatini kengaytirish va STEAM metodikasini keng qo'llash tavsiya etiladi.

Ushbu natijalar asosida pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini yangicha yondashuv asosida tashkil etish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

Xulosा

Mazkur tadqiqot natijalariga ko'ra, pedagogika oliy ta'lim muassasalarini talabalarining intellektual ijodiy qibiliyatlarini rivojlantirish ta'lim jarayonining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, uni samarali amalga oshirish uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlar va innovatsion metodlardan foydalanish zarur.

Umuman olganda, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning intellektual ijodiy qibiliyatlarini rivojlantirish ta'lim sifatini oshirish, raqobatbardosh va ijodkor mutaxassislarni tayyorlash uchun muhim omil hisoblanadi.

Shu sababli, zamonaviy ta'lim metodlarini keng joriy etish va innovatsion yondashuvlarni qo'llash pedagogika oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абрамов С.А., Зима Е.В. Начала информатики. М.: Наука. Гл. ред. физ.-мат. лит., 1989.-256 с.

2. Абульханова-Славская К.А. Деятельность и психология личности. -М.:Наука, 1980.-335 с.
3. Абульханова-Славская К.А. Стратегия жизни. М.: Мысль, 1995. - 160 с.
4. Andriadi I.P. Osnovi pedagogicheskogo masterstva: Ucheb. posobiye dlya stud. sred. ped. ucheb zavedeniy. M.: Izdatelskiy sentr «Akademiya», 1999.-160 s.
5. Galperin P.Y. Psixologiya razvitiya uchenikov i ucheniye o poetapnom formirovaniyu umstvennyx deystviy // Issledovaniye mishleniya v sovetskoy psixologii: Sb. nauchnix tr. M., 1966. - S. 236-277



Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

BO'LAJAK PEDAGOGLarda KASBIY REFIEKSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDOGAGIK IMKONiyatlari

Xalilova Nargiza¹

Irgasheva Indira²

Alfraganus universiteti

KEYWORDS

o'qituvchi, kompetentlik, pedagogik, psixologik, bo'lajak, ijtimoiy, zamonaviy, mifik, ta'lim jarayoni.

ABSTRACT

Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarda kasbiy refleksiyanı rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Kasbiy refleksiya o'qituvchining o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilish, xulosa chiqarish va o'zini takomillashtirish jarayonlarini anglatadi. Tadqiqotda muammoli ta'lim, interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, mentorlik tizimi hamda pedagogik amaliyot refleksiyanı shakllantirishda muhim omillar sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, bo'lajak pedagoglarning kasbiy rivojlanishida o'z-o'zini baholash va teskari aloqa tizimlarining roli ta'kidlanadi. Ushbu imkoniyatlar pedagoglarning tanqidiy tafakkurini, ijodiy yondashuvini va kasbiy mahoratini oshirishga xizmat qiladi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.1496191](https://doi.org/10.5281/zenodo.1496191)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

KIRISH. Dunyo ta'lim tizimida ta'limni rivojlantirish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar, loyihamar olib borilmoqda, ayniqsa pedagogik kasbiy tayèrgarlikning barcha komponentlarini rivojlantirishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Mamlakatimizda ham pedagogik kasbiy kompetentsiyalarni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida ta'lim muassasalarida zamonaviy moddiy texnik baza yaratilgan hamda innovatsion ta'lim dasturlari ishlab chiqilgan. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Rivojlangan davlatlar ta'lim tizimidagi yutuqlardan kelib chiqqan holda yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta'lim muassasalarida kompetentli ilmiy pedagogik kadrlar zahirasini yaratish" vazifasi belgilab o'tilgan.

Shu bilan birga mamlakatimizda amalga oshirilaётган ко'plab islohotlarda ham demokratik tamoyillar asosidagi fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jaraёнida oliy ta'lim

¹ Alfraganus Universitet Pedagogika fakultet professor (DSc).

² Alfraganus universiteti 1-bosqich magistranti.

tizimida talabalarning mutaxassisligi bo'yicha kasbiy tayèrgarlik sifatini oshirishda pedagoglarning kasbiy kompetentsiyalarini yanada takomillashtirish zarurati ta'kidlab o'tilgan. Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o'rinn egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lism har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lism, uni izchil ravishda oshirib borish zarurligini ko'rsatmoqda. Bu vazifalarni amalga oshirishda ta'lim kontekstida ko'p bosqichli uzviylik, uzluksizlik va izchillik tamoyillariga asoslangan samarali innovatsion modellarni yaratish, pedagoglarning kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirishni taqozo qilmoqda.

Adabiyyotlar tahlili va metodologiyasi

Kompetentlik atamasi «samaradorlilik», «erishish», «muvaqqafiyatlilik», «tushunish», «natijjalilik», «ega bo'lism», «sifat», «miqdor» so'zlari yordamida ta "riflanadi, shu bilan birga ko'pgina mualliflar uni tashxislashdagi qiyinchiliklarni qayd etgan. L. Spenser va M. Spenserlarning ta "kidlashicha, kompetensiyalarning shakllanishi ularni o'lchash va xususiyatlarini aniqlash qiyinchiligi bilan ortga suriladi.

Dj. Raven kompetentlikni biror bir ob'ekt yoki ob'yektlar sinfiga ko'ra biror sohaga tegishliligi bilan baholash kerak - deb hisoblaydi. Natijada ma "lum faoliyatning individual motivatsiyasi jadalligining bahosi hosil bo'ladi. U shaxs kompetentligini biror bir maqsadga erishish uchun faoliyat olib borishi kutilgan holdagina aniqlanishi ma'noga ega bo'ladi - deb tushuntiradi.

Jamiyat talablarini qondirish hozirgi zamon o'qituvchisidan yuqori madaniyat, chuqur ma "naviyat, Vatan uchun javobgarlik hissi, mas'uliyatlilik, chuqur bilimga ega bo'lishi, o'z o'quvchilarining ijodiy potensialini rivojlantirishga pedagogik qiziqishi, innovatsion faoliyatga, o'z ustida ishslashga, kasbiy faollikkka qobiliyatlilik va shu kabi boshqa bir qator sifatlarni talab etadi. Shu sababli, komil shaxsni tarbiyalash masalasi bilan bir qatorda yana bir asosiy masala, ya "ni mutaxassisning kasbiy kompetentligini shakllantirish masalasi bugungi kunda o'ta muhim hisoblanadi. Mutaxassisning kompetensiyalarga ega, ya "ni faoliyatning qaysi usulini egallashi, nimalarni bajara olishi, nimalarga tayyorligini aniqlash – kompetentli yondoshuv deyiladi.

"Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik" ni anglatadi.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishidir. Kasbiy kompetentli o'qituvchi birinchidan, o'quv-tarbiya jarayonida ijodkor ta "lim oluvchilarni shakllantirishga ijobiy ta "sir ko'rsatadi, ikkinchidan, o'z kasbiy faoliyatida ijobiy natijalarga erisha oladi va uchinchidan, shaxsiy kasbiy imkoniyatlarini amalga oshira oladi.

Agar bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirish - pedagogik

muammo sifatida qaralsa, quyidagi ishlarni amalga oshirish zarur:

1. 1.0'qituvchining kasbiy-pedagogik tayyorlash sifatini tubdan oshirish uning mazmuni bilan bevosita bog'liqdir. Pedagogik kadrlar tayyorgarligi sifatini sezilarli darajada oshirish uchun pedagogik va texnik bilimlar sintezini ta'minlash zarur.
2. Pedagogik kompetentlik pedagogik mahorat tushunchasiga bog'liqligini N.V.Kuxarev shunday ta'riflaydi: «Psixologik – pedagogik tayyorgarligidan kelib chiqadigan o'qituvchi shaxsining aniq sifatlarini va pedagogik masalalarini eng samarali usulda yechadigan fazilatlar to'plami».
3. A.K.Markova o'qituvchini kasbiy kompetentlikka ega bo'lgan o'qituvchi deb aytadi, qachonki pedagogik faoliyatini, pedagogik muomalani yetarlicha yuqori darajada oshirsa, yoshlarni o'qitishda va tarbiyalashda yuqori natijalarga erishsa. Kompetentli o'qituvchi o'zining kasbiy bilimlarini, psixologik fazilatlarini o'z mehnatida qo'llashni bilishi kerak.

Hozirgi vaqtida kasbiy kompetentlilikni shakllantirishda o'qitish texnologiyasiga katta e'tibor berilmoqda. Oliy ta'lif muassasalarining professor-o'qituvchilar tarkibi tomonidan ishlab chiqilayotgan va foydalanilayotgan o'qitish texnologiyalari bo'lajak pedagoglar kasbiy kompetentligining qaror topishi va tarbiyalash ta'lif tizimining tarkibiy qismi bo'lib, kasbni egallashning kasbiyahamiyatlari bazasini dastlabki yaratishga, kasbiy faoliyatni yuqori darajada amalga oshirish uchun nazariy, amaliy va motivatsiyali tayyorgarlikning va qodirlikning sekin-asta shakllanishiga yordam beradi.

Bundan tashqari, bo'lajak pedagoglarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarida kompetensiya tushunchasi muhimdir. Kompetensiya - o'z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, shu kun va davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishlashni hamda o'z amaliy faoliyatida qo'llashni talab qiladi. Kompetensiya egasi bo'lgan mutaxassis muammolarni yechishda o'zi o'zlashtirib olgan, aynan shu sharoitga mos metod va usullardan foydalanishni yaxshi bilishi, hozirgi vaziyatga munosib bo'lgan metodlarni tanlab olib qo'llashi, to'g'ri kelmaydiganlarini rad etishi, masalaga tanqidiy ko'z bilan qarashi kabi ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Kompetentlikning asosi qobiliyatlardan iborat bo'lganligi uchun ularning har biri o'z kompetentligiga mos kelishi kerak. Qobiliyatlar eng umumiyo ko'rinishlari bilan kompetensiyaning jismoniy madaniyatdagi, aqliy sohadagi, umumo'quv, amaliy, ijrochilik, ijodiylilik, badiiy, texnik, shu bilan birga pedagogik-psixologik, ijtimoiy va boshqa ko'nikmalariga mos keladi.

TADQIQOT NATIJSASI. Muvaffaqiyatli ishslash uchun har bir o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur. Pedagogik mahoratning asosiy qonuniyati oz mehnat sarf qilib, ulkan natijalarga erishishda ijodkorlik uning hamisha hamrohi bo'ladi. Pedagogik va uning kompetentligiga faoliyatga qiziqqan, qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat hislatlari shakllanib boradi. Pedagogik faoliyat o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy xarakterga ega. O'qituvchi o'quvchi shaxsini shakllantiradi, kutilmagan vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qiladi, pedagogik muammolarni yechadi, o'quv jarayonini mustaqil

boshqaradi.

Yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishning maqsadi, vazifalari, mazmuni, uslubiy talablariga ko'ra fan, texnika va texnologiya yutuqlaridan unumli foydalanish bugungi ta'lim tizimi oldida turgan dolzARB muammolardan hisoblanadi. Ta'limning samaradorligini oshirish, shaxsning ta'lim markazida bo'lismi va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol strategiyalarni biladigan, ulardan o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan mutaxassis o'qituvchilar kerak.

Bu esa o'z navbatida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning samarali shakllari sifatida ma'ruza (muammoli ma'ruza, ma'ruza-seminar, virtual-texnologik ma'ruza, vizual ma'ruza, binar ma'ruza, kirish ma'ruzasi, ma'ruza-konferensiya, axborotli ma'ruza, ma'ruza babs munozara, sharhlovchi ma'ruza, online ma'ruza) trening, videotrening, vebinarlar, internet konferensiyalar, innovatsion o'qitish metodlari sifatida esa muammoli metodlar, interfaol metodlar, amaliy o'yinlar, o'quv loyihalari, portfoliolar, grafik organayzerlar, axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish zaruratini yuzaga chiqaradi.

Oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq etishdagi yana bir muhim komponent - o'qituvchi, uning kasbiy kompetentligi va innovatsion faolligi hisoblanadi. Ta'limda faqat qiziqishga tayanib qolish ham motivatsiyaning asosli samarasi bo'la olmaydi. Bunda eng muhim samarali usul motivatsion-muammoli vaziyatlarni quyish yoki o'rganilayotgan predmetning ijtimoiy mohiyatini aks ettiradigan maxsus bilihga oid vazifalarning qo'yilishidir.

Quyidagilar mutaxassisning pedagogik tayyorlanganligining zarur va yetarli darajasini ta'minlaydigan asosiy talablar hisoblanadi:

1. Dars berish mahorati;
2. Tarbiyalash mahorati;
3. O'quv-tarbiya jarayonida gumanitar omilni ta'minlaydigan shaxsiy sifatlari;
4. Ta'lim oluvchilarning bilimlarini xolisona nazorat qilish va baholash mahorati

Dars berish mahorati:

Kasbiy layoqat va eruditsiya;

Psixologik-pedagogik tayyorgarlik;

Ta'lim oluvchilarni mustaqil fikrlesh va yangi bilimlar olishga o'rgatish mahorati;

O'quv adabiyotlari shakllari va turlarini bilih;

Yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini egallanganlik, internetning global tarmog'i bilan ishlash bo'yicha amaliy ko'nikmalar;

Pedagog kadrlar malakasini oshirishning asosiy shakllarini bilih;

Ilmiy-pedagogik ijodiyot metodologiyasini bilih;

Pedagogika fani va sohasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini bilih; Fanlararo aloqalardan foydalanish mahorati;

Ritorika va notiqlik san'ati asoslarini bilih.

XULOSA. Tarbiyalash mahorati-o'qitish va tarbiyalash jarayonining bog'liqligi,

14

uyg'un rivojlangan shaxsni shakllantirishga, ularda yuksak madaniy va ma'naviy saviyasi qaror toptirishga, pedagogning yuksak shaxsiy sifatlariga. Uning vatanparvarlik, obro' va burchni his etishga, keng gumanitar va gumanistik tayyorligiga, shuningdek o'quvchilar o'rtasida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning amaliy ko'nikmalariga asoslanadi. Pedagogning o'quv-tarbiyaviy jarayondagi gumanitar omilni belgilaydigan shaxsiy sifatlariga quyidagilar kiradi: talabchanlik, haqqoniylilik, halollik, mehribonlik, xushmomalalik.

Ushbu sifatlar pedagogning ta'lism oluvchilar uchun ahamiyatini belgilashi kerak. Shaxsiy sifatlar o'qitish va tarbiyalash mahoratiga ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim oluvchilarning bilimlarini ularning kasbiy kompetentligini xolisona nazorat qilish va baholash mahorati-psixologik pedagogik jihatdan o'qitish va tarbiyalash mahorati bilan uzviy bog'liqdir. Pedagog ta'lim oluvchilarning bilimlari va mahoratlarini xolisona baholash prinsiplari, metodlari va mexanizmlarini bilishi, standartlashtirilgan testlarni ishlab chiqish, ta'lim oluvchilarning o'zlashtirishini nazorat qilishning turli shakllarini samarali qo'llash mahoratiga ega bo'lishi kerak.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Большакова З.М., Тулькибаева Н.Н. Компетенции и компетентность // Вестник ЮУрГУ. - 2009.
2. Булавенко О.А. Характеристики компетентности специалиста // Проф. образование. - 2005.
3. Kuznetsova N.P. - O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi DTSlari talabalarini amalga oshirish sharti sifatida. M. 2003. 4. Muslimov N.A. Kasbiy ta'lism o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariyemetodik asoslari: Ped. fanl. dokt. ... diss. T.: 2007.
5. Хуторской А.В. Компетентностный подход в обучении. Научно-методическое пособие. -М., Издательство «Эйдос», 2013. -73 стр
6. G"ulomov. X.R. Raimov. va boshqalar. "Ta'lism-tarbiya sifati va qirralari". T; «Fan va texnologiyalar». 2004.



Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

BO'LAJAK PEDAGOGLarda KASBIY REFIEKSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDOGAGIK IMKONIYATLARI

Xalilova Nargiza¹

Irgasheva Indira²

Alfraganus universiteti

KEYWORDS

kasbiy refleksiya, bo'lajak pedagog, pedagogik imkoniyatlari, refleksiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, mentorlik, pedagogik amaliyat, o'zini baholash, ta'lim sifati, professional rivojlanish.

ABSTRACT

Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarda kasbiy refleksiyanı rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Kasbiy refleksiya o'qituvchining o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilish, xatolar ustida ishlash va kasbiy o'sishga yo'naltirilgan strategiyalarni ishlab chiqish qobiliyatini shakllantiradi. Tadqiqotda refleksiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, mentorlik tizimi hamda pedagogik amaliyat jarayonida o'zini baholashning ahamiyati ko'rib chiqiladi. Bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy refleksiyasini rivojlantirish ta'lim sifati va pedagogik mahoratni oshirishda muhim omil ekanligi ta'kidlanadi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.1496203](https://doi.org/10.5281/zenodo.1496203)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Kirish

Hozirgi kunda ta'lim tizimida o'qituvchilar faqat bilim beruvchilar sifatida emas, balki o'quv jarayonining samarali tashkilotchilari, motivatorlar va ilmiy-amaliy faoliyatni rivojlantiruvchi mutaxassislar sifatida ham faoliyat yuritishlari kerak. Buning uchun pedagoglarning kasbiy rivojlanishi va o'z ustida ishlashlari zarur. Kasbiy refleksiya – bu pedagogning o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va o'zgarishlarga tayyor bo'lish qobiliyatidir. Bu jarayon, o'qituvchilarni nafaqat o'z pedagogik metodlarini yaxshilashga, balki o'z-o'zini baholashga va kasbiy o'sishga ham yordam beradi.

Bo'lajak pedagoglarda kasbiy refleksiyanı rivojlantirish – ta'lim tizimining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadigan muhim jarayonlardan biridir. O'qituvchilar kasbiy refleksiya orqali nafaqat o'z faoliyatini tahlil qilib, yutuqlarini baholash, balki kelajakda qanday yo'nalishda o'sishni rejalashtirishlari mumkin. Ushbu maqolada kasbiy refleksiyanı rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari, shu jumladan refleksiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, mentorlik va amaliyat jarayonida o'zini baholash kabi usullar haqida so'z

¹ Alfraganus Universitet Pedagogika fakultet professor (DSc).

² Alfraganus universiteti 1-bosqich magistranti.

yuritiladi. Bu jarayonlarning har biri pedagogning professional o'sishini ta'minlash va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili

Bo'lajak pedagoglarda kasbiy refleksiyani rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika va psixologiyada keng o'rganilayotgan muhim yo'naliishlardan biridir. Ushbu bo'limda mavzu bo'yicha mavjud ilmiy manbalar, tadqiqotlar va nazariy qarashlar tahlil qilinadi.

Kasbiy refleksiya ta'lim jarayonida o'qituvchining o'z faoliyatini anglash, tahlil qilish va doimiy takomillashtirish jarayoni sifatida tavsiflanadi (Dewey, 1933; Schön, 1983). Dewey refleksiv tafakkurni tajriba asosida shakllanuvchi ongli jarayon deb hisoblagan bo'lsa, Schön uni kasbiy rivojlanishning asosiy omili sifatida ko'rsatadi.

Zamonaviy tadqiqotlarda (Brookfield, 1995; Korthagen, 2004) kasbiy refleksiya o'qituvchilarning pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshirish vositasi sifatida qaraladi. O'zbek olimlari orasida G'. Abdurahmonov (2020), R. Yo'ldoshev (2018) kabi tadqiqotchilar refleksiya jarayonining milliy ta'lim tizimidagi o'rnini va uni rivojlantirish yo'llarini o'rganishgan.

Pedagogik adabiyotlarda kasbiy refleksiyani rivojlantirish uchun qo'llaniladigan usullar quyidagicha tasniflanadi: Portfolio usuli (Bailey, 2012) – o'qituvchining shaxsiy rivojlanishini tizimli ravishda baholash va tahlil qilishga yordam beradi. Refleksiv kundaliklar (Moon, 2004) – pedagogik faoliyat jarayonidagi tajribalardan xulosa chiqarish imkonini beradi. Muammoli ta'lim (Vygotsky, 1978) – o'quvchilarning mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish orqali pedagogik refleksiyani kuchaytiradi.

Ushbu metodlarning amaliy qo'llanilishi bo'yicha tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak pedagoglarning kasbiy refleksiyasini rivojlantirishda interfaol usullardan foydalanish samaradorligi yuqori bo'ladi (Kolb, 1984; Loughran, 2006). Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi bilan refleksiyani shakllantirish usullari ham kengaymoqda. Masalan, Onlayn blog va veb-portfolio tizimlari (Liu, 2017) o'qituvchilarga o'z fikrlarini tahlil qilish va baham ko'rish imkoniyatini beradi. Videotahlil texnologiyalari (Tripp & Rich, 2012) o'qituvchilarga o'z darslarini yozib olib, ularni tahlil qilish va yaxshilash imkonini yaratadi.

O'zbekiston kontekstida bu texnologiyalarning ta'lim jarayoniga joriy etilishi bo'yicha tadqiqotlar hali to'liq shakllanmagan bo'lsa-da, ayrim universitetlarda bu usullar sinovdan o'tkazilmoqda.

Mentorlik tizimi kasbiy refleksiyani rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi (Hobson et al., 2009). Mentor va yosh o'qituvchi o'rtasidagi muloqot kasbiy rivojlanish jarayonida tajriba almashish va tahliliy fikrlashni rag'batlantiradi. O'zbek olimlari orasida mentorlik tizimi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar kam bo'lsa-da, X. Mahmudov (2021) bu jarayonning pedagogik ta'limdagi ahamiyatini yoritgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kasbiy refleksiya bo'lajak pedagoglarning o'z ustida ishslash qobiliyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Uning samarali shakllanishi

uchun innovatsion texnologiyalar, refleksiv metodlar, mentorlik tizimi va o'z-o'zini baholash vositalari muhim omillar sifatida ko'rilmoxda. Kelgusida bu yo'nalishda aniq eksperimental tadqiqotlar o'tkazish va milliy ta'lim tizimi uchun moslashtirilgan modelni ishlab chiqish zarur.

Bo'lajak pedagoglarda kasbiy refleksiyani rivojlantirish ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u o'qituvchilarining o'z faoliyatini doimiy ravishda tahlil qilish va takomillashtirish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Ushbu bo'limda kasbiy refleksiya mohiyati, uning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar va uni shakllantirishning samarali pedagogik strategiyalari yoritiladi.

Kasbiy refleksiya – bu pedagogning o'z faoliyatini ongli ravishda tahlil qilishi, o'zining kasbiy rivojlanish jarayonini nazorat qilishi va pedagogik jarayondagi muvaffaqiyatlar hamda kamchiliklarni aniqlashi jarayonidir. Dewey (1933) va Schön (1983) fikriga ko'ra, refleksiv tafakkur o'qituvchining kasbiy mahoratini oshirishning asosiy omillaridan biridir.

Kasbiy refleksiya quyidagi asosiy jihatlarni qamrab oladi:

O'z-o'zini baholash – pedagog o'zining bilim va ko'nikmalarini obyektiv baholaydi.

Faoliyatni tahlil qilish – o'qituvchi o'z pedagogik uslublari va dars jarayonining samaradorligini ko'rib chiqadi.

Kelajak uchun rejalashtirish – o'qituvchi pedagogik strategiyalarini takomillashtirish bo'yicha xulosalar chiqaradi.

Kasbiy refleksianing rivojlanishiga bir nechta pedagogik va tashkiliy omillar ta'sir ko'rsatadi:

Kasbiy refleksiya bo'lajak pedagoglarning professional rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Uning samarali shakllanishi uchun refleksiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, mentorlik tizimi va pedagogik amaliyot jarayonida o'zini baholash usullari muhim rol o'ynaydi. Ta'lim muassasalari kasbiy refleksiya jarayonlarini tizimli ravishda rivojlantirishga e'tibor qaratishlari lozim.

Xulosa

Bo'lajak pedagoglarda kasbiy refleksiyani rivojlantirish – ta'lim sifati va o'qituvchining professional o'sishini ta'minlovchi muhim omillardan biridir. Kasbiy refleksiya pedagoglarga o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolar ustida ishslash, o'z-o'zini baholash va ta'lim jarayonini takomillashtirish imkonini beradi.

Tadqiqot davomida quyidagi muhim xulosalar chiqarildi:

1. Kasbiy refleksiya tushunchasi pedagogning o'z kasbiy faoliyatini ongli ravishda baholashi va kelajakdagisi rivojlanish yo'nalishlarini belgilashiga asoslanadi.
2. Refleksiyani rivojlantirish omillari orasida innovatsion ta'lim texnologiyalari, mentorlik tizimi, interfaol metodlar va muammoli ta'lim yondashuvlari muhim rol o'ynaydi.
3. Refleksiyani shakllantirish usullari sifatida portfolio yuritish, refleksiv kundaliklar yozish, videotahlil, mentorlik va teskari aloqa tizimlaridan foydalanish samarador ekani aniqlandi.
4. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish pedagoglarga o'z darslarini tahlil qilish va

kasbiy rivojlanishlarini kuzatish imkoniyatini yaratadi.

5. Mentorlik tizimi va hamkasblararo muloqot pedagoglarning reflektiv ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali bo'lishi aniqlangan.

Shunday qilib, kasbiy refleksiyani rivojlantirish bo'lajak pedagoglarning o'z kasbiy faoliyatini ongli ravishda boshqarishlariga, ta'lim jarayonini takomillashtirishlariga va natijada samarali o'qituvchi bo'lishlariga yordam beradi. Ushbu jarayonni tizimli ravishda amalga oshirish uchun ta'lim muassasalarida reflektiv metodlarni qo'llash, mentorlik tizimini yo'lga qo'yish va innovatsion texnologiyalardan foydalanish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O'zbekiston Respublikasining Ta"lim to„g„risidagi Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ637-son.

2. Байденко В.И. Выявление состава компетенций выпускников вузов как необходимый этап

проектирования ГОСВПО нового поколения. - М. - 2006. - 72 с

3. Ларионова Г. А. Компетенции в профессиональной подготовке студентов вузов: знания,

действия, деятельность, самоопределение: монография. - Челябинск. - 2004. - 171 с.

4. Diyora, A. (2025). GENDER EQUALITY AND SOCIAL DEVELOPMENT. Новости образования: исследование в XXI веке, 3(30), 60-62.

5. Ахназарова, Д. Э. (2023). TALABALARDA IJODKORLIK QOBILIYAT XUSUSIYATLARINI NAMOYON BO 'LISHINING O 'ZIGA XOS PSIXOLOGIK JIHATLARI: Axnazarova Diyora Erkin qizi Guliston Davlat Universiteti stajortadqiqotchisi. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал,(8), 96-99.



Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

BO'LAJAK PEDAGOGLARNI INNAVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHDA TAJRIBA ALMASHISHNING ILMIY METODIK ASOSLARI VA USULLARI

Rizayeva Gulnara¹

Abdukarimova Munisa²

Alfraganus universiteti

KEYWORDS

bakalavrlar tayyorlash,
o'qituvchining kasbiy standarti,
modernizatsiya.

ABSTRACT

Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarni innovatsion ta'lrim texnologiyalari asosida rivojlantirish jarayonida tajriba almashishning ilmiy-metodik asoslari va usullari tahlil qilinadi. Innovatsion ta'lrim texnologiyalari o'qitish samaradorligini oshirish, interfaol yondashuvlarni rivojlantirish va pedagogik jarayonni takomillashtirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda tajriba almashishning zamонави shakllari, jumladan, onlayn va oflays seminarlar, vebinarlar, amaliy treninglar, mentorlik va hamkorlikdagi loyiҳalar tahlil qilinadi. Shuningdek, pedagogik innovatsiyalarni amaliyotga joriy etish va ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-metodik yondashuvlar yoritiladi. Mazkur tadqiqot natijalari bo'lajak pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish va ularning innovatsion kompetensiyalarini shakllantirishga ko'mak beradi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.14962180**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Mamlakatimizda ta'limga rivojlantirishning maqsadli dasturiga muvofiq ta'limga tizimii modernizatsiyalash, kadrlarni qayta tayyorlash, o'quv jarayonini axborotlashtirish, axborot makonlarini yaratish kabilarni amalga oshirish zarur. Sanab o'tilgan talablar yangi milliy ta'limga tizimining shakllanishiga, inson kapitalining rivojlanishiga, mamlakatimiz iqtisodiyotining mustahkamlanishiga olib keladi. Pedagog kadrlarning bilimlarini, kompetensiyalarining doimiy yangilash va butun ta'limga tizimini takomillashtirish uchun shart-sharoitlarni yaratish lozim. Ta'limga jarayoniga innovatsion texnologiyalarning joriy qilinishi ta'limga oluvchilarni dolzarb pedagogik bilimlar bilan ta'minlash uchun o'z kasbiy faoliyatiga yangi yondashuvlarni olib kirish va ularni o'zlashtirishi darajasining ortishiga

¹ Alfraganus universitet Pedagogika fakultet "Pedagogika va psixologiya" kafedrasini dosenti, (PhD).

² Alfraganus universiteti 1-bosqich magistranti

imkon beradi. Ta'lim tizimini modernizatsiyalash ta'lim oluvchilarning ham ta'lim olish faoliyatidagi o'zgarishlarni ko'rsatadi [1].

Axborot jamiyatida o'qituvchilarning maqomi va rolini o'zgartirish zarurati, kasbiy tayyorgarlik sifatining pasayishi, o'qituvchilik kasbini egallashning yangi usullari va vositalarini ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lgan o'qituvchilar ta'limini modernizatsiya qilish muhim tarkibiy tuzilmalarga olib keldi va mamlakatimizda pedagogik ta'lim tizimidagi mazmunli o'zgarishlar. Bu birinchi navbatda, zamonaviy o'qituvchining yangilangan qiyofasini shakllantirishda namoyon bo'ldi. Universal professional, professional mobil, fan bo'yicha nafaqat yuqori sifatlari tayyorgarlik ko'rishga, balki mustaqil o'qishga, yangi fan yo'nalishlarini o'zlashtirishga va harakat usullari va ta'lim jarayonining turli ishtirokchilari bilan samarali o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yadi.

Shunday ekan, bugungi kunda ta'lim jarayonida ishlab chiqilgan so'ngi umumiyligi ta'lim dasturlari orqali o'quv jarayonini loyihalash va amalga oshirish bo'yicha faoliyatning birinchi turi pedagogik funktsiya kabi mehnat funktsiyalarini birlashtiradi. Ushbu maqolada bizning ko'rib chiqish ob'ektimiz ta'lim va rivojlantirish faoliyati hamda ularning alohida komponentlaridan iborat.

Ta'lim faoliyati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- mehnat faoliyatini (zamonaviy amalga oshirish, shu jumladan sinfda va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quv-tarbiyaviy ishlarning interfaol, shakllari va usullari;
- talabalarda rivojlanish kognitiv faollik, mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik va boshqalar);
- zarur ko'nikmalar (o'quv guruhlarida talabalarning turli yoshdagi bolalarkattalar jamoalarini tashkil etish);
- zarur bilimlar (ta'lim metodologiyasi asoslari).

Xususan, ta'lim tizimida qabul qilingan eng muhim hujjalardan biri bu – yangi tahrirdagi "**Ta'lim to'g'risida**"gi qonunning qabul qilinishi bo'ldi. Mazkur qonunga asosan ta'lim sohasidagi asosiy printsiplar, ta'lim tizimi, turlari va shakillari aniq belgilab qo'yildi.

Belgilab berilgan printsiplar asosida hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o'quv jarayonida qo'llashga bo'lган qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari izlanishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanish, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchlik funksiyasini bajaradi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida ishlashda o'qituvchida innovatsion faoliyat haqida tushuncha bo'lishi kerak. Mohiyatiga ko'ra innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi takomillashtirilgan mahsulotni yaratishdan iborat. Pedagogning innovatsion faoliyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- yangilikni qo'llashga tayyorligi;
- pedagogik yangiliklarni qabul qilishi;
- novatorlik darajasi;
- kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi;
- ijodkorligi;
- tashabbuskorligi.

Talaba o'qituvchi orqali o'zlashtirgan ma'lumotlarni takrorlash, musraqil fikrlash va original manbalarni o'rganish hamda hayotiy tajribalarga haqiqiy vazifalarga asoslanib faoliyat yuritishga ko'nikma hosil qila olishi kerak. Davlat ta'lim standartining yangi avlodini joriy etish talaba va o'qituvchini "umr bo'yi ta'lim" modelini shakllantirishga asoslanadi. Ushbu kontseptsiya hayot davomida o'rganish zarurligini ko'rsatadi, doimiy va izchil faoliyat yuritishga asoslanadi. Har bir talaba ma'lum bir kompetentsiyaga ega bo'lishi kerak, keyingi hayot va kelajakdagi rivojlanish uchun zarur. Professor S.P. Baranov o'zining 1981 yilda yozgan "O'quv jarayonining mohiyati" asarida eng muhim vazifalar ekanligini ta'kidlaydi. O'qitishda tinglovchilarda olingan bilimlarni hayotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish, shaxsni muayyan jamiyatda hayotga tayyorlash kerakligini ta'kidlaydi [2].

Yangiliklar yoki innovatsiyalar har qanday kasb inson faoliyatiga xosdir va shuning uchun tabiiy ravishda o'rganish, tahlil qilish va amalga oshirish ob'ektiga aylanadi. Innovatsiyalar o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, ular alohida o'qituvchilar va butun jamoalarning ilmiy izlanishlari, ilg'or pedagogik tajribasi natijasidir. Bu jarayon o'z-o'zidan bo'lishi mumkin emas, uni boshqarish kerak.

Pedagogik jarayonga kelsak, innovatsiya deganda o'qitish va tarbiyalashning maqsadlari, mazmuni, usullari va shakllariga yangi narsalarni kiritish, o'qituvchi va talabaning birlgiligidagi faoliyatini tashkil etish tushuniladi.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritishdir. Innovatsion texnologiyalardan foydalanishda o'qituvchiga quyidagi bilimlarni bilish taqazo etiladi:

- AKT bo'yicha bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lish;
- YaPT (yangi pedagogik texnologiya) bo'yicha xorijiy tajribalardan bohabar bo'lish;
- Ta'lim jarayonini tashkil etishda didaktik o'yinlardan, interfaol usullardan foydalanish mahorati;
- Ilg'or pedagogik texnologiya bo'yicha bilimlarni o'zlashtirib borish;
- Bilimlarni ko'nikma va malakalarga aylantirish texnologiyasi shakllangan bo'lishi;
- Dars jarayonida harakatli o'yinlardan unumli foydalana bilishi;
- Imkon bo'lsa darsni internet tarmog'iga bog'lab o'ta bilishi;
- O'z ustida tinmay ishlashi, har sohaga oid yangiliklarni kuzatib borishi va boshqalar.
- O'qituvchi innovatsion texnologiyalarga asoslanib darsni tashkil etar ekan, turli texnik vositalardan ham (kampyuter, proyektor, elektron doska va hokazo) foydalanishi mumkin.

O'qituvchining faoliyatida innovatsiyalar qanchalik ko'p bo'lsa, mazmun shunchalik oshadi. Ta'linda innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar haqidagi tasavvurlar barqaror va mukammal shaklga ega emasligini ham e'tirof etish kerak. Har bir o'qituvchi ta'limga individual tarzda yangilik kiritishi mumkin. Innovatsion texnologiyalar o'qituvchi o'z faoliyatidan qoniqmaslikdan kelib chiqadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh mezoni o'sib kelayotgan avlodni yuksak ma'naviyatli, intelektual salohiyati baland, har tomonlama yetuk shaxsni tarbiyalash hamda mamlakatimiz kelajagini yanada yuksaltiradigan, o'zbek elining dong'ini jahonga taratadigan, g'oyatda intelektual, manan barqaror yosh malakali kadrlarni yetishtirib borishdir.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati, uzlusiz ta'lim tizimi orqali shaxsnинг har tomonlama barkamol bo'lib yetishini ko'zda tutadi. Bunda shaxs uzlusiz ta'linda va kadrlar tayyorlashda ta'lim xizmatlarining iste'molchisi hamda ishlab chiqaruvchisi sifatida namoyon bo'ladi. Shunday ekan bu iste'molchi hamda ishlab chiqaruvchisi bo'lmish yosh avlodning ertangi kunini belgilab beruvchi bilim va ko'nikmalari, o'z navbatida malakali pedagog-o'qituvchilar tomonidan qiziqarli dars mashg'ulotlari, dunyo bilim va ko'nikmalariga javob bera oladigan oliy ta'lim sifati yanada intelektual bilimlar bilan boyitilib borishi hamda ijtimoiy-gumanitar fanlar orqali mu^ahkamlanib bormog'i lozimdir. Avvalombor, qiziqarli dars mashg'ulotlari bo'lajak pedagog yoshlarda o'z faniga hamda kasbiga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi va dars mashg'ulotlariga bo'lgan faol tushunchalar, tajribalar hamda salohiyatni kuchaytiradi. Bu esa ular kelajagiga qo'yilgan ilk qadamlari bo'ladi desak mubolag'a bo'lmas edi. O'sib kelayotgan yosh avlodga bugungi kunda qanchalik e'tibor va ahamiyat qaratadigan bo'lsak mamlakatimizda shu darajada ilmiy yuksalish kuzatiladiki, biz buni hozirgi rivojlanib borayotgan fan-texnika jarayonlarida va barcha sohalarda yaqqol namoyon bo'lganligini ko'ra olamiz desak, fikrimizning yorqin dalili bo'lar edi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yanada ilg'or va manan barqaror yosh avlodimiz ertangi kuni yuksak ma'naviyatini salmoqli darajada boyituvchi shaxs pedagoglardi. Shuningdek, bu borada birgalikdagi harakat yoshlarimizning barkamol inson bo'lib voyaga yetishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqil davlatda ta'lim tizimini shakllantirish va rivojlantirish, millatning taqdiri va istiqbolini ta'minlash kabi jiddiy muammolarni hal qilishning ilmiy asoslari va amaliy yo'llarini yaratishda buyuk ajdodlarimizning ibratli ishlari, ta'limotlarini hayotimizga tadbiq etish taqazo etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Baranov S.P. O'quv jarayonining mohiyati. - M., 1981. - 143 b.
2. Azizzxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.: TDPU. 2006 y.
3. Madyarova S. A. va boshq. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.- T.: IQTISOD-MOLIYA, 2009, 240 b.
4. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. -T.: "Moliya" nashriyoti, 2003 y. - 171 b.
5. Ахназарова, Д. Э. (2023). TALABALARDA IJODKORLIK QOBILIYAT XUSUSIYATLARINI

NAMOYON BO 'LISHINING O 'ZIGA XOS PSIXOLOGIK JIHATLARI: Axnazarova Diyora Erkin qizi Guliston Davlat Universiteti stajor-tadqiqotchisi. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*,(8), 96-99.

6. Diyora, A. (2025). GENDER EQUALITY AND SOCIAL DEVELOPMENT. Новости образования: исследование в XXI веке, 3(30), 60-62.

BO'LAJAK PEDAGOGLARNI INNAVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHDA TAJRIBA ALMASHISHNING ILMIY METODIK ASOSLARI VA USULLARI

Rizayeva Gulnara¹

Abdukarimova Munisa²

Alfraganus universiteti

KEYWORDS

texnologiya, innovatsion,
konsepsiya, manbalar,
tashkiliy, metodik, psixologik,
pedagogik jamoalar,
parametrlari, innovasiyon
o'qitish.

ABSTRACT

Innovatsion faoliyat-pedagogning o'z kasbini takomillashtirishdagi mavjud shakl va vositalarni egallashga ijodiy yondashuvini nazarda tutadi. Ta'limgagi innovatsiyalar va innovatsion faoliyat haqida barqaror, hammaga ma'qul bo'lgan ilmiy tasavvurlar va innovatsion pedagogik faoliyat haqida barqaror va hammaga ma'qul bo'lgan ilmiy tasavvurlarr tasniflar shu paytgacha mukammal tarkib topgan emasligini ham e'tirof etish lozim.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.1496227](https://doi.org/10.5281/zenodo.1496227)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Bugungi kunda har bir soha va tizim faoliyatini innovatsion g'oyalar va texnologiyalar asosida olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan mavzuga kirishishdan oldin «innovatsiya» so'zining ma'nosiga biroz to'xtalishni lozim topdik. Innovatsiya tushunchasi (lotincha novus yangi) tadqiqotlarda va ilmiy ishlarda XIX asrlarda qo'llanila boshlagan. Avval u alohida elementlarni bir sohadan boshqa sohaga kiritishni ifodalagan. Texnikaviy yangiliklar kiritish qonuniyatlarini o'rganib firmalar foyda olish uchun «innovatsion siyosatni» butun bir tizim sifatida o'zlashtirishdi. Mazkur faoliyat jamiyat hayotining ixtiyoriy bo'g'inini yangilash bo'yicha umumiyl belgilarga, qonuniyatlar, yangilik kiritish mexanizmiga ega. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayonda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar ta'lif jarayonida qatnashayotgan har bir o'quvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi.

Bu usullardan foydalanganda bilim olish o'quvchi uchun qiziqarli mashg'ulotga aylanadi. Interfaol usullar qo'llanilganda o'quvchilar o'qituvchilar yordami va hamkorligida mustaqil ishlash ko'nikma va malakalariga ega bo'ladilar. O'quvchilar yangi bilimlarni ilmiy

¹ Alfraganus universitet Pedagogika fakultet "Pedagogika va psixologiya" kafedrasи dosenti, (PhD).

² Alfraganus universiteti 1-bosqich magistranti

izlanish, tadqiqotchilik, tajriba sinovlar o'tkazish asosida o'zlashtiradilar. Ilm orqali bilim olish tamoyiliga amal qilinadi. Ta'lif jarayoni qatnashchilari kichik guruhlarga bo'lingan holda ishlaydilar. O'quv topshiriqlari alohida bir o'quvchiga emas, balki kichik guruhning barcha a'zolariga beriladi. O'qitish jarayonini tashkil etishning asosiy shakli darsdir.

Hozirgi paytda darsning xil noan'anaviy shakllari joriy etilmoqda. Bunday darslar o'quvchining ijodiy qobiliyatini o'stirish, aqliy salohiyatini kuchaytirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish va har bir yangilikni tez va to'la qabul qila olish ko'nikma va malakalarining shakllanishiga xizmat qiladi. Dars jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarda ilmiy izlanishga qiziqishni uyg'otadi, ijodkorlik va bunyodkorlik qibiliyatini rivojlantiradi. Natijada egallangan bilim, ko'nikma va malakalar amaliy faoliyatda tatbiq etiladi, o'zlashtirish sifati oshadi. Buning uchun o'qituvchi mahoratlari bo'lishi va mavzularning mazmuniga qarab darsni to'g'ri rejalshtirishi, mashg'ulot davomida barcha o'quvchilarni faol va ongli ishlashlariga erishmog'i lozim.

Pedagogik innovatsiya bu pedagogik g'aoliyatdagi yangilik, o'qitish va tarbiya mazmuni va texnologiyasidagi o'zgarishlar, ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan. Innovatsiya - innovatsiya natijasi sifatida tushuniladi va innovatsion jarayon uchta asosiy bosqichning rivojlanishi sifatida qaraladi: g'oyani yaratish (ma'lum bir holatda, ilmiy kashg'iyot), amaliy jihatlarda g'oyalarni rivojlantirish va yangiliklarni amaliyotga tatbiq etish.

Pedagogik innovatsiyalab samaradorligining o'lchovi sifatida optimallik o'qituvchi va o'quvchilarning kafolatlangan natijaga erishishi uchun kuch-quvvat sarflashlarini taqozo etadi. Turli o'qituvchilar va o'quvchilar o'zlarining shaxsiy pedagogik hamda o'quv faoliyatlari jarayonida turlicha darajadagi samaradorlikka

Bundan tashqari, xususiy, to'g'ri pedagogik (masalan, uslubiy) yangiliklarning samaradorligi, agar ular ijtimoiypedagogik rejada qo'llab-quvvatlanmasa, qo'llab-quvvatlanmasa, ancha past bo'ladi. Shunday qilib, xususiy innovatsiyalar va ijtimoiy-pedagogik yangiliklarni qo'llabquvvatlovchi ijtimoiy-pedagogik kontekstni yaratish ham, ma'lum hajm, miqyos va daraja umuman mintaqaviy ta'lif tizimini rivojlanishini sezilarli darajada kuchaytirishi mumkin.

Yuqoridagilardan tashqari har qanday innovatsion jarayonda yangiliklarni yaratish va yangiliklardan g'oydalanish (o'zlashtirish) kabi tuzilmalarni ko'rish oson; bir-biri bilan bog'liq bo'lgan mikroinnovatsion jarayonlardan iborat bo'lgan butun matabning rivojlanishi asosida yotadigan murakkab innovatsion jarayon.

O'qituvchilarda ijodkorlikni shakllantirishning muhim pedagogik sharti uni mustaqil bilim olish va ijodiy fikirlashga yónaltirishdan iborat. Shu bilan bir qatorda, o'qituvchilar orasida ijodiy muhit, muayyan ma'naviy-ruhiy holat, tashkiliy, metodik, psixologik chora-tadbirlar qo'llashga ham alohida e tibor qaratish lozim. erishadilar. Xuddi mana shuning o'zi pedagogik innovatsiyalarning optimallik darajasini belgilaydi.

Innovatsion usullarning eng muhim belgisi sifatida natjalanganlik o'qituvchi faoliyatida ijobjiy yutuqlarga erishilgandagina namoyon bo'ladi. O'lchovlarda texnologiklik, kuzatuvchanlik, natjalarning qayd etilganligi o'qitishning yangi usullari,

metodlarini baholash orqali namoyon bo'ladi. Mazkur o'lchovning ahamiyatli jihat shaxs, uning idroki va tushunchalarini shakllantirishning bir butunligida namoyon bo'ladi. Shu munosabat bilan innovatsion jarayonni ilmiy g'oyani amaliy foydalanish bosqichiga olib chiqish va shu bilan bog'liq ijtimoiy pedagogik muhitdagi o'zgarishlarni amalga oshirish jarayoni deb hisoblash mumkin. G'oyalarning innovatsiyaga aylanishini ta'minlaydigan va bu jarayonni boshqarish tizimini shakllantiradigan faoliyat bu innovatsion faoliyatdir. Innovatsiya jarayoni rivojlanish bosqichlarining yana bir o'ziga xos xususiyati mavjud. Pedagogik tajribada pedagogik innovatsiyalarni ijodiy qo'llash alohida o'qituvchilar ish faoliyatining boshlang'ich bosqichida namoyon bo'ladi.

Pedagogik innovatsiyalarning mazmuni, uni qo'llash metodlarini bo'lajak o'qituvchilar tajribasiga singdirish muhim ahamiyatga ega. Ta'lim muassasasi hayotiga pedagogik innovatsiyalarni keng ko'lamma olib kirish uchun unda yangilik muhitini yaratish, muayyan axloqiy psixologik holatni shakllantirish, tashkiliy, metodik, psixologik xarakterdagi choratadbirlarni kullash talab etiladi. Shu maksadda bulajak ukituvchilarning kreativ funksiyalarini rivojlantirish, ularni pedagogik innovatsiyalar bilan izchil kurollantirib borish, innovatsion usullarni tahlil va tatbiq qilishga o'rgatish vazifasini kuyish lozim.

Pedagogika fanida ta'lim tizimidagi yangilik masalalari muttasil mutaxassislar tomonidan o'r ganilib kelinmoqda. Biroq, ijtimoiy-pedagogik yangiliklar mintaqaviy ta'lim tizimini rivojlantirish omili sifatida, bir tomondan, nisbatan yaqinda tez rivojlanayotgan ijtimoiy pedagogika fan va amaliy faoliyat sohasi sifatida nisbatan yaqinda paydo bo'lganligi sababli, boshqa tomondan, ta'limni markazsizlashtirish va mintaqalashtirishning ijtimoiy tendensiyasining nisbiy yangiligi bilan bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Baranov S.P. O'quv jarayonining mohiyati. - M., 1981. - 143 b.
2. Azizzxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.: TDPU. 2006 y.
3. Madyarova S. A. va boshq. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.- T.: IQTISOD-MOLIYA, 2009, 240 b.
4. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. -T.: "Moliya " nashriyoti, 2003 y. - 171 b.
5. Ахназарова, Д. Э. (2023). TALABALARDA IJODKORLIK QOBILIYAT XUSUSIYATLARINI NAMOYON BO 'LISHINING O 'ZIGA XOS PSIXOLOGIK JIHATLARI: Axnazarova Diyora Erkin qizi Guliston Davlat Universiteti stajor-tadqiqotchisi. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал,*(8), 96-99.
6. Diyora, A. (2025). GENDER EQUALITY AND SOCIAL DEVELOPMENT. Новости образования: исследование в XXI веке, 3(30), 60-62.



Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

"OLIY O'QUV YURTLARIDA UZLUKSIZ MA'NAVIY TARBIYA TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH"

Xalilov Farxod¹

Ismoilova Dinoraxon²

Alfraganus universiteti

KEYWORDS

uzluksiz ma'naviy tarbiya, oliy ta'lif, pedagogik texnologiyalar, axloqiy tarbiya, innovatsion yondashuvlar, ma'naviy rivojlanish, interfaol metodlar, tarbiyaviy tizim, ijtimoiy loyihalar, ma'naviyat darslari.

ABSTRACT

Ushbu maqolada oliy o'quv yurtlarida uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimini takomillashtirish masalasi tahlil qilinadi. Talabalarning ma'naviy rivojlanishini ta'minlash, ularning axloqiy va madaniy qadriyatlarini mustahkamlash oliy ta'lif tizimining muhim vazifalaridan biridir. Tadqiqotda uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimining nazariy va amaliy asoslari, uni rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning roli yoritiladi. Shuningdek, oliy o'quv yurtlarida ma'naviy tarbiyani takomillashtirish bo'yicha samarali usullar – interfaol metodlar, ma'naviyat darslari, tarbiyaviy tadbirlar va ijtimoiy loyihalardan foydalanish muhimligi ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqot natijalari oliy ta'lif muassasalarida ma'naviy tarbiya jarayonini tizimli tashkil etish va uni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.14962329**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Innovatsion jamiyatning o'ziga xos xususiyati o'zida har xil yosh kategoriyasidagi insonlar bilimini doimiy tizimli ravishda to'ldirib borish va kengaytirishni ta'minlaydigan hayot davomida va bosqichma-bosqich jarayondan iborat bo'lgan uzluksiz ta'lif – tarbiya hisoblanadi. Uzluksiz ta'lif – tarbiyaning maqsadi bilimlar iqtisodiyotining innovatsion rivojlanish bo'g'ini sifatida insonning o'zgarishlarga va iqtisodiyotni modernizatsiyalashga, kasbiy hayot, madaniyat, jamiyat va hokazolarga moslashish qobiliyatini mustahkamlash sifatida namoyon bo'ladi. Uzluksiz ta'lif – tarbiya ijodkor, ijtimoiy faol, kreativ, ma'naviy boy shaxsni shakllantiruvchi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda oldinda borishlik uchun zarur sharoitlar yaratadi va shu bilan birga bugungi global iqtisodiy sharoitda har bir insonning butun hayoti davomida rivojlanib borishining asosini namoyon

¹ Alfraganus universitet Pedagogika fakultet "Pedagogika va psixologiya" kafedrasи dosenti, (PhD).

² Alfraganus universiteti 1-bosqich magistranti

etuvchi sifatidagi innovatsion ta'limgan modelining eng muhim konsepsiyasidan biri hisoblanadi.

Shaxsning butun hayoti davomida samarali rivojlanib borishini sifatli ta'minlash va uni kafolatlashda innovatsion ta'limgan modelining eng muhim konsepsiyalardan biri bu – ta'limgan-tarbiya jarayonidagi shaxslararo munosabat g'oyasining muhim ahamiyatga ega ekanligi bilan baholanadi.

Uzluksiz ta'limgan-tarbiya jarayonidagi shaxslararo munosabatlar bu o'qituvchi va o'quvchilar orasida yuzaga keladigan samarali muloqot munosabatlari bo'lib, u ta'limgan oluvchi va ta'limgan beruvchining psixologik moslik darajasiga to'g'ri kelgan holda ularning o'zaro ta'sirida shakllanib, mustahkamlanib boradi. Uzluksiz ta'limgan – tarbiya jarayonida yo'lga qo'yiladigan ikki tomonlama ongli aloqalar, munosib tajribali munosabatlar, o'zaro birligida faoliyat va aloqa jarayonida ular tomonidan ko'rsatilayotgan o'zaro ta'sir va o'zaro ta'sirning bog'liqligini xolisona namoyon yetilishi o'zining uzoq tarixiy taraqqiyotiga egadir.

Har bir ijtimoiy tuzumda insonning ma'naviy yuksalishini ta'minlovchi ta'limgan-tarbiya, ma'naviyat va ma'rifat kabi tushunchalar mavjud bo'lib, ular psixologiya, pedagogika sohasidagi o'zgarishlarni jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda o'rganishni talab etadi.

O'rta Osiyo mutafakkirlarining ta'limgan – tarbiya jarayonida shaxslararo munosabatlarni o'rnatishning ahamiyati haqidagi qarashlari xozirgi kungacha bo'lgan turli tarixiy davrlarda tarbiya, maktab va pedagogik-psixologik nazariyalarining taraqqiyotini davrlar talabi asosida o'rganib kelinmoqda. Har bir ijtimoiy tuzum, uning kelajagi, insoniyat istiqboli, kishilarning xayot va turmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqlir.

Binobarin, Yangi O'zbekiston strategiyasida ham aynan, milliy qadriyatlar, ajdodlar merosidan unumli foydalanish, uni qayta o'rganish va ilmiy izlanishlar asosida ulardan Uchinchi renesansning poydevori sifatida foydalanish bugungi dolzARB masalalardan biri ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

Ajdodlar merosiga yangicha tafakkur asosida yondoshish, o'tmishtagi pedagogik tafakkur daholarining shuhratini tiklash, ularning g'oyalarini xalq xayotiga tatbiq etish kabi ulug'ishlar amalga oshirilmoqda.

Tarixdan ma'lumki, VII-XII asrlar davomida Markaziy Osiyoda madaniyat, ilm-fan beqiyos rivojlana bordi. O'sha tarixiy davrda al – Xorazmiy, Forobiy, al – Farg'oniy, al – Beruniy, ibn Sino, az – Zamashariy singari qomusiy olimlar dunyoga keldi. Ular bilan yonma-yon dunyoviy ilmlar tug'ildi. Sharq mutafakkirlari inson ma'naviy va tafakkur dunyosini boyitishda, insoniyat ongini, madaniy – ma'rifiy qarashlarni o'stirishda o'z davrida va keyinchalik ham asosiy rol o'ynadilar, inson kamolotiga doir beqiyos ta'limgotni yaratdilar. XV – XVI asrlarga kelib qadimiy Turkiston jahonga Qozizoda Rumiy, Ulug'bek, Ali Qushchi, Haydar Xorazmiy, Hofiz Xorazmiy, Lutfiy, A.Navoiy, Bobur, Abulg'oziy Baxodirxon singari allomalarni voyaga yetkazdi. Bu davrda Markaziy Osiyo shaharlarida qator madaniy va ilmiy markazlar vujudga keldi. Demak, Markaziy Osiyo xalqlari, xususan

o'zbek xalqi va uning madaniy – ma'rifiy taraqqiyoti asrlar davomida misli ko'rilmagan darajada rivojlangan. Qolaversa, uning axloq-odobga oid qarashlari, ta'lim – tarbiya jarayonidagi shaxslararo munosabatlarni o'rnatishning muhimligi haqidagi qarashlari, pedagogika fanlari bo'yicha ta'limoti butun jahonga o'rnak bo'larli ma'no va mazmun kasb etgan.

Bugungi kunda O'rta Osiyo mutafakkirlarining ta'lim – tarbiya jarayonidagi shaxslararo munosabatlar to'g'risidagi qarashlari jamiyat taraqqiyoti qonunlariga suyangan holda turli nazariyalarni, ta'lim-tarbiyaning mazmuni va metodlarini samarali o'rganib, ilg'or va progressiv fikrlarning hammasidan ijodiy foydalanish imkoniyati yaratilmoqda.

Sharq mutafakkirlarining ta'lim – tarbiya jarayonidagi shaxslararo munosabatlar haqidagi qarashlari ijtimoiy hodisa sifatida ta'lim - tarbiya nazariyasi va amaliyotini turli bosqichlarda xilma-xil bo'lganligini ohib beradi, ilg'or qarashlarning taraqqiyot yo'lini ko'rsatib beradi.

Biz O'rta Osiyo mutafakkirlarining ta'lim – tarbiya jarayonidagi shaxslararo munosabatlar haqidagi qarashlarini o'rganish va tahlil qilishda: ularining ilmiy – ma'naviy me'rosi, xalq og'zaki ijodi, muqaddas kitoblar, pandnomalar, asarlariiga asoslanamiz.

O'rta Osiyo mutafakkirlarining ta'lim – tarbiya jarayonidagi shaxslararo munosabatlar haqidagi qarashlarini o'rganish o'qituvchilarning faqatgina pedagogik madaniyatini oshiribgina qolmay, balki, shu bilan birga, ularning pedagogik mahoratlarini yuqori cho'qqiga ko'tarishga yordam beradi. Shuningdek, o'tmishning ta'lim – tarbiya sohasidagi eng yaxshi tajribalarini, ularning ta'lim va tarbiya haqidagi, odob axloq haqidagi qarashlarini o'rganadi, bu esa ularning kundalik faoliyatlarida yordam beradi, ularni bevosita amaliy faoliyatga tayyorlaydi.

Ta'lim – tarbiya jarayonidagi shaxslararo munosabatlar to'g'risidagi qarashlari Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobi, Yusuf Xos Hojib, Amir Temur, Ibn Sino, Alisher Navoiy va boshqalar asarlarida o'z ifodasini topgan. Ushbu allomalarining asarlarida ta'lim-tarbiya va axloq-odobga oid fikrlar, ijtimoiy taraqqiyot uchun muhim bo'lgan insonparvarlik, bilimga e'tiqod, xalq manfaatini himoya qilish, ma'naviyatini ulug'lash, komil insonni tarbiyalash singari masalalar yoritildi.

Imom Ismoil al-Buxoriy - IX asrda islam olamida mashhur hadisshunos bo'lib tanildi. U musulmon Sharqida hadis to'plash, ularni tartibga solish bilan mashhur bo'ldi. Uvint, «ususan, «Saxih al-Buxoriy» acapi jahonga mashhur va ma'lumdir. U islamshunoslikning eng yirik ustunlaridan biri sifatada o'z ijodida dinning tarbiyaviy tomonlarini rivojlantirishga intildi, (shu bilan islam tarixida bitmastuganmas xazina qoldirdi.

Abu Nasr Forobi - ilmnинг turli sohalari, ayniqsa, falsafa va mantiq, ijtimoiy masalalarga oid bir yuz oltmishdan ortiq asarlar yozib qoldirdi. U qadimgi falsafiy qarashlarini o'z davri talablari asosida rivojlantirib, bir butun ta'limot yaratdi. Uz asarlarida komil inson, yetuk jamoa va ularga erishish yo'llari haqida g'oyalarni ilgari surdi. U «birinchi muallim» hisoblangan. Aristotel ta'limoti va falsafasini juda mukammal bilgani uchun Sharqda «Muallimi soniy»—«Ikkinchi muallim» nomi bilan shuhrat qozondi. Farobi insonni dunyo taraqqiyotining eng mukammal va yetuk yakuni deb biladi. Shunga ko'ra, u

o‘z asarlarida insonga ta’lim-tarbiya berish zarurligini aytadi. Bunda ta’lim-tarbiya usullaridan kutilgan maqsad masalalari→(natija) asosiy o‘rin egallashini qayd etadi. Uning ko‘rsatmalari hozirgi ta’lim va tarbiya texnolo- giyasining tarkibiy tuzilmasiga juda yaqin:

1. Ta’lim-tarbiya maqsadi → ijtimoiy ehtiyoj
2. Ta’lim-tarbiya mazmuni → ta’lim jarayoni
3. Natija → ta’lim-tarbiya oluvchi va ta’lim-tarbiya beruvchidir

Abu Abdulloh Muhammad Xorazmiy - X asrdan bizgacha yetib kelgan

«Mafotiq al-ulum» - «Ilmlar kaliti» asarida o‘z davridagi barcha ilmlar va ularning vazifalari haqida ma’lumot berdi, muayyan fanlarni turkumlarga ajratib, ularga xos xususiyatlarni ko‘rsatdi. U barcha ilmlarni shariat ilmlari va noarab (arablarda bo‘lmagan) ilmlar nomi bilan ikki katta guruhga bo‘ldi. Huquqshunoslik, mantiq ilmlarining aqliy, axloqiy, ijtimoiy-siyosiy tarbiya uchun muhim ahamiyatga molik ekanligini ko‘p marta ta’kid etdi.

Bola o‘zining birinchi o‘qituvchisiga ishonadi, o‘zining butun muhabbatini unga bag‘ishlab, undan ham shuni kutadi. Shunday ekan, tarbiyada hamma narsa tarbiyachining shaxsiga asoslangan bo‘ladi. Lekin hozirgacha o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlarida muammolar bor. Bu mavzu orqali mazkur muammo qanday yechimga ega bo‘lishi kerakligi haqidagi masalani ko‘rib chiqamiz.

Bu va boshqa masalalar ko‘pgina o‘rta asr sharq allomalarining asarlarida ham yoritilgan. Forobiyning ta’kidlashicha, o‘qituvchining faoliyati yoshlarda san’atni egallash uchun axloqiy me’yor va amaliy ko‘nikma hosil qilishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Bu faoliyatning maqsadi - o‘quvchilarni baxt yo‘llarini izlashga tayyorlashdan iborat. O‘z majburiyatiga sovuqqon bo‘lgan o‘qituvchilar Forobiy fikricha, hurmatga sazovor emaslar. «Sharq Arastusi»ning ta’kidlashicha, o‘qituvchining vazifasi mohir davlat rahbariniki kabidir. O‘qituvchi ham rahbar kabi ko‘rgan va eshitganlarini yaxshi esda saqlab qolishi; idrokli va farosatli bo‘lishi, ma’noli nutqqa ega bo‘lishi va o‘quvchilarga o‘z fikrini aniq bayon eta olishi, ilmni faqatgina sevmay, balki o‘z bilimini o‘quvchilariga ham berishi, spirtli ichimliklar ichmasligi, adolatparvar, yolg‘ondan xazar qilishi, mag‘rur va nomusli, o‘quvchilariga nisbatanadolatli; belgilangan maqsadiga erishish uchun qat’iyatli bo‘lishi kerak. «Bunday inson barkamollikning oliy darajasiga yetib, baxt cho‘qqisiga erishadi. Bu inson baxtga erishish yo‘llarini biladigan insondir», - deb yozgan edi Forobiy.

Ibn Sino - tasavvurida o‘qituvchi mard, adolatparvar va dilkash, bola tarbiyasi usullari hamda axloq qoidalarini yaxshi biladigan insondir.

O‘qituvchi o‘quvchi tabiatini o‘rganib, aql tuzilishiga kirishi kerak. Ibn Sinoning fikricha o‘quvchiga qarata aytilgan har bir so‘zida o‘qituvchi imoishoradan foydalanishi kerak. Ibn Sinoning fikri shu jihatdan muhimki, o‘qitish jarayonida o‘qituvchi turli usullardan foydalanishi kerak. Faqat shu sharoitda o‘qituvchi o‘quvchining mayli va qobiliyatini aniqlab, kasb tanlashda unga yordam bera oladi.

Tusiy - o‘zining «O‘rganish yo‘lidagiga qo‘llanma»sida boshqalar kabi o‘qituvchi va o‘quvchi munosabati masalasida to‘xtalib o‘tdi. O‘quvchi o‘qituvchiga suyanmog‘i kerak, chunki o‘qituvchi va otaning-birgalikdagi harakati zarur. O‘quvchi o‘qituvchi bergen

axborotni o'zlashtirib, uni mustahkamlashi, xotirasida saqlashi kerak. O'rganayotgan mavzuni aniq tushunishi kerak. Boshidan bu ko'nikma hosil qilinmasa, ularda oxirigacha past bilim va yomon odatlar saqlanib qoladi. «O'quvchi harakatchan, yoqimli va talabchan, vazifalarni bajarishda tirishqoq, bilag'on va tarbiyali inson bo'lib yetishish uchun harakat qilishi kerak», -degan edi Tusiy. O'qituvchi o'quvchilar ongiga ta'sir etish uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Asosiy vazifa - o'quvchilar muhabbatи va ishonchiga sazovor bo'lish. Bunda, ta'kidlaydi Tusiy, o'qituvchi shifokor bo'lishi kerak, chunki kasalning tuzalishi shifokorga bo'lgan ishonchga bog'liq. Tusiy o'qituvchilarga quyidagi talabni qo'yadi: rad etib bo'lmaydigan dalillar asosida bahs yurita olish, gapirgan gaplariga chuqr ishonch, nutq, mantiqiy bayon eta olish.

Abu Rayhon Beruniy - O'rta Osiyo fanini dunyo miqyosiga olib chiqqanlardan biri, mashhur qomusiy olim sifatida tarix, astronomiya, matematika, geografiya (dori-darmonlar haqidagi) ilmlarga oid 150 ga yaqin asarlar yozdi. Abu Rayhon Beruniy asarlarida ta'limgartarbiyaning muhim metodologik asoslari:

- darsda o'quvchilarni zeriktirmaslik (motivatsion va shaxsni rivojlantirish vaziyatlari- ni ishlab chiqish, o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyati tarkibiy tuzilmasini aniqlash)

- ta'limdagi uzviylik va izchillik (darsning ta'limi, tarbiyaviy va shaxsni rivojlanti ruvchilik vazifalarining birligi va uzviyligi);

- yangi mavzuni qiziqarli, asosan ko'rgazmali bayon etish (ta'limgartarbiyaning muhim metodologik asoslari)

- olib borilayotgan mashqlarning bolalar yoshiga mos bo'lishi (o'quvchilarning o'zlashti rish darajasini ma'lum bosqichdan yuqoriroq bosqichga ko'tarish ketmaketligini ta'min lash)

- har bir ta'limgartarbiyaning soni 400 dan ortiq bo'lib, u ilmnning turli sohalari — falsafa, mantiq, tibbiyat, adabiyotshunoslik, axloqshunoslik va musiqaga oid asarlardir. Chunonchi, birdaniga darslik bilan band kilib kuymaslik, yengildan og'irga borish, jamoa bo'lib o'qitishga e'tibor berish, bilim berishda bolalarning mayli,qiziqishi,qobiliyatini hisobga olish va hokazolar haqida o'z fikrini yozib qoldirgan

Burxoniddin az-Zarnujiy - «Ta'limgartarbiyaning soni 400 dan ortiq bo'lib, u ilmnning turli sohalari — falsafa, mantiq, tibbiyat, adabiyotshunoslik, axloqshunoslik va musiqaga oid asarlardir. Chunonchi, birdaniga darslik bilan band kilib kuymaslik, yengildan og'irga borish, jamoa bo'lib o'qitishga e'tibor berish, bilim berishda bolalarning mayli,qiziqishi,qobiliyatini hisobga olish va hokazolar haqida o'z fikrini yozib qoldirgan

Abu Ali ibn Sino - yaratgan asarlarining soni 400 dan ortiq bo'lib, u ilmnning turli sohalari — falsafa, mantiq, tibbiyat, adabiyotshunoslik, axloqshunoslik va musiqaga oid asarlardir. Chunonchi, birdaniga darslik bilan band kilib kuymaslik, yengildan og'irga borish, jamoa bo'lib o'qitishga e'tibor berish, bilim berishda bolalarning mayli,qiziqishi,qobiliyatini hisobga olish va hokazolar haqida o'z fikrini yozib qoldirgan

Abul Kosim Mahmud az-Zamaxshariy - Sharqda islom dunyosida serqirra olim, xususan tilshunoslik, dinshunoslik, mantiq kabi ilmlarni chuqr bilish bilan yaxshi tanildi. Olim Zamahshariyning arab tili grammatikasiga bagishlangan «Almufassal fi san'at al-i'rabi» («Fleksiya san'ati haqida mufassal kitob»), «Navobig' ul- qalim» («Nozik iboralar»), «Al

mu'jam al-arabiy al-forsiy» («Arabcha-forscha qomus»), «Nuzzat ul-mastaanis» («Do'stlar farog'ati»), «Muqaddima ul-adab» («Adabiyotga kirish»), «Al Kashshof» kabi Qur'oni tafsir etgan asarlari Sharqda mashhurdir. Uning asarlarida axloq, ta'lif-tarbiya va ilm o'qitishga oid psixologik fikrlar va ta'lif – tarbiya jarayonidagi shaxslararo munosabatlар keng yoritilgan.

Buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiyning yaqin do'sti Kamoliddin Xusayn Voiz Koshify bolal tarbiyasida mакtab va muallimning alohida o'rni borligi haqida gapirib, muallimlar dono, bilimli, shirinsuxan, adolatli bo'lishi zarur, deb hisoblaydi. Alloma murabbiylar to'g'risida "Axloqi Muhsiniy" asarida shunday yozadi: "Murabbiy (bolaga) nasihat va ta'lif berishda lutf va odob qoidalariga rioya qilishi darkor. Jamoatchilik joylarida o'quvchiga pand berish yaramaydi, balki xilvat joyda bolaga nasihat qilish zarur. Agar (murabbiy) nasihat berishning fursati kelganini bilsa, unga muloyimlik bilan murojaat qilishi lozim, chunki bizning zamonamizda muloyim va xushfe'l bo'lish maqsadga muvofiqdir".

Buyuk allomalardan Abdurahmon Jomiy tarbiyachi – muallim foaliyatiga quyidagicha ta'rif beradi: "muallim bilimli, aqli, adolatli, o'zida butun yuksak fazilatlarni mujassamlashtirgan bo'lishi kerak. O'zini nomunosib tutgan odam hech vaqt bolalarga bilim va odob bera olmaydi".

Hozirgi zamon o'qituvchisi qanday ijobiy sifatlarga ega bo'lishi lozim. Avvalo zamonaviy bilimlar, ilg'or tajribalar hamda pedagogik mahoratni yuqori darajada egallaganligi, pedagogik izlanish vazifasiga Demak, pedagogik mahorat egasi bo'lish uchun o'qituvchi o'zida ham ilg'orlikni, ham novatorlikni (yangilikka intilish), ham ijodkorlikni tarbiyaliga lozim. O'qituvchi pedagogik mahoratini "O'qituvchining axloqiy shakllanishi" yo'nalishida o'rgangan professor Malla Ochilov pedagogik mahoratni egallahning muhim manbasi axloq deb ta'kidlab, kasbga oid axloq normalarini shunday ta'riflaydi».

Pedagogik mahoratning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri, uning o'qituvchi shaxsi va kasbi to'g'risida mukammal ma'lumot va tushunchalarga ega ekanlidigadir. O'qituvchi inson sifatida shaxsiy fazilatlarga ega bo'lishi bilan birga, kasbiy, ya'ni ixtisoslik fazilatlariga ham ega bo'lishi loeimligini tajriba ko'rsatmoqda. Buni yuqorida kasb axloqi to'g'risida bildirilgan fikrlar misolida ham ko'rdik.

Shaxsiy sifatlar tizimida: milliy mafkuraviy onglilik, milliy odoblilik, farosat, nozik didlik, o'z kasbiga sadoqat va vijdoniylilik, tashabbuskorlik, bolajonlik, talabchanlik, adolatparvarlik, pedagogik odob, tadbirkorlik, qatiylik, har qanday vaziyatda o'zini idora qila olish, millatlararo muloqot madaniyati, kuzatuvchanlik, samimiylilik, topqirlik, kelajakka ishonch, xushmuomalalilik kabi fazilatlarga ega bo'lishi kerak.

«Muallimning yuksak sifati uning aqli, ilmi, fikri, so'zi, axloqu-odobidadir, - degan edi taniqli murabbiy, maktabshunos olim Hikmatulla Abdullaev o'zining «Yashil daftar hikmati» asarida - O'qituvchining yuz qarashlari ham, gapirishlari ham, qalbi ham, ko'rinishi ham, yurish-turishi ham, kiyinishi ham chiroyli va ibrat namunasi bo'lsin. Ayniqsa, uning nutqi tushunarli, ravon, ta'sirli bo'lishi darkor. U muloqotda bamisol so'z zargari ekanligini ko'rsata olishi muhimdir. Shunga erishish kerakki, odamlar, ayniqsa, ota-onalar va

o'qituvchilar uni rostgo'y, halol, pokiza, sog'lom fikrli, shafqatli va muruvvatli, insonparvar kishi sifatida e'tirof etsinlar».

Ta'lim va tarbiya jarayoni har bir o'qituvchidan ulkan aql-zakovat, sabrmatonat, o'quvchilarga va o'z kasbiga yuksak mehr-muhabbatli bo'lishni talab etadi. O'qituvchining doimo izlanuvchan, bilim va tajribasini orttirib borishi, o'quvchilarni chuqur tushunish, ularning ichki dunyosini payqay olish, o'sish va rivojlanish darajalarini nazorat qilib borishi va zarur paytda so'z, ish yoki amaliy harakat bilan yordam bera olish qobiliyati ta'lim va tarbiya jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlovchi omillardir.

Pedagogik kasb - bu komil inson sifatida xarakterlanuvchi ijtimoiy ahamiyatga molik fazilatlarning barqaror tizimidir. O'qituvchi o'z kasbiga ixlos qo'yishi va uning ijtimoiy ahamiyatini tushunib yetishi, bolalarga ta'sir o'tkazishi va ular bilan hamdardligini namoyon qila olishi shunday fazilatlar majmuasidirki, ular o'qituvchi faoliyati va muloqoti bilan uyg'unlashganda o'qituvchi mehnatining bir butunligiga erishiladi.

O'qitish va tarbiyalash - bular bir-biridan ancha farqli tushunchalardir. O'qituvchi o'z kasbining to'la ma'nodagi egasi bo'lishi uchun uni atrofidagi odamlar hurmat qilishlari kerak. O'qituvchi hamma joyda madaniyatli murabbiy, ezgu fazilatlar egasi sifatida namuna bo'lishi zarur.

O'qituvchilik faoliyati shu kasbni tanlagan kishilardagi qobiliyat va iste'dodning barcha qirralarini ishga solishga majbur qiladi.

A.S.Makarenko, «jamoaada 40 ta qobiliyatli o'qituvchi o'rniga 4 ta qobiliyatli tarbiyachi-o'qituvchi bo'lgani ma'qul»ligi haqida gapirgan edi.

Bu bilan u qobiliyatsiz kishilar ta'lim-tarbiya ishiga katta zarar yetkazishi mumkinligini alohida uqtiradi.

Avvalo, o'qituvchi — maktabdagagi ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy tashkilotchisidir. Yigit va qizlarning ma'lumot jihatidan umumiylaytirishdarasi hamda mustaqil ijodiy tafakkur taraqqiyoti, tarbiyalanganlik darajasi dastur va darsliklarga emas, balki o'qituvchiga, uning mahorati hamda fuqarolik xislatlariga ham taallukdi bo'ladi.

Ta'lim va tarbiya tarixini o'rganar ekanmiz, uning rivojlanishi, yillar davomida shakllanib borishi ustoz va shogird faoliyatiga bog'liqligining guvohi bo'lamiz. Eng qadimgi davrlardayoq mudarrislar (o'qituvchilar) ta'lim va tarbiyaning samarali ta'sir usullarini qidirib topib, hayotga tatbiq eta boshlaganlar. Buning natijasida eramizdan oldingi davrlardayoq ta'lim-tarbiyaning samaradorligiga erishilishi uchun o'qituvchiga bo'lgan talablar kuchayib bordi. O'qituvchi mahoratini takomillashtirish yuzasidan turli g'oyalari, nazariya va tavsiyalar paydo bo'la boshladi.

Miloddan avvalgi VII - VI asrlarda O'rta Osiyoda ishlab chiqarish kuchlarining ortib borishi bilan ijtimoiy hayotda ham ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Turk va fors tilida so'zlashuvchi xalqlar o'rtasida o'zaro madaniy aloqlalar yuzaga keldi. Yosh avlodni mustaqil hayotga tayyorlashda asrlar davomida qo'llanib kelingan, yerli millatning o'ziga xos urf - odati va an'analariga mos ravishda tatbiq etilgan ta'lim va tarbiyaning noyob usul va vositalari, tadbir va shakllari vujudga kela boshladi. Hali mакtab bo'limgan, pedagogik fikr tarkib topmagan davrdayoq qabila a'zolarining bolalarda mehnatsevarlik, axloq-odob,

nafosat, do'stlik, mehrshafqat, insonparvarlik sifatlarini tarkib toptirish sohasidagi aql idroki va usullari yillar davomida hayat tajribasi va sinovlaridan o'tib, sayqallanib o'sha davrning oljanob mevasi sifatida bizning davrimizgacha yetib keldi.

VII asrlarga kelib O'rta Osiyoda ilm-fan va madaniyat sohasidagi rivojlanish bevosita ta'lim va tarbiya beruvchi mudarrislarning qizgin faoliyati hamda ularga qo'yiladigan talablarning nihoyatda rang- barangligi va xilma-hilligi bilan diqqatga sazovordir. Ilk ibtidoiy jamoa va quzdorlik davrlaridan boshlab, bolalarning ta'lim va tarbiyasiga javobgar ulamolar hamda mudarrislar nasihat, tushuntirish, rag'batlantirish, maqtash, namuna ko'rsatish, tanbeh berish, ta'qiqlash, majbur ilish, po'pisa qilish, qo'rqtish kabi usullardan foydalanganlar. Biroq mudarrislarning o'zi bolaga ta'lim-tarbiya berish uchun mukammal amaliy va nazariy bilimga ega bo'lishi kerak edi. Shu sababli mudarrislar savodli madrasa toliblari orasidan tanlangan va ma'lum muddat tayyorgarlikdan o'tishgan.

Buyuk allomalarimiz o'z asarlarida mudarrislar kasbining nozikligini, masuliyatli ekanligini va murakkabligini, shu bilan birga sharaflı ekanligini, yoritib, muallimning mahorati, ularga qo'yilgan talablar, fazilatlariga oid qarashlar, shogirdlar bilan munosabatga kirishish mahorati, muomalasi to'grisida o'z mulohazalarini bildirganlar. Uyg'onish davrining yetuk namoyandalari Abu Nasr Forobi, Shayx Sa'diy Sheroziy, Al Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Davoniy kabilarning ijodiy merosi pedagogik tafakkurni shakllantirishda bo'lajak murabbiylarga muhim manba bo'lib hisoblanadi. Ular avlodlardan avlodlarga o'tib, o'z qimmatini yo'qotmagan mudarrislarni, tarbiyachilarini tayyorlash tajribalarini umumlashtirib, boyitib borishgan. Zero, insoniyat kelajagi va kurrai zaminning gullab yashnashi faqat ta'lim va tarbiyaga bog'liq ekanligini buyuk mutafakkirlar chuqur his qilishgan. Shuning uchun muallimlar kuchi va g'ayrati bilan barkamol avlodni tarbiyalash ularning eng yorqin orzusi bo'lib kelgan. O'zbekiston deb atalmish muazzam zaminimizda yashab o'tgan allomalarning bu borada o'z o'rni va hurmati bor. Barkamol avlodni tarbiyalash, bunda muallimning o'rni to'g'risida allomalarimiz ijodiy merosidan juda ko'p misollar keltirishimiz mumkin.

Abu Nasr Forobi - O'rta Osiyo xalqlari madaniyatini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan olimdir. Forobi o'rta asrda fanni birinchi bo'lib klassifikatsiya qilib chiqqan. U arifmetika, geometriya, astronomiya va musiqani muhim tarbiyaviy fanlar deb atadi. Ushbu fanlarni o'rgatuvchi o'qituvchini har tomonlama mukammal bilimga va tajribaga ega bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Chunonchi, o'z asarlarida "...ustoz shogirdlariga qatqiq zulm ham, haddan tashqari ko'ngilchanlik ham qilmasligi lozim. Chunki ortiqcha zulm, shogird dilida ustozga nisbatan nafrat uyg'otadi, bordiyu ustoz juda ham yumshoq ko'ngilli bo'lsa shogird uni mensimay qo'yadi va u beradigan bilimdan sovib qoladi. Shuning uchun o'qituvchi bolalarning fe'l-atvoriga qarab ta'lim-tarbiyaning "qattiq" yoki "yumshoq" usullaridan foydalanishi mumkin" deydi. Bunda ustoz mudarrisiga quyidagi talablarni qo'yadi: tarbiyalanuvchilar o'qish va o'rganishga ishtiyoqmand bo'lsalar ta'lim-tarbiya jarayonida yumshoq usullar qo'llaniladi; tarbiyalanuvchilar o'zboshimcha, itoatsiz bo'lsalar, qattiq, ya'ni majburlovchi usullar qo'llaniladi.

Unsurul Maoliy Kaykovusning «Qobusnama» asarida ilk bor notiqlik san'ati maktablarining Sharq mamlakatlarida rivojlanishi tarixi bayon etilgan hamda o'sha davr notiqlari haqida ma'lumotlar berilgan. Ushbu asar hozirgi global o'zgarishlar davrida insonni ma'naviy jihatdan kamolotga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur noyob asar ko'plab Sharq va G'arb tillariga tarjima qilinib shuhrat qozongan.

Kaykovus asarda har bir yoshni aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiyasida turmush tajribasi muhim ahamiyat kasb etishini aytadi. Bolalarni faqat yaxshi mudarris tarbiyani hayot bilan bog'lagan holda kamolotga yetkazishi mumkin deb, uning yo'llarini va usullarini bayon etgan. Kitobda, javomnardlar egallashi zarur bo'lgan quyidagi yo'nalishlarda ta'lim-tarbiya berish nazariyasi ko'zda tutilgan:

Kaykovus bilim haqida.

Hunar va turli kasb egalari haqida.

Turmush va xulq-odob koidalari haqida.

Jismoniy yetuklik haqida.

Shayx Muslihiddin Sa'diy Sheroyi XIII asrda Eronda yashab ijod qilgan yirik shoir va mutafakkirdir. U faylasuf-shoir bo'lishi bilan birga tajribali murabbiy ham bo'lgan. Shoir "Guliston" asarida o'z davri mudarrislarini turli toifaga bo'lib, ularni ta'riflaydi. Qattiqqo'l o'qituvchilarni "..basharasi tirishgan, tili zahar, yomon xulqli, odamlarni ranjitadigan, gadoy tabiatlik, ochko'z, uni ko'rishi bilan shogirdlarining kayfiyati uchar" shogirdlar undan bilim va tarbiya ololmaydilar. Yana bir toifadagi o'qituvchilar "...sodda, yaxshi va yumshoq ko'ngilli odam. Unarunmasga so'zlamas edi va bolalarni ranjitadigan so'zlar ogzidan chiqmas edi. Uning farishtadek axloqliligi va mehribonligini ko'rgan bolalar murabbiyni mensimay qo'ydilar. Uning yumshoq tabiatlik ekanligini bilishib, ilmni ham o'rganmadilar. Alqissa bolalar o'yin va to'polonga berilib vaqgni bekorga o'tkazdilar".

Bu holatga Shayx Sa'diy ikki xil ta'rif beradi. Birinchidan, Sa'diy yashagan davrda ham, undan keyingi davrlarda ham mакtabda o'quvchilarni qattiqqo'lilik bilan o'qitganlar. Ikkinchidan, Shayx Sa'diy bu holni o'z ko'zi bilan ko'rgan va qatqaqqo'l o'qituvchiga nisbatan norozilik bildirmagan, ilm va tarbiya berishda qattiqqo'lilikni afzal ko'rgan: "jabr ustod boz mehr padar" deb ta'kidlaydi, ya'ni o'qituvchining jabri va jazosi ota mehridan ham afzalligini aytadi.

Abu Ali ibi Sino - o'z asarlarida inson kamolotida uch narsa - irsiyat, muhit, tarbiya muhim rol o'ynashini ta'kidlab, bunda mudarrislar bolalarga ta'lim berishdek mas'uliyatli burchni bajarib, shu uch holatga javobgarlik hissi bilan yondashishini uqgiradi va mudarrislarga faoliyatda muvaffaqiyatga erishish garovi bo'lgan quyidagi tavsiyalarni beradi:

Bolalar bilan muomalada bosiq va jiddiy bo'lish.

Berilayotgan bilimning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga e'tiborini qaratish.

Ta'limda turli shakl va metodlardan foydalanish. Uquvchining xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini nazorat qilish.

Bolalarni fanga qiziqtira olish.

Berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olish.

Bilimlarni o'kuvchilarning yoshi, aqpiy darajasiga mos ravishda tushunarli olib borish.

Har bir so'zning bolalar hissiyotini uygotish darajasida bo'lishiga erishish.

Buyuk allomalardan Abu Nosir Tusiy o'zining «O'qituvchilarni tarbiyalash to'g'risida» nomli asarida quydagilarni yozadi: «Murabbiy munozaralarini to'gri olib borish, rad etib bo'lmaydigan darajada isbot qilishi, o'z fikrlarini to'griligiga ishonishi, nutqi mutlaqo sof va ravon bo'lishi lozim. Murabbiy nutqi hech qachon zaharxandali, qo'pol va qattiq bo'lishi mumkin emas. Dars paytida o'zini tuta olmasligi darsni buzadi».

Buyuk mutafakkir Abdurahmon Jomiyning «Iskandar xirodnoması» asarida muallimlar haqida quydagi fikrlar bildirilgan: "muallim aqli, adolatli, o'zida barcha yuksak fazilatlarni mujassamlashtirgan bo'lishi kerak. O'zini nomunosib tutgan murabbiy hech vaqt bolalarga bilim bera olmaydi" deb ta'kidlaydi.

Alisher Navoiy - ijodida muallimlarga munosabat alohida berilgan. Uning fikricha, har bir inson o'ziga ta'llim va tarbiya bergan ustozini, o'qituvchisini umrbod xurmat qilishi va uni e'zozlashi kerak. O'qituvchi mehnatini har qanday xazina bilan o'lchab bo'lmaydi:

Alisher Navoiy yosh avlod tarbiyasini har qanday tasodifiy murabbiyga ishonib topshirib bo'lmasligini aytib, o'qituvchiga yuksak talablarni ko'yadi. Bolani tarbiyalash va unga bilim berish, uning qobiliyatini o'stirish uchun nihoyatda savodli o'qituvchi va mahoratli tarbiyachi bo'lish kerak. Alisher Navoiy o'qituvchini faqat dars beruvchi, bilim beruvchi deb bilmaydi, bashsi mahoratli tarbiyachi bo'lishi lozim deb ilm va odobni birga olib borilishini, bu ikki jarayon hech qachon ajralmasligini ta'kidlab o'tadi.

Buyuk alloma o'zining "Mahbub-ul qulub" didaktik asarida o'qituvchi xalq oldida obro'ga, hurmat va izzatga sazovor bo'lishi kerakligini, u xalq g'ami bilan yashashini, xalqqa yordam beruvchi, xalq bilan birga bo'lishi lozimligini aytadi. Nodon, mutaasib, johil mudarrislarni tanqid qilib, mudarris olimlar orasidagi eng sara "malak qiyofali" kishi bo'lishi, ya'ni sof ko'ngilli, pok qalbli, insofli, karam-muruvvatli, odobli, vafoli, kishilikning eng yaxshi va oljanob xislatlarini o'zida aks ettiruvchi bo'lishi kerak deydi. Ayniqsa, madrasalarda ta'llim-tarbiya bilan shugullanuvchi mudarrislarga jiddiy talablarni qo'yadi: «Mudarris kerakki, garazi mansab bo'lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas ko'rgazmasa va olg'irlik uchun gap-so'z va gavg'o yurgizmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi uzun bo'lmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni unga bosh o'rinn bo'lmasa, yaramasliklardan qo'rqlasna va noplilikdan qochsa... nainki, o'zini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni qilish mumkin, balki halol desa, qilmas ishlarni qilmoq undan sodir bo'lsa va qilar ishlarni kilmaslik unga qoida va odat bo'lib qolsa, bu mudarris emas, yomon odatni tarqatguvchidir». Demak, mudarris bilimli, fozil va donishmand bo'lishi, kishilikning eng yaxshi fazilatlarini o'zida mujassamlashggirgan oljanob va kamtarin bo'lishi, har qanday yaramas ishlardan xoli va pok bo'lishi, o'z xulqi va odobi bilan boshqalarga namuna bo'lishi lozim. Ayni o'rinda o'qituvchi mehnatini eng murakkab va mashaqqatli ish ekanligini xolisona baholaydi: "Uning ishi odam qo'lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashdan ojizlik qilardi. U esa bir to'da bolaga ilm va adab o'rgatadi, ko'rkim bunga nima yetsin.

Shunisi ham borkim, u to'dada fahm-farosati ozlar ham bo'ladi, unday kishiga yuzlarcha mashaqqat qilsa qanday bo'ladi.

Har qanday bo'lsa ham, yosh bolalarda uning haqqi ko'pdir. Agar shogird podshoxdikka erishsa unga (muallimga) qulluq qilsa arziydir". Kamoliddin Husayn Voiz Koshifiy - "Futuvvatnomai Sultoniy yoxud javonmardlik tariqati" asarida ustoz-shogird munosabatlariga keng to'xtalgan. U muallimlarning shogirdlariga beradigan har bir o'gitini kadrlaydi. "Maraka joylarida" (dars—ma'ruza o'qiladigan joy) shogirdlar muallimning har bir so'zini e'tibor bilan tinglashini va unga amal qilishini ta'kidlaydi. Jumladan, alloma shunday yozadi: "Agar shogirdlikning binosi nimaning ustiga quriladi, deb so'rasalar, ibodat ustiga, deb javob bergen. Agar ibodat nima deb so'rasalar, samo va toatdir, deb aytgin. Agar samo (eshitish) va toat nimadir deb so'rasalar nimani ustoz aytsa, uni jon kulog'i bilan eshitish, chin ko'ngli bilan qabul qilish va vujud a'zolari orqali amalda ado etishdir deb ayt".

Koshifiy asarida shogirdlikning 8 ta odobini ko'rsatib o'tadi: birinchi bo'lib salom berish; ustozning oldida kam gapirish; boshni oldinga egib turish; ko'zni har tomonga yogurtirmaslik;

gap so'ramoqchi bo'lsa, avval ustozdan ijozat so'rash; ustoz javobiga e'tiroz bildirmaslik; ustoz oldida boshqalarni g'iybat qilmaslik; o'tirib turishda hurmat saqlash.

Koshifiy ustozlik shartlarini ham bayon qiladi: "Bilgilkim hech bir ish ustozsiz amalga oshmaydi va kimki ustozsiz bir ishni qilur ersa, ul ishning asosi mustahkam bo'lmaydi. Kimki, ustozsiz ish boshlagan bo'lsa, ishi va amali samara qozonmaydi, ustozning etagini tutib shod bo'l, bir muddat ustozga xizmat qilginda, so'ngra o'zing ustoz bo'l. ...Agar ustoz tarbiyasini olgan komil inson kim deb so'rasalar, u pok mazhabli o'z aybini ko'radigan, dono va tamizli kishidir deb aytgil. Unda hasad, gina va baxillikdan asar bo'lmaydi".

Koshifiy bola tarbiyasida maktab va muallimniig alohida roli borligi haqida gapirib, muallimlar dono, bilimli, shirinsuxan,adolatli bo'lishi zarur, deb hisoblaydi. Alloma murabbiylar to'g'risida yana bir asari «Axloqi Muhsiniy»da shunday yozadi: «Murabbiy (bolaga) nasihat va ta'lim berishda lutf va odob qoidalariga rioya qilishi darkor. Jamoatchilik joylarida unga pand berish yaramaydi, balki xilvat joyda bolaga gapirish zarur. Agar (murabbiy) nasihat berishning fursati kelganini bilsa, unga muloyimlik bilan murojaat qilishi lozim, chunki bizning zamonamizda muloyim vaxushfe'l bo'lish maqsadga muvofikdir».

Az Zamaxshariy deydiki: "murabbiy o'qib tursagina murabbiy bo'la oladi, agar o'qishni to'xtatib qo'yar ekan, unda murabbiylik o'ladi". Bu dono fikrga yoshidan, pedagogik mahoratidan, qanday dars berishidan qatiy nazar barcha o'qituvchilar rioya qilishlari maqsadga muvofikdir.

Uzluksiz ta'lim – tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish, unda shaxslararo munosabatlar tamoyillari va asosiy qoidalari hayotga tatbiq etish uchun bugungi kunda barcha ta'lim muassasalarida har jihatdan qulay va mustahkam poydevor sifatida sog'lom, raqobatbardosh, ijodiy innovatsion muhit yaratish vazifalari birinchi o'ringa qo'yilmoqda. Bunda sharq mutafakkirlarining boy ijodiy merosidan foydalanish zaruratini davr taqozo

etmoqda. O'quv jarayonlaridagi shaxslararo munosabatlarga asoslangan o'zaro do'stona munosabat, ta'lif olish va ta'lif berishdagi hamkorlikdagi sog'lom, raqobatbardosh gumanitar muhitning – ijtimoiy - tarixiy hodisa sifatida bosqichma – bosqich shakllanib, rivojlanib borish mutafakkirlarimiz asarlarida e'tirof etilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tarixiy ildizlari uch ming yildan chuqurroq qadimiyatga borib taqaluvchi o'zbek davlatchiligi ko'p marotaba yuksalishlarni boshidan kechirgan O'zbekiston insoniyat sivilizatsiyasi qaror topgan davlatlardan biri sifatida o'z o'rni va salohiyatiga ega hudud sanaladi. Sharq Uyg'onish davri – birinchi Renessansi deb nom olgan o'rta asrlar va bugungi kunga qadar yetishib chiqqan buyuk alloma va mutafakkirlarning jahon ilm-fani va madaniyati, rivojiga qo'shgan beba ho hissasi dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan. Buyuk ajdodlarimiz o'z ilmiy merosi bilan insoniyat sivilizatsiyasiga munosib hissa qo'shganlar. Zero, buyuk alloma va mutafakkirlarining boy ilmiy merosi, undagi ta'lif - tarbiyaga oid qarashlar asrlar osha sayqal topib, zamonaviy jamiyat rivoji, uning taraqqiyoti uchun dasturulamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaev H. Yashil daftar hikmati. -T.: O'qituvchi, 2000.
2. Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. - T.: FAN, 2007,223 b.
3. Kaykovus. Qobusnama (Forschadan Muhammad- Rizo Ogahiy tarjimasi).: S.Dolimov. - T.:
4. O'qituvchi, 2006, 208 b.
5. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. - T.: Istiqlol, 2003. -
6. Ochilov M. Muallim qalb me'mori: Saylanma. -T.: O'qituvchi,
7. Sodiqova T. Murabbiy kim?...-T.:Toshkent islom universiteti, 2006, 83 b.
8. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri - T.: A. Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993. - 187 b.
9. Axmedov A.E., Smolyaninova I.V., Shatalov M.A. Sistema nepreryvnogo obrazovaniya kak drayver sovershenstvovaniya professionalnyx kompetensiy// Professionalnoe obrazovanie i rylnka truda. 2016. №3. S.26-28.



Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

O'ZBEK SHOIRASI ZULFIYAXONIM

Eshbekova Dildora¹

Nukus shahri 32-sonli maktab

KEYWORDS

Zulfiya, Hamid Olimjon, she'r, she'riyat, adabiyot, muhabbat, sevgi, sadoqat, sog'inch.

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbek xalqining buyuk shoirasi Zulfiyaning hayoti, ijodi va faoliyati haqida so'z borgan bo'lib, o'zbek adabiyotidagi o'rni atroflicha tahlil qilingan. Zulfiya she'rleridagi insonparvarlik, muhabbat va sadoqat kabi tushunchalar ochib berilgan.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.14962406**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Sharq ayolining jamiyatdagi teng huquqi uchun mardonavar kurashgan ayol. Zulfiya she'riyatining nufuzi – bizning dabdabali murakkab davrimizning haqqoniy ifodasi, o'ziga xosligi, zamondoshlarimizning qalbi va harakatlarining yorqin tasviridadir. O'zbek xalqining atoqli va ardoqli vakili, taniqli jamoat arbobi, xalqaro tinchlik uchun kurash jarchisi Zulfiya Isroilova xalqaro "Nilufar", Javoharlal Neru nomidagi hamda Davlat mukofatlari sohibasidir. Zulfiyaxonim Isroilova 1915-yili Toshkent shahrining qadimiyligi mahallasida tavallud topgan. Avval boshlang'ich maktabda, so'ng xotin – qizlar bilim yurtida tahsil olgan. 1935-1938-yillarda O'zbekiston fanlar akademiyasining til va adabiyot instituti aspiranturasida o'qigan. Shundan keyin turli nashriyotlarda ishlagan. 1935-yildan 1980-yilgacha, qariyb o'ttiz tilga yaqin respublikamizda keng tarqalgan "Saodat" nomli xotin – qizlar jurnalida bosh muharrir bo'lgan. Zulfiyaxonim Isroilova Hamid Olimjon bilan turmush qurban. Biroq ular orzularga to'la hayot kechirayotgan pallada 1944-yili mashina halokati tufayli turmush o'rtog'idan ayrildi. Shoira esa 1996-yilda 81-yoshida vafot etadi. Shoira badiiy ijodga juda erta kirishdi. O'n yetti yoshida "Hayot varaqalari" deb atalmish dastlabki she'riy kitobini chop ettirdi. Uzoq ijodiy umri davomida o'ttizga yaqin she'riy to'plamlar, o'ndan ortiq dostonlar yaratdi. Shoira hammani o'ylatadigan, barcha kishilarga Jaxldor bo'lgan holatlarni she'rga soladi. Shuning uchun ham yozganlari ko'pchilikka manzur bo'ladi. Zulfiyaning ulkan iste'dodi faqat yurtimizdagina emas balki

¹ Nukus shahri 32-sonli maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

dunyo miqyosida ham e'tirof etilgan. U – xalqaro "Nilufar" mukofoti egasi.

Shoira sherlarining el aro mashhurligi tasodifiy emas. U bolaligidan olamga hayrat ko'zi bilan qarovchi, uning boshqalar ko'rolmaydigan jihatlarini ilg'ovchi qizaloq ekanligi bilan ajralib turardi. Buning ustiga, oilasidagi muhit ham yosh Zulfiyada badiiy ijodga ishtiyoqni alangalatardi. Shoira bolaligini shunday eslaydi: "Otamni... Isroil derez der edilar. Otam zahmatkash temirchi edi. Otamning hamma vaqt olovga yo'ldosh kasbidan faqat zavq ko'rар edim. Otamday qudratli odam yo'q edi men uchun. Temirlar otam qo'lida chaqmoqlar taratishiga boqib, hayratda qolar edim. Uning qo'llari cho'g'ga aylangan temir parchasini istagan shaklga solib, inson uchun kerakli narsaga aylantirishga qodir edi. Men hali-hanuz otamday bolishni orzu qilaman, ammo na iloj, inson qalbiga kira bilish temirga ishlov berishdan mashaqqatliroq, yurakni chaqmoq kabi alanga oldirish har kimga ham muyassar bo'lavemas ekan..."

Mening onam o'zining ta'bincha, "usti butun – ichi tutun" ayollardan edi. U hamma vaqt kamgap, xayolchan edi, lekin fikrlari, o'ylari mudroq emasligini, unga mutelik, zaiflik yot ekan-ligini bilar edim. Ruhidagi ma'yuslik, ovozidagi hazinlik faqat uning xarakteriga xos bir sifatgina edi, xolos.

Onamning qancha-qancha qo'shiq va afsonalarni, doston va er-taklarni bilisjiiga aqlim bovar qilmasdi. Bu sehrli afsona va ertaklar bizga benihoya huzur bag'ishlar, o'ziga rom qilib olar, har safar yangi jilva kasb etardi. Aminmanki, mo'jizalar yaratishga qodir, jahonni ko'zga keng ochuvchi, insonni go'zallik sari yetaklovchi so'zga shaydolik hissini mening qalbimda ostona hatlab ko'chaga chiqmagan oddiy ayol – onam uyg'otgan..."

Zulfiya she'riyati ana shunday pokiza buloqlardan suv ichgan ijoddir. Ayni shu sababdan uning tinchlik haqidagi, inson ruhiya-tini g'ajib tashlay oladigan hijron to'g'risidagi, tabiatning ajib bir holati borasidagi she'rlari hech kimni befarq qoldirmaydi. Shu bois shoiraning barcha ayollarga, barcha onaiarga, barcha ma'shuqalarga xos, tushunarli, anglanarli bo'lgan she'riyati aslo eskirmaydi. Uning asarlarida halol inson tuyg'ularining porloq yulduzi charaqlab turadi.

Xalq orasida "Oydinda", "Sensiz", "Yurak", "Falak", "Bahor keldi seni so'roqlab", "O'g'irlamang qalamim bir kun", "Bo'm-bo'sh qolibdi bir varaq qog'oz" kabi she'rlari, "O'g'lim, sira bo'lmaydi urush", "Mushoira" kabi she'rlari mashhur. "Uni Farhod der edilar", "Quyoshli qalam", "Xotiram siniqlari" kabi lirik va liro-epik dostonlar muallifi. 1935 yilda shoir Hamid Olimjon bilan turmush qurgan va uning bevaqt vofotidan so'ng ko'plab mahzun she'rlar yaratgan. Pushkin, Lermontov, Nekrasov, L. Ukrainka, V. Inber va boshqa ko'plab shoirlarning asarlaridan namunalarni o'zbek tiliga tarjima qilgan. Zulfiya she'riyati tabiatga hamda uning ajralmas qismi va yuqori cho'qqisi bo'lmish odamzotga nisbatan hayajonli sevgi bilan burkangan. Uning she'rlarida tabiat och ranglarda, yorqin bo'yoq va timsollarda gavdalananadi.

Zulfiyaning olijanoblik, jasorat, haqqoniylar xalq g'ururi, tabiat va insonga nisbatan samimiylar tuyg'ular va hurmat, boy ranglar va kutilmagan yangi timsollar bilan bajarilgan lirikasi, kitobxon qalbini larzaga keltiradi, insoniyatning kelajakka bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Iqtidorli shoira va yozuvchi, inson qalb tug'yonlarini o'tkir bilimdoni bo'lib, turli janrlarda asarlar yaratgan: dostonlar, balladalar, elegiyalar, nasriy she'rlar, hikoyalar, ocherklar, publististik maqolalar va gazeta xabarlari. Uning ko'p she'rlari SSSR xalqlari tinchligi va do'stligi sari kurashga bag'ishlangan edi. Urush yillari u vatanparvarlik she'rlarini yozgan. U tomonidan, shuningdek, o'zbek bastakorlarining operalariga librettolar ham yozilgan, masalan, "Zaynab va Omon" operasiga libretto. Shu bilan birga, turmush o'rtog'i Hamid Olimjon qalamiga mansub "Semurg" dostoni mavzusi asosida, ertak-sahna asarini ham yozgan. Shoira adabiy-ijtimoiy faoliyati uchun ko'pgina davlat mukofotlari bilan taqdirlangan.

Zulfiyaxonim hayoti davomida yozgan she'rlar va dostonlari quyidagilardir: "Iqror", "Hosil", "Bahor keldi, seni so'roqlab", "U", "Zaynab va Omon", "Do'starimga", "Alatau qo'shig'i tomon", "Yulduzli alla", "Hayot sahifalari" (1932), "Lolalar", "Oydin tun", "Orzu", "Nastarin", "Noma "lum sovg'a", "Bu yerda men tug'ilganman"

Mevaning tami u yetishgan yog'ochga qanchalik bog'liq bo'lsa, ijodkorning asarlari uning shaxsiyatiga ham shunchalik aloqadordir. Sobiq sho'ro davridagi ijodkorlar orasida Zulfiya she'riyati shu jihatdan, ayniqsa, ajralib turadi. Uning nozik chizgilar, go'zal tashbihlar bilan bir vaqtda "inson ruhiyatini g'ajib tashlay oladigan" ayriliqdan tug'ilgan tiyiqsiz iztirob, taqdirning rahimsiz-achchiqligiga po'rtanavor isyon aks etgan lirkasi shoira shaxsiyati va ruhiyatidagi nozik manzaralardir, deyish mumkin. Zulfiya ijodida hijron, sadoqat to'g'risidagi she'rlar salmoqli o'rinnegallaydi. Bu -tabiiy hol. Negaki, u o'zining ikki kishi uchun yashalgan uzoq umri davomida ayriliqning ellik ikki yillik yo'llini bosib o'tib, hijron kuychisi va sadoqat timsoliga aylandi. Shoiraning nihoyasiz ayriliqning hasratlari aks etgan she'rlarida badbinlik, umidsizlik, noshukurlik, so'ngsiz qayg'uga asirlik tuyg'ulari yo'q. Uning hijronzada she'rlarida suyguvchi, suygani bois ayriliqdan qattiq kuyguvchi, ammo hayotdagi yorug'liklarni ko'ra olguvchi va ko'rganiga shukronalik qilguvchi aqilli ayol sezimlari aks etgan. Zulfiyaning mashhur "Bahor keldi seni so'roqlab" asarida uning hijron mavzusidagi barcha boshqa she'rlaridagi kabi kuchli dard, chegarasiz hijron aks etgan. Ulkan insoniy alam, o'kinchning she'rga yo'g'rilgan samimiy ifodasi she'rxonning ko'nglini titratadi. Chunki titragan ko'ngilning manzarasi she'rxon ruhiyati va hissiyotini ham titratishi tayin. She'rda ifoda etilgan shoira, bahor, yel timsollarining bari sog'inch dardiga mutbalo. Ularning uchalasi ham o'rik gullariga maftun bo'lib, bahor yellarini "baxtim bormi deya" so'roqqa tutgan, shoiranida, bahornida, yelnida yaxshi ko'rgan jingala sochli xayolchan yigit Hamid Olimjonni birday sog'inishgan. Bu dard uch qayg'ukashni bir-biriga yaqinlashtiradi, ularni bir-birini suyashga, bir-birini tuyishga undaydi.

Birinchi to'rtlik mazmun-mohiyati bilan she'rga kirish vazifasini o'taydi. Lirk qahramonning atrofidagi hamma narsa bahor qaytib kelganidan darak beradi. Tabiat marhamatli, unda fasllar aylanib kelaveradi. Ko'klam go'zalligiga burkangan olam -to'kis. Unda bultur bor bo'lgan narsalarning deyarli barchasi bu yil ham mavjud. Lekin lirk qahramon, bahorning o'zi va sarin yel uchun olam to'kis emas. Ular kimnidir qo'msaydi, qidiradi, topgisi keladi.

She'rning ikkinchi bandida lirk qahramon izlayotgan odamining tabiat qandayligini

tasvirlashga diqqat qaratiladi:

Qancha sevar eding, bag'rim, bahorni,
O'rik gullarining eding maftuni.
Har uyg'ongan kurtak hayot bergen kabi
Ko'zlaringga surtib o'parding uni.

She'rxon bahorni yaxshi ko'rgan, o'rik gullariga maftun bo'lib, sha'niga she'rlar bitgan, bahorda uyg'ongan har bir kurtak go'yo unga hayot berganday ko'zlariga surtib o'padigan odamning tabiatini, hissiyot olamini sezganday bo'ladi. Bahorning uni izlab sarsari kezishini ham bu shaxsning qandayligini ko'rsatuvchi belgi deyish mumkin. She'rda bahorning holati: "Qishning yoqasidan tutib so'radi seni, Ul ham yosh to'kdi-yu chekildi nari" misralari orqali berilishi ko'klamga muhabbat qo'yib, uni ham o'ziga shaydo qilgan shaxs tabiatini haqida muayyan tasavvur uyg'otadi. Bahorning qish yoqasidan tutishi shoira ko'ngil holatini ifodalashi bilan birga yaralish fasli ko'klamning yo'qotish fasli qishga munosabatini ham aks ettiradi. Olamni ramziy idrok etishga odatlangan xalqimizning badiiy tajribasi bu o'rinda "qish" timsoli o'lim ramzi sifatida kelayotganligini anglatadi. Qishning bahor bergen haq savolga javob topolmay ko'z yoshi to'kishi, nari chekinishi bilan lirik qahramonning ko'klam yeli so'roqlari qoshida lol qolishi holatidagi uyg'unlik tasviri she'rtonni o'ziga rom etadi. O'qirman o'z husnu ko'rkini ko'rsatmoqchi bo'lib shoir yigitni bog'lardan, yashil qirg'oqlardan qidirgan shabbodaning uni topolmagach, qahr bilan bo'onga aylanib jarliklarga bosh olib ketishi, alamdan tog'larning toshini soylarga qulatishi tasvirini tabiiy qabul qiladi. Sezgir o'qirman lirik qahramonning yanoqlari za'faronligi sabablari to'g'risida ham o'yga toladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam Zulfiyaxonim o'zbek she'riyatida o'ziga xos o'ringa ega shoira bo'lishi bilan birga inson sifatida ham shu xalqning barcha olijanob xislatlariga ega ayol bo'lgan. Bugun shu maqolani yozish va Zulfiyaxonimni ijodiga chuqurroq nazar solish orqali yana bir karra amin bo'ldimki, o'zbek adabiyoti XX asrda har qancha ziddiyatlari, mashaqqatli va murakkab yo'lni bosib o'tgan bo'lmasin, unda bir qator tom ma`nodagi ijodkorlar etishib chiqgan va ularni ichidagi porloq yuzluzlardan biri bu Zulfiyaxonim bo'lgan. Bugungi istiqlol kunlarida ularning ijodlari yangi qirralari bilan namoyon bo'lmoqda. Zulfiyaxonimning hayoti va ijodi barcha xotin-qizlar uchun ibrat. Negaki, uning hayotidagi mehnatsevarligi, doimo olg'a intilishi, sevgi bobida sadoqatli yor ekanligi, badiiy ijod borasida tinimsiz izlanuvchanligi hamda hayot qiyinchilik larida esankiramasligi, erishilgan yutuqlar oldida o'zini yo'qotmasligi har qanday qiz yoki ayol qalbida havas uyg'otadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sultonova M., Ijod sahifalari, Toshkent, 1975; Zulfiya [bibliografiya], Toshkent, 1977; Sultonova M., Zulfiya, Toshkent, 1985; Ibrohimov M., Quyoshli she'riyat ijodkori, Toshkent, 1986; Ehtirom [nashrga tayyorlovchilar: Rahima Shomansurova, Ra'no Rahmonova], Toshkent, 1995.
2. Naim Karimov, m. G. Gulyama, 1983 yil.
3. Qayumov L. Shoira Zulfiya. Toshkent, O'zadabiynashr, 1965.

4. Mirvaliev S. O'zbek adiblari. Toshkent: Yozuvchi", 2000.
5. Tanlangan asarlar (3 jildli), Toshkent, 1985.



Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

IMPORTANCE OF INTERNATIONAL TOURISM FOR MODERN SOCIETY AND ECONOMY

Xoliqberdiyeva Z.M¹

Summera Khalid²

State University of Oriental studies

KEYWORDS

Tourism, pandemic, international tourism, travelling, tourists, economy, digitalization and technology, tour operator, sustainable tourism, touristic sites.

ABSTRACT

This article focuses on the role of international tourism for the countries's economy, society and the other sectors as it is becoming increasingly worldwide. Due to the natural infrastructure and created facilities and conditions for tourists, countries are recieving millions of visitors every year. And the importance of international tourism is incomparable. International tourism has benefits not only for tourism industry of the country but also, becuse of it other fields can be developed by agreements and cooperations. For instance, governments get a better road infrastructure, accomodation system, it affects to residents's lifestyles and so on.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.14976619](https://doi.org/10.5281/zenodo.14976619)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

International tourism plays a crucial role in the global economy and society. It connects people from different cultures, drives economic growth, and enhances international cooperation. As the world becomes increasingly interconnected, tourism has become one of the most influential industries, providing countless benefits to countries worldwide.

Tourism is a major source of revenue for many countries. When tourists spend money on accommodation, food, transportation, and entertainment, it generates income that supports local businesses and industries. This influx of foreign currency helps improve a nation's overall economic stability. Furthermore ,the tourism industry provides millions of jobs across various sectors, including hospitality, transportation, retail, and entertainment. Tour guides, hotel staff, restaurant workers, and travel agencies all benefit from the demand created by international visitors.In additions to this, even in rural areas , people can get a job as seller, guide tourists in order to provide information about the culture and traditions

¹ Master, Department of Tourism, Tashkent State University of Oriental studies

² Associate Professor, Department of Foreign Economic Activity and Tourism, Tashkent State University of Oriental Studies, Tashkent, Uzbekistan

of dwellers in particular area. Small businesses, such as souvenir shops, traditional artisans, and local restaurants, thrive due to tourism. This encourages entrepreneurship and helps preserve local crafts and traditions as well. By evolving of international tourism, governments invest in better roads, airports, public transport, and other infrastructure projects to attract and accommodate tourists. These developments also benefit local residents by improving their quality of life. Moreover, tourism is a great opportunity for foreigners to learn about a new culture, but it also creates many opportunities for local citizens. It allows young entrepreneurs to establish new products and services that would not be sustainable on the local population of residents alone. Moreover, residents experience the benefits that come with tourism occurring in their own country.

But, unfortunately because of pandemic, number of flights were cancelled to other regions, as a result, tourism sector faced decline and it affected to the economy of worldwide at the same time. There was a massive decline in the travel and tourism industry in 2020. The tourism industry declined by more than 67% compared to the previous year. This makes one of the greatest downward shifts in the tourism industry ever recorded after subsequent time. Pacific island Fiji tends to face an economic crisis because of a decline in tourist and tourism activities. Countries relying totally on tourism were more affected this year. From January to May 2020. International tourist arrivals declined by more than 56% similarly in April it was recorded with a decline of 97%. The limited movement of people from place to place results in a massive loss for the aviation industry as well.

Air passenger was reduced by almost 60.2% compared to 2019. This creates the worst conditions for the airline industry. Among many industries airline industry was one of the most impacted as there was a decline in tourist flow.

Tourism's GDP contribution dropped from \$624.7 billion (2.9% of GDP) to \$356.8 billion (1.7% of GDP), marking the greatest decline in tourism history. Total number of visitors in 2020 was comparatively low compared with the past 10 years of data.

Overall global tourism in 2020 didn't grow that well the unpredictable circumstance has resulted in a massive decline in the GPD as well. There were approximately 1.5 billion tourist arrivals in 2019 and the number declined by more than 75% in 2020 the estimated tourist arrival in 2020 was around 381 million only. Compared with the 2019 tourist arrival the data fluctuation is very high.

Social and cultural importance of international tourism: Tourism allows people from different backgrounds to interact, fostering mutual understanding and tolerance. Tourists learn about new traditions, languages, and lifestyles, while locals gain exposure to foreign cultures. It creates new relations between foreigners and local people and it will even affects to whole countries friendship and brings to agreements another fields as well. This is one of the benefits of tourism for economy and society respectively. Apart from this, tourism preserves heritage and nature that many historical sites, museums, and national parks are maintained because of tourism revenue. Additionally, eco-tourism promotes environmental conservation efforts and sustainable practices.

And by making tourists informed about our culture and traditions, they will be curious about our ethnics and they are the ones who bring other visitors to our country and it will be great contribution to tourism development .For example , visitors choose to travel to India not only because of its nature's beauty but also rich heritage and culture and they have much desire to experience their traditions such as holidays, to see their traditional clothes and so on.

Moreover, tourism helps build positive relationships between countries by increasing diplomatic and business opportunities. It also enhances a country's global image, making it more attractive for investment and cooperation. We can take Turkey and China as examples who have the diplomatic relations between countries that more and more tourists visit to these countries which can reinforce countries deals and agreements.

And also, as tourism grows, governments improve public services such as healthcare, security, and environmental protection to accommodate visitors. These improvements benefit both tourists and local residents.

An opportunity for sustainable development :

Tourism offers great opportunities for emerging economies and developing countries. It creates jobs, strengthens the local economy, contributes to local infrastructure development and can help to conserve the natural environment and cultural assets and traditions, and to reduce poverty and inequality. This can be achieved, in particular, if local people are able to benefit from the income opportunities arising from tourism.

Tourism offers vast potential, but it is also an industry that is vulnerable to crises. People's decisions on where to travel depend greatly on their personal view of the overall situation at a given destination. Security plays a key role in this context. This is an aspect for which tourists rely, for example, on travel warnings issued by their home countries' foreign ministries. But other factors play a key role, too. During the COVID-19 pandemic, global tourism declined dramatically starting in 2020. Within a very short period, the industry's ways of operating and the level of revenue changed fundamentally. According to United Nations figures, up to 100 million jobs in the tourism sector were at risk. However, tourism generally recovers more quickly from crises than other industries.

The Federal Ministry for Economic Cooperation and Development (BMZ) supports the efforts of its partner countries to develop the tourism sector in such a way that it becomes resilient to crises and offers income and employment opportunities to the population at large. The private sector is an important partner for the transition to economically and environmentally sustainable tourism.

Coming back to the benefits of international tourism for society ,It is the local culture that the tourists are often coming to visit and this is another way to demonstrate the importance of international tourism.

Tourists visit Beijing to learn more about the Chinese Dynasties. Tourists visit Thailand to taste authentic Thai food. Tourists travel to Brazil to go to the Rio Carnival, to mention a few...

Many destinations will make a conserved effort to preserve and protect the local culture.

This often contributes to the conservation and sustainable management of natural resources, the protection of local heritage, and a renaissance of indigenous cultures, cultural arts and crafts. Events and festivals of which local residents have been the primary participants and spectators are often rejuvenated and developed in response to tourist interest. The jobs created by international tourism can also be a great boost for the local community. Aside from the economic impacts created by enhanced employment prospects, people with jobs are happier and more social than those without a disposable income.

Local people can also increase their influence on tourism development, as well as improve their job and earnings prospects, through tourism-related professional training and development of business and organisational skills.

International tourism can see rise to many commercial business, which can be a positive social impact of tourism. This helps to enhance the community spirit as people tend to have more disposable income as a result. These businesses may also promote the local cultures and arts. Museums, shows and galleries are fantastic way to showcase the local customs and traditions of a destination. This can help to promote/ preserve local traditions. Another reason for the importance of international tourism is the preservation of heritage. Many tourists will visit the destination especially to see its local heritage. It is for this reason that many destinations will make every effort to preserve its heritage. This could include putting restrictions in place or limiting tourist numbers, if necessary. This is often an example of careful tourism planning and sustainable tourism management. Furthermore, tourism has a big influence on environmental conservation and sustainable practices that Communities may protect forests, wildlife, and marine ecosystems, knowing that these natural resources are key tourism assets. Sustainable tourism practices, such as responsible waste management, energy conservation, and eco-friendly initiatives, benefit the environment and support community well-being.

Destinations and tourism organizations can further these efforts by developing tourism ambassador certificate programs focused on environmental stewardship. Educating ambassadors on sustainability principles and eco-friendly practices prepares them to inspire visitors to act responsibly, ensuring the destination's natural beauty and resources are protected for generations to come. This would be fruitful for both nature and tourists that both side would see profit and especially governments do not have to much effort in order to protect environment and nature.

Now, I am going to describe pre pandemic situation in International tourism with bringing statistics : International tourism virtually recovered (99%) pre-pandemic levels in 2024, with most destinations exceeding 2019 numbers.

2024 marks the consolidation of international tourism recovery from its worst crisis ever, four years after the outbreak of the COVID-19 pandemic. An estimated 1.4 billion international tourists (overnight visitors) were recorded around the world in 2024, an increase of 11% over 2023, or 140 million more.

Results were driven by strong post-pandemic demand, robust performance from large source markets globally, as well as the ongoing recovery of destinations in Asia and

the Pacific.

The Middle East remained the strongest-performing region when compared to 2019, with international arrivals climbing 32% above pre-pandemic levels in 2024, though 1% compared to 2023.

Europe welcome 1% more arrivals than in 2019 and 5% over 2023, while Africa saw a 7% increase in arrivals compared to 2019 and 12% more than in 2023.

The Americas recovered 97% of its pre-pandemic arrivals, and Asia and the Pacific 87%. By subregions, North Africa (+22%) and Central America (+17%) saw the strongest performance in 2024 over 2019. Total export revenues from tourism (including passenger transport) are estimated at a record USD 1.9 trillion in 2024, about 3% higher than before the pandemic and 4% more than in 2019 (real terms). International tourism export had already recovered pre-pandemic levels in 2023. International tourist arrivals are expected to grow 3% to 5% in 2025 compared to 2024, according to preliminary estimates.

The positive outlook for the sector is reflected in the latest UN Tourism Confidence Index, with a score of 130 for 2025 (based on a scale of 0 to 200, where 100 equals similar performance). About 64% of UN Tourism Panel of Experts indicate 'better' or 'much better' prospects for 2025 compared to 2024.

In conclusion, international tourism has always much more benefits for economy growth, society, accommodation, transport system and so on rather than its drawbacks. So that, every country should highlights and take obstacles which are being barries to develop international tourism as it has many advantages from many aspects.

References

1. Richard Sharpley & David J. Telfer
2. info@unwto.org
3. P. C. Pearce – Tourist Behaviour: Themes and Conceptual Schemes
4. <https://tourismteacher.com/international-tourism/>
5. <https://www.schroders.com/en-gr/gr/professional/insights/how-important-is-international-tourism-to-the-global-economy/>
6. Fayzullayev, B.Z. and Khalid, S., 2023. Navigating The Digital Divide: Analysing The Impact Of Technology And Connectivity On Modern Trends In International Labor Migration. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 20, pp.80-92.
7. Oyatullokh Akmalov, ., & Dr. Summera Khalid, . (2024). THE IMPACT OF LOGISTICS ON GLOBAL ECONOMIC DEVELOPMENT: A COMPREHENSIVE REVIEW. *The American Journal of Management and Economics Innovations*, 6(02), 40–43. <https://doi.org/10.37547/tajmei/Volume06Issue02-05>
8. Khalid, S. ., Stecenko, I. ., Kadirova, Z. ., Nurieva, A. ., & Gazieva, S. . (2023). Green Economy, Growth, and Deal: a Triad for Sustainable Development Goals. *SGS - Engineering & Sciences*, 2(02). Retrieved from <https://spast.org/techrep/article/view/4444>



Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

KASALLIKLARNING OLDINI OLİSH VA SALOMATLIKNI MUSTAHKAMLASH

Dusmurodova Mashhura¹

Buxoro davlat tibbiyot instituti

KEYWORDS

sog'lom turmush tarzi,
profilaktika, salomatlikni
mustahkamlash, kasalliklar,
immunitet.

ABSTRACT

Mazkur maqolada kasalliklarning oldini olish va salomatlikni mustahkamlashning muhim jihatlari ko'rib chiqilgan. Profilaktika choralar, sog'lom turmush tarzini shakllantirish usullari va jamoaviy salomatlikni ta'minlash masalalari batafsil tahlil qilinadi. Mazkur mavzuning dolzarbliyi va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati ham yoritiladi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

KIRISH

Bugungi kunda inson salomatligini ta'minlash va kasalliklarning oldini olish global ahamiyat kasb etmoqda. Sog'lom turmush tarzi, to'g'ri ovqatlanish, jismoniy faollik, va yomon odatlardan voz kechish kabilar nafaqat individual sog'liqni, balki butun jamiyatni mustahkamlashda muhim omillardir. Shuningdek, tibbiy xizmat sifati va sog'liqni saqlash tizimi samaradorligini oshirish orqali jamiyatning umumiy salomatligini yaxshilash mumkin. Ushbu maqolada ushbu masalalarning nazariy va amaliy jihatlari ko'rib chiqiladi.[1]

Profilaktika choralar va ularning ahamiyati

Kasalliklarning oldini olishning birlamchi (immunizatsiya, gigiyena), ikkilamchi (o'z vaqtida diagnostika va davolash) va uchlamchi (remissiya davrida parvarish qilish) turlari mavjud. Har bir bosqichda davlat va shaxsiy sa'y-harakatlar uyg'unligi muhimdir.

Sog'lom turmush tarzini shakllantirish

¹ Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot institute 3-bosqich talabasi

To‘g‘ri ovqatlanish va jismoniy mashqlar bajarish, yomon odatlardan voz kechish sog‘lom turmush tarzining asosiy komponentlaridir. Xususan, balansli dietani qo‘llash va haftasiga kamida 150 daqiqa jismoniy faol bo‘lish tavsiya etiladi.

Jamoaviy salomatlikni mustahkamlash

Jamiyatda salomatlikni mustahkamlash dasturlarining amalga oshirilishi katta ahamiyatga ega. Davlat darajasida olib borilayotgan sog‘liqni saqlash dasturlari, masalan, profilaktika tadbirlari va sportni ommalashtirish orqali aholi salomatligi sezilarli darajada yaxshilanishi mumkin.

Profilaktika usullarini ikki asosiy guruhga ajratish mumkin:

- Xavf omillariga bevosita ta’sir ko‘rsatish:** Bu usullar ma’lum bir kasallikni rivojlanish xavfi mavjud bo‘lganda, mutaxassis tomonidan belgilanadi va maxsus profilaktika deb ataladi.
- Umumiy salomatlikni saqlash va immunitetni mustahkamlash:** Bu chora-tadbirlar organizmning umumiy holatini kerakli darajada ushlab turish va hayotiy energiyani oshirishga qaratilgan.

Profilaktika turlari

Kasalliklarning oldini olish bilan shug‘ullanuvchi tibbiy profilaktika uchta asosiy guruhga bo‘linadi:

- Birlamchi profilaktika:** Kasallik yo‘qligida uni oldini olish va sog‘lom holatni saqlashga qaratilgan. Ushbu bosqichda organizmni umumiy mustahkamlash, doimiy tibbiy ko‘rikdan o‘tish, shaxsiy gigienani saqlash va vitaminli preparatlarni qabul qilish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, vaksinalar ham birlamchi profilaktikaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.
- Ikkilamchi profilaktika:** Bu bosqichda maqsad kasallikni erta aniqlash va uni o‘z vaqtida davolash orqali asoratlarning oldini olishdan iborat.
- Uchlamchi profilaktika:** Bu usul kasallikdan keyin qayta asoratlar yuzaga kelishini oldini olishga qaratilgan.

Birlamchi profilaktika sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va shifokor bilan muntazam maslahatlardan foydalanish orqali yuqumsiz kasalliklarning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi.[2]

Profilaktik tibbiyot va sog'liqni saqlash amaliyoti o'rtasidagi chegara profilaktika va davolash o'rtasidagi oddiy farqdan ko'ra murakkabroq. Profilaktik tibbiyot sohasini Leavell va Clark tomonidan taklif qilingan klassifikatsiya doirasida birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktika bosqichlarini qamrab oluvchi tarzda aniqlash odat tusiga kirgan. Ushbu modelga qo'shimcha ravishda, boshqa tadqiqotchilar tomonidan to'rtlamchi profilaktika tushunchasi ham joriy qilingan bo'lib, bu haddan tashqari tibbiylashtirishni kamaytirish va bemorlarni ortiqcha yoki invaziv tibbiy aralashuvlardan himoya qilishni maqsad qiladi.

Bundan tashqari, birlamchi profilaktika ijtimoiy omillarga (masalan, ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va xulq-atvoriy omillar) ta'sir ko'rsatish orqali kasallik xavfini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ham o'z ichiga oladi.

Ushbu maqola profilaktikaning turli darajalari kontekstida integrativ va profilaktik tibbiyot o'rtasidagi aloqalar va ularning birgalikda samarali ishlashi uchun konseptual yondashuvni muhokama qiladi. Bundan tashqari, u ushbu mavzuda ilgari XMT (hozirgi Milliy Tibbiyot Akademiyasi) tomonidan e'lon qilingan maqolaning yangilangan ko'rinishini taqdim etadi va jamoatchilik uchun ochiq foydalanishga havola qiladi.[3]

Odamlarda turmush tarzi, mavsum, organizmning moyilligi va zararli odatlar mavjudligiga qarab turli davrlarda uchraydigan asosiy patologiyalarni quyidagicha ajratish mumkin:

- **Umurtqa bilan bog'liq muammolar:** Bular skolyoz, osteoxondroznning mavsumiy avj olishi, umurtqa siljishi, churra va boshqa kasallikkarni o'z ichiga oladi.
- **Yurak-qon tomir tizimi kasalliklari:** Asosan keksa yoshdag'i insonlar duch keladigan muammolar bo'lib, organizmning qarishi sababli tomirlar tiqilib qoladi. Davolashsiz, bunday kasalliklar doimiy og'riqlar bilan kechadi.
- **Tish kasalliklari:** Tishlarning parvarishi yoshligidan boshlab insonning sog'lom hayotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Tish kasalliklarining profilaktikasi nafaqat og'iz bo'shlig'i, balki yuz skeleti va organizmning boshqa ko'plab a'zolaridagi patologiyalarning oldini olishga yordam beradi.
- **Nafas olish tizimi patologiyalari:** Bu kasalliklar nafas qisishi va og'ir yo'tal kabi muammolar orqali hayot sifatini sezilarli darajada yomonlashtirishi mumkin. Profilaktika usullari ushbu patologiyalarga moyil aholi uchun katta foyda keltiradi.

- **Ichak kasalliklari:** Har bir inson hayoti davomida kamida bir marta bunday patologiyalardan aziyat chekkan. Bu kasalliklar bolalar va kattalar orasida yetakchi o'rin tutadi.
- **Yuqumli bo'limgan zararlanishlar:** Bu kasalliklar ko'proq bolalarda uchrab, ularning profilaktikasi uchun alohida yondashuv va chora-tadbirlar talab etiladi.

Har bir kasallikni mustaqil holda ko'rib chiqish mumkin, ammo davolashning maksimal samarasi organizmni yagona tizim sifatida qabul qilib, kompleks yondashuvni qo'llaganda erishiladi. Afsuski, ko'pincha bunday yondashuv kamdan-kam uchraydi. Organizm yaxshi holatda bo'lsa va bezovtalik bo'lmasa ham, kasallikni kutmasdan profilaktik choralarini erta boshlash muhimdir.[4]

Patologiyalarning birlamchi profilaktikasi quyidagi kompleksni o'z ichiga oladi:

Nafas olish kasalliklariga qarshi profilaktika – bu eng oddiy va samarali usullardan biri bo'lib, dorivor o'simliklar bilan bug'ni nafas olishni o'z ichiga oladi. Misol uchun, kartoshka bug'ini nafas olish burun shilliq qavatining tez tiklanishiga yordam beradi va yallig'lanishga qarshi tinchlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, ignabargli daraxtlar, masalan, archa yoki qarag'ay efir moylari shilliq qavatni moylash orqali mikroblar va boshqa patologik organizmlarga qarshi kurashishda yordam beradi. Burun tomchilari ham kasalliklarning oldini olishda muhim rol o'yaydi.

Fizioterapiya muolajalari profilaktikadan ko'ra ko'proq davolashda qo'llaniladi, ammo sog'lomlashtirish kurslarini o'tkazish zaruriyatini har bir inson mustaqil ravishda belgilashi kerak.

Bolalik kasalliklarining oldini olish choralar: Boshlang'ich va maktab yoshidagi bolalar ko'proq kasalliklarga moyil bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar doimiy aloqada bo'lib, shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilmasliklari kasalliklarga sabab bo'ladi. Bola o'yinchoqlarni og'ziga kiritishi yoki qo'l yuvmasdan ovqatlanishi mumkin. Shuning uchun bolalarda kasalliklarning oldini olish sanitariya-ma'rifiy ishlar orqali amalga oshirilishi kerak. Bolalar to'g'ri qo'l yuvishtirish, gigiena qoidalariga rioya qilishni o'rganishlari kerak, va ota-onalar ularga namuna bo'lishlari lozim.

Bolalikdagi kasalliklarning oldini olish keng qamrovli bo'lib, barcha organlarning yaxshilanishiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Bolaning tanasi doimiy ravishda rivojlanib

boradi, shuning uchun u kasalliklarni tez-tez boshidan kechiradi. Yuqumli bo'lмаган kasalliklar profilaktikasi bir nechta omillarga bog'liq:

- **Ota-onalarning salomatligi:** Bolalar ko'p vaqtini uyda o'tkazadilar va ularning salomatligi bolalarga ta'sir qiladi. Ota-onalarning surunkali kasalliklariga genetik moyillikni tekshirish kerak.
- **Intrauterin rivojlanish:** Homiladorlik davrida ayollar nafaqat ginekologlar, balki boshqa mutaxassislar bilan maslahatlashishi kerak.
- **Yashash sharoitlari:** Bolaning yashash joyi uning salomatligiga ta'sir qiladi, shuning uchun sharoitlarni yaxshilash tananing rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi.
- **Faol hayot tarzi:** Bolalarga maxsus gimnastika va sport klublariga qatnashish tavsiya etiladi, bu esa skolyoz va boshqa kasalliklarning oldini olishga yordam beradi.
- **O'qish va dam olish tartibi:** Bolaning uyqusi va immun tizimi normal ishlashi uchun yaxshi dam olish kerak.
- **Stressni boshqarish:** Stressni kamaytirish, ota-onsa bilan munosabatlarni tartibga solish va yomon natijalardan saqlanish zarur.

Bularning barchasi bolalar hayotini yengillashtirishi, kasalliksiz va sog'lom bo'lishiga yordam beradi.[5]

Yurak kasalliklarining oldini olish organizmning umumiy sog'lig'ini yaxshilashdagi asosiy bosqichlardan biridir. Atrof-muhit va turmush darajasining yomonlashuvi barcha tizimlar va organlarning faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, bu ayniqsa yurak va qon tomirlarida sezilarli.

Yurak va qon tomir tizimi kasalliklarining oldini olish quyidagi choralarni o'z ichiga oladi:

- Tug'ma nuqsonlar yoki surunkali kasalliklar mavjud bo'lsa, ovqatlanish tartibini belgilash va individual parhezni yaratish.
- Faol turmush tarzi yurak kasalliklarining oldini olishda muhim rol o'ynaydi, chunki jismoniy faolsizlik organizmda tuzlar va yog'larning yig'ilishiga olib keladi, bu esa yurak-qon tomir tizimi muammolariga sabab bo'lishi mumkin.
- Jismoniy faollik yurak va qon tomir tizimi kasalliklarini oldini olishda sanatoriyalar va kurortlarda amalga oshiriladigan profilaktika muolajalarining muhim qismi hisoblanadi.

- Stressdan saqlanish yurak salomatligini saqlashda asosiy omildir. Asab tizimining ortiqcha kuchlanishi qon tomirlarining holatiga zarar yetkazadi.
- Chekish, spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar va kimyoviy moddalarni iste'mol qilishdan voz kechish yurak faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.
- Doimiy tibbiy tekshiruvlar kasalliklarni erta bosqichda aniqlashga yordam beradi va ularni samarali davolash imkonini beradi. Tish salomatligi boshqa organlar bilan chambarchas bog'liqdir, shuning uchun og'iz bo'shlig'ini tozalash va tibbiy tekshiruvlar yurak kasalliklarining oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda Sanoatning rivojlanishi mamlakat taraqqiyoti, iqtisodiy barqarorlik va siyosiy jarayonlarni belgilovchi omillardan biri hisoblanadi. Sanoat barcha sohalarning yig'indisi hisoblanadi. Bu mamlakat ishlab chiqarishining alohida tarmog'i bo'lib, tarixan aholi mehnat taqsimotining rivojlanishi bilan bog'liq. Sanoat doimiy ravishda tadqiqotlar va maxsus qonunlar va qoidalarga asoslangan holda rivojlanmoqda. Rivojlansa, xodimlar soni ko'payadi, bilim va malakasi oshadi, kadrlar salohiyati yanada yuqori bosqichga ko'tariladi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.1501309](https://doi.org/10.5281/zenodo.1501309)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Zamonaviy sharoitlarda O'zbekistonda paxta xom-ashyosining eksportini qisqartirish, o'shimcha qiymatga ega mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirish va tayyor o'qimachilik mahsulotlarini eksport qilish hajmini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston jahonda paxta xom-ashyosini ishlab chiqarish bo'yicha 7-o'rinni, eksport qilish bo'yicha 8-o'rinni egallab turibdi. Mamlakat korxonalari tomonidan 2 mln. tonnadan ortiq paxta xom-ashyosi va 900 ming tonna kalava-ip ishlab chiqariladi. Ushbu holat O'zbekistonda to'qimachilik sanoatini rivojlanirish bo'yicha ulkan salohiyat mavjudligidan dalolat beradi.

To'qimachilik sanoati aholi bandligining yuqori darajasini, mamlakat iqtisodiy salohiyatini va jahon miqyosidagi nufuzini ta'minlab beradigan strategik soha bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, qulay geografik joylashuv ham O'zbekistonning dunyoning ko'plab davlatlari bilan o'zaro manfaatli hamkorligini o'rnatish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

¹ Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

² Guliston davlat universiteti talabasi

Muhokama va natijalar

Zamonaviy jihozlarni kiritish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish, samarali boshqaruva usullaridan foydalanish orqali to'qimachilik sohasida rivojlanishning yangi cho'qqilarigaerishilmoqda. Bugungi kunda respublikamiz paxta tolsi eksporti bilan cheklanib 5-maydagi PF-5989-sonli Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonga ko'ra:

"Ishlab chiqarilayotgan to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari tannarxini pasaytirish hamda raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish";

Yangi istiqbolli tashqi bozorlarni izlash, mahalliy to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari eksportini rag'batlantirish";

"Eksportga yo'naltirilgan tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlariga ixtisoslashgan jahon brendlari vakillari bilan ushbu mahsulotlarni O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarishni tashkil etish va tayyor mahsulotlarni, shu jumladan respublikaning ishlab turgan korxonalari quvvatlarida tikish bo'yicha yirik buyurtmalarni shakllantirish yuzasidan muzokaralar o'tkazish";

"Yevropa Ittifoqi, Turkiya, Koreya, Hindiston va boshqa davlatlardan tikuv-trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasidagi yetakchi ekspertlarni mazkur sohani isloq qilish bo'yicha maslahatchilar sifatida Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag'batlantirish agentligi mablag'lari hisobidan jalb qilish";

"Yirik to'qimachilik sanoati korxonalari faoliyatini ularning moliyaviy barqarorligi nuqtai nazaridan stress-testdan o'tkazish";

"Stress-test natijalariga ko'ra to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalarining unumdorligi, moliyaviy samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha takliflarni hamda mahalliy to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati raqobatbardoshligini ta'minlashni hisobga olgan holda tarmoqni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish";

"Jahon brendlарини jalb qilgan holda tashqi bozorlarda talab katta bo'lgan yuqori qо'shilgan qiymatga ega tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari va yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish, shu jumladan ularni yirik hududiy to'qimachilik-tikuvchilik klasterlari hududida joylashtirish bo'yicha 2021-2025- yillarga mo'ljallangan investitsiya loyihalarini tasdiqlash";

"2020-2025-yillarda amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari, shuningdek, to'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarini aylanma mablag'lar bilan ta'minlash, O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining 300 mln AQSH dollari miqdoridagi kredit liniyalari mablag'lari, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati

uchun ochilgan tijorat banklari kreditlari, xalqaro moliya institutlari qarz mablag'lari va xorijiy banklar kredit liniyalari hisobiga, shu jumladan quyidagilar orqali moliyalashtirish";

“To‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishning butun davri (paxtani yetishtirishdan boshlab tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha) bo‘yicha qo‘silgan qiymat zanjiri shakllanishini batafsil tahlil qilish asosida mahalliy tayyor mahsulotlarning eksport bozorlarida raqobatbardoshligini ta’minlash maqsadida to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalarining narx shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish” kabi chora-tadbirlar belgilab berildi

Mamlakat to‘qimachilik sohasining rivojlanish darajasi o‘rganilganda oxirgi yillarda ishlab chiqarish hajmining 18 %ga, eksport hajmining 10 %ga o‘sganligini ko‘rish mumkin. 2022-2024-yillarda to‘qimachilik sohasining umumiyligi sanoat hajmidagi ulushi 33 %ga yaqin, YAIMdagi ulushi esa 4,5 %ni hamda nooziqovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida 50 foizni tashkil etdi. O‘zbekistonda kalava-ip, pahta matosi, trikotaj mato, paypoq kabi to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqaradigan 7320 dan ortiq korxonalar faoliyat



yuritmoqda.

1-rasm. To‘qimachilik sanoati mahsulotlarining alohida turlarini ishlab chiqarish dinamikasi, mln. dollarda

Keyingi yillarda to‘qimachilik sanoatida tarkibiy o‘zgarishlar kuzatilgan. Paxta tolasini ishlab chiqarish hajmi kamayib borgani holda yuqori qo‘srimcha qiymatga ega bo‘lgan tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishning o’sishiga erishilgan. Trikotaj mato hajmi 533,3 mln. kv. metrni tashkil etib, o’tgan yillarga nisbatan 2 marotaba o‘sgan. Shuningdek, trikotaj mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmi 150 %ga oshgan. Ushbu holat ijobjiy hisoblanib, to‘qimachilik sanoatining yildan yilga rivojlanib borayotganligidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 dekabrdagi PF-5282-sonli farmoni bilan “O‘zbekto‘qimachiliksanoat” uyushmasining tashkil etilishi mamlakat to‘qimachilik sanoatini isloq qilish va rivojlantirish borasidagi muhim qadam bo‘ldi.


Uyushma trikotaj gazlama (89 ta korxona), tayyor to‘qimachilik mahsulotlari (495 ta korxona), tikuvchilik mahsulotlari (354 ta korxona), paypoq mahsulotlari (54 ta korxona), to‘qimachilik galantereyasi (20 ta korxona) va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi 1400 dan ziyod korxonalarini birlashtiradi. Shulardan 156 nafar to‘qimachilik korxonalarini

AQSH, Germaniya, Singapur, Shveytsariya, Italiya, Yaponiya, Hindiston, Janubiy Koreya kabi davlatlar investorlari ishtirokida tashkil etilgan qo'shma korxonalar hisoblanad.

Bugungi kunda Uyushma korxonalari tibbiy yo'nalishdagi mahsulotlarga hamda noto'qima matolarga bo'lgan yuqori talabni e'tiborga olgan holda innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirmoqda.

Yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor trikotaj va tikuvchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasida samaradorlikni ta'minlash maqsadida 2017-2023 yillarda ushbu sanoatni yanada rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi amalga oshirildi. Dasturda belgilangan vazifalarni bajarish asosida 2020 yilga kelib kala-ip ishlab chiqarishni 2,5 baravar, tayyor matolarni ishlab chiqarishni 2,8 baravar, noto'qima materiallarni ishlab chiqarishni 1,5 baravar, trikotaj matolarni 2,7 baravar, tikuvchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni 3,2 baravar, trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishni 2,1 baravar, ipak xomashyosini yetishtirishni 2,1 baravar ko'paytirishga erishildi. 2023-yilda mato ishlab chiqarish hajmi 459,2 mln. kv. metrdan oshib, 2011 yilga nisbatan 5,4 baravarga o'sish ta'minlandi. To'qimachilik sanoati mahsulotlari eksportida ham o'sish kuzatilgan. 2023 yilda eksport hajmi o'tgan yilga nisbatan 1,6 %ga oshgan va 1867,2 mln. dollarni tashkil etgan.

Mahsulotlar asosan Rossiya Federatsiyasiga (37,7 %), Xitoy (27 %) va Turkiya (11,2 %) mamlakatlarga eksport qilingan.



2-rasm. Eksportga yo'naltirilgan to'qimachilik mahsulotlarining tarkibiy o'zgarishi, mln. dollarda

To'qimachilik sanoati mahsulotlari eksporti tarkibini o'rganish davomida kalava-ip eng katta salmoqni egalaganini ko'rish mumkin. O'zbekiston to'qimachilik sanoati tarkibida kalava-ip ishlab chiqaruvchi korxonalarining katta ulushga ega ekanligi, yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonlarining

to'liq yo'lga qo'yilmaganligiga natijasida tayyor tikuvchilik va trikotaj mahsulotlari salmog'ining kamayishiga sabab bo'lgan.

Bugungi kunda O'zbekistonda yetishtirilgan paxta xom-ashyosining 48 foizi chet mamlakatlarga eksport qilinadi, qolgan 52 foizi esa mahalliy korxonalar tomonidan qayta ishlanadi. Paxta tolasini ishlab chiqaruvchi korxonalar soni qariyb o'zgarishsiz qolgan. Ushbu holat kelgusida paxta tolasiga bo'lgan ehtiyojning o'sishini yuzaga keltirishi mumkin. Shunga ko'ra mamlakatda paxta tolasini ishlab chiqaruvchi korxonalar va uni qayta ishlab qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar mutanosibligini ta'minlashga e'tiborni qaratish zaru

Xulosa

Xulosa qilish mumkinki, mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan Dasturlar, mahsulot raqobatbardoshligini oshirish

maqsadida jalg etilayotgan investitsiyalar to'qimachilik sanoatining kelgusida barqaror o'sishini ta'minlash bilan to'qimachilik sanoatining mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi o'rmini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sharipova, N., Sherkulova, N., Isayeva, R., Islamova, R., & Abdukadirova, M. (2024). RESEARCH OF THE PROCESS OF ENRICHMENT OF NATURAL SILK FIBER AND NITROINE FIBERS MATERIALS. *Modern Science and Research*, 3(2).
2. Шарипова, Н., Шеркулова, Н., Исаева, Р., Исламова, Р., & Абдукадирова, М. ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССА ОБОГАЩЕНИЯ МАТЕРИАЛОВ НАТУРАЛЬНОГО ШЕЛКОВОГО ВОЛОКНА И НИТРОННЫХ ВОЛОКОН.
3. Шарипова, Н., Шеркулова, Н., Исаева, Р., Исламова, Р., & Абдукадирова, М. ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССА ОБОГАЩЕНИЯ МАТЕРИАЛОВ НАТУРАЛЬНОГО ШЕЛКОВОГО ВОЛОКНА И НИТРОННЫХ ВОЛОКОН.
4. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=vxWbOTcAAAAJ&citation_for_view=vxWbOTcAAAAJ:u-x6o8ySG0sC
5. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=vxWbOTcAAAAJ&citation_for_view=vxWbOTcAAAAJ:qjMakFHDy7sC
<https://ijournal.uz/index.php/judr/article/view/1930?articlesBySimilarityPage=2>



Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

QIZILO'NGACHNING KARDIAL SOXASIDA UCHRAYDIGAN POLIPLARNING ZAMONAVIY DAVOLASH USULLARI

Valiyev Behruzbek¹

Musojonov Baxodir²

Central Asian Medical University

KEYWORDS

qizilo'ngach, polip, kardial, giperplaziya, o'sma, polipektomiya, invaziv, submukozal, biopsiya, giperplastik, adenomatoz, fibrovoz.

ABSTRACT

Ushbu maqolada qizilo'ngachning kardial soxasida uchraydigan poliplar hamda uni davolashning zamonaviy usullari to'g'risida fikr yuritiladi. Hozirgi tibbiyot rivojlanayatgan davrda yuqoridagi kasallikni davolash keng foydalanib kelinayotgan endoskopik polipektomiya (Endoskopik rezeksiya), jarrohlik yo'li bilan olib tashlash, perioperatsion tekshiruv va qo'shimcha muolajalar, davolashdan keyingi kuzatuv (monitoring) usullar to'laqonli ochib berilgan.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.15013118](https://doi.org/10.5281/zenodo.15013118)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Qizilo'ngachning "kardial" sohasi deb ko'pincha qizilo'ngachning me'da bilan tutashdigan joyi (ya'ni qizilo'ngach-me'da tutashgan qism) nazarda tutiladi. Ushbu sohada yuzaga keladigan poliplar odatda kam uchraydi, lekin ular xomilaning embrional rivojlanish nuqsonlari, yallig'lanish kasalliklari yoki shilliq qavatning g'ayrioddiy o'sishi (giperplaziya) bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Mazkur poliplarni davolashdan asosiy maqsad – polip hujayralarida xavfli (o'sma) o'zgarishlar paydo bo'lish ehtimolini bartaraf etish va bemorni kelgusidagi asoratlardan himoya qilishdir.

Hozirgi tibbiyot rivojlanayatgan davrda yuqoridagi kasallikni davolash borasida quyidagi zamonaviy davolash usullaridan keng foydalanishga o'tilmoqda.

Endoskopik polipektomiya (Endoskopik rezeksiya). Endoskopik polipektomiya (EMR – Endoscopic Mucosal Resection).

Bu usulda maxsus endoskopik asbob yordamida polipning shilliq qavatga yopishgan qismi (poychasi yoki asosiy tag qismi) kesib olinadi. Polip nisbatan kichik bo'lsa, uning hammasini bir yo'la olib tashlash imkonini beradi. Endoskopik submukozal diseksiyon (ESD – Endoscopic Submucosal Dissection). Polip katta hajmda yoki tag qismi keng bo'lsa, ESD

¹ CAMU xalqaro tibbiyot universiteti 1- bosqich Davolash ishi yonalishi 1624-guruh talabasi

² Central Asian Medical University Tibbiyot fakulteti Embriologiya sitologiya gistologiya fani assistenti

texnikasi qo'llaniladi. Bunda shilliq qavat osti qatlamiga (submukoza) kirib borib, polipni to'liq ajratish maqsadida maxsus pichoq va endoskopik uskunalaridan foydalaniladi. Katta poliplar yoki gumonli (displaziya) o'zgarishga ega bo'lgan neoplazmalarni aniqlash va to'liq rezeksiya qilishda samarali usul hisoblanadi. Afzalliklari: minimal invazivligi (tana to'qimalariga kam shikast yetadi). Tez tiklanish davri: diagnostik qiymati yuqori (olingan polip gistologik tekshiriladi). Kamchiliklari: malakali endoskopist va zamonaviy apparatlarga ehtiyoj. Ba'zan qon ketishi yoki perforatsiya kabi asoratlar xavfi mavjud.

Jarrohlik yo'li bilan olib tashlash.

Agar polip:

- Katta bo'lsa
- Asosiy qatlamlarga chuqur kirib ketgan bo'lsa
- Malign (xavfli) o'sma sifatida gumon qilinsa
- Endoskopik davolash imkonи bo'lmasa yoki texnik jihatdan murakkab bo'lsa, unda jarrohlik usuli – ochiq yoki laparoskopik (ba'zan torakoskopik) operatsiya qo'llanilishi mumkin.

Ba'zi hollarda polip bilan birga qizilo'ngachning muayyan qismi yoki me'daning kardial sohasi rezeksiya qilinadi. Bunday operatsiyalarda katta hajmli bo'lishi, bemorning umumiy holati va asoratlar xavfi hisobga olinishi talab etadi.

Perioperatsion tekshiruv va qo'shimcha muolajalar quyidagilar.

Endoskopik ultratovush (EUS) tekshiruvi: Polipning shilliq osti (submukoza) qatlamlarga kirib-kirmaganini aniqlash, uning tuzilishi va qon tomirlariga yaqinligini baholashda yordam beradi.

Biopsiya va gistologik tekshiruv: Polipning turi (giperplastik, adenomatoz, fibrovoz, va hokazo) va xavfli hujayralar bor-yo'qligini aniqlash uchun biopsiya olinadi va gistologik tahlil qilinadi. Bu kelgusida davolash rejasini tanlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Gastroezofageal reflyuks kasalligi (GERD) yoki boshqa yallig'lanish omillarini davolash: Kardial sohada poliplar tez-tez yallig'lanish fonida rivojlanishi mumkin. Reflyuks yoki boshqa yallig'lanish kasalliklari bo'lsa, ularni dori vositalari (proton pompasi ingibitorlari, antatsidlar va hokazo) bilan davolash kerak.

Antibakterial yoki antiviral davolash (kerak bo'lsa): Ayrim hollarda H. pylori kabi bakterial infeksiya yoki boshqa infektion omillar polipning shakllanishiga ko'maklashishi mumkin. Shunda maxsus davolash kursi talab etiladi.

Davolashdan keyingi kuzatuv (monitoring). Qayta endoskopiya: Operatsiyadan yoki endoskopik rezeksiyadan keyin ma'lum muddat o'tgach, takroriy endoskopiya o'tkazish tavsiya etiladi. Bu davrda polipning qayta o'sishi yoki yangi o'sma paydo bo'lishining oldini olish, shuningdek davolashning samaradorligini baholash mumkin.

Hayot tarzi va ovqatlanish: Ovqatlanish ratsionini kuzatish, achchiq, sho'r, juda issiq yoki juda sovuq taomlardan saqlanish, spirli ichimliklar va tamakidan voz kechish, reflyuks alomatlarini kamaytiruvchi profilaktik choralar ko'rish zarur.

Reflyuksdan saqlanish: Yotishdan oldin 2-3 soat oldin ovqatlanishni to'xtatish, uyqu paytida boshni bir oz balandroq qilish va ortiqcha vazndan xalos bo'lish reflyuks xavfini

kamaytiradi.

Xulosa qilsak qizilo'ngachning kardial sohasida uchraydigan poliplarni davolashda eng muhim yo'nalish – polipning turini aniqlash (yaxshi yoki xavfli o'sma), hajmini va infiltratsiya chuqurligini baholashdir. Hozirgi kunda eng zamonaviy va kam invaziv davolash usuli – endoskopik rezeksiya (EMR yoki ESD) hisoblanadi. Agarda polipning kattaligi yoki chuqur qatlamlarga o'sib kirishi tufayli endoskopik yondashuv imkonи bo'lmasa, jarrohlik amaliyotiga o'tiladi. Davolashdan keyin esa bemor gastroenterolog yoki endoskopist kuzatuvida bo'lib turishi zarur.

Shifokorga o'z vaqtida murojaat qilish va muntazam endoskopik tekshiruvlar xavfli o'zgarishlarni erta bosqichda aniqlash hamda samarali davolash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. ASGE Standards of Practice Committee. The role of endoscopy in the evaluation and management of esophageal lesions. *Gastrointestinal Endoscopy*. 2013;78(2):212–218.
2. Kong V, Sartelli M, et al. Endoscopic submucosal dissection for gastrointestinal polyps: Current status and future perspectives. *World Journal of Gastroenterology*. 2016;22(21):4917–4925.
3. Koppenhaver AM, et al. Clinical update in the management of esophageal polyps. *The American Journal of Gastroenterology*. 2018;113(6):783–790.
4. Kume K, et al. Current status of endoscopic mucosal resection and endoscopic submucosal dissection for superficial Barrett's esophageal cancer. *Digestive Endoscopy*. 2018;30(Suppl 1):35–41.



Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

GISTOLOGIYA FANINING ZAMONAVIY O'QITISH USULLARI

Nurmatova Vasilaxon¹

G'ofirov Azamjon²

Musojonov Baxodir³

Central Asian Medical University

KEYWORDS

Gistologiya, zamonaviy o'qitish usullari, raqamli mikroskopiya, virtual laboratoriya, interaktiv ta'lif, 3D-modellashtirish, AKT, masofaviy ta'lif.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Gistologiya fanining zamonaviy oqitishning ahamiyati va samaradorligi. Gistologiya fanini o'qitish jarayoni ilm-fan va texnologiyalarning rivojlanishi bilan yangilanib, an'anaviy yondashuvlardan innovatsion usullarga o'tmoqda. Zamonaviy usullar talabalarning bilim olish jarayonini interaktiv va samarali qilishga xizmat qilishi haqida malumot berilgan.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.15013318](https://doi.org/10.5281/zenodo.15013318)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Hozirgi kunda tibbiy ta'limdi innovatsion texnologiyalardan foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Gistologiya – tirik organizmlarning to'qimalarini o'rGANADIGAN fan bo'lib, uni o'qitishda an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda zamonaviy usullar ham keng qo'llanilmoqda.

Raqamli mikroskopiya gistologik preparatlarni an'anaviy shisha plastinkalar o'rniga kompyuter ekranida batafsil o'rganish imkonini beradi. Bu usul nafaqat talabalar uchun qulaylik yaratadi, balki ularga mikroskop ostida ko'rinishi qiyin bo'lgan nozik tuzilishlarni ham ko'rish imkoniyatini taqdim etadi.

Virtual laboratoriylar usuli talabalarga haqiqiy mikroskop ishlatmasdan turib, to'qimalarni tahlil qilish va ularning tuzilishini o'rganish imkonini beradi. Interaktiv ta'lif va 3D-modellashtirish texnologiyalari gistologik tuzilmalarni uch o'lchamli formatda ko'rish va tushunishni osonlashtiradi. Bu usullar talabalarning fan bo'yicha bilim va amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi.

Integratsiyalashgan ta'lif usuli gistologiya anatomiya, fiziologiya va patologiya fanlari bilan integratsiyalashgan holda o'qitiladi. Klinik fanlar bilan bog'lash orqali talabalar

¹ Central Asian Medical University Xalqaro tibbiyot universiteti stomatologiya yonalishi talabasi

² CAMU xalqaro tibbiyot universiteti 1- bosqich stomatologiya ishi yonalishi 724-guruh talabasi

³ Central Asian Medical University Tibbiyot fakulteti Embriologiya sitologiya fani assistenti

kasalliklarning gistologik asoslarini yaxshiroq tushunishadi. Bundan tashqari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va masofaviy ta'lim platformalari yordamida talabalar istalgan joydan ta'lim olishlari mumkin. Bu ayniqsa, pandemiya davrida va uzoq hududlarda istiqomat qiluvchi talabalar uchun juda muhimdir.

3D-modellash texnologiyalari yordamida to'qimalarning uch o'lchamli tasvirlari yaratiladi. Bu quyidagilarni ta'minlaydi. Talabalar hujayralar va to'qimalarning uch o'lchamli tuzilishini yaxshiroq tushunishlari. Tuzilmalarning aniq joylashuvi va o'zaro bog'liqligini o'rghanish imkoniyati. Virtual reallik texnologiyalari yordamida talabalarga jonli laboratoriya tajribasini taqdim etish.

Zamonaviy elektron resurslar, jumladan, raqamli gistologik atlaslar, darsliklar va video materiallar gistologiyani o'rghanishda keng qo'llaniladi. Bu: o'quv jarayonini yanada vizual va qiziqarli qiladi. Talabalarga darsliklardagi rasmlarni mikroskopik namunalarga solishtirish imkonini beradi. Masofaviy o'qitish va mustaqil ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlaydi.

Xulosa. Zamonaviy o'qitish usullari gistologiya fanini nafaqat an'anaviy nazariy bilimlar bilan o'rghanish, balki uni chuqur tushunish va amaliyotda qo'llash imkoniyatini ham yaratadi. Virtual texnologiyalar, interaktiv usullar va integratsiyalashgan yondashuvlar orqali talabalar hujayralar va to'qimalarning tuzilishini yanada samarali o'rghanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Innovatsion pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va tushunarli qiladi, bu esa kelajakdagi mutaxassislar uchun mustahkam bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Gistologiyani zamonaviy yondashuvlar asosida o'qitish esa tibbiyot fanlarining rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Foydalanilgan Adabiyotlar.

1. "Gistologiya asoslari". Mualliflar: F.S. Oripov, X.X. Boykuziyev.
2. "Gistologiya". Muallif: E. Qodirov.
3. Internet saytlari: www.google.com.



Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

SEMIRISHNING ASOSIY SABABLARI

Abdullajonova Mohlaroy¹

Musojonov Baxodir²

Central Asian Medical University

KEYWORDS

Semirish, noto'g'ri ovqatlanish, gormonal muammolar, psixologik stress, ekologik muhit, fastfud, gazlangan ichimliklar, shirinliklar.

ABSTRACT

Mazkur maqolada semirishning asosiy sabablari, ularning organizmga ta'siri va oldini olish choralar haqida batafsil ma'lumot berilgan. Semirish muammosi dunyo miqyosida jiddiy sog'liq muammosi bo'lib, turli omillarga bog'liq holda rivojlanadi. Maqolada genetik moyillik, noto'g'ri ovqatlanish, kamharakatlik, gormonal buzilishlar, stress va psixologik omillar kabi semirishga olib keluvchi sabablar tahlil qilinadi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.15013387](https://doi.org/10.5281/zenodo.15013387)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Hozirgi kunda semirish (obezlik) dunyo miqyosida keng tarqalgan sog'liq muammolaridan biri hisoblanadi. Bu muammo nafaqat tashqi ko'rinishga, balki inson salomatligiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda semirish darajasi ortib bormoqda va u turli yosh guruhlarida uchramoqda.

Semirishning asosiy sabablari orasida noto'g'ri ovqatlanish, kamharakatlik, genetik omillar, gormonal muammolar, psixologik stress va ekologik muhit kabi omillar mavjud. Ushbu omillar birgalikda yoki alohida holda insonning vazn ortishiga sabab bo'lishi mumkin. Ayniqsa, zamonaviy turmush tarzi bilan bog'liq omillar – fastfud mahsulotlarini iste'mol qilish, jismoniy faollikning kamayishi va texnologiyalarga ortiqcha bog'liqlik semirish xavfini oshiradi.

Semirishning asosiy sabablari. Semirish – bu organizmda ortiqcha yog' to'planishi natijasida tana vazninining me'yordan oshishi bilan tavsiflanadigan holat. U turli sabablarga ko'ra yuzaga keladi va sog'liq uchun jiddiy xavf tug'diradi. Quyida semirishning asosiy sabablarini ko'rib chiqamiz: Noto'g'ri ovqatlanish-yuqori kaloriyalı, yog'li va shakarli mahsulotlarni ortiqcha iste'mol qilish semirishga olib keladi. Tez tayyorlanadigan taomlar (fastfud), gazlangan ichimliklar va shirinliklar organizmga ortiqcha kaloriyalarni yetkazib

¹ "Central Asian Medical University" davolash ishi talabasi

² Central Asian Medical University Tibbiyot fakulteti Embriologiya sitologiya gistoligi fani assistenti

beradi. Noto'g'ri ovqatlanish odatlari, jumladan, kechki vaqtida ortiqcha ovqatlanish ham semirish xavfini oshiradi.

Kamharakatlik (harakatsiz turmush tarzi)zamonaviy hayot sharoitida ko'pchilik jismoniy faollikni kamaytirib, ko'proq o'tirib ishlashga moyil bo'ladi. Mashg'ulotlarning yetishmovchiligi natijasida tanadagi kaloriyalar energiyaga aylanish o'rniga yog' shaklida saqlanib qoladi. Transport, texnologiyalar va ofis ishlari insonlarning harakatini yanada kamaytiradi.

Genetik moyillik-ba'zi insonlar semirishga genetik jihatdan moyil bo'lishadi. Agar otonalardan biri yoki ikkalasi semizlikdan aziyat chekkan bo'lsa, ularning farzandlarida ham bu muammo kuzatilishi ehtimoli yuqori bo'ladi. Genlar metabolizm tezligiga va organizmning yog'larni qayta ishlash qobiliyatiga ta'sir qiladi.

Gormonal o'zgarishlar- gormonal muammolar, ayniqsa, qalqonsimon bez kasalliklari (gipotireoz), insulin rezistentligi va kortizol (stress gormoni) darajasining oshishi semirishga sabab bo'lishi mumkin. Ayollar uchun menopauza davrida va homiladorlikdan keyin gormonal o'zgarishlar natijasida vazn ortishi kuzatiladi.

Stress va psixologik muammolar- ko'plab odamlar stress, depressiya yoki ruhiy bosim ostida ortiqcha ovqatlanishga moyil bo'lishadi. Stress gormoni (kortizol) ishtahani oshirib, yog' to'planishiga sabab bo'ladi. Emotsional ovqatlanish – odamning his-tuyg'ulari asosida ovqat iste'mol qilishi semirish xavfini oshiradi.

Uyqu yetishmovchiligi-kechasi kam uqlash metabolizmning buzilishiga va ishtahaning oshishiga olib keladi. Uyqusizlik gormonlar muvozanatini buzadi, bu esa tanani ko'proq kaloriyalar iste'mol qilishga undaydi.

Dori vositalari-ba'zi dorilar, xususan, antidepressantlar, diabetga qarshi preparatlar va gormon dorilari tana vaznining ortishiga sabab bo'lishi mumkin. Dori vositalari metabolizm jarayoniga ta'sir qilib, yog' yig'ilishini tezlashtirishi ehtimoli bor.

Ekologik va ijtimoiy omillar-atrof-muhit va ijtimoiy sharoitlar ham insonning ovqatlanish odatlariga ta'sir qiladi. Kam daromadli oilalar sog'lom ovqatlanish imkoniyatiga ega bo'lмаганлиги sababli ko'proq arzon, lekin zararli taomlarni iste'mol qilishi mumkin.

Xulosa qilsak semirish ko'plab omillar natijasida yuzaga keladigan murakkab jarayondir. Bu muammoni hal qilish uchun to'g'ri ovqatlanish, jismoniy faollikni oshirish, stressni boshqarish va sog'lom turmush tarziga riosa qilish muhim ahamiyatga ega. Semirishning oldini olish va uni davolash salomatlikni yaxshilash va uzoq umr ko'rish uchun zarurdir

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashurova, G., Po'latova, F., va boshqalar. Klinik va biokimiyoviy tekshiruv usullari. Toshkent: Tibbiyot nashriyoti.
2. Qoraxo'jayev, B. Bolalar kasalliklari propedevtikasi. Toshkent: Tibbiyot nashriyoti.



Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

БОЛАЛАР ОРГАНИЗМИДАГИ АСОСИЙ ФИЗИОЛОГИК КҮРСАТКИЧЛАР ВА САЛОМАТЛИГИНИ ЎРГАНИШ МЕТОДЛАРИ

Алиева Гавҳарой¹

CAMU Xalқaro Tibbiёт universiteti

KEYWORDS

болалар, физиология, юрак уриши, қон босими, нафас олиш, тананинг ҳарорати, метаболизм, иммун тизими, клиник кузатув, лаборатория текширувлари, рентген текшируви, ультратовуш текшируви, психологик тестлар, озиқланиш, жисмоний фаоллик, саломатлик.

ABSTRACT

Ушбу мақолада болалар организмидаги асосий физиологик кўрсаткичлар, уларнинг ёшга кўра ўзгариши ва болалар саломатлигини ўрганиш методлари ҳақида маълумот берилади. Болалар организмидаги юрак уриши, қон босими, нафас олиш суръати, тананинг ҳарорати, метаболизм ва иммун тизимининг ўзгаришлари ёшга боғлиқ равишда амалга ошади. Болаларнинг саломатлигини ўрганиш учун клиник кузатув, лаборатория текширувлари, рентген ва ультратовуш текширувлари, ҳамда психологик тестлар муҳим аҳамиятга эга. Мақолада болаларнинг саломатлигини сақлаш ва яхшилаш учун озиқланиш, жисмоний фаоллик, витаминалар ва микроэлементлар камчилигини тўлдиришга алоҳида эътибор қаратилган.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.15013821](https://doi.org/10.5281/zenodo.15013821)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Болалар организмининг физиологик хоссалари ўсиш ва ривожланишнинг ҳар бир босқичида аҳамиятга эга бўлиб, уларнинг танаси ва ички тизимларининг мукаммал ишлиши учун муҳим роль ўйнайди. Болаларнинг физиологик кўрсаткичлари катталарницидан сезиларли даражада фарқ қиласи, бу эса уларнинг юрак уриши, нафас олиш, қон босими, тананинг ҳарорати ва метаболик фаолликдаги ўзгаришлар билан боғлиқ. Масалан, янги туғилган болаларнинг юрак уриши катталарга нисбатан тезроқ бўлади, чунки уларнинг метаболизми юқори суръатда ишлайди ва организм энергияни тез сарфлайди. Шунингдек, болаларнинг иммун тизими туғилишдан кейин ривожланишда бўлади, шунинг учун улар катталарга қараганда вирус ва бактерияларга нисбатан кўпроқ сезувчан бўлишади.

Болалар организмларининг физиологик ҳолатини тўғри баҳолаш ва уларни ривожланиш даражасига мос равишда мониторинг қилиш жуда муҳимдир. Бу

¹ CAMU Xalқaro Tibbiёт universiteti физиология фани ассистенти

ўзгаришларни аниқлаш, болаларнинг саломатлигини таҳлил қилиш ва уларни даволашга мўлжалланган тўғри тиббий ёрдам қўрсатишда муҳим қадам бўлиб, бола учун индивидуал саломатлик режасини ишлаб чиқишига ёрдам беради. Болаларнинг саломатлигини ўрганишда замонавий диагностик усуллар, лаборатория ва клиник текширувлар катта аҳамиятга эга.

Шунингдек, болаларнинг саломатлигини сақлаш учун ёшга мос овқатланиш, тўғри витаминалаштириш, жисмоний фаоллик ва психоэмоционал ривожланишга эътибор бериш муҳим ҳисобланади. Болаларга тўғри овқатланиш ва жисмоний фаолликни таъминлаш, уларнинг жисмоний ва психоэмоционал саломатлигини яхшилашга ёрдам беради. Мақолада болалар организмидаги асосий физиологик кўрсаткичлар ва уларнинг саломатлигини ўрганишда қўлланиладиган методлар ҳақида кенгроқ маълумотлар тақдим этилган.

Болалар организмидаги асосий физиологик кўрсаткичлар қўйидагилар. Юрак уриши ва қон босими. Болаларнинг юрак уриши ва қон босими ёшга, тананинг ҳажмига ва жисмоний фаоллик даражасига боғлиқ ҳолда ўзгариб туради. Янги туғилган болаларда юрак уриши минутига 140-160 маротабага етса, бола ўсган сари, бу кўрсаткич кўпаяди ва 3-4 ёшга келиб 90-110 маротаба атрофида бўлади. Шунингдек, қон босими ҳам ёшга боғлиқ равища ўзгариб, катталардаги кўрсаткичларга яқинлашади.

Ҳаво ҳаво ва нафас олиш. Болаларнинг нафас олиш суръати ёшга кўра ўзгариб туради. Янги туғилганлар учун нафас олиш суръати минутига 40-60 маротаба бўлса, ёш ўсган сари, у 20-30 маротаба даражасида қўйилади. Бу кўрсаткич болаларнинг нафас тизими ва ривожланиш даражасини белгилаш учун муҳимdir.

Тананинг ҳарорати. Тананинг ҳарорати болаларда катталарга нисбатан юқорироқ бўлади. Янги туғилган болаларда тананинг ҳарорати 36.5°C - 37.5°C атрофида бўлади, катталарда эса у 36.5°C - 36.9°C атрофида сақланади. Тананинг ҳароратининг ўзгаришлари инфекциялар ва ёмон саломатликнинг илк белгиси бўлиши мумкин.

Озиғланиш ва метаболизм. Болалардаги метаболизм, уларнинг ўсиш ва ривожланиш даражасига боғлиқ ҳолда юқори суръатда бўлади. Янги туғилганларда метаболик фаоллик кўп бўлиб, энергияни зудлик билан сарфлашга талаб юқори. Бунинг натижасида болалардаги жисмоний ҳажм ва оғирлик тез ўзгаради.

Иммун тизими. Болаларнинг иммун тизими туғилгандан кейин тизимли равища ривожланади. Янги туғилган болалар анадан ўзларига ўтган иммунитетга таянади, аммо уларнинг иммун тизими ҳали тўлиқ ривожланмаган бўлади. Шунинг учун болалар катталарга қараганда вируслар ва бактерияларга нисбатан заифроқ бўлади.

Болалар саломатлигини ўрганиш методларидан клиник қузатув болаларнинг саломатлигини ўрганишда биринчи навбатда муҳим аҳамиятга эга. Бу жараёнда бола табиб томонидан мунтазам равища қузатилиб, унинг ўсиш ва ривожланиш параметрлари, жисмоний фаоллиги ва психологик ҳолати тўғрисида маълумотлар

йиғилади. Бу метод болаларнинг саломатлик ўзгаришларини аниқлаш ва уларга мос даволаш чораларини ишлаб чиқиш учун зарурдир.

Лаборатория текширувлари. Болаларнинг саломатлигини баҳолаш учун турли лаборатория текширувлари, жумладан, қон, чаро ва уринанинг таҳлиллари олиб борилади. Бу тестлар болалардаги инфекциялар, анемия, витамин ва минералларнинг камчилиги каби ҳолатларни аниқлашга ёрдам беради.

Рентген ва ультратовуш текширувлари. Агар болаларда органларнинг структурасини ёки жисмоний муаммоларини аниқлаш зарур бўлса, рентген ва ультратовуш текширувлари (USG) қўлланилади. Бу методлар асаб тизими, ташқи ва ички органларнинг ҳолатини аниқлаш учун катта аҳамиятга эга.

Психологик баҳо бериш. Психологик ҳолат ва ривожланишини текшириш ҳам болалар саломатлигини ўрганишнинг муҳим усулларидан биридир. Балаларнинг ижтимоий, эмоционал ва интеллектуал ривожланишини баҳолаш учун психологик тестлар ва социометрия усуллари қўлланилади. Болалар саломатлигини яхшилаш йўллари озиқланиш ва витаминацияга боғлиқ. Тўғри ва мувозанатли овқатланиш болалар саломатлигини сақлаш ва ривожланишини таъминлаш учун муҳимдир. Витаминлар ва минераллар камчилиги болаларда ўсишни бузиши ва иммун тизимини заифлаштириши мумкин. Шунинг учун, болаларга ёшга мос овқатлар, маҳсус витаминлар ва микроэлементлар берилиши керак.

Жисмоний фаоллик. Болаларга доимий жисмоний фаоллик, спорт ва жисмоний машқлар катта аҳамиятга эга. Бу нафақат уларнинг жисмоний саломатлигини, балки психоэмоционал ривожланишини ҳам яхшилади.

Болаларнинг саломатлигини мунтазам равища текшириш ва мониторинг қилиш уларнинг ривожланишини таъминлашга ёрдам беради. Маълумотлар асосида бола учун индивидуал саломатлик режаси ишлаб чиқлади.

Хуноса. Болалар организмининг физиологик қўрсаткичларини ва саломатликни ўрганиш, тиббий кўриклар ва замонавий диагностик усулларни қўллаш бола ривожи ва саломатлигига катта таъсир қўрсатади. Ўсишнинг барча босқичларида болаларга ёрдам бериш ва уларнинг физик ва психологик ривожланишини мониторинг қилиш, тўғри овқатланиш ва фаол турмуш тарзи, саломатликни сақлаш ва муаммоларни эрта аниқлашга ёрдам беради.

Фойдаланилган адабиётлар

1. **Sharma S., Gupta R., Jain A. (2017).** "Pediatric Physiology and Health Monitoring." *Journal of Pediatrics*.
2. **Kovács S., Varga M., Horváth Z. (2018).** "Growth Patterns and Physiological Indicators in Children." *Pediatric Research and Practice*.
3. **Thompson C., Lee J. (2015).** "Child Development and Physiological Changes." *Clinical Pediatrics Review*.
4. **Barker D.J.P. (2016).** "Fetal Origins of Adult Disease." *The Lancet*.
5. **Avery M.E., MacDonald M. (2019).** "Pediatric Health Assessment: Methods and Approaches." *Pediatric Clinics of North America*.



Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

QON ORQALI YUQADIGAN YUQUMLI KASALLIKLARNING PROFILAKTIKASI

Samadaliyev Nurmuhammad¹

Fozilova Madina²

CAMU Xalqari Tibbiyot universiteti

KEYWORDS

Qon orqali yuqadigan kasalliklar, OIV, gepatit B, gepatit C, sifilis, profilaktika, vaksinatsiya, donor qon xavfsizligi, gigiyena, diagnostika.

ABSTRACT

Ushbu maqolada qon orqali yuqadigan yuqumli kasalliklarning asosiy turlari, ularning yuqish yo'llari va profilaktikasi yoritilgan. OIV, gepatit B va C, sifilis kabi kasalliklarning oldini olish choralar, jumladan, tibbiy xavfsizlik, shaxsiy gigiyena, vaksinatsiya va diagnostika muhimligi haqida ma'lumot berilgan. Tadqiqotlar va xalqaro sog'liqni saqlash tashkilotlari tavsiyalariga asoslangan holda kasalliklarning oldini olish strategiyalari ko'rib chiqilgan.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.1501386](https://doi.org/10.5281/zenodo.1501386)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Qon orqali yuqadigan yuqumli kasalliklar dunyo miqyosida tibbiy va ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. Bu kasalliklar global sog'liqni saqlash tizimi uchun katta tahdid bo'lib, har yili millionlab insonlarning hayotiga ta'sir qiladi. OIV (odam immunitet tanqisligi virusi), gepatit B va C, sifilis kabi infeksiyalar qonga bevosita yoki bilvosita aloqador bo'lgan jarayonlarda yuqishi mumkin. Ushbu kasalliklar inson organizmiga kuchli zarar yetkazib, surunkali holatga o'tishi yoki hayot uchun xavfli asoratlarga olib kelishi mumkin.

Qon orqali yuqadigan kasalliklarning yuqish yo'llari turlicha bo'lib, asosan steril bo'limgan tibbiy asbob-uskunalar, donor qonining nazoratsiz quyilishi, himoyalanganjisan aloqa, homiladorlik davrida onadan bolaga o'tish, shuningdek, giyohvand moddalarni in'eksiya yo'li bilan qabul qilish orqali tarqaladi.

Ushbu kasalliklarning oldini olish uchun xalqaro va milliy sog'liqni saqlash tashkilotlari tomonidan maxsus profilaktik choralar ishlab chiqilgan. Bunga vaksinatsiya, xavfsiz qon quyish tizimi, jinsiy tarbiya va gigiyenaga oid tadbirlar, shuningdek, kasalliklarni erta aniqlash va davolash dasturlari kiradi. Mazkur maqolada qon orqali yuqadigan asosiy

¹ CAMU Xalqari Tibbiyot universiteti Tibbiy va biologik fanlar kafedrasи. Gistologiya sitologiya embriologiya fani assistant

² CAMU Xalqari Tibbiyot universiteti talabasi

yuqumli kasalliklar, ularning oldini olish usullari, xavf omillari va profilaktik strategiyalar keng yoritiladi. Qon orqali yuqadigan yuqumli kasalliklar asosan quyidagilarni o‘z ichiga oladi: OIV (odam immunitet tanqisligi virusi) va OITS (AIDS), virusli hepatitlar (B, C, D), sifilis, leyshmanioz va ba‘zi boshqa parazitar kasalliklar

1. OIV va OITS. OIV inson organizmida immunitet tizimini zaiflashtiruvchi virus bo‘lib, oxir-oqibat OITSga olib kelishi mumkin. Kasallik qon, jinsiy aloqa va onadan bolaga homiladorlik yoki emizish orqali yuqadi.

2. Virusli hepatitlar. Gepatit B va Gepatit C viruslari jigar kasalliklarini keltirib chiqaradi. Ushbu viruslar ham qon, steril bo‘lmagan tibbiy asbob-uskunalar, jinsiy aloqa va tug‘ruq paytida onadan bolaga yuqishi mumkin.

3. Sifilis. Sifilis – Treponema pallidum bakteriyasi sababli rivojlanadigan infeksiya bo‘lib, asosan jinsiy yo‘l bilan yuqadi. Biroq qon quyish yoki homilador onadan homilaga o‘tish ehtimoli ham mavjud.

Ushbu kasalliklarning oldini olish uchun quyidagi asosiy profilaktika choralariga rioya qilish zarur:

1. Tibbiyot va donor qon xavfsizligi. Qon topshirish jarayonida donorlarni sinchiklab tekshirish. Steril tibbiy asbob-uskunalar va bir martalik ignalardan foydalanish. Shifokorlar va tibbiyot xodimlarining xavfsizlik choralariga rioya qilishi.

2. Shaxsiy gigiyena va xavfsiz xulq-atvor. Begona kishilar bilan himoyasiz jinsiy aloqa qilmaslik, kontratsepsiya vositalaridan foydalanish. Shaxsiy gigiyenaga rioya qilish, ayniqsa, tirnoq qirqish, soqol olish, tatuirovka va pirsing kabi amaliyotlarda steril vositalardan foydalanish.

3. Vaksinatsiya va erta tashxis. Gepatit B virusiga qarshi emlash kasallikning oldini olishda eng samarali usul hisoblanadi. OIV va gepatitga doimiy tekshiruvdan o‘tish kasallikning erta aniqlanishiga yordam beradi.

4. Onadan bolaga yuqishini oldini olish. Homilador ayollar OIV va gepatit uchun tibbiy tekshiruvlardan o‘tishlari lozim. Virus tashuvchi onalar uchun maxsus dorilar tavsiya qilinadi.

Xulosa qilsak qon orqali yuqadigan yuqumli kasalliklarning oldini olish hozirgi kunda global sog‘liqni saqlash tizimining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu kasalliklarning tarqalishini kamaytirish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Xavfsiz tibbiy amaliyotlar, steril asbob-uskunalardan foydalanish, donor qonining to‘liq nazorat qilinishi va emlash dasturlarining kengaytirilishi ushbu kasalliklarning oldini olishda samarali usullardir.

Bundan tashqari, jinsiy hayot madaniyatini oshirish, xavf guruhlariga kiruvchi shaxslarga ko‘proq profilaktik yordam ko‘rsatish va ommaviy axborot vositalari orqali xabardorlikni oshirish ham muhim ahamiyatga ega. Ilmiy tadqiqotlar va sog‘liqni saqlash dasturlari natijasida bu kasalliklarning global miqyosda kamayishi mumkin.

Shu sababli, davlatlar va sog‘liqni saqlash tashkilotlari qon orqali yuqadigan kasalliklarning oldini olish bo‘yicha strategiyalarni doimiy takomillashtirib borishlari kerak. Bu nafaqat infeksiyalarning kamayishiga, balki butun jamiyatning sog‘lom turmush tarziga o‘tishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. WHO (Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti)
2. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi – Mahalliy qon topshirish xavfsizligi protokollari va emlash dasturlari.
3. CDC (AQSh Kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazi) – Yuqumli kasalliklarning oldini olish bo'yicha tadqiqotlar va ma'lumotlar.
4. Shepard CW, Finelli L, Fiore AE. Epidemiology of Hepatitis B and C Viruses in Blood Donors and Risk Populations. Journal of Viral Hepatitis, 2022; 29(4): 345-358.
5. Gepatit B va C viruslarining qon donorligi va xavf guruhlari orasida tarqalishiga oid ilmiy maqola.
6. UNAIDS (BMTning OIV bo'yicha qo'mitasi). Global Report on HIV/AIDS Epidemic. Geneva, UNAIDS, 2023.



Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

QIZAMIQ VA UNING TARQALISHI

Samadaliyev Nurmuhammad¹

Akbarova Jasmina²

CAMU Xalqari Tibbiyot universiteti

KEYWORDS

Qizamiq, virusli kasallik, Morbillivirus, havo-tomchi infektsiyasi, epidemiologiya, vaksina, MMR emlash, yuqumli kasallik, profilaktika, tibbiy xavfsizlik.

ABSTRACT

Ushbu maqolada qizamiq kasalligi, uning sabablari, tarqalish yo'llari, simptomlari va profilaktikasi haqida batafsil ma'lumot beriladi. Qizamiq havo-tomchi yo'li orqali yuqadigan yuqori darajada yuqumli virusli kasallik bo'lib, asosan bolalar orasida keng tarqalgan. Kasallikning oldini olishda vaksinalash muhim ahamiyatga ega. Juhon sog'liqni saqlash tashkiloti va boshqa xalqaro tibbiyot muassasalari qizamiqni yo'q qilishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqqan. Ushbu maqola qizamiqning global epidemiologiyasi, uning xavflari va kasallik tarqalishini kamaytirish strategiyalarini yoritadi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.15013907](https://doi.org/10.5281/zenodo.15013907)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Qizamiq – bu dunyodagi eng yuqumli virusli kasalliklardan biri bo'lib, ayniqla, bolalar orasida keng tarqalgan. Ushbu kasallikning xavfi nafaqat uning oson yuqishida, balki inson salomatligiga jiddiy zarar yetkazadigan asoratlar qoldirishidadir. Qizamiq pnevmoniya, ensefalist va hatto o'limga olib kelishi mumkin. Shu boisdan, uning oldini olish tibbiyot va sog'liqni saqlash tizimi uchun ustuvor yo'naliishlardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda qizamiq bilan kurashishning eng samarali yo'li – emlashdir. MMR (qizamiq, qizilcha va parotitga qarshi) vaksinasining joriy etilishi tufayli so'nggi o'n yilliklarda kasallikning tarqalishi sezilarli darajada kamaydi. Juhon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan olib borilgan ommaviy emlash dasturlari tufayli qizamiq butunlay yo'q qilish mumkin bo'lgan kasalliklardan biri sifatida ko'rilmogda.

Biroq, ba'zi mamlakatlarda yoki hududlarda vaksina qamrovi yetarli darajada emasligi sababli qizamiq epidemiyalari qayta avj olmoqda. Ayniqla, emlashga ishonchsizlik, tibbiy xizmatlarning yetishmovchiligi va aholining xabardorligi yetarli emasligi kabi omillar kasallikning qayta tarqalishiga sabab bo'lmoqda.

¹ CAMU Xalqari Tibbiyot universiteti Tibbiy va biologik fanlar kafedrasи. Gistologiya sitologiya embriologiya fani assistant

² CAMU Xalqari Tibbiyot universiteti talabasi

Kelajakda qizamiqni butunlay yo'q qilish uchun davlatlar xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda ommaviy emlash dasturlarini kengaytirishlari, aholining tibbiy savodxonligini oshirishlari va emlashning ahamiyatini tushuntirishlari kerak. Faqatgina global miqyosdagi hamkorlik orqali qizamiqni tarixiy sahifaga aylantirish mumkin.

Shunday ekan, har bir inson o'z farzandining sog'lig'i haqida qayg'urishi va qizamiqqa qarshi emlash dasturlarida ishtirok etishi lozim. Faqat shu yo'l bilan biz kelajak avlodni ushbu xavfli virusdan himoya qilishimiz mumkin.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) ma'lumotlariga ko'ra, qizamiqga qarshi vaksina joriy etilgunga qadar har yili millionlab odam ushbu kasallikka chalinib, o'n minglab o'lim holatlari qayd etilgan. Hozirgi kunda emlash dasturlari tufayli kasallikning tarqalishi sezilarli darajada kamaygan bo'lsa-da, ba'zi hududlarda emlanmagan aholining ko'pligi tufayli qizamiq epidemiyalari yana qayta avj olmoqda.

Mazkur maqolada qizamiq kasalligining sabablari, tarqalish yo'llari, simptomlari va profilaktikasi haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Qizamiq virusli kasallik bo'lib, Morbillivirus turkumiga kiradi. Virus inson organizmiga tushgandan so'ng, nafas yo'llari orqali tarqaladi va immun tizimiga jiddiy zarar yetkazadi. Kasallik asosan bolalarda uchrasha-da, emlanmagan kattalar ham unga chalinishi mumkin.

Qizamiqning asosiy tarqalish sabablari: emlash qamrovi past bo'lgan hududlarda virusning keng tarqalishi. Kasallangan odam bilan yaqin muloqotda bo'lisch. Immuniteti zaif insonlarning kasallikni yuqtirish ehtimoli yuqori bo'lishi. Ko'p sonli odamlar to'planadigan joylarda (maktab, bolalar bog'chasi, ommaviy tadbirlar) infeksiya yuqish ehtimolining oshishi.

Qizamiq yuqori yuqumli kasallik bo'lib, havo-tomchi yo'li orqali tarqaladi. Kasallangan inson yo'talganda yoki aksirganda, virus havoga tarqalib, atrofdagi odamlarga yuqishi mumkin. Virus tashuvchi odam bilan bir xonada bo'lisch ham kasallikni yuqtirish xavfini oshiradi.

Kasallikning inkubatsiya davri 10–14 kunni tashkil etadi. Shu muddat davomida bemor o'zida hech qanday simptom sezmasa ham, atrofdagilarga infeksiya yuqtirishi mumkin.

Qizamiq epidemiyalarining oldini olish uchun bolalar va katta yoshdagи emlanmagan odamlarning vaksinatsiya qilinishi zarur.

Qizamiqning dastlabki belgilari grippga o'xshab ketishi mumkin. Ular quyidagilardan iborat: Yuqori harorat (39–40°C gacha chiqishi mumkin), kuchli yo'tal, burun bitishi va aksirish, ko'zlarning qizarishi va yosh oqishi, og'iz shilliq qavatida oq dog'larning paydo bo'lishi (Koplik dog'lari), to'rtinchchi yoki beshinchchi kunlarda butun tanaga qizg'ish toshmalar toshishi. Qizamiq og'ir kechadigan bemorlarda pnevmoniya, ensefalit va jigar yetishmovchiligi kabi asoratlar kuzatilishi mumkin.

Qizamiqning oldini olishning eng samarali usuli – emlashdir. MMR (qizamiq, epidemik parotit va qizilcha) vaksinasini olish kasallikka qarshi doimiy immunitet hosil qiladi.

Profilaktik choralar quyidagilardan iborat: Bolalarni o'z vaqtida emlash: WHO tavsiyasiga ko'ra, 9–12 oylik va 15–18 oylik bolalar MMR vaksinasi bilan emlanishi kerak. Kattalar uchun qayta emlash: Emlanmagan yoki bolalikda qizamiq bilan og'rimagan kattalar

vaksinatsiya qilishlari lozim. Sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish: Kasallik tarqalishini kamaytirish uchun niqob taqish va odamlar gavjum joylardan uzoqroq yurish muhim. Kasallikni erta tashxislash va izolyatsiya qilish: Qizamiq bilan kasallangan bemorlar kamida 10 kun davomida izolyatsiya qilinishi kerak.

Medial bo'lagiga nisbatan 2,0-marta oshgan (1-jadval). Lekin, boshqalarga qaramasdan davrlar chap lateral bo'lakning o'sish jadalligi koeffitsiyenti olti oylikdan boshlab ikki yoshgacha oshadi, jigar bo'laklarining og'irligi chap lateral bo'lak foydasiga atigi 7,3 g farq qiladi. Jigar bo'laklari o'sishining bunday qonuniyati, ehtimol, ushbu yosh davrlarida ularning funksional holati bilan belgilanadi. Kvadrat, dum va so'rg'ichsimon o'simta massasining morfogenezi tahlili shuni ko'rsatdiki, hayvonlarning olti oylik yoshigacha, jinsidan qat'i nazar, o'sish intensivligi koeffitsiyenti berilgan ulushlar maksimal qiymatga ega. Jinsiga qarab bir yoshdan boshlab faqat so'rg'ichsimon o'simta og'irligi bo'yicha statistik jihatdan sezilarli farqga ega bo'ladi. Sutkalik yoshda jigar bo'laklari nisbiy massasining eng yuqori ko'rsatkichi o'ng medial bo'lakda, bir oylikdan boshlab yigirma to'rt oylikkacha bo'lgan davrda esa chap lateral bo'lakda nisbiy massanening eng katta qiymati kuzatiladi. Ikki yoshda o'ng lateral bo'lakning nisbiy og'irligi boshqa bo'laklarga nisbatan kattaroq ko'rsatkichga ega. Kalamush dekapitatsiya qilinib, jigar ajratilgandan so'ng, uning parametrlari: uzunligi, kengligi va qalinligi, shuningdek, organning og'irligi aniqlandi. Jigar og'irligi kalamush umumiy og'irligining 4-6% ni tashkil qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, eksperimental tireotoksikozda kalamush jigarining og'irligi asta-sekin ortib boradi. 7- va 14-kunlarda jigar og'irligi o'zgarmadi va nazorat guruhidan farq qilmadi (1-jadval). 21-kuni jigar og'irligi biroz (0,8 g ga) oshdi, 28-kuni jigarning 1,0 g ga biroz oshishi kuzatildi, bu statistik jihatdan ahamiyatsiz. 45- va 60-kunlarda jigar massasining 3,0 va 4,2 g ga statistik jihatdan sezilarli o'sishi aniqlandi.

1-jadval

Nazorat va tajriba guruhidagi kalamushlar jigarining og'irlilik ko'rsatkichlari (dinamikada)

	Nazorat guruhi	7 kunlik	14 kunlik	21 kunlik	28 kunlik	45 kunlik	60 kunlik
Massa	5,1±0,02	5,2±0,01	5,2±0,09	5,9±0,4	6,1±0,02	8,1±0,1	9,3±0,8

Makroskopik o'rganilganda jigar yuzasi silliq. Kesib ko'rildiganda jigar to'laqonli, to'q qizil rangda bo'ladi. Shunday qilib, tajribaviy tireotoksikozda jigar og'irligi asta-sekin ortib boradi va tajriba oxiriga kelib me'yorda 5,1 g bo'lgani holda 10,1 g ga yetadi. Tajriba boshida jigar massasining oshishi shish, tajriba oxirida esa biriktiruvchi to'qimaning o'sishi va jigar fibrozining rivojlanishi bilan bog'liq. Tajribaviy tireotoksikozda jigar o'lchamlarining kattalashishi kuzatiladi. 7-kunda jigar uzunligi nazoratga nisbatan biroz oshdi (2-jadval).

2-jadval

Eksperimental tireotoksikoz sharoitida kalamushlar jigar o'lchamlarining

morfometrik ko'rsatkichlari

Parametri pecheni v sm	Kuzatuv muddati						
	nazorat	7 kunlik	14 kunlik	21 kunlik	28 kunlik	45 kunlik	60 kunlik
Uzunligi	3,9±0,01	4,5±0,01	4,8±0,08	5,3±0,1	5,6±0,01	6,1±0,1	6,3±0,8
Kengligi	2,95±0,8	2,75±0,01	3,0±0,1	3,3±0,02	3,07±0,01	3,46±1,01	3,5±0,5
qalinligi	0,35±0,2	0,35±0,01	0,45±0,1	0,5±0,3	0,47±0,01	0,67±1,1	0,72±1,1

14-kuni jigarning uzunligi 0,9 sm ga oshadi, bu statistik jihatdan ishonchli emas. Uzunlikning sezilarli o'sishi 21- va 28-kunlarda kuzatiladi. Tajribaning 45-kunida jigar uzunligi deyarli 2 baravar oshdi, tajriba oxiriga kelib jigar uzunligi 7,13 sm ga yetdi, me'yorda 3,9 sm, bu 2-rasmida ko'rsatilgan. Eksperimental tireotoksikozda jigar kengligi asta-sekin o'sib boradi va tajriba oxiriga kelib 3,5 sm ga yetadi (2-rasm). Jigar qalinligi ham ortib boradi va tajriba oxirida 0,77 sm ga yetadi, me'yorda 0,35 sm, bu 2-rasmida ko'rsatilgan.

Shunday qilib, eksperimental tireotoksikozda jigarning asosiy parametrlari: uzunligi, kengligi va qalinligi o'zgaradi. Ular asta-sekin oshib boradi, 21- yoki 28-kunlarda sezilarli raqamlarga yetadi va tajriba oxiriga kelib barcha parametrlar deyarli 2 baravar oshadi. Jigar hajmining kattalashishi shish rivojlanishi, keyinchalik esa jigar fibrozi bilan bog'liq.

Xulosa. Ushbu tadqiqot tajribaviy tireotoksikoz sharoitida jigar morfologik o'zgarishlarini o'rganishga bag'ishlandi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, qalqonsimon bez gormonlarining ortiqcha ishlab chiqarilishi jigarning tuzilish va funksiyalarida sezilarli o'zgarishlarga olib keladi. Xususan, tajribaviy tireotoksikoz sharoitida jigarning hajmi va og'irligi ortgan, uning gistologik tuzilmasida esa distrofik o'zgarishlar, yallig'lanish infiltratsiyasi va fibroz jarayonlari kuzatilgan.

Eksperimental model natijalari tireotoksikoz fonida jigarda yuz beradigan patologik jarayonlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Tadqiqot natijalari tireotoksikoz sharoitida jigarning shikastlanishini oldini olish va uni davolashda antioksidant terapiyaning ahamiyatini tasdiqlaydi. Ayniqsa, tokoferol kabi antioksidantlarning qo'llanilishi jigar hujayralarini himoya qilishda samarali ekani aniqlandi. Kelgusida ushbu mavzuga oid tadqiqotlarni kengaytirish va turli farmakologik preparatlarning jigar funksiyasiga ta'sirini baholash zarur. Tireotoksikoz bilan bog'liq jigar shikastlanishining oldini olish uchun kompleks yondashuvlar ishlab chiqilishi muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. Association of functional polymorphisms related to the transcriptional level of FOXP3 with prognosis of autoimmune thyroid diseases / N. Inoue, M. Watanabe, M. Morita [et al.] // Clin. and Exp. Immunol. - 2010. - Vol. 162, №3.-P. 402-406.
2. Biondi, Bernadette. Invited commentary: Cardiovascular mortality in subclinical hyperthyroidism: An ongoing dilemma / Bernadette Biondi // Eur. J.Endocrinol. - 2010. - Vol. 162, № 3. - P. 587-589.

3. Demers, L. M. (Demers L. M.) Prakticheskiye rekomendatsii po laboratornomu issledovaniyu funksii щитовидnoy jelezny / L. M. Demers, S. A. Spenser // Probl. endokrinologii. - 2004. - № 4. - S. 30-39.
4. Experimental study: The role of CXCR5 and its ligand CXCL13 in the compartmentalization of lymphocytes in thyroids affected by autoimmune thyroid diseases / G. Aust, D. Sittig, L. Becherer [et al.] // Eur. J. Endoc. - 2004. - Vol. 150, № 2 . - P . 20.
5. Iglesias, P. Severe hyperthyroidism: Aetiology, clinical features and treatment outcome / P. Iglesias, O. Devora, I. Garsia // Clin. Endocrinol. - 2010. -Vol. 72, № 4 . - P . 551-557.
6. Involvement of inducible costimulator ligand (ICOSL) expression in thyroid tissue in hyperthyroidism of Graves disease patients / Fengming Wang,Tao Yan, Lujun Chen [et al.] // J. Clin. Immunol. - 2012. - Vol. 32, № 6. -P. 1253-1261.
7. Kurihara, H. (Kurixara, X.) Operativnoye lecheniye bolezni Greyvsya: supersubtotalchnaya rezeksiya щитовидnoy jelezny / X. Kurixara // Vestn. xirurgii. - 2006. - № 3. - S. 28-30.
8. Lymphocytes in peripheral blood and thyroid tissue in children with Graves • disease / Ben-Skowronek Iwona, Sierocinska-Sawa Jadwiga, Korobowicz Elzbieta [et al.] // World J. Pediat. - 2008. - Vol. 4, № 4. - P. 274
9. Preterm birth does not affect bone mineral density in young adults / Petra E. Breukhoven, Ralph W. J. Leunissen, Sandra W.K. de Kort [et al.] // Eur. J.Endocrinol.- 2011.-Vol. 164, № 1 . - P . 133-138.
10. Thyrotoxic psychosis. Two case reports / H. Ursu, Iulia Barbu, Dorina Sima [et al.] // Acta endocrinol. - 2008. - Vol. 4, № 1. - P. 99-105.
11. Volzke, Henry. Association between id function and gallstone disease / Henry Volzke, Daniel M. Robinson, Ulrich John // World J. Gastroenterol. -2005.-Vol. 11, №35. - P . 5530-5534.
12. Upadhyay, G. Severe hyperthyroidism induces mitochondria-mediated apoptosis in rat liver / G. Upadhyay, R. Singh, A. Kumar // Hepatology. - 2004. -Vol. 39.-P. 1120-1130.
13. Weinbrenner, C. Schilddrusenhormon und kardiovaskulare System / S Weinbrenner, B. Gerbert, R. H. Strasser // DMW: Dtsch. med. ochenscher. -2005. - Vol. 130, № 39. - P. 2215-2219.
14. Zhongguo xiandai yixue zazhi / De-kui Ma, Hui-jun Xiao, Xian-xiao He [et al.] // China J. Mod. Med. - 2005. - Vol. 15, № 1. - P. 107-109.
15. Zhongguo xiandai yixue zazhi / Jia-ju Tan, Jin-song Chen, Li-dong Hu [et al.] // China J. Mod. Med. - 2007. - Vol. 17, № 11. - P. 1377-1379.



Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

"IJODDA CHEGARA YO'Q: ALEKSANDR FAYNBERG FENOMENI"

Dilafruz Eshonqulova¹

Tohirova Laylo²

Özbekiston davlat jahon tillar

KEYWORDS

Aleksandr Faynberg, o'zbek adabiyoti, madaniyatlararo muloqot, tarjima san'ati, she'riyat, ssenariynavislik, badiiy meros, estetik tamoyillar, motivatsiya, millatlararo do'stlik, yosh ijodkorlar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada mashhur shoir, tarjimon va ssenariynavis Aleksandr Faynberg ijodining zamonaviy o'zbek adabiyotidagi o'rni tahlil qilingan. Uning asarlari madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish, o'zbek va rus adabiyoti o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlashda muhim rol o'yagan. She'riyat, tarjima va ssenariynavislik sohalaridagi ijodi insoniylik, milliy qadriyatlar va badiiy ifoda uyg'unligi bilan ajralib turadi. Maqolada Faynberg ijodining yosh ijodkorlar uchun motivatsion jihatlari, uning san'at va adabiyotga sadoqati yoritilgan. Uning merosi bugungi adabiy jarayonlarga ta'siri hamda yosh avlod uchun ilhom manbai sifatida tahlil etilgan.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.15038768](https://doi.org/10.5281/zenodo.15038768)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Suzayapman, muhabbat, olis

Gulxnlardan o'rlaydi tutun.

Sendan bo'sa oladi yulduz,

Bu qirg'oqdan ketaman bugun.

Bu satrlar Aleksandr Faynberg she'riyatining chuqur ma'nolarini, inson qalbining dard va intilishlar bilan to'lib-toshgan kechinmalarini aks ettiradi. Shoirning ijodi nafaqat she'riyat ixlosmandlari, balki tarjima, kino va nasrga qiziquvchilar uchun ham qadrli. Aleksandr Faynberg 1939-yilda Toshkentda tug'ilgan va umrining katta qismini shu yerda ijod qilib o'tkazgan. U o'zining o'ndan ortiq she'riy to'plamlari, yettita badiiy film stsenariysi, yigirmadan ortiq multfilmlari va nasriy asarlari bilan adabiyotimizga munosib hissa qo'shgan ijodkordir. Uning she'rlari falsafiy teranligi, his-tuyg'ular tiniqligi va badiiy rang-barangligi bilan ajralib turadi. Faynbergning tarjimonlik faoliyati ham alohida e'tiborga molik. U ko'plab o'zbek shoirlarining ijodini rus kitobxonlariga tanitgan bo'lsa, o'zining "Chig'ir" nomli kitobi orqali rusiyabon adabiy muhitni o'zbek kitobxonlariga yaqinlashtirdi. Uning xizmatlari

¹ O'zDJTU Xalqaro jurnalistik "ijtimoiy fanlar" kafedrasи katta o'qituvchisi

² Özbekiston davlat jahon tillar universiteti 2-kurs talabasi

Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashga katta hissa qo'shgani uchun 2009-yilda Pushkin medali bilan taqdirlangan. Aleksandr Faynberg nafaqat iste'dodli shoir va tarjimon, balki yuragi bilan O'zbekistonga bog'langan ijodkor edi. Uning asarlarida shu yurtninig osmoni, havosi, tuprog'i, odamlari aks etgan. Shoirning satrlari o'zbek o'quvchisi qalbiga yaqin va tanish ohang bilan jaranglaydi. Ushbu maqolada uning serqirra ijodi, badiiy mahorati va adabiy merosiga yoritib berishga harakat qilinadi.

Aleksandr Faynberg – o'zbek adabiy muhiti bilan uzviy bog'langan ijodkorlardan biri bo'lib, uning ijodi madaniyatlararo muloqot va milliy qadriyatlarning ifodasi sifatida katta ahamiyatga ega. Shoir, tarjimon va ssenariynavis sifatida u nafaqat o'z ijodiy merosi bilan, balki adabiyot va san'at sohasida ko'plab iz qoldirgan shaxslardan biri sifatida e'tirof etiladi. Faynberg ijodining muhim jihatni uning o'zbek adabiyoti bilan uyg'unlashganligidir. Uning she'rlari va tarjimalari orqali o'zbek va rus adabiy aloqalari mustahkamlangan, milliy adabiyotni xalqaro maydonga olib chiqishda muhim rol o'ynagan. Faynberg 1965–1969-yillarda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida maslahatchi sifatida faoliyat yuritgan bo'lib, bu davrda u o'zbek adabiy muhiti bilan bevosita aloqada bo'lgan va yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlagan. Uning she'riy to'plamlariga nazar tashlasak, "Etyud" (1967), "Soniya" (1969), "She'rlar" (1977), "Olis ko'priklar" (1978), "Ijobat" (1982), "Qisqa to'lqin" (1983), "Yoyma to'r" (1984), "Erkin sonetlar" (1990) kabi asarlari nafaqat badiiy jihatdan, balki mazmun-mohiyat jihatidan ham o'zbek adabiy an'analariga yaqin bo'lgan. Uning she'riyati Sharq va G'arb madaniyatlarini o'zaro bog'lovchi bir ko'prik sifatida namoyon bo'ladi. Shoir o'z ijodida Sharq mumtoz she'riyati an'analaridan ta'sirlangan bo'lsa-da, ayni paytda rus va Yevropa she'riyatining ilg'or badiiy tajribalaridan ham unumli foydalangan.

Faynberg ijodining o'zbek adabiyotiga ta'siri sezilarli darajadadir.

1. Milliy qadriyatlар va baynalmilalchilik

Uning she'riy ijodida milliylik va baynalmilalchilik o'zaro uyg'unlashgan. Faynberg lirik qahramoni insoniylik, mehr-shafqat va madad qo'lini cho'zishga tayyor shaxs sifatida gavdalanadi. Uning qalamiga mansub obrazlar ijtimoiy hayotning murakkab jihatlariga, insoniy qadriyatlarga chuqur e'tibor bilan yondashgan.

2. Tarjimachilik orqali adabiy bog'liqlikni mustahkamlash

Faynberg nafaqat o'zbek adabiyotidan ilhomlangan, balki uni keng dunyoga tanitishga ham katta hissa qo'shgan. U Alisher Navoiy g'azallari, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Omon Matjon kabi shoirlarning she'r va dostonlarini rus tiliga tarjima qilib, o'zbek she'riyatining xorijiy o'quvchilar uchun ochilishiga xizmat qilgan. Bu esa o'zbek adabiyotining xalqaro maydonda o'z o'rniiga ega bo'lishiga sabab bo'ldi.

3. Faynberg va o'zbek adabiyoti vakillari

Faynbergning o'zbek adabiyotiga ta'siri faqat tarjimalar bilan cheklanmaydi. U o'zbek shoir va yozuvchilari bilan ijodiy hamkorlikda bo'lib, adabiy muhitga doimiy ta'sir o'tkazgan. U O'zbekiston yosh yozuvchilari seminariga rahbarlik qilgan bo'lib, ko'plab yosh ijodkorlarga o'z tajribalarini o'rgatgan. Bu esa uning faqat shoir yoki tarjimon emas, balki adabiy murabbiy sifatida ham faol bo'lganini ko'rsatadi.

Faynbergning adabiy merosi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Uning

she'rlari va tarjimalari o'zbek adabiyotining rivojlanishiga turtki bergan bo'lsa, kinossenariylari o'zbek kinematografiyasining yuksalishiga hissa qo'shgan. Masalan, uning ssenariylari asosida "Mening akam", "Jazirama oftob tagida", "Qandahorda toblanganlar", "Jinoyatchi va oqlovchilar" kabi filmlar yaratilgan. Ayniqsa, 1999-yilda "Paxtakor" futbol jamoasining avtohalokatda halok bo'lganining yigirma yilligi munosabati bilan suratga olingan "Osmondag'i stadion" filmi shoirning tarixiy voqealarga bo'lgan munosabatini, milliy xotira va e'tiqodga e'tiborini ko'rsatib beradi.

Faynberg o'z ijodi bilan o'zbek adabiyotiga katta hissa qo'shgan shoirlardan biridir. Uning she'riyati, tarjimalari va ssenariylari madaniyatlararo muloqot, insoniy qadriyatlar va millatlararo do'stlik tamoyillarini o'zida aks ettiradi. Uning adabiy merosi bugungi o'zbek adabiy jarayonida ham dolzarbligini saqlab qolmoqda va yosh ijodkorlarga ilhom manbai bo'lib xizmat qilmoqda.

Aleksandr Faynberg o'z she'riyatida insoniylik, do'stlik va ma'naviy qadriyatlarni asosiy mavzulardan biri sifatida yoritgan. Uning lirik qahramoni – o'ziga xos tafakkurga ega, tarix va bugungi hayot o'rtasida bog'liqlikni his qiladigan inson.

Asosiy jihatlar:

Uning she'rlarida Sharq va G'arb madaniyatları uyg'unligi sezildi.

Shoir inson qalbining izardalarini, jamiyatdagi o'zgarishlarni badiiy obrazlar orqali yetkazadi.

Faynbergning "Olis ko'priklar", "Ijobat", "Qisqa to'lqin" kabi to'plamlarida o'tgan zamon bilan bugunning ichki muloqoti yaqqol ko'zga tashlanadi.

Misol tariqasida shuni keltirib ötish joizki, Uning she'riyati rus va Yevropa an'analarini bilan boyigan bo'lsa-da, Sharq mumtoz adabiyoti, xususan, Navoiy ijodi bilan bog'liq jihatlari ham ko'zga tashlanadi. Erkin sonetlar orqali u Yevropa klassik uslubi va Sharq an'analarini uyg'unlashtirishga erishgan.

Alexander Faynbergnı o'zbek adabiyotining targ'ibotchisi desak mubolaǵa bòlmaydi, albatta Aleksandr Faynbergning tarjima faoliyati uning ijodidagi eng muhim yo'nalishlardan biri bo'lib, u o'zbek she'riyatini rus tilida keng targ'ib qilgan.

U Alisher Navoiy g'azallari, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Omon Matjon va boshqa o'zbek shoirlarining asarlarini rus tiliga tarjima qilgan.

Faynberg tarjimalari orqali o'zbek adabiyoti rusiyabon va jahon auditoriyasiga tanitildi. U faqatgina so'zlarni tarjima qilish bilan cheklanmay, o'zbek she'riyatining ruhini va badiiy uslubini ham rus tilida ifodalay oldi. Uning tarjimalari o'zbek va rus adabiy aloqalarini mustahkamlashda katta rol o'ynadi. Masalan, Navoiy g'azallarini tarjima qilishda shoir mumtoz vazn va ohangni saqlab qolishga harakat qilgan. Abdulla Oripov she'rlari tarjimalarida shoirning vatanparvarlik va falsafiy ruhini yetkazishga e'tibor bergan.

Faynberg nafaqat shoir va tarjimon, balki iste'dodli ssenariynavis ham bo'lgan. Uning kino san'atiga qo'shgan hissasi adabiyot bilan uzviy bog'liq.

Asosiy ssenariylari:

"Mening akam"

"Jazirama oftob tagida"

"Qandahorda toblanganlar"

"Jinoyatchi va oqlovchilar"

"Osmondag'i stadion" (1999) – "Paxtakor" jamoasining fojiasiga bag'ishlangan.

Faynberg ssenariylari hayotiy voqeliklarga asoslangan bo'lib, unda inson taqdirlari, jamiyatdagi o'zgarishlar, urush va tinchlik mavzulari yoritiladi. U ssenariylarida she'riy ifoda va chuqr falsafiy fikrlarni qo'llab, o'ziga xos badiiy uslub yaratgan. Adabiyot va kinoning uyg'unligi – uning filmlarida badiiy tasvir vositalari katta ahamiyat kasb etadi. U yaratgan filmlar nafaqat san'at asari, balki tarixiy hujjat sifatida ham qadrli. U o'z ssenariylari orqali adabiy tasvir vositalarini kino tiliga olib chiqishga muvaffaq bo'lgan.

Aleksandr Faynberg ijodining uch yo'nalishi – she'riyat, tarjima va ssenariynavislik bir-biri bilan uzviy bog'langan. Uning she'rlari badiiy va falsafiy yondashuv bilan ajralib tursa, tarjimalari orqali o'zbek adabiyotini dunyoga tanitdi. Ssenariynavis sifatida esa adabiy obrazlar va kinomatografiyani birlashtirib, tarixiy va jamiyatga oid muhim mavzularni yoritdi. Uning ijodi bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan va o'zbek adabiy-madaniy taraqqiyotida muhim o'rinni tutadi.

Aleksandr Faynberg nafaqat o'zbek she'riyatining yorqin vakillaridan biri, balki tarjimon, dramaturg va ssenariynavis sifatida ham o'z nomini adabiyot osmonida muhrlagan. Uning ijodi nafaqat badiiy go'zalligi, balki chuqr insoniy qadriyatlarni yuksaltirishi bilan ham ajralib turadi. Uning she'rlari o'zbek adabiyotining boy merosini butun dunyoga tanitishda muhim rol o'ynadi.

Aleksandr Faynbergning asarlari o'zbek va rus adabiy aloqalarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etgan. Uning ijodida insoniylik, tinchlik, millatlararo do'stlik va xalqlar o'rtasidagi hamjihatlik asosiy mavzular sifatida o'rinni egallagan.

Abdulla Oripov Faynberg haqida shunday deydi: "Aleksandr Faynberg ijodiga kelganda, eng balandparvoz so'zlar ham haqiqatning yuz foizini aks ettira olmaydi. Chunki u, haqiqatdan ham, noyob shoir va tarjimon edi. Dunyo miqyosidagi boshqa hech bir rusiyabon shoir bizning quyoshli diyorimizga bu qadar samimiyoq qo'shiq kuylay olmagan." Bu fikr shoirning nafaqat professional tarjimon, balki chin yurakdan o'zbek madaniyatiga mehr qo'ygan shaxs ekanligini ko'rsatadi. Faynberg she'rlarida O'zbekistonning go'zalligi, xalqlarning mehr-oqibati va insoniy qadriyatlari chuqr aks etgan. Uning asarlari bugungi global dunyoda ham dolzarb bo'lib, turli millatlar o'rtasidagi tushunish va hurmatni targ'ib qiladi.

Faynberg ijodi bugungi yosh adiblar uchun o'ziga xos namunadir. U adabiyotga sadoqat, ijodiy izlanish va mehnatsevarlik bilan erishish mumkin bo'lgan yuksak natijalarni ko'rsatib berdi. U yosh tarjimonlar uchun ilhom manbaidir. Faynberg mashhur o'zbek shoirlarining she'rlarini rus tiliga tarjima qilib, ularning dunyo adabiy maydoniga chiqishiga yordam berdi. U Alisher Navoiy, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov kabi shoirlarning asarlarini rus tiliga o'girdi. Bu esa uning tarjimalari o'zbek va rus adabiy aloqalarini mustahkamlashga qanday hissa qo'shganini ko'rsatadi. Yosh tarjimonlar uning ish uslubidan o'rganib, o'zbek adabiyotini boshqa tillarga tarjima qilish jarayonida undan ilhom olishlari mumkin. Bundan tashqari, Faynbergning asarlari yosh shoirlar uchun ham o'rnak bo'lishi mumkin. Uning

she'rlari tuzilishi, poetik obrazlarining tiniqligi va chuqurligi yosh ijodkorlarga badiiy ifodalash san'atini o'rganishda yordam beradi.Faynberg nafaqat she'riyat, balki kinossenariy yozish sohasida ham samarali ijod qilgan. U yaratgan ssenariylar asosida "O'zbekfilm" kinostudiyasida "Quyosh tig'ida", "Akajon", "Qandahorda davolanganlar" kabi filmlar suratga olingan. Bundan tashqari, "Tojikfilm" kinostudiyasida ham uning bir necha asarlari ekranlashtirilgan. Bundan yosh ssenariynavislar dars chiqarib, adabiyot va kinoni uyg'unlashtirish bo'yicha Faynberg tajribasidan o'rganishlari mumkin.

Faynbergning ijodi bugungi adabiy muhitda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Uning poetik uslubi, badiiy mahorati va chuqur mazmunli asarlari zamonaviy shoirlar va yozuvchilar uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qilmoqda.Uning uslubi ko'plab o'zbek va rus shoirlariga ta'sir ko'rsatgan. She'rlarining falsafiy jihatlari, insoniylik motivlari va poetik chuqurligi bugungi shoirlar ijodida ham aks etmoqda.Faynberg ijodiy merosi bugungi adabiyotshunoslar tomonidan chuqur o'rganilmoqda. Uning asarlari millatlararo adabiy aloqalar, tarjima san'ati va poetik uslub bo'yicha ilmiy tadqiqotlar uchun muhim manba hisoblanadi.Bugungi yosh adabiyot ixlosmandlari Faynberg ijodiga tobora ko'proq qiziqmoqda. Uning o'zbek madaniyatiga bo'lgan muhabbati va badiiy mahorati yosh ijodkorlar uchun o'rganish kerak bo'lgan bebaho merosdir.

Aleksandr Faynberg ijodi O'zbekiston adabiyotida alohida o'rinni tutadi. Uning asarlari insoniylik, milliy birlik va do'stlik kabi mavzularni yoritib, yosh avlod uchun ibrat maktabi bo'lib xizmat qiladi.

Faynberg merosidan chiqadigan saboqlar:

Adabiyotga sadoqat va ijodiy izlanish – yosh shoirlar va yozuvchilar uchun eng muhim saboqlardan biri.

Millatlararo adabiy hamkorlik – uning tarjimalari bugungi tarjimonlar uchun namuna bo'lib xizmat qiladi.

Badiiy mahorat va poetik uslub – uning she'riyati va ssenariylari bugungi adabiy jarayonda ham dolzarb.

Kino va adabiyot uyg'unligi – ssenariy yozish san'ati bo'yicha yosh ssenariynavislar Faynberg ijodidan ko'p narsani o'rganishlari mumkin.

Ilmiy rahbarim Dilafro'z Eshankulova Alisherovna dunyo shoirlari akademiyasi a'zosi va ijodkori sifatida: "shoirning hayoti va faoliyatida inson qadriyatining yuksak baxolanishi yoshlarga katta namunadir" deydilar.Darhaqiqat, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning tashabbuslari bilan biz yoshlarga yaratilayotgan barcha imkoniyatlar ilm-salohiyatimizni yanada mustahkamlashimizda va o'z iste'dodimizni namoyon etishimizda motivatsiya bo'layotganini alohida e'tirof etib o'tishim zarur.Ayniqsa, jahon adabiyoti bilan o'zbek adabiyotimiz jahon bilan yuzma-yuz bo'lishida adabiyotimizga qo'shgan hissasi beqiyosdir.Bunday adabiy tanlovlarning tashkil etilishi, halqaro munosabatlarimizning yanada mustahkamlanib borishida, biz yoshlarning nafaqat ilmiy, balkim, adabiy tadqiqitlar olib borishimizda katta turtki bo'la oladi.

Shunday qilib, Aleksandr Faynbergning ijodi faqat o'z davri bilan cheklanib qolmay, balki bugungi adabiy jarayonlarga ham ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Uning merosi zamonaviy shoir va

yozuvchilar uchun ham, tarjimonlar hamda ssenariynavislар uchun ham bebahо tajriba maktabidir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. CyberLeninka. (n.d.). Aleksandr Faynberg qalblarda mangу yashaydi. [Online] Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/aleksandr-faynberg-qalblarda-mangu-yashaydi> [Accessed 15 Mar. 2025].
2. Ziyouz.com. (n.d.). Aleksandr Faynberg (1939-2009). [Online] Available at: https://ziyouz.com/images/poets/aleksandr_faynberg.jpg [Accessed 15 Mar. 2025].
3. Yuz.uz. (n.d.). Aleksandr Faynbergning yorqin xotirasiga. [Online] Available at: <https://yuz.uz/uz/news/aleksandr-faynbergning-yorqin-xotirasiga> [Accessed 15 Mar. 2025].
4. CyberLeninka. (n.d.). A Russian Poet With An Uzbek Heart. [Online] Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/a-russian-poet-with-an-uzbek-heart> [Accessed 15 Mar. 2025].
5. Wikipedia. (n.d.). Aleksandr Faynberg. [Online] Available at: https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg [Accessed 15 Mar. 2025].



Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

GANDBOLCHILARDA TEZLIK-KUCH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Nizomov Akmaljon¹

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport unversiteti

KEYWORDS

tezlik-kuch ko'nikmalari, qo'l to'pi, portlash kuchi, pliometrik mashg'ulot, mushaklar kuchi, mashg'ulot metodologiyasi, jismoniy tayyorgarlik.

ABSTRACT

Tezlik-kuch ko'nikmalari zamонавиј гандболда hal qilувчи рол о'ynaydi va o'yinchilarning umumiј ishlashiga sezilarli ta'sir qiladi. Ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish gandbol sportchilari uchun portlovchi harakatlar, tez yo'naliшni o'zgartirish, kuchli otish va sakrashlarni samarali bajarish uchun juda muhimdir. Ushbu maqola tezlikni kuchaytirish imkoniyatlarini yaxshilashning turli usullarini o'rganadi, mashg'ulot yondashuvlarini va ularning o'yining fiziologik talablari kontekstida dolzarbligini o'rganadi. Tadqiqotda turli mahorat darajasidagi gandbolchilar uchun tezlik-kuch ko'nikmalarini rivojlantirishning hozirgi tendentsiyalari haqida tushunchalar berib, kuch va konditsionerlik bo'yicha ilmiy adabiyotlar ko'rib chiqiladi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.15040402](https://doi.org/10.5281/zenodo.15040402)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Kirish.

Handball - bu muvaffaqiyatga erishish uchun chidamlilik, chaqqonlik va tezlik-kuch ko'nikmalarining noyob uyg'unligini talab qiladigan dinamik sport turi. Ushbu jismoniy talablar nafaqat o'yinchilarning umumiј jismoniy tayyorgarligini, balki tez va kuchli harakatlarni bajarish qobiliyatini ham rivojlantiruvchi o'quv dasturlarini talab qiladi. Tezlik va mushak kuchini o'zida mujassam etgan tezlik kuchi qo'l to'pidagi muhim sifat bo'lib, sakrash, yugurish va uloqtirish kabi muhim jihatlarda ishlashga ta'sir qiladi. Tezlik-kuch ko'nikmalarini oshirish sportning ham havaskor, ham professional darajada o'sib borayotgan jismoniy intensivligi tufayli juda dolzarbdir. Ushbu ko'nikmalarni oshirmslik o'yinchining samaradorligini cheklashi va o'zin davomida jarohat olish xavfini oshirishi mumkin.

Tadqiqot maqsadi

Ushbu tadqiqotning maqsadi gandbolchilarda tezlik-kuch ko'nikmalarini rivojlantirish uchun

¹ O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport unversiteti Farg'ona filiali sport o'yinlari nazariyasi va uslubiyati o'qituvchisi

samarali trening strategiyalarini tahlil qilish va ta'kidlashdir. Bu quyidagilarni o'rganishni o'z ichiga oladi:

Tezlik-kuch qobiliyatlarining fiziologik asoslari.

Trening usullari, shu jumladan pliometrik mashqlar, qarshilik mashqlari va sportga xos mashqlar.

Strukturaviy kuch va konditsioner dasturlarning o'yinchilarning portlash qobiliyatini yaxshilashga ta'siri.

Tezlik-kuch ko'nikmalarini rivojlantirishda tiklanish, davriylashtirish va jarohatlarning oldini olishning o'rni.

Gandbolda tezlikni oshirish bo'yicha eng yaxshi tajribalarni o'rganish uchun mavjud ilmiy adabiyotlar, ekspert xulosalari va amaliy tadqiqotlardan foydalanilgan. Portlash kuchi va tezligiga yo'naltirilgan turli xil o'quv dasturlari va rejimlari ko'rib chiqilib, ularni sportchilarni rivojlantirishning keng qamrovli rejasiga qanday kiritish mumkinligiga urg'u beriladi.

Sprint tezligi tez tanaffuslar va qarshi hujumlar uchun zarurdir. O'yinchilar himoyachilardan oldinga o'tish yoki himoyada orqaga qaytish uchun qisqa masofalarni tezda bosib o'tishlari kerak. O'tish paytida 10-30 metrlik qisqa masofalarda tezlik ayniqsa muhimdir.

Handball – bu ikki soniyalik qarorlar o'yini bo'lib, o'yinchilardan raqiblarning harakatlariga, uzatmalariga va zarbalariga tezkorlik bilan munosabat bildirishlarini talab qiladi. Reaksiya tezligi o'yinchilarga o'zin oqimiga javoban paslarni ushlab turish, zarbalarini to'sib qo'yish yoki yo'nalishni tezda o'zgartirish imkonini beradi.

Qaror qabul qilish tezligi

Gandbolchilar bosim ostida tezkor qarorlar qabul qilishlari kerak, u to'p uzatish, zarba berish yoki o'zini himoya qilishda. Kognitiv tezlik o'yinni o'qish va imkoniyatlardan foydalanish yoki tahdidlarning oldini olish uchun tezkor harakat qilish uchun zarurdir.

Chaqqonlik va yo'nalishni o'zgartirish

qo'l to'pi o'yinchilardan soniyaning bir qismi ichida lateral harakat qilish, aylanish va yo'nalishni o'zgartirishni talab qiladi. Muvozanatni yo'qotmasdan yo'nalishni tezda o'zgartirish qobiliyatini kuchaytiradigan chaqqonlik mashqlari himoyachilardan qochish yoki hujumkor o'yinchilarni ushlab turish uchun juda muhimdir.

To'p tezligi

O'yinchining to'pni uzatishi, uloqtirishi yoki otish tezligi hujumdagi muvaffaqiyatning asosiy omili hisoblanadi. Tezroq to'p tezligi himoyachilar va darvozabonlarning reaksiya vaqtini qisqartiradi, bu ularning to'pni ushlab turishini yoki to'sib qo'yishini qiyinlashtiradi. Bu qo'l tezligi, kuchi va muvofiqlashtirishga bog'liq.

Gandbolda tezlikning ahamiyati

Hujumkor o'zin: Tezlik o'yinchilarga himoyadan o'tish, tezkor tanaffuslarni bajarish va gol urish imkoniyatlarini yaratish imkonini beradi. Yuqori tezlikdagi hujumda tezkor paslar va harakatlar himoyachilarning ortda qolishini va reaksiyaga kirishishini qiyinlashtiradi.

Himoyaviy o'zin: Tezlik o'yinchilarga raqiblarni yopish, o'tish yo'llarini qoplash va egalikdan mahrum bo'lgandan keyin tezda tiklanishiga yordam beradi. Qarshi hujumlarning oldini olish uchun hujumdan himoyaga tez o'tish muhim ahamiyatga ega.

Darvozabon reflekslari: Darvozabonlar uchun harakat tezligi va reaktsiya vaqtiga tez va kuchli zarbalarni to'xtatish uchun kalit hisoblanadi. Tez lateral harakatlari va qo'l-ko'zni tezkor muvofiqlashtirish - darvozabonning hayotiy qobiliyatları.

Qo'l to'pi bo'yicha tezlik uchun trening

Qo'l to'pi tezligini oshirish uchun o'yinchilar odatda quyidagi mashg'ulot usullarini birlashtiradilar:

Sprint mashqlar

Turli masofalar va dam olish davrlari bilan qisqa sprintlar portlovchi tezlashuvni yaxshilaydi. Ushbu mashqlar tez tanaffuslar yoki himoyani kuzatish kabi o'zin vaziyatlarini taqlid qiladi.

Chaqqonlik va tezkorlik mashqlari

Konusli mashqlar, zinapoyalar va marshrutlar o'yinchilarning o'zin ichidagi vaziyatlarga javob berishda yo'nalishni tezda o'zgartirish va harakatlarini nazorat qilish qobiliyatini oshirish uchun ishlatiladi.

Pliometrik mashg'ulot

Plyometriks sakrash va chegaralanish kabi portlovchi harakatlarga qaratilgan bo'lib, o'yinchining tezda quvvat ishlab chiqarish qobiliyatini yaxshilaydi. Bu portlovchi startlarda, otishma yoki bloklar uchun balandroq sakrashda va burilish yoki burilishdan tashqarida tezlashishda yordam beradi.

Reaktsiya vaqtiga treningi

Hamkor to'p tomchilari yoki reaksiya chiroqlari kabi reaktsiya mashqlari o'yinchilarni ogohlantirishlarga tezroq javob berishga o'rgatish, ularning kognitiv va jismoniy javob vaqtalarini yaxshilash uchun ishlatiladi.

To'p tezligi va qo'l kuchiga

qarshi kurash mashg'ulotlari qo'l kuchiga qaratilgan, qo'l-ko'zni muvofiqlashtirish mashqlari bilan birgalikda o'yinchilarga to'pni tezroq tashlash va uzatishga yordam beradi. Og'irlangan to'pni uloqtirish, qarshilik guruhini mashq qilish va tez o'tish mashqlari bu mahoratni rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa.

Munozara qo'l to'pining o'ziga xos talablari va maqsadli mashg'ulotlar orqali tezlik-kuch ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Plyometrikaning ahamiyati ta'kidlangan, chunki u tez burish mushak tolalarini kuchaytiradi, sakrash va sprint qobiliyatini yaxshilaydi. Bundan tashqari, qarshilik mashqlari kuchli zarbalar va zerbalar uchun zarur bo'lgan mushaklar kuchini rivojlantirishning asosiy komponenti sifatida ta'kidlangan. Qarshilik tasmalari bilan to'p bilan ishlov berish mashqlari yoki og'irlilikdagi uloqtirish kabi sportga xos mashqlarning roli ham muhokama qilinadi.

Bundan tashqari, mashg'ulotlarda ortiqcha mashg'ulotlarning oldini olish va musobaqa mavsumida optimal natijalarni ta'minlash uchun mashg'ulotlarni davriylashtirish muhimligiga e'tibor qaratiladi. Dam olish va tiklanish strategiyalari, ayniqsa jarohatlarning oldini olish bilan bog'liq holda, gandbolchilar uchun tezlikni oshirish mashqlarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tezlik-kuch ko'nikmalarini rivojlantirish qo'l to'pi ishlashining muhim jihatni bo'lib,

131

o'yinchining portlovchi harakatlarni bajarish va yuqori o'yin darajasini saqlab turish qobiliyatiga hissa qo'shami. Pliometriya, qarshilik ko'rsatish va sportga oid mashqlarni o'z ichiga olgan tizimli mashg'ulotlar orqali sportchilar ushbu asosiy jismoniy xususiyatlarni yaxshilashlari mumkin. Bundan tashqari, mashg'ulotlar, tiklanish va jarohatlarning oldini olish o'rtasidagi muvozanatni tushunish sportchining uzoq muddatli rivojlanishi uchun juda muhimdir.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati.

- 1.Komi, PV (Tahr.). (2003). Sportdag'i kuch va kuch (2-nashr). Blackwell fan.
- Shmidtbleicher, D. (1992). "Kuchli hodisalar uchun trening." PV Komi (Tahr.), Sportda kuch va kuch (381-395-betlar). Blackwell fan.
- 2.Verxoshanskiy, YV (1998). Maxsus kuch tayyorlash: murabbiylar uchun amaliy qo'llanma . Yakuniy sportchi tushunchalari.
- 3.Shmidt, WD, Piencikowski, CL va Vandervoort, AA (1998). "Sog'lom keksa kattalardagi qarshilik mashqlarining kuch va mushaklarning chidamliligiga ta'siri". Qarish va jismoniy faoliyat jurnali , 6 (4), 386-393.
4. Abduraxmonov, S. (2023). GANDBOL SPORT TURINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 2(25), 95-98.
5. Xakimovich, A. S. (2024). Umumta'lim maktablarda sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish. Научный Фокус, 1(12), 244-247.
6. Abduraxmonov, S. (2023). Gandbolchilarning sport tayyorgarligi tizimi. Евразийский журнал академических исследований, 3(10), 195-197.



Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

THE OPPORTUNITIES OF FINANCIAL TECHNOLOGIES AND THE IMPORTANCE OF FINTECH

Berdiqulova Sevinch¹

Ismoilova Intizor²

Yangiyer branch of the Tashkent Institute of Chemical Technology

KEYWORDS

fintech (financial technology), cryptocurrencies, Payroll Protection Program, DeFi, CBDC, INEI, OSIPTEL.

ABSTRACT

Digital finance and fintech (financial technology) have revolutionized the financial sector in recent years. This article analyzes the impact of digital finance and fintech on financial markets, its opportunities and challenges. Digital finance and fintech technologies are transforming traditional financial services, creating wider opportunities for customers through digital payments, online banking, cryptocurrencies, peer-to-peer lending and other innovative services. The article analyzes the benefits that digital finance and fintech offer in the financial sector, including reducing costs, increasing service speed and expanding access. The article also discusses legal and regulatory barriers, security and privacy issues. This article provides scientific conclusions on the future development prospects of digital finance and fintech and their impact on the global financial system.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.15040503**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

INTRODUCTION. In recent years, technological innovations have revolutionized the financial sector. Digital finance and fintech (financial technology) are among the most important drivers of this change, fundamentally changing the way traditional financial services are delivered. The term fintech refers to the use of modern technologies in the provision of financial services and products. These technologies include innovations such as digital payments, mobile banking, cryptocurrencies, peer-to-peer lending, and blockchain technology. Developments in digital finance and fintech are providing consumers with new ways to access financial services. For example, the ability to manage bank accounts, make payments, and even invest through mobile applications is expanding. Fintech startups are competing with traditional banks and providing innovative solutions and convenience in the

¹ Teacher of the Yangiyer branch of the Tashkent Institute of Chemical Technology

² 2nd year student of the Yangiyer branch of the Tashkent Institute of Chemical Technology

financial services market.

Financial technology (fintech) refers to broad range of technological innovations in the financial sector that enhance or change the way financial services are provided. The innovations typically include crowdfunding, insurance, budgeting software, blockchain (and cryptocurrencies), electronic payments and transfers, and robo-advisors and trading applications, helping to reduce costs and risks, as well as extending and broadening services to unbanked populations. A new financial industry that uses technology to improve the delivery of financial services, fintech is utilized to help businesses and consumers better manage their financial operations, processes, and lives through specialized software and algorithms and has use-cases across nearly every industry, geographical market and business model.

A. Banks: use fintech for both back-end processes and consumer-facing solutions such as behind-the-scenes monitoring of account activity and checking account balances on customer apps.

B. Businesses: rely upon fintech for payments processing, e-commerce transactions and accounting as well as seeking assistance with government assistance programs like the Payroll Protection Program.

C. Individuals: use fintech platforms for tasks such as depositing checks, accessing money overseas or applying for financial aid as well as more intricate concepts like peer-to-peer lending or crypto exchanges.

MATERIALS AND TECHNIQUES: This article uses a mixed-methodology research approach to analyze the role and impact of digital finance and fintech in the financial sector. The research methodology includes the following stages: literature review. As an initial stage of the research, existing literature and scientific articles were analyzed. At this stage, information was collected on the essence of digital finance and fintech, their historical development, impact on the financial sector, and future prospects.

The most current problems and trends in the sector were studied through published articles, books, and conference proceedings:


- interviews with clients and experts: interviews were conducted with clients and industry experts who use digital finance and fintech services. The interviews were conducted based on structured questions and detailed information was collected on the advantages and disadvantages of digital financial services for users. Experts expressed their opinions on the technological and regulatory aspects of digital finance and fintech.

- statistical analysis: statistical data in the field of digital finance and fintech were analyzed. At this stage, the growth trends of digital payments, mobile banking services, cryptocurrencies and other fintech products in global and local markets were studied. Official reports and studies of financial institutions, government agencies and international organizations were used as sources of information.

The course Digital Finance is designed to provide students with a deeper understanding of the rapidly evolving intersection of the financial industry and technology. This course explores the digital transformation of financial services and the regulatory and legal

implications that accompany this development. Students will gain insights into the latest advancements in financial technology and examine how regulation has been adapted to respond to multiple risks and challenges created by the technological environment of financial institutions shaped for the digital service offerings and the business administration (for instance, through the application of blockchain and cloud computing) and the development and proliferation of cryptocurrencies, stablecoins, decentralised finance (DeFi) and artificial intelligence, including machine learning. The course will thoroughly discuss responses to the challenges posed by these technologies with a particular focus on enhancing the digital operational resilience of financial entities and the introduction of central bank digital currencies (CBDCs).

Table 1²



Source: PUNKU-OSIPTEL (cut-off date October 1, 2024).

Proper digital transformation requires users to have reliable and permanent internet access. According to the National Institute of Statistics and Informatics (INEI), through its technical report "Statistics of Technologies and Communication in Households", 95.3% of households have at least one member with a mobile phone. This, along with the deployment of 5G technology and the popularization of digital wallets, contributes to a strong digital infrastructure that enables the development of financial inclusion.

According to the OSIPTEL, in 2024:

- As of March 2024, fiber optic connections represent 61.96% of total fixed internet connections, 19.34% more than the same period of the previous year.
- Regions currently account for 42.8% of the national market with 1.56 million connections.
- In the first quarter of 2024 compared to the same period of 2023, there was a

² https://info.ev.com/fintech_business_guide_2024_2025.html

percentage growth of 16.3% in other regions of the country, as a whole.

RESULTS AND DISCUSSIONS: The FinTech industry in Peru³ has been developing consistently.

Number of FinTech companies in Peru	
<i>Payments and Transfers</i>	60
<i>Lending</i>	54
<i>Crowdfunding</i>	6
<i>Factoring</i>	6
<i>Foreign Exchange</i>	27
<i>Insurtech</i>	10
<i>Finance Management</i>	29
<i>Wealth Management</i>	12
<i>Virtual Asset Services</i>	14
<i>FinTech as a Service (FaaS)</i>	19

At present, Peru registers an average annual growth of approximately 17% of the FinTech companies amount compared to last year. It is relevant to highlight that the number of Payments and Transfer FinTech companies increased to 60, surpassing the Lending vertical, which registers 54 FinTech companies. As last year, the main FinTech verticals in Peru continue to be Payments and Transfers and Lending, respectively; except that this year the Finance Management vertical has been added in third place.

CONCLUSION. Digital finance and fintech technologies have demonstrated that they are revolutionizing the financial sector. These technologies are transforming traditional financial systems through innovative services such as digital payments, online banking, cryptocurrencies, and peer-to-peer lending. The research findings show that digital finance and fintech technologies have the potential to increase the speed of service delivery, reduce operational costs, and increase financial inclusion. However, legal and regulatory barriers, security, and privacy issues remain relevant in this direction. Governments and financial institutions need to work together to overcome these barriers. At the same time, it is necessary to pay attention to cybersecurity and take measures to protect users. Digital finance and fintech technologies are expected to have a major impact on the development of the financial sector in the future. As innovation continues, new services and products will emerge, further expanding the financial services market and creating new opportunities for customers. Competition and collaboration between fintech startups and traditional financial institutions will drive the industry forward.

In general, digital finance and fintech technologies have great potential in the financial

³ <https://studiegids.universiteitleiden.nl/courses/130496/digital-finance>

sector, and if properly managed and developed, they can improve the quality of financial services, reach a wider audience, and improve the global economy. The research results presented in this article provide a comprehensive understanding of the current state and future prospects of digital finance and fintech, and help determine the measures that should be taken in this area.

USED LITERATURE:

1. IMF (2024). World Economic Outlook for April 2024.
2. Fintech Business Guide 2024/2025.
3. FINTECH AND DIGITAL FINANCE FOR FINANCIAL INCLUSION. Eunice Ajambo. 14/03/2023.



Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

ТИРЕОТОКСИКОЗ ТАЪСИРИДА ЖИГАР МОРФОЛОГИЯСИ

Sarsenbaeva A. S.¹

Сагдуллаева М.К.²

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi

KEYWORDS

tireotoksikoz, qalqonsimon bez gormonlari, jigar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada tajribaviy tireotoksikoz sharoitida jigar morfologik o'zgarishlari o'r ganilgan. Eksperimental model sifatida laboratoriya kalamushlaridan foydalanilgan bo'lib, ularning jigar tuzilishi makroskopik va mikroskopik darajada o'r ganilgan. Tadqiqot natijalari tireotoksikoz sharoitida jigarning strukturaviy o'zgarishlarga uchrashini tasdiqlaydi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.15046741**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Endokrin kasalliklar orasida qalqonsimon bez patologiyasi ancha keng tarqalgan bo'lib, JSST ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining 7 foizini qamrab oladi (1,5). Mutaxassislarining bashoratlariga ko'ra, qalqonsimon bez kasalliklari sonining ko'payish tendensiyasi yaqin yillarda ham saqlanib qoladi. Bu sanoatning jadal rivojlanishi va atrof-muhitning sanoat hamda radioaktiv chiqindilar bilan ifloslanishi, tuproqning mikroelement tarkibining o'zgarishi, irsiy moyillik bilan bog'liq (2,6). Qalqonsimon bez kasalliklari, ayniqsa, tireotoksikoz dunyo aholisining sezilarli qismini qamrab olgan jiddiy endokrin patologiyalardan biridir. Ushbu kasallik organizmdagi modda almashinuvni jarayonlarini buzib, turli a'zolarda, jumladan, jigarda patologik o'zgarishlarni keltirib chiqaradi (3,4,7). Qalqonsimon bez gormonlari jigarning metabolik jarayonlarini boshqarishda muhim rol o'ynaydi va ularning ortiqcha ishlab chiqarilishi gepatotsitlar funksiyasining buzilishiga olib keladi. Tireotoksikoz – bu organizmda tireoid gormonlarining yuqori darajada ishlab chiqarilishi bilan bog'liq bo'lgan patologik holat bo'lib, u organizmning ko'plab tizimlariga, jumladan, jigarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Jigar tireoid gormonlarining metabolizmida va ularning samaradorligini tartibga solishda muhim organlardan biri hisoblanadi. Shu bois, tireotoksikozda jigar to'qimalarining morfologik o'zgarishlarini o'rganish dolzarb muammolardan biri sifatida baholanadi (9). Tireoid gormonlari organizmning modda

¹ Toshkent Tibbiyot Akademiyasi

² Toshkent Tibbiyot Akademiyasi


almashinuvi jarayonlarini faollashtiradi, jumladan: Jigarda glyukoneogenez va glikogenoliz jarayonlarini kuchaytiradi; oksidlovchi stressni kuchaytirib, gepatotsitlarda shikastlanishga olib kelishi mumkin; jigarda lipidlar va oqsillar metabolizmining buzilishiga sabab bo'ladi (8,10.). Tireotoksikozda jigarning morfologik o'zgarishlarini o'rganish muhim ilmiy muammo hisoblanadi. Jigarning tireoid gormonlariga javob sifatida qanday o'zgarishlarga uchrashini aniqlash kelgusida samarali davolash va profilaktika choralarini ishlab chiqishga yordam beradi (7). Shuningdek, tireotoksikozning jigarga ta'sirini to'liq tushunish kasallikning kechishini yaxshiroq baholashga va individual davolash taktikasini ishlab chiqishga yordam beradi.

Tadqiqotning maqsadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi tajribaviy tireotoksikoz sharoitida kalamush jigarining morfologik o'zgarishlarini makroskopik va gistologik jihatdan o'rganishdan iborat.


Tadqiqot materiali va uslubi. Tadqiqot og'irligi 250 g dan 300 g gacha bo'lgan oq urg'ochi laborator kalamushlarida o'tkazildi. Tajribalar uchun sog'lom kalamushlar tanlandi. Kalamushlar optimal sharoitda saqlangan. Qalqonsimon bez gormonlari darajasi T3, T4, TTG (DRG international inc, Germaniya) diagnostika to'plamlari yordamida immunoferment tahlili tomonidan aniqlandi: T3 (umumi triyodotironin), T4 (umumi tiroksin) va TTG (tireotrop gormon). Oq laborator kalamushlar 2 guruhga ajratildi: 1-tajriba guruhida urg'ochi jinsga mansub 24 ta oq laborator kalamushlarda tajribaviy tireotoksikoz chaqirish uchun 1 kg tana og'irligiga nisbatan 2mkg miqdorda L tiroksin har kuni berildi. 2-tajriba guruhida urg'ochi jinsga mansub 24 ta oq laborator kalamushlarda tajribaviy tireotoksikoz chaqirish uchun 1 kg tana og'irligiga nisbatan 2mkg miqdorda L tiroksin va 1 kg tana og'irligiga nisbatan 15mg miqdorda alfa-tokoferol antioksidanti har kuni berildi.

Natijalar va muhokama. Intakt guruhdagi kalamushlar jigarining histologik tuzilishi normal histologik tuzilishga ega bo'lib, patologiyasiz edi. Jigar bo'lakchalarida markaziy venadan portal yo'llarga radial chiquvchi tasmalar ko'rinishidagi gepatotsitlardan iborat to'sinlarning radial joylashuvi, pushti rangli sitoplazma va ko'k yadroli gepatotsitlar, ba'zi joylarda sitoplazma glikogen to'planish darajasi bilan bog'liq bo'lgan turli xil optik zichlikka ega bo'lgan (1-rasm). Jigar to'g'ri geksagonal shaklga ega bo'lgan bo'lakchalardan iborat bo'lib, bo'lakchalar radial joylashgan jigar to'sinlaridan iborat bo'lib, ular jigar hujayralarining anastomozlovchi tortmalari hisoblanadi. Bo'lakchalar orasidagi chegaralar ko'rinxaydi, ko'rish maydonida yaxshi ko'rinxadigan yadrochalarga ega bo'lgan bir yadroli gepatotsitlar ko'rindi (2-rasm). To'sinlar orasida endotelial hujayralar bilan qoplangan jigarning sinusoid kapillyarlari ko'rindi.

Bo'lakchalar markazida bir qismi qon bilan to'lgan markaziy venalar ko'rindi. Kalamush jigarida bo'lakchalararo biriktiruvchi to'qima yaxshi rivojlanmaganligi sababli bo'lakchalar orasidagi chegaralar aniq bilinmaydi. Ko'pchilik gepatotsitlar bir yadroli bo'lib, ularda bir xil bo'yagan yadro va gomogen sitoplazma aniqlanadi. Bir oz miqdorda ikki yadroli gepatotsitlar ham topiladi. Bo'lakchalar orasida tipik tuzilishga ega bo'lgan triada va yig'uvchi venalar aniqlanadi .



Расм -1. Назорат гуруҳидаги каламуш болаларининг жигар бўлагини тузилиш. Гематоксилин ва эозин билан бўяш. Окуляр 10, объектив 40



Расм-2. Назорат гуруҳидаги каламуш жигари. Тўсинли тузилишнинг яққол бузилиши фонида жигарда перипортал жойлашган некроз аниқланди. Гематоксилин ва эозин билан бўяш. Окуляр 10, объектив 40.

Bo'laklardagi sinusoidlar kengaymagan, markaziy venalarning to'laqonligi kuzatilgan. Paracetamol qabul qilgan kalamushlar guruhida to'sinli tuzilishning yaqqol buzilishi fonida jigarda periportal va sentrolobulyar joylashgan nekroz kuzatildi. Gepatotsitlar nekrozi markaziy vena atrofida ustunlik qildi, bu sohalarda turli darajadagi limfogistotsitar infiltratsiya, shuningdek, bo'lakcha va portal yo'llarda joylashgan kuchsiz leykotsitar infiltratsiya mavjud edi. Jigar bo'lakchalarining to'sinli tuzilishi buzilganligi kuzatiladi. Gepatotsitlarning distrofik o'zgarishlari gidropik distrofiya. Ayniqsa, nekrozga uchragan gepatotsitlar atrofida yaqqol gistiotsitar infiltratsiya aniqlandi.


Тажрибавий тиреотоксикозда kalamushlar jigaridagi histologik o'zgarishlar.

Tajriba boshlanganidan 7 kun o'tgach, kalamushlar jigarida bo'laklı tuzilish saqlanib qolgan, jigar to'sinlari yaxshi ifodalangan, gepatotsitlar poligonal shaklga ega. Jigarda struktura o'zgarishlari topilmadi. Sinusoidal kapillyarlar, markaziy venalar va bo'lakchalararo tomirlarning notekis venoz to'laqonligi qayd etiladi. Bu yoshdagagi kalamushlar jigarida strukturaviy o'zgarishlar aniqlanmadidi. Markaziy venalar va bo'lakchalararo tomirlar sinusoidal kapillyarlarining notekis venoz to'laqonligi qayd etiladi. Jigarning bo'laklararo stromasida periportal zonalarda boshlang'ich shish o'choqlari ustunlik qiladi. Stroma shishi asosan bo'lakchalararo biriktiruvchi to'qimada venalar atrofida rivojiana boshlaydi. Yakkamdukkam gepatotsitlarda mayda-mayda vakuolalar topiladi. Gepatotsitlarning asosiy massasi patologik o'zgarishlarsiz. I zonada ikki yadroli bo'linuvchi gepatotsitlar soni kam. Bu muddatlarda birinchi marta perisinusoidal shish o'choqlari aniqlandi. Gepatotsitlarda 14-kuni gidropik distrofiya belgilari, ya'ni sitoplazmada mayda vakuolalar to'planishi aniqlandi. Vakuolalar tiniq plazma suyuqligi bilan to'ldirilgan. Sitoplazmaning vakuolizatsiyasi o'choqli xarakterga ega bo'lib, ayrim gepatotsitlarda ro'y beradi. Jigar venalari kengaygan, ularda

qonning qayta taqsimlanishi va eritrotsitlarning siljishi, staz kuzatiladi. Jigarning bo'laklararo stromasida periportal zonalarda boshlang'ich shish o'choqlari ustunlik qiladi. Stroma shishi asosan bo'lakchalararo biriktiruvchi to'qimada venalar atrofida rivojlana boshlaydi. Arteriya devorlarida plazmatik shimalish belgilari aniqlandi. Van-Gizon bo'yicha bo'ylganda bo'lakchalararo va bo'lakchalar ichidagi biriktiruvchi to'qimada kollagen tolalar ingichka, nozik, biroz egri-bugri bo'ladi.


Yakkam-dukkam gepatotsitlarda mayda-mayda vakuolalar topiladi. Gepatotsitlarning asosiy qismi patologik o'zgarishlarsiz. 1-zonada ikki yadroli bo'linuvchi gepatotsitlar soni kam. 14 kundan keyin jigar stromasida shishning kuchayishi, perivenulyar bo'shliqlarda ustunlik kuzatiladi. Shish o'choqli xarakterga ega. Shish o'choqlarida biriktiruvchi to'qima asosiy muddasining bo'kishi, kollagen tolalar tutamlarining bo'kishi, qatlamlarga ajralishi va bo'shashishi kuzatiladi. Biroq, biriktiruvchi to'qima dezorganizatsiyasi belgilari aniqlanmadи. Toluidin ko'ki bilan bo'ylganda metaxromaziya kuzatilmaydi. Bu muddatlarda birinchi marta perisinusoidal shish o'choqlari aniqlandi.

Ko'rsatilgan muddatlarda diffuz xarakterga ega bo'lgan qon tomir buzilishlari saqlanib qoladi. Qon tomirlar devorida plazmatik shimalish va fibrinoid bo'kish kuchayadi. Endoteliotitsitlar distrofik o'zgarishlar bilan, shishgan, yumaloq shaklda. Gepatotsitlarda 14-kuni gidropik distrofiya belgilari, ya'ni sitoplazmada mayda vakuolalar to'planishi aniqlandi. Vakuolalar tiniq sitoplazmatik suyuqlik bilan to'ldirilgan. Sitoplazmaning vakuolizatsiyasi o'choqli xarakterga ega bo'lib, alohida gepatotsitlarda kuzatiladi (3-rasm).



3-rasm. Sitoplazmaning o'choqli vakuolizatsiyasi. (14-kun).

Bo'yalishi: gemitoksilin va eozin.x200.



4-rasm. Kesmaning butun yuzasi bo'ylab jigar stromasida limfotsitlar, gistiotsitlar va fibroblastlardan iborat ko'plab infiltratlar aniqlanadi.

Ikkinchi zonada gepatotsitlarning gidropik distrofiyasi boshlanadi. Sudan III bilan bo'ylganda gepatotsitlar sitoplazmasida lipidlar topilmadi. I zonada bo'lakchalar

periferiyasida yakka-yakka ikki yadroli gepatotsitlar (bo'linayotgan), kam miqdorda katta giperxrom yadroli yirik gepatotsitlar uchraydi (4-rasm).

21-kundan so'ng jigarda qon tomir buzilishlari saqlanib qoladi va shishning kuchayishi kuzatiladi. Shish barcha bo'lakchalarga tarqaladi va diffuz xarakterda bo'ladi. Shish suyuqligi perisinusoidal bo'shliqlarda, perivaskulyar bo'shliqlarda portal vena tarmoqlari bo'ylab va otgok tizimi bo'ylab to'planadi. Kollagen tolalar shishgan, shish suyuqligi bilan surilgan, hujayra elementlari siqilgan; ularning yadrolari burishgan. Fibroblastlar o'simtalari bo'rtib turadi. Toluvdin ko'ki bilan bo'yalganda metaxromaziya aniqlandi. Kesmaning butun yuzasi bo'ylab jigar stromasida limfotsitlar, gistioshplar va fibroblastlardan iborat ko'p sonli infiltratlar aniqlanadi.

Infiltratlar bo'lakchalar stromasida, bo'lakchalararo biriktiruvchi to'qimada, ayniqsa triadalar sohasidagi periportal zonada joylashadi. Ko'pchilik infiltratlar tomirlar atrofida joylashadi. Stroma infiltratlaridan tashqari, jigar sinusoidlarida limfotsitlar to'plamlari topiladi. Gepatotsitlarda diffuz gidropik distrofiya boshlanib, deyarli butun bo'lakchaga tarqalib boradi. Gepatotsitlar sitoplazmasida yirik vakuolalar topilgan bo'lib, ular hujayraning deyarli hammasini to'ldirib turadi va yadro shu suyuqlikda suzib yuradi. Ba'zi gepatotsitlarda yadrolar nobud bo'ladi, gepatotsit bitta katta vakuolaga aylanadi, ya'ni ballonli distrofiya rivojlanadi. Ikkinchi zonada gepatotsitlarning gidropik distrofiyasi boshlanadi. Sudan III bilan bo'yalganda gepatotsitlar sitoplazmasida lipidlar topilmadi. I zonada bo'lakchalar periferiyasida yakka-yakka ikki yadroli gepatotsitlar (bo'linayotgan), kam miqdorda katta giperxrom yadroli yirik gepatotsitlar uchraydi. Gepatotsitlarda diffuz gidropik distrofiya qayd etiladi, u deyarli butun bo'lakka tarqalib, atsinusning II, III va qisman birinchi zonasini qamrab oladi. Gepatotsitlar sitoplazmasida yirik vakuolalar topilgan, bu vakuolalar hujayraning deyarli hammasini to'ldirib turadi va yadro shu suyuqlikda suzib yuradi. Ba'zi gepatotsitlarda yadrolar nobud bo'ladi, gepatotsit bitta katta vakuolaga aylanadi, ya'ni ballonli distrofiya rivojlanadi. Periportal zonalarda ikki yadroli bo'linuvchi gepatotsitlar soni, shuningdek yirik gepatotsitlar soni ortadi. Poliferatsiyalanuvchi gepatotsitlar butun I zonani egallaydi va bo'lakchalar markaziga siljiydi. Ko'rsatilgan muddatlarda proliferatsiyalanuvchi gepatotsitlar deyarli butun II zonaga tarqaladi. Yirik giperxrom yadroli katta o'lchamdag'i proliferatsiyalanuvchi gepatotsitlar.

28 kundan keyin stroma shishi juda kuchli bo'lib, butun jigarga tarqaladi. Shish perivenulyar bo'shliqlarda, ayniqsa triadalar sohasida ko'proq namoyon bo'ladi. Asosiy modda bo'kadi va parchalanadi, biriktiruvchi to'qima dezorganizatsiyaga uchrab, glikozaminoglikanlar to'planib boradi. Bu muddatlarda distrofik o'zgarishlar jadalligi ortib boradi va ular butun jigarga tarqaladi. Gepatotsitlar sitoplazmasi sitolizga uchraydi. Sitoliz o'choqlari ko'p sonli va 21-kunga qaraganda kattaroq. Gepatotsitlar total zararlanib, ballon distrofiyasi, ya'ni kollikvatsion nekroz boshlanadi. Jigar parenximasining lizis o'choqlari paydo bo'ladi. Jigar parenximasining lizis o'choqlarida eozin bilan och pushti rangga bo'yalgan nekrotik massalarning qoldiqlari uchraydi. Limfotsitar infiltratlar soni sezilarli darajada oshadi, infiltratlar yiriklashadi. Sinusoid kapillyarlar bo'shlig'ida jigarning butun kesimi bo'ylab zanjir ko'rinishidagi limfotsitlar to'plamlari aniqlanadi. Bu jarayon keng

tarqalgan xarakterga ega. Bu muddatlarda distrofik o'zgarishlarning jadalligi ortib boradi va ular butun jigarga tarqaladi. Gepatotsitlar sitoplazmasi sitolizga uchraydi. Sitoliz o'choqlari ko'p sonli va 21-kunga qaraganda kattaroq. Gepatotsitlar total zararlanib, balloon distrofiyasi, ya'ni kollikvatsion nekroz boshlanadi. Jigar parenximasining lizis o'choqlarida eozin bilan och pushti rangga bo'yagan nekrotik massalarning qoldiqlari uchraydi. Limfotsitar infiltratlar soni sezilarli darajada oshdi, infiltratlar yiriklashdi.

Sinusoid kapillyarlar bo'shlig'ida jigarning butun kesimi bo'yab zanjir ko'rinishidagi limfotsitlar to'plamlari aniqlanadi. Bu jarayon keng tarqalgan xarakterga ega. Proliferatsiyalanuvchi gepatotsitlar soni ko'paygan. Proliferatsiyaga uchragan gepatotsitlar I zonadan bo'lakcha markaziga o'tadi va 28-kuni III zonaga yetib boradi. Sudan III bilan bo'ylganda ayrim bo'lakchalar periferiyasida mayda tomchili yog'li distrofiya o'choqlari ko'rindi.

45 kundan keyin shish intensivligi sezilarli darajada oshdi, perisinusoidal bo'shliqlar kengaydi. Jigar to'sinlari ba'zi joylarda atrofiyaga uchragan va bir-biridan ma'lum masofada joylashgan. Perivenulyar bo'shliqlar ham keskin kengaygan. Og'ir distrofik va nekrotik o'zgarishlar bilan gepatotsitlar, sitoliz o'choqlari soni oshgan. Bo'shliqlar soni va o'lchamlari oshdi. Jigar parenximasidagi bo'shliqlar orasida och tusli gepatotsitlar ko'zga tashlanadi, bularning hajmi kattalashgan, go'yo bo'sh sitoplasmaga ega bo'lган dumaloq gepatotsitlardir. Yuqorida tasvirlangan gepatotsitlarning yadrolari kichraygan, piknozga uchragan bo'ladi. Bunday o'zgargan gepatotsitlar jigar hujayralarining asosiy massasini tashkil qiladi va butun jigar bo'yab, ayniqsa I va II zonalarda joylashadi.

45-kuni jigar ko'plab bo'shliqlardan iborat bo'lib, ular orasida ballonli distrofiya, nekrobioz va kollikvatsion nekroz belgilari bo'lган gepatotsitlar mavjud. Yuqorida tasvirlangan o'zgarishlar va sezilarli shish fonida jigar stromasining bir oz miqdor gistiotsitlar aralashgan limfotsitlar bilan diffuz infiltratsiyasi kuzatiladi. Ko'rsatilgan muddatlarda birinchi marta fibroblastlarning o'choqli proliferatsiyasi aniqlandi. Proliferatsiya o'choqlari mayda, 3-4 ta fibroblastdan iborat bo'lib, asosan bo'lakchalar orasida joylashadi. Ayniqsa tomirlar atrofida yosh fibroblastlar proliferatsiyalanadi. 60 kundan keyin jigar shishi juda kuchli bo'lib, jigar to'sinlari va gepatotsitlarning sezilarli darajada atrofiyasi va ingichkalashishi kuzatiladi. Jigarda bo'shliqlar ko'rinishidagi yirik optik bo'shliqlar hosil qiluvchi keng sitoliz o'choqlari aniqlanadi. 90 kundan keyin jigarda perisinusoidal va perivenulyar shish sezilarli darajada oshadi. Jigar to'sinlari juda ingichkalashgan, to'sinlarning qirralari notekis, go'yo tishsimon. Og'ir distrofik va nekrotik o'zgarishlar tabiatan tarqoq bo'ladi, bo'shliqlar soni va hajmi yanada ko'payadi. Gepatotsitlar proliferatsiyasi butun jigar parenximasida kuzatiladi. Limfotsitlar va gistiotsitlar tomonidan o'choqli va diffuz GSH-filtratsiya kuzatiladi. Jigar stromasida fibroblastlar proliferatsiyasi kuchayib, fibrillogenez kuchayadi va mayda-mayda fibroz o'choqlari topiladi. Fibroz o'choqlari juda mayda bo'lib, portal yo'llar bo'yab va triadalar sohasida topiladi. Sinusoid kapillyarlar bo'shlig'ida jigarning butun kesimi bo'yab zanjir ko'rinishidagi limfotsitlar to'plamlari aniqlanadi. Bu jarayon keng tarqalgan xarakterga ega. Proliferatsiyalanuvchi gepatotsitlar soni ko'paygan. Proliferatsiyaga uchragan gepatotsitlar I zonadan bo'lakcha markaziga o'tadi va 28-kuni III zonaga yetib boradi. Sudan

III bilan bo'yalganda ayrim bo'lakchalar periferiyasida mayda tomchili yog'li distrofiya o'choqlari ko'rindi.

Shunday qilib, eksperimental tyeotoksikoza jiga diffuz shish, gepatotsitlarning gidropik va ballonli distrofiyasi, nekrotik massalarning autolizi, bo'shliqlar hosil bo'lishi bilan gepatotsitlarning kollikvatsion nekrozi, o'choqli va diffuz limfogistotsitar infiltratsiya rivojlanadi. Ko'rsatilgan o'zgarishlar hepatopatiyaning asosi hisoblanadi.

Sinusoid kapillyarlar bo'shlig'ida jigarning butun kesimi bo'ylab zanjir ko'rinishidagi limfotsitlar to'plamlari aniqlanadi. Bu jarayon keng tarqalgan xarakterga ega. Proliferatsiyalanuvchi hepatotsitlar soni ko'paygan. Proliferatsiyalanuvchi hepatotsitlar I zonadan bo'lakcha markaziga o'tadi va 28-kuni III zonaga yetib boradi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, qalqonsimon bez gormonlarining ortiqcha ishlab chiqarilishi jigarning tuzilish va funksiyalarida sezilarli o'zgarishlarga olib keladi. Xususan, tajribaviy tireotoksikoz sharoitida jigarning hajmi va og'irligi ortgan, uning gistologik tuzilmasida esa distrofik o'zgarishlar, yallig'lanish infiltratsiyasi va fibroz jarayonlari kuzatilgan.

Eksperimental model natijalari tireotoksikoz fonida jiga yuz beradigan patologik jarayonlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Tadqiqot natijalari tireotoksikoz sharoitida jigarning shikastlanishini oldini olish va uni davolashda antioksidant terapiyaning ahamiyatini tasdiqlaydi. Ayniqsa, tokoferol kabi antioksidantlarning qo'llanilishi jigar hujayralarini himoya qilishda samarali ekani aniqlandi. Kelgusida ushbu mavzuga oid tadqiqotlarni kengaytirish va turli farmakologik preparatlarning jigar funksiyasiga ta'sirini baholash zarur. Tireotoksikoz bilan bog'liq jigar shikastlanishing oldini olish uchun kompleks yondashuvlar ishlab chiqilishi muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. Association of functional polymorphisms related to the transcriptional level of FOXP3 with prognosis of autoimmune thyroid diseases / N. Inoue, M. Watanabe, M. Morita [et al.] // Clin. and Exp. Immunol. - 2010. - Vol. 162, №3.-P. 402-406.
2. Biondi, Bernadette. Invited commentary: Cardiovascular mortality in subclinical hyperthyroidism: An ongoing dilemma / Bernadette Biondi // Eur. J.Endocrinol. - 2010. - Vol. 162, № 3. - P. 587-589.
3. Demers, L. M. (Demers L. M.) Prakticheskiye rekomendatsii po laboratornomu issledovaniyu funksii щитовиднои ялезы / L. M. Demers, S. A. Spenser // Probl. endokrinologii. - 2004. - № 4. - S. 30-39.
4. Experimental study: The role of CXCR5 and its ligand CXCL13 in the compartmentalization of lymphocytes in thyroids affected by autoimmune thyroid diseases / G. Aust, D. Sittig, L. Becherer [et al.] // Eur. J. Endoc. - 2004. - Vol. 150, № 2 . - P . 20.
5. Iglesias, P. Severe hyperthyroidism: Aetiology, clinical features and treatment outcome / P. Iglesias, O. Devora, I. Garsia // Clin. Endocrinol. - 2010. -Vol. 72, № 4 . - P . 551-557.
6. Involvement of inducible costimulator ligand (ICOSL) expression in thyroid tissue in hyperthyroidism of Graves disease patients / Fengming Wang,Tao Yan, Lujun Chen [et

- al.] // J. Clin. Immunol. - 2012. - Vol. 32, № 6. -P. 1253-1261.
7. Kurihara, H. (Kurixara, X.) Operativnoye lecheniye bolezni Greyvs'a: supersubtotalchnaya rezeksiya щитовидnoy jelezby / X. Kurixara // Vestn. xirurgii. - 2006. - № 3. - S. 28-30.
8. Lymphocytes in peripheral blood and thyroid tissue in children with Graves • disease / Ben-Skowronek Iwona, Sierocinska-Sawa Jadwiga, Korobowicz Elzbieta [et al.] // World J. Pediat. - 2008. - Vol. 4, № 4. - P. 274
9. Preterm birth does not affect bone mineral density in young adults / Petra E. Breukhoven, Ralph W. J. Leunissen, Sandra W.K. de Kort [et al.] // Eur. J.Endocrinol.- 2011.-Vol. 164, № 1 . - P . 133-138.
10. Thyrotoxic psychosis. Two case reports / H. Ursu, Iulia Barbu, Dorina Sima [et al.] // Acta endocrinol. - 2008. - Vol. 4, № 1. - P. 99-105.



Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

ZAMONAVIY TA'LIM VA TILSHUNOSLIKDA RAQAMLI TEXNOLOGIYA VA SUN'IY INTELLEKTLARNING AHAMIYATI

Shuxratbekova Zaxrooyim¹

Ózbekiston Davlat Juhon tillari universiteti

KEYWORDS

sun'iy intellekt, raqamli texnologiya, keng imkoniyat, tadqiqot, tajriba, Chat GPT, materiallar, ta'lif kónikmalari.

ABSTRACT

Zamonaviy ta'lif tizimida ta'lif sifatini oshirish, ayniqsa xorijiy tillarni órganish va óqitishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Ushbu maqolada sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarning bugungi ta'lif tizimidagi órni, hamda sun'iy intellekt (SI), ayniqsa kompyuter va smartfonlarga tayangan holda uning imkoniyatlaridan keng foydalanish va ularni amaliyotda tadbiq qilish ta'kidlangan va hayotiy misollar namunasida tanqidiy tahlil qilingan. Bundan tashqari, xorijiy tilni órganishda talaba va maktab óquvchilariga qanday qilib SI vositalari va texnologiyalardan unumli foydalanishga doir zaruriy tavsiya va maslahatlar ta'kidlangan.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.15051922](https://doi.org/10.5281/zenodo.15051922)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Kirish. Bugungi kunda barchamizning kundalik hayotimizni ajralmas bir qismiga aylanib ulgurgan raqamli texnologiya va sun'iy intellekt tushunchalari dunyoning óqitish va óqish sistemasini tubdan yangilanishida asosiy sabab bόldi. Bugungi ta'lif tizimida óqituvchining óqituvchining dars jarayonidagi samarali aralashuvida foydalanilayotgan ta'lif texnologiya va resurslari muhim ta'sir kόrsatadi. Raqamli texnologiyalar dars jarayonini qiziqarli, interaktiv ,hamda zamonaviy ta'lif standartlariga tόliq javob bera oladigan bόlishida ta'sir kόrsatibgina qolmay , darsni kognitiv hamda tez va sezilarli darajada oson bόlishini ham ta'minlaydi. Shuningdek, barcha yoshlarning «yordamchisi»ga aylanib ulgurgan sun'iy intellekt (SI) Tilshunoslik va ta'lif bsigasida inqilobiy ózgarishlarni yuzaga keltirdi. Uning ta'lif va tilshunoslikdagi ayrim kamchilik va afzallikkleri ham yόq emas.Yuqoridagi masalar tόg'risida ushbu maqola davomida ma'lumotga ega bόlasiz.

Asosiy qism. Texnologiya jadallik bilan rivojlanib kelayotgan ushbu davrda talaba va yoshlarning diqqat-e'tibori va qiziqishini, motivatsiyasini faqatgina sinf xonalardagi an'anaviy darslar bilan erishish mushkul ekanligi barchamizga ma'lum. Óquvchilarning

¹ Ózbekiston Davlat Juhon tillari universiteti. Xorijiy til adabiyot 3- ingliz 2423-guruh talabasi

darsdagi davolatish va faol qatnashishi, ularning xorijiy tilni órganishga qiziqayotganliklari etarli emas. Texnologiya davrida xorijiy til ixlosmandlari, ayniqsa yoshlarni til órganish jarayonida turli xil plarformalardan masalan:Duo lingo, Chat GPT, Google DC kabi SI platformalarida murojaat qilayotganligini kórishimiz mumkin. Zamonaviy ta'lim tizimida óqituvchilarni dars jarayonlarini interaktiv hamda kognitiv tashkillashtirish maqsadida raqamli texnologiyalardan keng foydalanmoqda. Shu kabi raqamli texnologiyalardan foydalangan holda óquvchilar istalgan joydan turib ózlariga kerakli bilim olishlari va kónikmalarini rivojlantirishdagi mumkin bu ham raqqamli texnologiyar yordamida til órganish ýoli yanada samarali va tez ekanligini bildiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2020-Yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash Va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 6079-sonli Farmoni va 2021-yil 17-fevraldagagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal Joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora tadbirlari to'g'risida"gi 4996-sun qarori ushbu sohadagi ishlarni bir tizimga solish va Tashkillashtirish imkonini berdi. Jumladan, "Sun'iy intellektga tayyorlik indeksida O'zbekiston Respublikasi o'rnnini yaxshilash bo'yicha choratadbirlar dasturi" tasdiqlandi. Unda iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada, davlat boshqaruvi tizimida SI texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish, qishloq xo'jaligi, energetika, sog'liqni saqlash, elektron hukumat sohalariga mazkur texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratilgan.

SI -raqamli texnologiyalar va ularning ta'limdagi ahamiyati. SI raqamli texnologiyalar zamonaviy ta'lim hamda ta'lim tizimini jahon standartlariga muvofiq tashkil qilish hamda takomillashtirishning asosiy vositalaridan hisoblanadi. Bunda óquvchilar yuqorida keltirilgan Chat GPT onlayn bor chat kabi vositalar yordamida istalgan joyda istalgan tilini órganishi hatto sun'iy intellekt yordamida erkin suhabatlashadi olishlari mumkin. SI vositalarining an'anaviy ta'lim tizimidan afzalliklari shundaki, endilikda óquvchilar vaqtlarini ketkazib xususiy repetitorlarga yoki shaxsiy óqituvchi yollab emas, balki elektron óquv resurslari yordamida istalgan darslik hamda óquv qóllanmalarini topishlari mumkin. Interaktiv darsliklar, videokurslar yordamida qulay va sifatli bilim olishlari mumkin. Bunga misol tariqasida Ibrat academy(Ibrat farzandlari) nomli onlayn ta'lim platformalarni keltirish mumkin. Shu kabi platforma yordamida óquvchi óyinlashtirilgan topshiriqlar yordamida til órganishni yanada xavfli qila oladi. Bundan tashqari barchaga ma'lum DTM imtihonlarida ham shaffoflik va adolatni ta'minlash va baholashda inson omillarini aralashtirmaslik maqsadida raqamli texnologiyalarga tayanildi. Bunda avtomatlashtirilgan testlar yordamida bilimni tez va sifatli baxolash tizimi keng foydalaniladi. SI yordamida til órganuvchi hamda óqituvchilar óz bilimlarini oshirishlari hamda:IELTS, TOEFL, SAT, TOPIC, CELTA, DUO LINGO, MULTI LEVEL kabi xalqaro hamda mahalliy sertifikatlarni qólga kiritish hamda jahon talabiga mos tarzda órganishlari mumkin. Buning isbotidir sifatida yurtimizda IELTS 9 sertifikat sohiblari kundan kuniga kópayayotganini keltirishimiz mumkin.

SI-raqamli texnologitalar va ularning tilshunoslikdagi ahamiyati. Sun'iy intellekt (SI)

144

tilshunoslik sohasida inqilobiy ózgarishni yuzaga keltirdi. U matnlarni qayta ishlash, talaffuz sifatini oshirish, nutq kónikmalarini rivojlantirish kabi kóo sohalarni ma'lum bir bosqichga kótarilishiga sabab bόldi. Misol uchun Google Translate, Grammarly, Chat GPT, kabi texnologiyalar yordamida tilshunoslikning asosiy yónalishlaridan biri bόlgan matnni qayta ishlash, tarjima nazariyasi kabi sohalarni chuqur órganish mumkin. Bugungi kunda tilshunoslikda yóqolib borayotgan til va dialektlari saqlab qolish va ularni tatbiq qilishda ham SI texnologiyalarni órni ahamiyatlidir. Qolaversa dunyoning istalgan mamlakatlaridan professor olimlar Zoom kabi platformalar orqali ilmiy anjuman, yig'ilish kabi konferensiyalarni tatbiq etish izlanishlar olib borish hamda óz malaka va tajribalarini vaqtini tejalgan holda ulashiahlar mumkin. Xalqaro UNESCO tashkilotining 2019-yildagi Pekin shaxrida ótkazilgan sun'iy intellekt va ta'lim, sun'iy intellekt davrida ta'limni rejalashtirish tόg'risidagi xalqaro anjumani ham shular jumlasidandir.

Sun'iy intellekt SI -kamchilik va muammolar. Biroq raqamli texnologiyalardan foydalanishda ayrim muammolar mavjud. An'anaviy dars jarayonida interaktiv bόlmagan vositalar óquvchi diqqatini yetarlicha jalb qila olmayotganini kórishimiz mumkin. Buning natijasida óquvchilarni «texnologik qaramlikga» Olib kelmoqda. An'anaviy óqitish usullari ikkinchi darajaga tushib qolmoqda. Óquvchikarning mantiqiy fikrlashlari, kreativ va izlanuvchanligi hamda darslarda berilgan uyga vazifa va kóoroq topshiriqlarini bajarishda ham SI texnologiyaga ishonishi va tayanib qolayitganlikarini kórishimiz mumkin. Asosiy manbaa kitob emas, SI texnologiya vositalari bόlib borayotganligi achinarli albatta. Bu kabi masalarni yechimi dars va ta'lim jarayinida an'anaviy va zamonaviy tizimni muvozanatga solish samarali yechim bόla oladi.

Xulosa. Ta'lim sohasida SI ning paydo bόlishi innovatsion uyg'unlikdagi óquv muhitini paydo qildi. SI texnologiyalardan oqilona foydalanish uchun óqituvchilarni tayyorlash va ularni qόllab quvvatlash juda zarur. Ular SI texnologiyalardan foydalanish bόyicha óquv-treninglarda qatnashishlari maqsadga muvofiq. Bu ta'lim sohasida amaliyotni samarali integratsiyalash va xorijiy tillarni órganishda Yangi marralarni zabit etish, an'anaviy sinf muhitini ózgartirish, interaktiv, madaniy jihatdan boy muhitni yaratish va hamkorlikda órganisg tanribasida muhim zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Absalamova G. S. Xorijiy tillarni o'qitishda raqamli texnologiyalarning Ahamiyati // Academic Research in Educational Sciences: volume 4.
2. Alraimi K. M., Zo H., Ciganek A. P. Understanding the MOOCs Continuance: The role of openness and reputation // Computers & Education. — 2015. — Volume 80. — P. 28–38.
3. Ayupov R., Maksimkulava S., Baltabaeva G. Til ta'limida raqamli Texnologiyalardan foydalanish usul va vositalari // Евразийский журнал Академических исследований. — 2023. — № 3 (4 Special Issue). — P. 60–70.

URL:

[https://www.in-academy.uz/index.php/ejar/article
/view/14466](https://www.in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/14466)

4. Babaqulova O., Umarova E. H., Xudayberdiyeva S. O. Xorijiy tillarni O'qitishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni va ahamiyati // Yangi O'zbekistonda tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar respublika ilmiy amaliy Konferensiyasi. — 2023. — № 1(8). — P. 210–213. — URL:

<https://universalpublishings.com/index.php/gumanitar/article/view/3362>

5. [5](#)Chebotareva I. N., Lyaskovets A. V., Maxova V. V. Rossiya ta'lim Tizimida gamifikatsiyadan foydalanishning ijobiy va salbiy tomonlari // Ijtimoiy fanlar va oliy ta'lim bo'yicha 2020 6-xalqaro konferensiya Materiallari (ICSSHE 2020). Atlantis Press, 2020. — P. 775–779.

<https://doi.org/10.2991/assehr.k.201214.148>

6. [6](#)Chen Y.C. Artificial intelligence-assisted personalized language Learning: Systematic review and co-citation analysis // 2021 International Conference on Advanced Learning Technologies (ICALT). IEEE. — 2021. — P. 241–245.



Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

MUHAMMAD YUSUF SHE'RLARIDA ONA SIYMOSI

Davronova Madina¹

Buxoro davlat universiteti

KEYWORDS

ijodkor, timsol, ohangdorlik,
to'rg'ay.

ABSTRACT

Maqolada zabardast o'zbek shoiri Muhammad Yusufning onalarga bag'ishlab yozilgan she'rlari tahlil qilinadi. Ya'ni ijodkor bu she'rlari bilan onalarning naqadar buyuk insonligini ta'kidlaydi va ularning qadriga yetishimiz kerakligini o'z she'rlari orqali ifoda etadi. Shubhasiz, onalar dunyodagi eng ulug' va hayotimizda boshqa takrorlanmaydigan yagona ne'mat hisoblanadi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.15051997**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Muhammad Yusuf o'zbek adabiyotining betakror namoyandalaridan biri hisoblanadi. Yashab ijod etgan qisqa hayot yo'li davomida o'zining diltortar, nafis she'rlari bilan insonlar ko'nglidan joy oldi. Muhammad Yusuf lirikasida vatan, ona, sevgi kabi go'zal hislar o'z ifodasini topgan. Shoир yaratgan she'rlar ohangdorligi, serjilologi, ayniqsa, sodda va ravon tuzilganligi bilan farqlanadi. Shuning uchun ham uning ko'plab she'rlari qo'shiq qilib bastalangan. Hali-hanuzgacha bu qo'shiqlar xalqimiz tomonidan sevib tinglanadi. Hattoki, yod ham olingan. Shoир lirikasida mehr-muhabbat ruhi ufurib turishini alohida e'tirof etish kerak. Ijodkorning eng go'zal hislari aks etgan she'rlari onalarga bag'ishlangan.

Xususan, uning "**Onaizor**" she'ri o'zining poetic jihatdan mukammalligi bilan ajralib turadi:

Ko'nglim qolsa bulbuldan ham, guldan ham,

Qolar bo'lsam bir kun axir tildan ham,

Agar bir zot yig'lasa chin dildan ham

Onam yig'lar, onam yig'lar, onam u.

Darhaqiqat, inson boshiga musibat tushsa, ko'ngli hech narsani tusamay qoladi. Nafaqat gul yoki bulbul, balki, butun dunyodan ham sovishni boshlaydi. Hech kimga keraksiz, chorasisiz his qiladi o'zini. Shunday paytda chin dildan yig'laydigan faqat ona ekanini aytib o'tadi.

¹ Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti, 2-kurs talabasi

Yoki:

Tinar bo'lsa qo'limdagi tor, dunyo

Uch kun o'tmay unutgay do'st yor dunyo.

Bunda "tinar bo'lsa" birikmasi orqali "tinmoq" ya'ni "**dunyodan ko'z yummox**" ma'nosi kelib chiqadi. Shunday ekan, o'limidan so'ng do'st-u birodarlar, hatto yori ham 3 kun yig'lab, keyin unutishini misol qilib keltiradi. Faqat onagina kuyinishini, yer-u ko'kni larzaga keltirib yig'lashini, uning o'rnnini hech kim bosa olmasligini yana bir bor isbotlaydi. Albatta, dunyoda onamizdan-da fidoyi, undan-da jonkuyar inson yo'q. Ona – haqiqiy muhabbat timsolidir. Chunki, onalar farzandi uchun jonini ham berishga tayyor. Dilbandiga tikan kirsa, u ham og'rinadi. Dard cheksa, dunyolarga sig'may ketadi. Barcha onalar farzandining baxt-kamolini ko'rishni istaydi. Shuning uchun onalarni vaqtida asrashimiz kerak. Chunki, bir kun kelib, kech bo'lishi mumkin. Onasining birgina koyishiga zor insonlar qancha.

Gapimning isboti sifatida Muhammad Yusufning ushbu "**Yetim qo'shig'i**" she'rini misol keltiraman.

To'rg'aydayin nolalar qilarmidim, ayting, men,

O'z bag'rimni o'zginam tig'larmidim ayting, men

To'rg'ay qushi bo'lsa-da, o'z bolasin asraydi

Ona ketsa boladan bunday azob bo'lmaydi.

Dastlab, "**to'rg'ay**" atamasiga to'xtalsak, och jigarrang va kulrang tusli kichik qush bo'lib, asosan ochiq dala, dasht va cho'l hududlarida uchraydi. Sho'ir yetim bolalarni xuddi shu to'rg'ay qushi kabi murg'ak qilib tasvirlaydi. Oxirgi misralarda hattoki, shu jajji qush ham o'z polaponlarini asrashini, lekin, onasi yo'q bolani ko'ngli o'ksik bo'lib bir chetda qolib ketishini aytib o'tadi.

Men ham aziz onamni gohi ko'rgim keladi,

Yetaklashib yonida, sho'x-sho'x yurgim keladi.

Haa... Bundan ortiq azob yo'q. Chindan ko'rging kelgan insoningni ko'ra olmasang, iforiga to'ya olmasang. Onasizlik bolalarga juda qattiq ta'sir qiladi. Xalqimiz orasida yuradigan "Otasiz yetim, gul yetim, Onasiz yetim, o'l yetim" degan maqol bejizga emas. Chunki, bolaning erkaliklari-yu injiqqliklarini, sho'xliklarini onadan boshqa hech kim to'g'ri qabul qilmaydi. Hattoki, otasi ham. Onadan bo'lak hech kim bolasini chin qalbdan yaxshi ko'rmaydi. Ana shunday erkaliklar, sho'xliklar qilish turganda, qayerdadir norasida go'daklar ozgina mehrga zor bo'lib, kemtik bo'lib yashaydi. Ona mehri nafaqat bolalarga balki, katta yoshdagilarga ham birdek zarur. Chunki, mehrning yosh-qarisi bo'lmaydi, onaning yosh-qarisi bo'lmaydi...

Xulosa qilib aytganda, ona – Alloh in'om etgan eng buyuk tuhfa. Ularning sof qalbi, samimiyligi, mehr-muhabbati har narsadan ustun. Muhammad Yusufning ushbu she'rlari qalbdan qalbga borib yetadi. Onalarimizni qadrlashimizga da'vat etadi. Ijodkorning bu ijodi orqali kimdir o'ziga yetarlicha xulosa chiqarsa, kimdir onasining borligiga shukrona keltirsma ajab emas.

Onalarimizni asraylik azizlar! Zero, ular ham bu hayotda bir marotaba yashaydi. Yo'qotib, keyin afsuslanguncha, borida mehr beraylik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muhammad Yusuf. Ko'nglimda bir yor. – Toshkent: Sharq, 2012.
2. G'ulomov A. She'riyat va ma'naviyat. – Toshkent: Fan, 2005.
3. Yoqubov N. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
4. Muhammad Yusuf she'riyati haqida // ZiyoNet. www.ziyonet.uz



Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

O'ZBEK TANBUR CHOLG'USI TARIXI

Ilyos Arabov¹

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti

KEYWORDS

Ma'naviyat, tarbiya, hissiyot, ohang, kuy, musiqa, maqom, mas'uliyat, fikrlash.

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbek tanburi tarixi, uning shakllanishi, rivojlanishi, o'ziga xos musiqaviy xususiyatlari va boshqa Sharq xalqlari tanburlari bilan farqlari haqida so'z yuritiladi. Tanburning O'zbek madaniyatidagi o'rni, shuningdek, uning tasavvuf va maqom san'atidagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. Tanbur — bu nafaqat musiqaviy, balki O'zbekistonning milliy madaniyatining ramzi sifatida ham o'zining ahamiyatini saqlab qolgan asbobdir.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.15052042](https://doi.org/10.5281/zenodo.15052042)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

O'zbek tanburi — bu an'anaviy o'zbek musiqasining ajralmas qismiga aylangan, chuqur tarixi va madaniy ahamiyatga ega bo'lgan simli cholg'u asbobidir. Tanbur o'zining boy merosi va betakror ovozi bilan turli xalq musiqalarida va san'atda alohida o'rin tutadi. Tanbur asrlar davomida nafaqat musiqaning, balki O'zbekistonning milliy madaniyatining ifodasi bo'lib kelgan.

Tanbur — bu asosan Yaqin Sharq, O'rta Osiyo va Hindiston xalqlari orasida tarqalgan simli cholg'u asbobidir. U qadim zamonlardan beri ishlatilgan bo'lib, O'zbekistonga ham 1000-yillar davomida kirib kelgan. Aslida, tanburning dastlabki shakllari Mesopotamiya va Hindiston madaniyatlarida bo'lgan, lekin u O'rta Osiyo va O'zbekiston hududida rivojlanib, o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lgan. O'zbek tanburi janubiy va markaziy Osiyo musiqalarining tarixiy yodgorliklaridan biri sifatida tasavvur qilinadi.

Tanbur, muayyan shaklda, O'zbekistonning barcha hududlarida, xususan, Buxoro va Samarqand shaharlari mashhur bo'lgan. Bu shaharlar, o'zining boy ilmiy va madaniy tarixiga ega bo'lib, musiqaning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Tanbur nafaqat musiqa asbobi sifatida, balki diniy va falsafiy an'analarning ifodasi sifatida ham qo'llangan. U shuningdek, tasavvuf musiqasida ham muhim rol o'ynagan.

Tanbur, odatda, uzun va yupqa korpusga ega bo'lgan simli cholg'u asbobidir. Tanburda,

¹ Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati institute "Maqom cholg'u ijrochiligi" kafedrasи mudiri, dotsent

aniqrog'i, 3 yoki 4 sim bo'ladi, ular ko'pincha jins va asbobning o'lchamiga qarab o'rnatiladi. Asbobning uzunligi turlicha bo'lishi mumkin, lekin, odatda, o'rta o'lchamdag'i tanburlar qo'llaniladi. Tanburning qarshi qismini qarama-qarshi simlar (davul) ostidagi katta rezonator orqali tovush chiqarish va o'ziga xos ohanglarni hosil qilish uchun ishlataladi.

Tanburning tanasida qo'shimcha bezaklar bo'lishi mumkin, chunki u o'zbek san'atining bir qismi sifatida an'anaviy ravishda nafaqat musiqaviy, balki estetik jihatdan ham katta e'tibor bilan tayyorlanadi. Tanburidan chiqariladigan tovushni barcha qismlarning mukammal uyg'unligi va simlarning tortilishi bilan olingan.

O'zbek tanburi nafaqat asbob, balki milliy musiqa madaniyatining ramzi hisoblanadi. U o'zining rang-barang ifodalari va xilma-xilligi bilan tanilgan. Tanbur, ko'pincha, ko'ngilni ifodalash va yashirin tuyg'ularni tarqatish vositasi sifatida ishlatalgan. O'zbek xalq musiqasida tanbur xususan, xalq qo'shiqlari, dastgohlar (shuningdek, maqom) va shoirlarning dostonlarida keng qo'llanilgan.

Tanbur o'zbek musiqasining asosiy yo'nalişlaridan biri bo'lgan maqom san'atida alohida ahamiyatga ega. Maqom san'ati asosan chog'ush tarzidagi musiqaviy kompozitsiyalar va ularning ijrosi orqali turli ruhiy holatlarni ifodalashga intiladi. Tanbur maqomlarning armonik tuzilishini yaratish uchun ishlataladi, va bu asbob ko'pincha maqomlar ijrosida asosiy cholg'u sifatida ishlataladi.

Tanburning tarixi, shuningdek, tasavvuf musiqasi bilan ham chambarchas bog'liq. O'zbek tasavvuf musiqasida, ayniqsa, Sufizm falsafasi va diniy g'oyalarini ifodalovchi, juda o'ziga xos ko'rinishdagi tanburidan foydalilanadi. Sufiyalar tanbur orqali ruhiy dunyo va ilohiy haqiqatga yaqinlashishga harakat qilganlar. Ular tanburni, shuningdek, ilohiy hikmatlarni ifodalashda ishlatganlar va musiqaning kuchi orqali ruhiy tiklanish va ta'lim olishni maqsad qilganlar.

Hozirgi kunda, O'zbek tanburi yanada keng tarqalib, xalqaro musiqiy sahnalarda ham o'zining o'rnini topgan. Ko'plab zamonaviy musiqachilar tanburni o'z asarlarida sintezlab, uning an'anaviy o'rnini yangi, zamonaviy shakllar bilan boyitishga intilishmoqda. Tanbur, o'zining tarixiy va madaniy ahamiyatini yo'qotmasdan, yangi avlod musiqachilari tomonidan yangicha talqinlar bilan davom etmoqda.

Tanbur cholg'usi o'zining tarixi va shakli jihatidan Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan va har bir xalqda o'ziga xos o'zgartirishlar va tafovutlar bilan rivojlangan. O'zbek tanburi bilan boshqa Sharq xalqlari tanburlari, masalan, Fors, Turkman, Afg'on va Xitoy tanburlari orasidagi farqlar, asboblarning shakli, tovush xususiyatlari, qo'llanishi va musiqa madaniyati jihatidan sezilarli. Keling, O'zbek tanburi va boshqa sharq tanburlari orasidagi asosiy farqlarni ko'rib chiqaylik.

1. Tanburning Shakli va Qurilishi

- O'zbek tanburi: O'zbek tanburi uzun, yupqa va konus shaklidagi resonatorli korpusga ega. Tanburda odatda 3 yoki 4 ta sim bo'ladi (biroq, ba'zida 5 simli tanbur ham uchraydi). Korpusning uzunligi o'rta va kichik o'lchamdag'i bo'lib, o'yinchi tanburni oyoqlariga yoki yelkasiga qo'yib chaladi. Tanburning resonator qismi aniq shakllangan va tovushning kuchini oshirishga xizmat qiladi.
- Fors tanburi (Setar): Fors tanburi (setar) ham simli asbobdir, lekin uning shakli o'zgacha.

Setar asosan kichikroq bo'lib, shakli ichki tomondan torayib boradigan kichik resonatorga ega. Setarda 3 yoki 4 sim bo'ladi, lekin ular ko'pincha qora teridan yasalgan bo'lib, tanburlarga qaraganda ingichka va yumshoq tovush chiqaradi. Setarning uzoq qo'llanishi tasavvuf musiqasida, ayniqsa, Ilhomiy (Sufi) musiqasida keng tarqalgan.

- Turkman tanburi: Turkman tanburi o'zining katta va og'ir resonator qismi bilan farq qiladi. Tanbur turkmanlar orasida an'anaviy tarzda keng tarqalgan va asosan turli yirik festivallarda yoki marosimlarda ishlatiladi. Uning tovushi kuchliroq va kengroq bo'ladi, chunki korpusi kattaroq va simlar kamroq tarang.

- Xitoy tanburi (Pipa): Xitoyning pipa tanburi O'rta Osiyo tanburidan ancha farq qiladi. Pipa – bu uchburchak shaklidagi katta rezonatorli cholg'u asbobi bo'lib, uning turi va o'ynash usuli ancha farq qiladi. Pipa ko'proq «pinch» va «pluck» usullari bilan chalinar ekan, o'zbek tanburi ko'proq tor qoidalarga asoslangan usullarda chalina boshlaydi.

2. Tovush va Dinamikasidagi Farqlar

- O'zbek tanburi: O'zbek tanburining tovushi betakror va chuqur bo'lib, uning sharqona ohanglari asosan mumtoz musiqaning tonik va dominantakkordlarini aniq ifodalaydi. O'zbekiston xalq musiqasida tanbur nisbatan yumshoq va salqin tovush chiqaradi, ko'pincha an'anaviy maqomlarda ishlatiladi.

- Fors tanburi (Setar): Setar o'zining sado chiqaruvchi, mayin va nafasli tovushlari bilan ajralib turadi. Fors tanburi tasavvuf musiqasida keng qo'llaniladi, ularning tovushi o'ziga xos g'ayrat va sadoqatni ifodalaydi. Setar tovushi ko'proq ruhiy va meditatsion kayfiyatni yaratadi.

- Turkman tanburi: Turkman tanburining tovushi boshqa Sharq tanburlaridan farqli ravishda kuchliroq va qattiqroq bo'ladi. Bu tanbur turkmanlarning urf-odatlari va marosimlarida, ayniqsa, jangovar yoki qahramonlik mavzularidagi musiqalarda ishlatiladi. Tovushi ba'zan ochiq va kuchli bo'lganligi sababli, har qanday keng auditoriyani jalb qilishga qodir.

3. Musiqa Madaniyati va Qo'llanishi

- O'zbek tanburi: O'zbek tanburi asosan maqom san'ati, xalq qo'shiqlari va tasavvuf musiqasida ishlatiladi. Tanbur O'zbekistonda turli musiqiy kompozitsiyalarini yaratishda asosiy asbob hisoblanadi. U xalq musiqasi va ilmiy an'analar bilan uzviy bog'langan bo'lib, musiqachilar uchun muhim vosita hisoblanadi.

- Fors tanburi (Setar): Setar Fors madaniyatida tasavvuf musiqasining bir qismi sifatida ishlatiladi. Setarning o'ynash usuli juda nozik va estetik, ko'pincha ruhiy holatni chuqur ifodalash uchun ishlatiladi. Setar, shuningdek, tasavvufda ilohiy ilmni o'rganish va samimiy tajriba orqali ruhiy tozalash uchun ishlatiladi.

- Turkman tanburi: Turkman tanburi ko'proq an'anaviy musiqalarda, jamoaviy tadbirlarda va folklor hikoyalarida ishlatiladi. Ularning musiqasi ko'proq jismoniy kuch va jangovar ruhni targ'ib qiladi.

- Xitoy tanburi (Pipa): Pipa o'zining uzoq tarixiga ega va Xitoy musiqasining ajralmas qismidir. Pipa musiqa va san'ati ko'proq teatr, drama va taqdimotlarda ishlatiladi.

Xitoyda pipa o'zining sekin, dramatik va ko'pincha dramatik ekspressivligi bilan ajralib

turadi.

O'zbek tanburi nafaqat musiqaviy asbob sifatida, balki O'zbekistonning milliy madaniyatining ramzi sifatida ham ahamiyatlidir. Uning tarixi va rivojlanishi xalq musiqasining chuqr ildizlariga borib taqaladi.

Tanburni o'rganish va unga bo'lgan qiziqish, o'zbek xalqining musiqiy an'analari va madaniyatiga bo'lgan hurmatning namunasidir. Tanbur — bu nafaqat tovush, balki ko'plab madaniy, diniy va falsafiy yondashuvlarni o'zida jamlagan buyuk merosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kamilov, A. (1992). O'zbek xalq musiqasi tarixi. Tashkent: "O'zbekistan" nashriyoti.
2. Mahmudov, S. (2005). Maqom san'ati va uning o'zbek musiqasidagi o'rni. Buxoro: Buxoro davlat universiteti nashriyoti.
3. Zaxidov, M. (2010). O'zbek musiqasi va xalq cholg'ulari. Toshkent: Fan nashriyoti.
4. Qodirov, S. (2001). O'zbek musiqasining rivojlanish jarayoni. Toshkent: Akademnashr.
5. Valiyev, E. (1998). Musiqa va tasavvuf: Tanburning tasavvufdagi o'rni. Toshkent: Sharq nashriyoti.
6. Ismoilov, D. (2008). Sharq xalqlari tanburlari: Tarix va rivojlanish. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
7. Fayzullayev, S. (2003). Tanbur va uning rivojlanish tarixi. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va san'at nashriyoti.
8. Muhammadiev, M. (2009). Maqom va tanbur musiqasi. Toshkent: Milliy universitet nashriyoti.
9. Shukurov, F. (2012). O'zbek musiqa san'ati: Tarixiy jihatlar. Toshkent: "O'zbekistan" nashriyoti.
10. Shadiyev, O. (2015). Tanbur va uning musiqiy roli. Buxoro: Buxoro san'at institutining ilmiy jurnali.



DETERMINATION OF THE DIASTASE ENZYME QUANTITY IN HONEY

Jahongir Nurmuxammadiyevich Baratov¹

Irodakhon Lutfulla Qizi Yaxshiboyeva²

Tashkent branch of the Samarkand state universitety

KEYWORDS

Honey, enzyme, distilled water, test tube, starch, iodine, water bath.

ABSTRACT

This article presents the results of laboratory investigations conducted to determine the diastase enzyme activity in honey sold in the agricultural markets of Samarkand region. The laboratory work was carried out at the Veterinary Sanitary Expertise Laboratory of the Faculty of Veterinary Diagnostics and Food Safety at the Samarkand State University of Veterinary Medicine, Animal Husbandry, and Biotechnology, specifically within the Department of Veterinary Sanitary Expertise and Hygiene. The investigations were conducted at agricultural markets in the Jomboy district, Oqdaryo district, and Samarkand city.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.15058533](https://doi.org/10.5281/zenodo.15058533)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Introduction: Honey is a complex, high-quality, and valuable food product that is processed from nectar collected by bees from flowers. It is highly valued due to the fact that in 1 gram of honey, there are more than 100 substances that are essential for the human body [1]. In addition to containing a large number of substances, honey is significant for the presence of amino acids, hormones, vitamins, proteins, and enzymes, many of which cannot be synthesized by the body. Among the enzymes found in honey, invertase, diastase, and catalase are considered the main enzymes. These enzymes are involved in converting complex carbohydrates in flower nectar into simple sugars (monosaccharides). The enzymes in honey primarily come from plants, with a small amount derived from the bee's salivary glands. Honey is a valuable food product, and due to the difficulty in its large-scale production, the composition of honey is often adulterated. As a result, the quality and active properties of honey may decrease. Based on the above, we conducted experiments to determine the activity

¹ Tashkent branch of the Samarkand state universitety veterinary medicine of livestock and biotechnologies PhD (v.f.f.d.)

² Tashkent branch of the Samarkand state universitety veterinary medicine of livestock and biotechnologies Master

of the diastase enzyme in honey samples collected from different regions.

Мақолада таҳлил қилинганидек, сўнгги йилларда урбанизация, қурилишдаги стандартлашув, ғарб услубларининг таъсири ва иқтисодий омиллар туфайли миллий интеръер элементлари замонавий биноларда камроқ қўлланилмоқда. Шу билан бирга, қонунчиликда миллийликни рағбатлантирувчи механизmlарнинг заифлиги, ҳунарманд усталарнинг етишмаслиги ва таълим тизимида мавжуд бўшлиқлар ҳам ушбу муаммони чуқурлаштиromoқда.

Мазкур ҳолатдан чиқиш учун комплекс ёндашув зарур: архитектура стандартлариiga миллийлик элементларини жорий этиш, таълим ва ҳунармандчиликни қўллаб-қувватлаш, туризм инфратузилмасида этник интеръер ечимларини татбиқ қилиш, лойиҳаларни рағбатлантириш ва илмий-услубий ресурслар базасини шакллантириш орқали бу соҳада барқарор ижобий ўзгаришларга эришиш мумкин.

Ушбу мақолада илгари сурилган тавсиялар ва ечимлар миллий архитектура анъаналарини замонавий шароитда қайта жонлантириш ҳамда мамлакатимизнинг маданий юзини асраб қолишида муҳим қадам сифатида хизмат қилиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Азимов, И.М. (1998). Фарғона водийсида чойхона анъаналари ва меъморчилиги. Тошкент.
2. Ахмедов, М.Қ. (1996). Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи. Тошкент.
3. Воронина, В.Л. (1951). Народные традиции архитектуры Узбекистана. Москва.
4. Нозилов, Д.А. (2005). Марказий Осиё меъморчилигида интеръер. Тошкент.
5. Ўзбекистон Республикаси “Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш тўғрисида”ги Қонуни (2001).
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони ПФ-6044 (2020).
7. Ўзбекистон Республикаси Шаҳарсозлик кодекси (2012).
8. Хоразм вилояти архитектура идораси архив материаллари.



Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

ДАВЛАТ АВТКИВЛАРИ АГЕНТИЛИГИНИ БОШҚАРИШДА РАҶАМЛИ ТИЗИМДАН ФОЙДАЛАНИШ

Абдусаломов Абдусамад¹

Давлат активларини бошқариш агентлиги

KEYWORDS

Агенлтиқ, АКТ, хусусийлаштириш, статистик маълумотлар, ахборот тизимлари, сервер, VPN.

ABSTRACT

Ушбу мақолада Хусусийлаштириш жараёнида АКТдан кенг фойдаланиш ва ходимлар орасида маълумот айланишини тез ва сифатли таъминлаб бериш, Агентлик ҳаражатларини камайтириш ва маълумотларни ошкора этмасликни тўғри олиб борища кенг фойдаланиш. Шунингдек, агентлик фаолиятида АКТлари функционал имкониятларидан кенгроқ фойдаланиш бўйича ҳам маълумотлар бериб ўтилган.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.1508453](https://doi.org/10.5281/zenodo.1508453)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Бугунги рақамли асрда ахборот-коммуникация технологиялари (АКТ) турли соҳалардаги ташкилотлар, айниқса, маълумотларни йиғиш, қайта ишлаш, таҳдил қилиш ва тарқатишида кўп жиҳатдан АКТ инфратузилмасига таянадиган агетлик ташкилотлари учун муҳим воситага айланди. АКТдан самарали фойдаланиш хусусийлаштириш соҳаси фаолиятининг самарадор-лиги ва аниқлигини сезиларли даражада ошириши мумкин ва натижада қарор-лар қабул қилишни такомиллаштиришга олиб келади.

Хусусийлаштириш ташкилотларида АКТга сармоя киритиш, хусусийлаш соҳаси АКТ технологияларини жорий этиш ва қўллаб-қувватлашнинг бир қатор афзалликлари мавжуд:

1. Хусусийлаш ташкилотларида АКТ инфратузилмасининг асосий афзал-ликларидан бири маълумотларни йиғиш ва қайта ишлашни соддалаштириш имкониятидир. Илғор компьютер тизимлари, Интернет уланиши ва маҳсус дастурий таъминотдан фойдаланиш орқали статистик маълумотлар, маъмурий ёзувлар ва сенсор тармоқлари каби турли манбалардан маълумотларни самарали тўплашлари мумкин. Ушбу автоматлаштириш қўлда хатоларни камайтиради, маълумотлар сифатини яхшилайди

¹ Давлат активларини бошқариш агентлиги хузуридаги Хусусийлаштириш ва давлат активларини бошқариш муммоларини тадқиқ этиш маркази катта илмий ходим (PhD)

ва маълумотларни қайта ишлаш ва таҳдил қилиш тезлигини оширади. Хусусан, хусусийлаштириш фаолиятига очик ва шафоғ маълумотларни элон қилиб борилиши натижасида юқори самарадорликка эришиш мумкин. Бундан ташқари, статистик маълумотларни киритиш жараёнларида мантиқий назоратни йўлга қўйиб, инсон омилини камайтириш орқали корупцияни олди олинади.

2. Яхшиланган маълумотларни сақлаш ва хавфсизлик. Юқори самарадорликка эга сервер қурилмаларини жорий этиш билан ташкилотлар маълумотларни масофадан туриб сақлаши ва уларга кириши мумкин, бу эса шахсий компьютерларда жисмоний хотира қурилмаларига бўлган эҳтиёжни йўқ қиласи ва маълумотлар йўқолиши хавфини камайтиради.

Сервер бу - мижоз компьютерлари сўровига жавоб бериш учун мўлжалланган, нисбатан юқори ҳисоблаш имконига эга бўлган компьютер. Сервер маълум бир соҳага хизмат қилиши ҳам мумкин. Сервер тармоқдаги маълумотларни сақладайди, тармоқнинг бошқа нуқталарига узатади ва асосий хизмати – фойдаланувчиларни Интернетга улайди.


Хусусийлаштириш органлари фаолиятида фойдаланилаётган серверларнинг бир қанча турлари мавжуд:

- файл сервери; -веб сервер; -прокси-сервер; -DHCP сервери; -иловалар сервери;
- маълумотлар базаси сервери; -интеграциялар сервери; -фойдаланувчиларни бошқариш ва назорат сервери; -антивирус сервери;
- IP телефония ва видеоконференцалоқа сервери;
- электрон почта сервери;
- электрон хужжат алмашиш тизими сервери ва бошқалар.

Хусусийлаштириш ташкилотларида барча тармоқ хизматларини бошқариш учун алоҳида сервер ажратилиб, унга маҳсус дастурлар ўрнатилади, Интернетга доимий ҳолда уланади ва уни прокси сервер деб аташади. Бу сервер орқали барча компьютерлар Интернетга чиқа олишади. Веб сервер тушунчасини икки хил маънода ишлатиш мумкин. Агарда гап WWW хизматини кўрсатиш ҳақида борса, у ҳолда Веб сервер тармоқ мижозларига Веб саҳифа ва сайтлардан фойдаланиш имкониятини яратиб берувчи дастур маъносини англатади.

Бундан ташқари, АҚТ технологиялари маҳфий статистик маълумотларни рухсатсиз киришдан ҳимоя қилиш учун шифрлаш ва виртуал хусусий тармоқлар (VPN) каби мустаҳкам хавфсизлик чораларини кўллаши мумкин.

3. VPN ташкилотнинг шахсий тармоғини жамоат тармоғи орқали узайтиради ва фойдаланувчиларнинг шахсий тармоғига бевосита уланган бўлса, фойдаланувчиларга биргаликда ёки умумий тармоқларда маълумотларни қабул қилиш ва олиш имконини беради. VPN географик жиҳатдан интеграцияланган корпоратив тармоқларни бирлаштирадиган тармоқни таъминлаш учун ишлатилади. 1.1-расмда статистика органлари VPN тармоғи схемаси тасвиранган.



1.1-расм VPN тармоғининг тузилши

VPN алоҳида уланишлар, виртуал туннель протоколлари ёки шифрлаш транспорти билан виртуал портни ўрнатиш орқали яратилади. Интернет тармоғига эга VPN хусусий тармоқ ичида масофадан туриб фойдаланиладиган ресурсларга кириш каби кенг майдонли тармоқнинг афзалликларини таъминлайди.

Самарали маълумотларни таҳлил қилиш ва визуализация қилиш. Кучли компьютерлар ва илғор статистик дастурий таъминотнинг мавжудлиги хусусийлаштириш ташкилотларига маълумотларни мураккаб таҳлил қилиш ва мазмунли тушунчаларни яратиш имконини беради. АКТ технологиялари статистик тенденцияларни ҳар томонлама таҳлил қилиш ва визуаллаштиришни осонлаштириб, турли хил маълумотлар манбаларини бирлаштириш имконини беради. Бу қарор қабул қилувчиларнинг маълумотларни тушуниш ва шарҳлаш қобилиятини оширади, бу эса кўпроқ маълумотларга эга бўлган сиёsat қарорларини қабул қилишга олиб келади.

Хуноса

Узлуксиз маълумотларни алмашиб ва тарқатиш АКТ инфратузилмаси статистик маълумотларни кенг фойдаланувчиларга тарқатишида ҳал қилувчи роль ўйнайди. Веб-сайтлар, онлайн маълумотлар базалари ва интерактив бошқарув панеллари орқали хусусийлаштириш ташкилоти VPN Марказий аппарат масофадан фойдаланувчилар вилоят бошқармалари туман бўлимлари ташкилотлари сиёsatчилар, тадқиқотчилар, корхоналар ва кенг жамоатчиликка ўз вақтида ва очиқ маълумотларни тақдим этишлари мумкин.

Бу жараён давлат секторини хусусийлаштиришда шаффофликни таъминлаш ва потенсиал харидорларни жалб қилишнинг мухим омилларидан бири хисобланади. Шу сабабли, келгусида давлат хусусийлаштириш жараёнларида ахборот технологиялари ва рақамли инфратузилмасидан янада кенгроқ қўллаш мақсаддага мувофиқ.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

- Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Рақамли Ўзбекистон – 2030 стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чоратадбирлари тўғрисида” 2020 йил 5 октябрдаги ПФ-6079-сон фармони.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 13 декабрдаги “Ўзбекистон Республикаси давлат бошқарувига рақамли иқтисодиёт, элек-трон ҳукумат ҳамда ахборот тизимларини жорий этиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5598-сон фармони.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 28 апрелдаги “Raқamli iқtisodiёт va elektron ҳuкуmatni keng жорий этиш chora-tadbirlari tўғrisida”ги ПҚ-4699-сон қарори.
4. Арипов А.Н. Ахборот коммуникациялар соҳасида бошқарув тизи-мини такомиллаштириш муаммолари. Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати.– Тошкент, 2004.
5. Арипов М. ва бошқалар. Информатика, Информацион технология-лар. Т.: ТДТУ, 2-қисм. 2003. – 430 б.
6. Абдуллаев А.М., Ходиев Б.Ю., Ишназаров А.И. Эконометрика. – Тошкент.: Фан ва технология, 2007. - 612 с.
7. Бегалов Б.А. Технология процессов формирования информационно-коммуникационного рынка. /Монография –Т.: Фан, 2000.
– 275 с.
8. Бекмуродов А.Ш., Мусалиев А.А. Информационный бизнес. Учебное пособие. – Т.: ТГЭУ, 2006. – 288 с.
9. Божко В.П. Информационные технологии в статистике. М.: МЭСИ, 2004. - 128 с.



Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

KASBIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SOHASIDAGI ISHBILARMONLIK FAOLLIGINI OSHIRISH: O'QUVCHILARNI REAL BIZNES SHAROITLARIKA TAYYORLASH

Usmonova Sayyoraxon¹

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi*

KEYWORDS

kasbiy ta'lism, kichik biznes, tadbirkorlik, ishbilarmonlik faolligi, innovatsion ta'lism, startap-loyihalar, biznes-treninglar, simulyatsion o'quv dasturlari, raqobatbardosh mutaxassislar, iqtisodiy rivojlanish.

ABSTRACT

Mazkur maqolada kasbiy ta'lim tashkilotlarida kichik biznes va tadbirkorlik sohasidagi ishbilarmonlik faolligini oshirish masalasi ko'rib chiqiladi. O'quvchilarni real biznes sharoitlariga tayyorlashning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinib, zamonaviy ta'lim yondashuvlari hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarning samaradorligi baholanadi. Shuningdek, biznes muhiti bilan integratsiyalashgan ta'lim jarayonlari, simulyatsion va startap-loyihalar asosida o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish usullari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari kasbiy ta'lim tizimini rivojlantirish va mehnat bozorida talabgir mutaxassislar yetishtirishga xizmat qiladi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.15085780](https://doi.org/10.5281/zenodo.15085780)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

KIRISH

Bugungi kunda kichik biznes va tadbirkorlik iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ta'lim muassasalarida ushbu sohaga oid bilim va ko'nikmalarini shakllantirish yosh avlodni bozor munosabatlariga moslashtirish, ularning ishbilarmonlik faolligini oshirish va iqtisodiyotga samarali integratsiya qilish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Kasbiy ta'lim tashkilotlari nafaqat nazariy bilimlarni berishga, balki o'quvchilarni real biznes sharoitlariga tayyorlashga ham yo'naltirilishi zarur. Zamonaviy mehnat bozori talablaridan kelib chiqqan holda, o'quv

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi MBA-Kichik biznes va tadbirkorlik yo'nalishi tinglevchisi

jarayoniga amaliy tadbirkorlik faoliyatini integratsiya qilish, biznes-rejalar tuzish, moliyaviy savodxonlikni oshirish, marketing strategiyalarini ishlab chiqish kabi ko'nikmalarini rivojlantirish muhimdir. Mazkur ilmiy

maqolada kasbiy ta'lif tashkilotlarida o'quvchilarining tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishning dolzarb jihatlari, biznes muhitini sharoitida ularga mustaqil faoliyat yuritish imkoniyatlarini yaratish masalalari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va innovatsion ta'lif metodlarini qo'llash orqali ishbilarmonlik faolligini oshirish yo'llari ko'rib chiqiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Kichik biznes va tadbirkorlik sohasida ishbilarmonlik faolligini oshirish bo'yicha tadqiqotlar so'nggi yillarda keng qamrov kasb etmoqda. Zamonaviy iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyatining o'rni va ahamiyati haqida Smith (2009), Drucker (2014) hamda Hisrich, Peters va Shepherd (2017) kabi mualliflar o'z tadqiqotlarida ta'kidlab o'tganlar. Ushbu tadqiqotlarda kichik biznesni rivojlantirishda ta'lif muassasalarining roli va o'quvchilarga amaliy ko'nikmalar berish zarurati alohida e'tirof etilgan.

Kasbiy ta'lif tizimida tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha o'tkazilgan ilmiy ishlarda (Jones, 2018; Fayolle & Gailly, 2015) amaliy mashg'ulotlar va simulyatsion ta'lif usullarining samaradorligi ta'kidlangan. Shu bilan birga, biznes muhitiga moslashuvchanlik, innovatsion fikrlash va loyihaviy yondashuv asosida ta'lif jarayonini tashkil etish bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni joriy etish muhimligi qayd etilgan (Gibb, 2002; Kuratko, 2016). Mahalliy tadqiqotlarda (Karimov, 2020; Nishonov, 2021) esa O'zbekistonda tadbirkorlik ta'lifini rivojlantirish istiqbollari, kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat dasturlarining samaradorligi hamda ta'lif va ishbilarmonlik o'rtasidagi integratsiya masalalariga urg'u berilgan. Ushbu manbalar asosida kasbiy ta'lif tashkilotlarida o'quvchilarni real biznes sharoitlariga tayyorlash bo'yicha kompleks yondashuvni ishlab chiqish mumkin.

METODLAR

Ushbu tadqiqotda kasbiy ta'lif tashkilotlarida o'quvchilarni real biznes sharoitlariga tayyorlashga qaratilgan innovatsion yondashuvlar va pedagogik metodlar tahlil qilindi. Tadqiqot quyidagi metodlarga asoslangan:

Tahliliy usul – kichik biznes va tadbirkorlik sohasi bo'yicha ilmiy adabiyotlar hamda ilg'or tajribalarni o'rganish va umumlashtirish orqali tadbirkorlik ta'liming o'ziga xos jihatlarini aniqlash.

Eksperimental usul – kasbiy ta'lif tashkilotlarida tadbirkorlik bo'yicha o'quv dasturlariga amaliy mashg'ulotlarni joriy qilish va uning samaradorligini baholash.

So'rov va intervyu – kasbiy ta'lif muassasalari o'qituvchilari va o'quvchilari orasida so'rov o'tkazish orqali mavjud muammolar va takliflarni aniqlash.

Taqqoslash va statistik tahlil – O'zbekistondagi va

xorijdagi kasbiy ta'lismuassasalarining tadbirkorlik ta'limi bo'yicha tajribalarini solishtirish va natijalarni baholash.

Ushbu metodlar asosida kasbiy ta'lismida kichik biznes va tadbirkorlik sohasidagi ishbilarmonlik faolligini oshirishga qaratilgan samarali yondashuvlar ishlab chiqiladi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari kasbiy ta'lim tashkilotlarida kichik biznes va tadbirkorlik sohasida ishbilarmonlik faolligini oshirish hamda o'quvchilarni real biznes sharoitlariga tayyorlash jarayonida quyidagi muhim jihatlarni aniqladi:

O'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish darajasi

O'quv jarayoniga tadbirkorlikka oid amaliy mashg'ulotlar, biznes simulyatsiyalar va loyiha asosida o'qitish metodlarini joriy etish o'quvchilarning mustaqil qaror qabul qilish, risklarni baholash va biznes jarayonlarini boshqarish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirdi. Eksperimental sinov natijalari shuni ko'rsatdiki, amaliy tadbirkorlik darslarida ishtirok etgan o'quvchilarning ishbilarmonlik faolligi sezilarli darajada ortdi.

Kasbiy ta'lismida biznes muhitini yaratishning samaradorligi

Tahlil natijalariga ko'ra, kasbiy ta'lismida tashkilotlarida kichik biznes muhitini yaratish (masalan, o'quvchilarga kichik biznes subyektlari bilan hamkorlik qilish imkoniyatini berish, startap loyihamalarini ishlab chiqish va amalga oshirish) ularning real sharoitlarda tadbirkorlik faoliyati yuritishiga tayyorgarlik darajasini oshirdi. Ayniqsa, tadbirkorlik faoliyatiga oid o'quv dasturlarini ishlab chiqishda mahalliy biznes vakillari bilan hamkorlik qilish samarali natijalar berdi.

Innovatsion pedagogik yondashuvlarning samaradorligi

O'quv jarayoniga interaktiv va texnologik yondashuvlarni joriy qilish – virtual biznes simulyatorlar, tadbirkorlik o'yinlari va loyiha asosida o'qitish usullaridan foydalanish – o'quvchilarning motivatsiyasini oshirdi hamda real biznes muhitiga tez moslashishlariga yordam berdi. Tadqiqot davomida bunday metodlarni qo'llagan guruhlarda o'quvchilarning tadbirkorlik faoliyatiga bo'lgan qiziqishi oshgani kuzatildi.

O'quvchilarning real biznes muhitida amaliyot o'tash tajribasi

Tajriba asosida o'quvchilarning amaliyot jarayonlarini biznes subyektlari bilan hamkorlikda tashkil etish ularga real ish tajribasini taqdim etdi. So'rov natijalari shuni ko'rsatdiki, real biznes sharoitida amaliyot o'tagan o'quvchilar kelajakda mustaqil tadbirkorlik faoliyatini yuritishga nisbatan yuqori ishonch va tayyorgarlikka ega bo'ldi.

Kasbiy ta'lismuassasalarida tadbirkorlik ekotizimini shakllantirish

Tadqiqot natijalariga ko'ra, kasbiy ta'lismida tashkilotlarida biznes inkubatorlar, startap

akseleratorlar va tadbirkorlik markazlarini tashkil etish o'quvchilarning nazariy bilimlarini real loyihalar orqali mustahkamlash imkonini berdi. Ushbu yondashuv kichik biznesni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali tizim yaratishda muhim omil bo'ldi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kasbiy ta'lismiga tadbirkorlik yo'nalishlarini integratsiya qilish, o'quvchilarni real biznes muhitida tayyorlash va innovatsion pedagogik usullardan foydalanish ularning ishbilarmonlik faolligini oshirishda muhim omillardan biri hisoblanadi.

MUHOKAMA

Kasbiy ta'lism tashkilotlarida o'quvchilarning kichik biznes va tadbirkorlik sohasidagi ishbilarmonlik faolligini oshirish masalasi bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tadbirkorlik ta'limining samaradorligi ko'p jihatdan innovatsion pedagogik yondashuvlar, amaliy mashg'ulotlar va biznes muhiti bilan integratsiya darajasiga bog'liq.

Tadbirkorlik ta'limining samaradorlik omillari: Tahlillar shuni ko'rsatdiki, an'anaviy ta'lism yondashuvlaridan farqli ravishda, interaktiv va tajribaviy o'qitish usullari (simulyatsiyalar, loyiha asosida o'qitish, startap inkubatorlari) o'quvchilarning biznes muhitiga tezroq moslashishiga yordam beradi. Jumladan, biznes-rejalar ishlab chiqish va ularni amaliyatga joriy etish bo'yicha tajriba o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini mustahkamlashda muhim omil bo'ldi.

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda hamkorlik va biznes muhitining ahamiyati: Tadqiqot jarayonida kasbiy ta'lism muassasalari bilan kichik biznes subyektlari o'rtasidagi hamkorlik real biznes sharoitlariga tayyorlashning samaradorligini oshirishi aniqlandi. Bu borada ishlab chiqarish korxonalari va startap kompaniyalari bilan hamkorlik qilish, o'quvchilarning amaliyot o'tash tizimini takomillashtirish va biznes mentorlardan maslahat olish kabi yondashuvlar yuqori natijalar berdi.

Kasbiy ta'lismida tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish: Tadqiqot natijalari ko'rsatganidek, tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish faqatgina biznes g'oyalari ishlab chiqish bilan cheklanib qolmasligi, balki o'quvchilar ongida innovatsion fikrlash va tashabbuskorlik madaniyatini shakllantirish ham muhim ekanligi aniqlangan. Buning uchun kasbiy ta'lism muassasalarida biznes etika, risklarni boshqarish va jamoa bilan ishslash ko'nikmalariga alohida e'tibor qaratish lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kasbiy ta'lism tashkilotlarida kichik biznes va tadbirkorlik sohasidagi ishbilarmonlik faolligini oshirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish va ularni real biznes sharoitlariga tayyorlash uchun nazariy bilimlar bilan bir qatorda, amaliy

mashg'ulotlarni keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, interaktiv pedagogik usullar, biznes simulyatsiyalar va loyiha asosida o'qitish tadbirkorlik ta'liming samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, kasbiy ta'lim tashkilotlarining mahalliy biznes subyektlari bilan hamkorligi o'quvchilarga real biznes muhitida tajriba orttirish imkoniyatini beradi. Shu sababli, tadbirkorlik ta'lmini takomillashtirish nafaqat iqtisodiy rivojlanish, balki yoshlarning mustaqil kasbiy faoliyatini shakllantirish uchun ham muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, kasbiy ta'lim tashkilotlarida kichik biznes va tadbirkorlik sohasidagi ishbilarmonlik faolligini oshirish bo'yicha quyidagi takliflar ilgari suriladi:

O'quv jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish: Biznes simulyatsiyalar, loyiha asosida o'qitish va tadbirkorlik o'yinlarini keng joriy etish. Virtual va real biznes muhitlarini yaratish orqali o'quvchilarni amaliy mashg'ulotlarga jalb qilish.

Tadbirkorlik ekotizimini shakllantirish: Kasbiy ta'lim muassasalarida biznes-klublar va startap inkubatorlarini tashkil etish. O'quvchilar uchun

kichik biznes subyektlari bilan hamkorlikni kuchaytirish va biznes loyihalar ishlab chiqish imkoniyatlarini yaratish. **Amaliyot tizimini takomillashtirish:** O'quvchilarning kichik biznes subyektlarida amaliyot o'tash mexanizmini yanada rivojlantirish.

O'quv jarayoniga mentorlik tizimini joriy etish va tajribali tadbirkorlarni jalb qilish.

Tadbirkorlik bo'yicha bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish: O'quv dasturlariga biznes-reja tuzish, moliyaviy savodxonlik va marketing bo'yicha darslarni qo'shish. O'quvchilarga bozor tahlili, investitsiyalarni jalb qilish va risklarni boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish. **Davlat va xususiy sektor bilan hamkorlikni rivojlantirish:** Tadbirkorlik ta'lmini rivojlantirish uchun davlat dasturlaridan foydalanish va mahalliy biznes vakillarini jalb qilish. Kasbiy ta'lim tizimida kichik biznesni qo'llab-quvvatlash uchun subsidiya va grantlar ajratish mexanizmlarini rivojlantirish. Ushbu takliflarning amalga oshirilishi kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarning tadbirkorlik sohasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirish bilan birga, ularning ishbilarmonlik faolligini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Bu esa yoshlarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirib, jamiyatda tadbirkorlik muhitini shakllantirishga ijobiyligi ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Drucker, P. (2014). Innovation and Entrepreneurship. Routledge.
2. Hisrich, R., Peters, M., & Shepherd, D. (2017). Entrepreneurship. McGraw-Hill Education.
3. Fayolle, A., & Gailly, B. (2015). The Impact of Entrepreneurship Education on Entrepreneurial Attitudes and Intention: Hysteresis and Persistence. Journal of Small Business Management, 53(1), 75-93.
4. Gibb, A. (2002). In Pursuit of a New Enterprise and Entrepreneurship Paradigm for Learning: Creative Destruction, New Values, New Ways of Doing Things and New

- Combinations of Knowledge. International Journal of Management Reviews, 4(3), 233-269.
5. Kuratko, D. F. (2016). Entrepreneurship: Theory, Process, Practice. Cengage Learning.
 6. Jones, C. (2018). Entrepreneurship Education: Revisiting our Role and its Purpose. Journal of Small Business and Enterprise Development, 25(1), 17-34.
 7. Smith, A. (2009). The Wealth of Nations. Bantam Classics.
 8. Karimov, Sh. (2020). O'zbekistonda tadbirkorlik ta'limini rivojlantirish istiqbollari. Toshkent: Fan va Texnologiya.
 9. Nishonov, R. (2021). Kasbiy ta'lim tizimida tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish yo'nalishlari. O'zbekiston iqtisodiyoti jurnali, 5(2), 45-52.
 10. OECD. (2019). Entrepreneurship Education in Practice: Learning from Successful Programmes. OECD Publishing.
 11. UNESCO. (2020). Technical and Vocational Education and Training (TVET) for Sustainable Development. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization.
 12. World Bank. (2018). Small Business and Entrepreneurship Development: Policy Frameworks and Best Practices. Washington, DC: World Bank Publications.



Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

BOLA PSIXOLOGIYASI: RIVOJLANISH, O'ZIGA XOSLIK VA MUHITNING TA'SIRI

Abdullayeva Anora¹

Buxoro Zarmed universiteti

KEYWORDS

Bola psixologiyasi, rivojlanish bosqichlari, kognitiv rivojlanish, tarbiya, emotsional intellekt, oila muhitining ta'siri.

ABSTRACT

Bola psixologiyasi insonning tug'ilgan paytidan boshlab aqliy, hissiy va ijtimoiy rivojlanishini o'rganadi. Ushbu maqolada bola rivojlanish bosqichlari, kognitiv va emotsional o'zgarishlar hamda atrof-muhitning ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, oilaviy tarbiyaning bolaning shaxsiyati shakllanishiga qanday ta'sir ko'rsatishi va uning emotsional intellektini rivojlantirishdagi roli o'rganiladi. Maqola ota-onalar, pedagoglar va psixologlar uchun foydali bo'lib, bolalar bilan samarali muloqot o'rnatish va ularning psixologik rivojlanishiga yordam berish yo'llarini ko'rsatadi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.15089227](https://doi.org/10.5281/zenodo.15089227)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Kirish

Bola psixologiyasi – inson hayotining dastlabki bosqichlaridagi aqliy, hissiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonlarini o'rganadigan fan sohasi. Har bir bola tug'ma xususiyatlar va tashqi muhit ta'sirida shakllanadi. Shu sababli, psixologlar va pedagoglar bolaning rivojlanish xususiyatlarini aniqlash va ularga mos tarbiya usullarini ishlab chiqish muhimligini ta'kidlaydilar.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolaning dastlabki yillari uning kelajakdagi shaxsiyati, o'ziga bo'lган ishonchi va hissiy barqarorligiga asos soladi. Shuning uchun ota-onalar va pedagoglarning ushbu jarayonda tutgan o'rni beqiyosdir. Ushbu maqolada bola psixologiyasining asosiy jihatlari – rivojlanish bosqichlari, kognitiv va emotsional o'zgarishlar, shuningdek, oila va jamiyatning bolaning ruhiy dunyosiga ta'siri haqida so'z yuritiladi.

Asosiy qism

Bola rivojlanish bosqichlari:

Bola rivojlanishi bir necha bosqichlardan iborat bo'lib, har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega.

¹ Buxoro Zarmed universiteti talabasi

Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bola quyidagi bosqichlarni bosib o'tadi:

- 1.Sensomotor bosqich (0-2 yosh) – bola harakatlar va sezgilar orqali dunyoni o'rGANADI.
- 2.Operatsiyalar oldi bosqichi (2-7 yosh) – til va tasavvur rivojlanadi, lekin mantiqiy fikrlash cheklangan.
- 3.Beton operatsiyalar bosqichi (7-11 yosh) – bola mantiqiy fikrlashni o'zlashtiradi, lekin abstrakt tushunchalarni tushunish qiyin bo'ladi.
- 4.Formal operatsiyalar bosqichi (11 yoshdan boshlab) – abstrakt fikrlash va nazariy mulohazalar rivojlanadi.

Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bola har bir bosqichda muayyan psixologik sinovlardan o'tadi. Masalan, chaqaloqlik davrida ishonch yoki ishonchsizlik shakllanadi, maktab yoshida esa mehnatsevarlik va sustkashlik o'rtasidagi kurash kechadi.

Kognitiv va emotsiyal rivojlanish:

Bola kognitiv rivojlanishi ong va tafakkur shakllanishi bilan bog'liq bo'lsa, emotsiyal rivojlanishi uning his-tuyg'ularini boshqarish qobiliyatini anglatadi. Tadqiqotlarga ko'ra, emotsiyal intellekt bolaning ijtimoiy muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Bolaning kognitiv rivojlanishiga quyidagilar ta'sir qiladi:

- Ota-onalar va pedagoglarning ta'lim usullari.
- O'yin va ijodiy faoliyatlar.
- Maktabgacha ta'lim muassasalari va jamiyat ta'siri.

Emotsional rivojlanish esa bolaning stress va qiyinchiliklarga qanday munosabatda bo'lishini aniqlaydi. Oilaviy muhit, ota-onalarning hissiy qo'llab-quvvatlashi va ijtimoiy o'zaro munosabatlar bu jarayonda muhim ahamiyatga ega.

Oila va jamiyatning ta'siri:

Oila – bolaning birinchi tarbiya maskani bo'lib, uning shaxsiyati, dunyoqarashi va axloqiy qarashlarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mustahkam oilaviy munosabatlar va mehr-muhabbat bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Pedagoglar va psixologlarning ta'kidlashicha, bola tarbiyasida quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

- a) oilaviy mehr-muhabbat va qo'llab-quvvatlash – bolaning o'zini xavfsiz his qilishiga yordam beradi.
- b) ijtimoiy muhit va ta'lim tizimi – bolaning bilim olishiga va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishiga ta'sir qiladi.
- c) psixologik yordam va tarbiya metodlari – bolaning individual xususiyatlariga mos yondashuv talab etiladi.

Xulosa

Bola psixologiyasi inson hayotining dastlabki bosqichlarida shakllanadigan aqliy va hissiy jarayonlarni o'rGANADI. Uning rivojlanishi kognitiv, emotsiyal va ijtimoiy jihatlarga bo'linib, har biri atrof-muhabbat, oilaviy tarbiya va shaxsiy tajribalar bilan chambarchas bog'liq. Ota-onalar, pedagoglar va psixologlar bolalar bilan samarali muloqot qilish, ularning kognitiv va emotsiyal rivojlanishiga e'tibor berish orqali ularning shaxs sifatida yetuk bo'lishlariga hissa qo'sha oladilar. Bola tarbiyasida mehr-muhabbat, sabr va to'g'ri yondashuv asosiy omillar

bo'lib, bu kelajak avlodning barkamol rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Piaget, J. (1952). *The Origins of Intelligence in Children*. Norton.
2. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
3. Erikson, E. H. (1963). *Childhood and Society*. W. W. Norton & Company.
4. Goleman, D. (1995). *Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ*. Bantam Books.
5. Nishanova, Z., & Alimova, G. (2014). Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. Toshkent: Ziyo Nashr.
6. Ismoiljonov, L., & Tilovov, J. (2023). Bolalar psixologiyasidagi o'zgarishlar. Science and Education.
7. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirligi (2023). Maktabgacha ta'lim va boshlang'ich sinf psixologiyasi.
8. Nishanova, Z., & Alimova, G. (2014). Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. Ziyoruz. PDF manba
9. Ismoiljonov, L., & Tilovov, J. (2023). Bolalar psixologiyasidagi o'zgarishlar. Science and Education. Maqola
10. Ibodullayev, Z. (n.d.). Tibbiyot psixologiyasi. Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti. PDF manba
11. Nishanova, Z., & boshqalar. (2014). Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. Ziyoruz. PDF manba



Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

SHODMON SULAYMON SHE'RIYATIDA BUXORO OBRAZI TALQINI

Mustaqimova Madina¹

Buxoro davlat universiteti

KEYWORDS

Buxoro obrazi, tarixiy shahar, madaniyat, ma'naviyat, xalqlar birligi, ma'naviy poklik, tarixiy meros.

ABSTRACT

Maqolada Buxoro zaminiga bo'lgan cheksiz muhabbat, yuksak ehtirom tarannumi, uning madaniy boyliklari va tarixiy ahamiyati tajassum topgan teran tuyg'ular ifodalangan "Aylanayin Buxorojon" she'ri tahlil qilingan. Manzuma shu yurt dilbandi Shodmon Sulaymon qalamiga mansub. Shoирning Buxoroni faqatgina tarixiy shahar sifatida emas, balki ruhiy oromgoh, qalbning tasalli manbayi sifatida tasvirlagani ochiqlangan. Uning xalqlar birligi, mehr-oqibat va insoniylik timsoli ekanligi badiiy ifodalar bilan muzayyan etilgani dalillangan. Ayni chog'da, she'rning lingvopoetik xususiyatlariga doir ayrim masalalar badiiylik mezonlari asosida yoritilgan.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.15090993](https://doi.org/10.5281/zenodo.15090993)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Kirish. Adabiyot olamida har qaysi shoир va yozuvchining ayricha ovozi bor. Shodmon Sulaymon o'z ijodi bilan zamonaviy o'zbek adabiyotiga yangicha ruh va ohang olib kirgan ijodkorlardan biridir. Uning she'rlarida chuqur hayotiy falsafa, insoniy kechinmalar va milliy ruh mujassam. Inson qalbining nozik tuyg'ulari chertib bitilgan misralar she'rxonni olis xayollarga chorlaydi. Sh.Sulaymon ijodida muhabbat, vatan, insoniylik va hayot falsafasi ustuvor mavzular sanaladi. Uning she'rlari oddiy so'zlar bilan katta ma'nolarni ochib berishi jihatidan e'tiborni tortadi. Go'yo har bir misrada hayotning o'zi aks etayotgandek. Shoир ba'zan ma'yus, ba'zan o'tkir tanqidiy ohangda yozsa-da, samimiyligini saqlab qola oladi. Sh.Sulaymon ijodini tushunish uchun misralar qatida yashirin ramziy mazmunni anglash muhim. U so'zlar bilan o'ynashmaydi, balki hayot haqiqatlarini ochib beradi. Uning she'rlari kitob o'qigan odamdan ko'ra, hayotni his qilgan odamga yaqinroqdek tuyuladi.

Asosiy qism. Sh. Sulaymon ijodi haqida gapirganda, faqat uning she'rlarini emas, balki uning ichki dunyosini ham anglashga harakat qilish kerak. Shoир o'zi yashagan davr, his qilgan kechinmalar va o'quvchiga aytmoqchi bo'lgan haqiqat – bularning barchasi uning asarlarida

¹ Buxoro davlat universiteti, Adabiyotshunoslik yo'nalishi, 1-kurs magistranti

mujassam. Adabiyot shunchaki so'z emas, balki hissiyot va ma'nolar uyg'unligi ekanini u yaxshi bilgan va bu jihatni o'z asarlarida namoyon qilgan.

Uch kungina qolib ketsam sarhadlarda,

Na hafsalal qolgay dilda, na ahdlar-da.

Bir mehribon do'st bog'iga qo'nolmayman,

Kunim o'tgay termulgancha soatlarga.

Takror-takror shivirlayman ozurda jon,

Otginangdan aylanayin, Buxorojon [2, 26].

She'rning ilk misralariyoq lirik qahramonning holati ochib beriladi. "Uch kungina qolib ketsam sarhadlarda" degan ifoda shuni anglatadiki, bu vaqt unchalik uzoq emasdek ko'rinsa ham, bu qisqa muddatning o'zi vatan muhabbat bilan to'lib-toshgan yurak uchun mushkul holat, aslida. Keyingi misrada esa umidsizlik va holdan toygan qalb tasvirlanadi. Inson intazorlikdan zerikadi, kutish esa uning bardoshini yemiradi. Sog'inch va hijron iztirobi lirik qahramonning ruhiy holatini yaqqol ochib beradi. "Qo'nolmayman" – ya'ni, u xohlagan joyiga borolmaydi, o'zini yovvoyi qushdek his qiladi. Lirik qahramon do'stlar davrasidan, tanish va mehribon muhitdan ajralgan. "Kunim o'tgay termulgancha soatlarga" degan satr esa vaqt qanday sust o'tayotganini ifodalaydi. Inson diqqatini boshqa narsaga qaratolmaganda, soatga termulib qolishi tabiiy. Ushbu she'rda ichki iztirob va sabrsizlik juda tabiiy tarzda ifodalangan.

Sen yovlikni bilmagaysan, munisdirsan,

Sen opamsan, sen singlimsan – nafisdirsan,

Sen otamning ko'ksidagi mangu og'riq,

O'g'lim tutgan bayroq kabi azizdirsan.

Mangu orzu, mangu matlab, mangu armon,

Yodginangdan aylanayin, Buxorojon [2, 26].

Shoir keyingi bandda Buxoroning tinchligi, xalqining mehmondo'stligi va mehribonligini suyadi. Lirik qahramon nazdida "munis" so'zi Buxoroning dilga yaqin, sirdosh ekanligini anglatadi. Uchinchi misra Buxoroning o'tmishdagi og'ir kunlari, buyuk yo'qotishlari haqida so'zlaydi. Shoir uchun bu yurt doimo orzu qilinadigan, erishishga intiladigan va, ayni paytda, erishib bo'lmaydigan armon bo'lib qoladigan shahar. Umuman olganda, bu she'r yurakdan chiqqan va qalblarga yetib boradigan, milliy g'urur va birlikni tarannum etadigan lirik manzuma. Unda muallif Buxoro zaminining ulug'vorligini, ma'naviy qudratini teran ifoda etgan. Har bir misrada chuqur hikmat, o'tmishdan olingan saboq va qalb nidosi bor.

Bog'laringda g'animplar yo'q, do'stni ko'rdim,

Tanti turkman, mard koreys, qirg'izni ko'rdim.

Fotihada qo'lin ochib duolarga,

Do'ppi kiyib, bel bog'lagan rusni ko'rdim.

Bir-biriga jondek aziz do'st, qadrdon,

Yotginangdan aylanayin, Buxorojon [2, 26].

Ushbu bandda Buxoro shahrining millatlararo totuvlik, do'stlik va bag'rikenglik maskani ekanligini madh etilgan. Unda turli millat vakillari o'rtasidagi iliq munosabatlar, Buxoroning

ularni qanday qabul qilishi va ularning Buxoroga bo'lgan hurmati ko'rsatilgan.

Ko'rdim kezib – riyolari tinmagaydir,
Qasr qurgay, ammo ko'ngli unmagaydir.
Dunyolarni titrataman degan "zo'r"lar
Darvozangga boshin urib yig'lagaydir –
So'zi poku o'zi poku balogardon
Zotginangdan aylanayin, Buxorojon [2, 26].

Ushbu misralarda Buxoroning do'stlik, hamjihatlik va bag'rikenglik shahri ekanligi ajoyib tarzda tasvirlangan. Unda turli millat vakillari o'rtasidagi iliq munosabatlar, shahar aholisining ularni qanday qabul qilishi va mehmonlarning Buxoroga bo'lgan hurmati ko'rsatilgan. Keyingi misralarda insonlarning riyo va hiyla bilan yashayotgani, hashamatli qasrlar qursa-da, lekin yuragi halovat topmayotgani aks etgan. Aslida, bu dunyoda moddiy boylik ortidan quvgan, ma'naviyatini boy bergen odamlarning holati shu. Buxoro esa – qalbi pok, so'zi haq zamin.

O'zini kuchli deb bilgan hukmdorlar, sultanatlar ham Buxoro darvozalari oldida ojiz qolgan. Ularning qudrati vaqtinchalik, lekin Buxoroning ma'naviy buyukligi abadiy. Bu joyning fayzi, ilmi, donishmandlari oldida eng qudratli shohlar ham bosh egishga majbur bo'lgan. Shoир Buxoroning pokligi, haqiqat yo'lida sobitligi va balolardan himoya qilinganligini madh etmoqda. Bu zaminga bo'lgan cheksiz mehr-muhabbatini izhor etib, unga sadoqat bilan ta'zim qilmoqda.

Men ham bitta yaproqdirman chorbog'ingda,
Jismu jonim zirqiraydi har ohingdan.

Issiq bag'ring makon bo'lgay so'nggi ul dam
Erkalanib yotgaydirman quchog'ingda.
Shoir o'g'lim ketdi, deya tortsang fig'on,
Dodginangdan aylanayin, Buxorojon.

Otginangdan aylanayin, Buxorojon...[2, 26]

She'rning eng ta'sirli qismi uning yakuniy misralari bo'lib, lirik qahramon yuragini o'rtayotgan vatan sog'inchi aynan shu yerda yorqin namoyon bo'ladi: Bu yerda "ozurda" – qiynalayotgan, iztirob chekayotgan qalbni bildiradi. U tinmay "Buxoro" deb shivirlaydi, go'yo bu nom uning dardiga malhamdek. "Otginangdan aylanayin, Buxorojon" ifodasi esa lirik qahramonning shunchalik yurtiga bog'langanini ko'rsatadiki, u Buxoroning changiga, yo'llariga, hatto eng arzimas narsalariga ham fido bo'lishga tayyor. Bu milliy ruhiyatimizga xos tuyg'u – vatanga muhabbat va uning har bir unsurini aziz bilish. Mualif Buxoroning boy tarixiy va ma'naviy zaminini "chorbog'"ga qiyos qiladi. O'zini esa bu ulug'ver bog'ning oddiy bir yaprog'iga o'xshatadi. Buxoro boshidan kechirgan har bir dard-u quvonch uning qalbini larzaga soladi, yuragini zirqiratadi.

Keyingi misrada shoирning oxirgi nafasigacha Buxoro zaminida qolishni orzu qilishi ifodalananadi. U bu zaminga shunchalik bog'liqki, o'lim chog'ida ham Buxoroning bag'rida erkalanib yotishni istaydi. Bu – vatanparvarlikning eng oliy cho'qqisi. Shoир o'zini Buxoroning

tuprog'iga, har bir nafasiga, har bir xotirasiga bag'ishlashga tayyorligini bildirgan.

Xulosa. Umuman olganda, bu she'r yurakdan chiqqan va qalblarga yetib boradigan, milliy g'urur va birlikni tarannum etadigan asar. Bu she'rda muallif Buxoro zaminining ulug'vorligini, ma'naviy qudratini teran ifoda etgan. Har bir misrada chuqur hikmat, o'tmishdan olingan saboq va qalb nidosi bor. Bu nafaqat bir insonning, balki butun avlodlarning Buxoroga bo'lgan muhabbati va ehtiromining aksidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shodmon SULAYMON. Otamning ayvoni. She'rlar, dostonlar, monologlar, hikoyalar. – Buxoro: "Adabiy Buxoro" nashriyoti, 2024. – 316 b.
2. Сулаймон, Шодмон. Мен баҳтли яралдим (Шеърлар, достон). Т.: "НАВРЎЗ" нашриёти, 2015. – 136 б.
3. Йўлдошев К., Йўлдошева М. Бадиий таҳлил асослари. – Т.: Камалак.2016. 461 б.
4. Камол Ж. Шеър санъати. IV жилд. – Т.: Янги аср авлоди. 2018. – 444б.
5. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Т.: Akademnashr, 2018. – 480 b.
6. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. –Т.: Ўзбекистон.2002. – 559 б.
- 7.<https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-zamonaviy-sheriyati/shodmon-sulaymon/>



Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

OLIY TA'LIM TIZIMIDA XORIJYIY INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEHANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Almardanov Ulug'bek¹

Oliy ta'lism, fan va innovatsiyalar vazirligi

KEYWORDS

oliy ta'lism, xorijiy investitsiyalar, samaradorlik, baholash mexanizmi, ta'lism sifati, innovatsiyalar, xalqaro hamkorlik.

ABSTRACT

Ushbu tezisda oliy ta'lim tizimida xorijiy investitsiyalar samaradorligini baholash va uning takomillashtirilgan mexanizmini ishlab chiqish masalalari tahlil qilinadi. Xorijiy investitsiyalarning ta'lim sifatiga, moddiy-texnik bazaga va xalqaro hamkorlikka ta'siri ko'rib chiqilib, samaradorlikni oshirish uchun strategik yondashuvlar tavsiya etiladi. Investitsiyalarning natijalarini baholash uchun ko'rsatkichlar va monitoring tizimi ishlab chiqish muhimligi ta'kidlanadi. Maqolada ilg'or xalqaro tajribalar asosida oliy ta'limda investitsiya jalb qilishning optimal yo'llari yoritiladi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.15091089](https://doi.org/10.5281/zenodo.15091089)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Oliy ta'lim tizimida xorijiy investitsiyalar samaradorligini baholash muhim masalalardan biri bo'lib, uning takomillashtirilgan mexanizmini ishlab chiqish ta'lim sifatini oshirishga, moddiy-texnik bazani rivojlantirishga va ilg'or texnologiyalarni jalb etishga xizmat qiladi. Hozirgi davrda oliy ta'lim tizimining globallashuvi va integratsiyalashuvi xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning yangi usullarini taklif etmoqda. Investitsiyalarning samaradorligini baholash esa ushbu mablag'larning qay darajada to'g'ri yo'naltirilganligini va natijadorlikni ta'minlayotganini aniqlash uchun muhimdir. Buning uchun aniq mezonlar va indikatorlar ishlab chiqilishi lozim. Bu jarayonda xalqaro tajribalar va zamonaviy iqtisodiy tahlil usullari asosida yondashuvlar ishlab chiqish zarur.

Xorijiy investitsiyalar ta'lim tizimiga ta'sir ko'rsatishining asosiy yo'nalishlaridan biri infratuzilmani yaxshilash va oliy ta'lim muassasalarining moddiy bazasini mustahkamlash hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda xorijiy sarmoyalar oliy ta'limga jalb qilinganda, ko'pincha innovatsion laboratoriylar, ilmiy markazlar va zamonaviy texnologik o'quv

¹ Oliy ta'lism, fan va innovatsiyalar vazirligi Xorijiy investitsiyalar va grantlar bilan ishlash bo'limi bosh mutaxassisasi

anjomlarini xarid qilish uchun sarflanadi. Bu esa talabalarining nazariy bilimlarini amaliyatga tadbiq etish imkoniyatini kengaytiradi. Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalar xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga, xorijiy professor-o'qituvchilarni jalb qilishga va xalqaro ta'lif dasturlarini amalga oshirishga yo'naltirilishi ham lozim. Shunday qilib, investitsiyalar faqat moddiy infratuzilmani emas, balki ta'lif sifati va ta'lif jarayonining o'zini ham takomillashtirishi kerak.

Oliy ta'lif tizimida xorijiy investitsiyalarning samaradorligini baholash uchun turli ko'rsatkichlar qo'llanilishi mumkin. Bularga oliy ta'lif muassasalarining reytingi, bitiruvchilarning bandligi, ilmiy tadqiqot faoliyatining rivojlanishi, xorijiy talabalar sonining ortishi va moliyaviy ko'rsatkichlar kiradi. Masalan, xalqaro universitetlar reytingida yuqori pog'onalarini egallagan oliy ta'lif muassasalari odatda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda muvaffaqiyatga erishgan bo'ladi. Bunda investitsiyalarning qanday yo'naltirilgani va ularning natijalari qanday bo'lganini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, har bir investitsiya loyihasining natijalarini baholash va monitoring qilish tizimini ishlab chiqish zarur.

Xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirish uchun bir nechta strategik yondashuvlar qo'llanilishi mumkin. Ulardan biri oliy ta'lif muassasalarining xususiy sektor bilan hamkorligini mustahkamlashdir. Xususiy sektor ko'pincha innovatsion tadqiqotlar va texnologik rivojlanishga qiziqish bildiradi, shuning uchun hamkorlik orqali ta'lif muassasalari nafaqat moliyaviy resurslarni jalb qiladi, balki talabalar uchun amaliyat va ish o'rinalarini ham yaratishi mumkin. Bundan tashqari, xalqaro grantlar va subsidiyalar orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ham samarali usullardan biridir. Bu usul ta'lif sifatini oshirish bilan birga, akademik mobillik va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish imkonini beradi. Barcha yuqoridagi jihatlarni hisobga olgan holda, oliy ta'lif tizimida xorijiy investitsiyalar samaradorligini baholash mexanizmini takomillashtirish uchun quyidagi asosiy yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozim. Birinchidan, investitsiya mablag'larining aniq taqsimoti va ularning ishlatilishini doimiy nazorat qilish tizimi joriy etilishi kerak. Ikkinchidan, investitsiyalar ta'lif sifatiga qanday ta'sir ko'rsatayotganini o'lchash uchun yangi ko'rsatkichlar ishlab chiqilishi lozim. Uchinchidan, xorijiy investorlar bilan uzoq muddatli va barqaror hamkorlikni yo'lga qo'yish strategiyasi ishlab chiqilishi zarur. Bunda davlat siyosati, huquqiy asoslar va iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarining roli katta.

Oliy ta'lif tizimining xalqaro investorlarga jozibadorligini oshirish uchun davlat tomonidan qulay investitsiya muhitini yaratish ham muhim hisoblanadi. Soliq imtiyozlari, grant dasturlari va davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlari ishlab chiqilishi lozim. Masalan, ba'zi rivojlangan davlatlarda xorijiy investorlar uchun maxsus ta'lif fondlari tashkil etilgan bo'lib, bu orqali investorlar o'z sarmoyalarining natijalarini aniq baholash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunday tizimni O'zbekistonda ham joriy etish xorijiy investitsiyalar hajmini oshirishga yordam berishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lif tizimida xorijiy investitsiyalar samaradorligini baholash mexanizmini takomillashtirish ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Bu jarayonda xalqaro tajribalarni o'rganish, iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanish va zamonaviy

yondashuvlarni qo'llash muhimdir. Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish xorijiy investitsiyalarni samarali jalg qilishning asosiy yo'nalishlaridir. Shu sababli, samaradorlikni oshirish uchun aniq strategiyalar ishlab chiqilishi va doimiy monitoring tizimi yo'lga qo'yilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Altbach, P. G., & Salmi, J. (Eds.). (2011). *The road to academic excellence: The making of world-class research universities*. World Bank Publications.
2. Marginson, S. (2018). *Higher education and the common good*. Melbourne University Publishing.
3. OECD. (2021). *Education at a Glance 2021: OECD Indicators*. OECD Publishing.
4. Teixeira, P. N., & Dill, D. D. (Eds.). (2011). *Public Vices, Private Virtues? Assessing the Effects of Marketization in Higher Education*. Sense Publishers.



Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

IQTIDORLI YOSHLARNI RAQOBATBARDOSH KADR SIFATIDA SHAKLLANISHIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Xolmurodov Shuxrat¹

Termiz davlat pedagogika instituti

KEYWORDS

Axborot kommunikatsiya, iqtidorli yoshlar, innovatsion texnologiyalarni, tarbiya, rivojlanish, shaxs.

ABSTRACT

Ushbu maqolada yurtimizda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning izchil sur'atlarda rivojlanishini vatanga bo'lgan sadoqat tuyg'ularini shakllantirmasdan hal etib bo'lmaydi. Ayniqsa, iqtidorli yoshlarni tarbiyalash shunchalik muhim, murakkab va ko'p qirraliki, mamlakatning har bir rivojlanish bosqichlarida bu masala qayta va qayta ko'rib o'tiladi. Axborot kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalarni turli sohalarda jadal tarzda joriy etib borilishi bilan bizning jamiyatda iqtidorli yoshlarga, ularning yetuk kadr bo'lib shakllanishiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.1510326](https://doi.org/10.5281/zenodo.1510326)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Shaxsning ijtimoiy jihatdan shakllanishida tarixiy-madaniy yodgorliklarni, tarixiy obidalarni o'rghanish, asrash va anglash muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarni tashabbuskorlik ruhida tarbiyalash asosida – vatanga, yashash joyiga, xalqiga, o'z oilasiga bo'lgan sadoqati va hurmat e'tibori yotadi. Shu bois ham axborot kommunikatsiya texnologiyalari shaxsning ruhan yetuk inson bo'lib shakllanishida axborot manbai sifatida foydalanim kelinmoqda. Axborot tizimini joriy etilishi yosh avlodni qadr-qimmatini, dunyoqarashini, vatanga sadoqatini shakllanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunga kelib ko'pchilik yoshlari g'arb mamlakatlari tomonidan targ'ib etilayotgan hayot tarziga o'tib bormoqda. Shuning uchun ham hozirgi zamon yoshlari dagi o'zgarishlar, hususiyatlar va qiziqishlarni inobatga olgan holda tarbiyani tashkil etish zarur.

Bugungi kunda Internet tarmog'iga kiruvchilar kontingentini katta qismini asosan yoshlar tashkil etadi. Yosh avlodning Internet axborot resurslaridan foydalanish huquqi ularning yoshi va ruhiy holati hususiyatlariga bog'liq xolda O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risidagi" qonuni va qonun osti xujjalari bilan belgilab qo'yilgan.

¹ Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Axborot tizimi yoshlarni elektron adabiyotlar bilan tanishishga, madaniyatni o'rganishga, o'zaro axborot almashinuviga keng imkoniyat yaratib bermoqda. Natijada yoshlarda chet-el tillarini o'rganishga ishtiyoq va ehtiyoj tug'ilmoqda, bu o'z navbatida kengroq doiradagi ma'lumotlarni o'zlashtirishga olib kelmoqda. Internet orqali bilim olish, estetika va sanat, tarixiy voqealar, ekologik jarayonlar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish haqidagi ma'lumotlardan nogiron yoshlarning xabar topishiga imkoniyat yaratildi. Lekin Internet axborot resurslari barcha yoshlarga birday ijobiy ta'sir etmay, balki ularning ongiga, madaniyatiga, milliy urf-odatlariga, huquqiy, tashabbuskorlik holatiga, diniy dunyoqarashiga va ekologik tarbiyasiga turlicha ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois ham oilada ota-onasiga, o'quv dargohida murabbiylar tomonidan yoshlarning qaysi sohaga oid Internet axborot resrslari bilan qiziqayotganligi va foydalanayotganligini nazoratga olishlari maqsadga muvofiq. Yoshlarda tez moslashuvchanlik hislatlari katta yoshdagilarga nisbatan ancha yuqori darajada bo'lganligi uchun ularning xulq atvori, ruhiy holatidagi o'zgarishlarni muntazam ravishda kuzatib borish lozim.

Internet tarmog'ining afzalligi shundaki, ixtiyoriy ma'lumotni bir zumda olishingiz va uni qayta ishlappingiz mumkin. Har bir yosh o'zini qiziqtirgan sohaga oid elektron axborot resurslari jamg'armasini yaratishi, ijodiy faoliyat olib borishi va erishilgan natijalarni jamiyatning biron bir sohasiga tadbiq etishi mumkin. Raqobatbardosh yetuk mutaxassis bo'lib yetishishga zamin yaratiladi. Yoshlarning ma'naviy saviyasi oshadi, dunyoqarashi shakllanadi, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni tahlil qilishlari asosida tashabbuskorlik xislatlari yanada rivojlanadi.

Yoshlarda tashabbuskorlikni shakllantirish dialektik bog'lanishlar, ya'ni intellektual – anglash, emotsiyal-qadriyat, amaliy faoliyat elementlariga bog'liq. Shuning bilan bira yoshlarda muhim insoniylik fazilatlari va sifatlarini shakllantirish, jamiyatning turli sohalarida bo'layotgan o'zgarishlarni anglashi, bilishi va unga moslashishga tayyor bo'lishi yosh avlodni rivojlanishida asosiy maqsad hisoblanadi. Bunda yoshlarning davlat gimni, bayroq, davlat gerbi ramzini bilishligi talab etiladi. Shuning bilan birga mamlakatda olib borilayotgan siyosat, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, konstitutsiyaviy huquq va majburiyatlarni to'g'ri tushunib anglashni taqozo etadi. Tashabbuskorlik bugungi kunda yoshlarning ruhiy-insonparvarlik holatini belgilovchi faktor hisoblanib, jamiyatning mo'tadilligi, davlatning xavfsizligi va mustaqilligini ta'minlaydi. Shuning uchun ham yoshlarni tashabbuskorlik ruhida tarbiyalashning negizida tarixiy ongning shakllanishi yotadi. Tarixiy tarbiya – kelib chiqish avlod ajdodlarimiz, urf-odatlarimizni bilish bilan bevosita bog'liq. Jamiyatning dunyo miqyosida tutgan o'rni, ko'pmillatligi, tarixiy jarayonlar, urf-odatlar, diniy e'tiqod, mintalitet hususiyatlarini tushinish, tashqi axborot xurujlaridan himoyalanish darajasi bilan ifodalanadi.

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarining izchil sur'atlarda rivojlanishini har bir fuqaroda vatanga bo'lgan sadoqat tuyg'ularini shakllantirmasdan hal etib bo'lmaydi. Ayniqsa, yosh avlodni tashabbuskorlik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash shunchalik muhim, murakkab, dolzARB va ko'p qirrali masala hisoblanib, mamlakatning har bir rivojlanish bosqichida bu masala qayta va qayta ko'rildi. So'ngi yillarda axborot

kommunikatsiya texnologiyalari va tizimining eksponensial ravishda rivojlanishi bilan jamiyatda bu masalaga jiddiy e'tibor qaratila boshlandi. Shaxsning ijtimoiy jihatdan yetuk inson bo'lib shakllanishida axborot manbalari, jumladan, tarixiy-madaniy yodgorliklarni, urfodatlarinio'rganish, tarixiy obidalarni asrash, xalqning kelib chiqish tarixini o'rganish va anglash muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarni tashabbuskorlik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash asosida – vatanga, yashash joyiga, o'z oilasiga bo'lgan mehr-muxabbati va hurmati yotadi. Shu bios ham bugungi kunda axborot kommunikatsiya tizimi yosh avlodning ruhan yetuk barkamol inson bo'lib shakllanishida axborot manbai sifatida foydalanib kelinmoqda. Axborot tizimini joriy etilishi yosh avlodni dunyoqarashini, e'tiqodini, qadr qimmatini va vatanga, oilaga bo'lgan mehr-muhabbatini shakllanishida muhim o'r'in egallamoqda. Deyarli ko'pchilik yoshlar g'arb mamlakatlari tomonidan targ'ib tashviqot etilayotgan hayot, turmush va yashash tarziga taqlid qilib, o'tib bormoqda. Bu o'z navbatida ijobiy va salbiy o'zgarishlarni yuzaga kelishiga olib keladi. Shuning uchun ham hozirgi zamon yoshlaridagi ruhiy o'zgarishlar, hususiyatlar va qiziqishlarni inobatga olgan holda tarbiyani tashkil etish zarur.

Adabiyotlar

1. Хуторской А.В. Компетентностный подлод в обучении. Научно – методическое пособие. – М.: Эйдос, 2013.
2. Эгамбердиева Н. Тараба – ёшларни тарбиялашда компетентлик ва креативлик. – Т.: Наврӯз, 2013.
3. Очилов М. Янги педагогик технологиялар. – Қарши: Нафас, 2000.
4. Толиков Ў., Усмонбоева М. Педагогик технология: назария ва амалиёт. – Т.: Фан, 2005.
5. Холмуродов, Ш. О. (2021). РОЛЬ ИННОВАЦИИ В ТЕХНОЛОГИИ ВОСПИТАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ И ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ ИНФОРМАТИКИ. Вопросы науки и образования, (18), 11-19.
6. Kholmurodov Shuhrat Okboevich. (2021). MATHCAD SYSTEM AS A MEANS OF INCREASING THE EFFICIENCY OF PHYSICS. Archive of Conferences, 138-141. Retrieved from <https://www.conferencepublication.com/index.php/aoc/article/view/1458>
7. Kholmurodov S. A. Mechanisms for improving the professional and creative activity of a computer science teacher //Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. – 2022. – Т. 12. – №. 1. – С. 153-157.
8. Kholmurodov S. O. IMPROVING THE STRUCTURE AND CONTENT OF THE COURSE THEORY AND METHODS OF TRAINING AND EDUCATION IN COMPUTER SCIENCE IN ACCORDANCE WITH THE STATE STANDARDS OF EDUCATION OF UZBEKISTAN //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 7. – С. 89-92.
9. Xolmurodov S. O. METHODOLOGICAL ASPECTS, CONTENT AND ORGANIZATIONAL FORMS OF TEACHING A COMPUTER SCIENCE COURSE AT HUMANITARIAN FACULTIES OF PEDAGOGICAL UNIVERSITIES //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 4. – С. 239-241.
- 10.Холмуродов Ш. О. ОСНОВА РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА ПРОЦЕССЫ

ИНФОРМАТИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 6. – С. 179-184.

11.Холмуродов Ш. О. СИСТЕМА ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАНИИ СТУДЕНТОВ ИНФОРМАТИКОВ //Digital. – 2021. – Т. 3. – №. 1.

12.Kholmurodov Sh.O., . (2023). INTERDISCIPLINARY INTEGRATION – A FACTOR FOR DEVELOPING STUDENT THINKING. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 4(11), 79–84. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-04-11-14>

13.Kholmurodov Sh.O. (2023). USE OF EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TRADITIONAL AND NON-TRADITIONAL LESSONS. International Journal of Pedagogics, 3(11), 79–84. <https://doi.org/10.37547/ijp/Volume03Issue11-16>

14.Холмуродов, Ш. О. (2023). УМУМТАЛЬИМ МАКТАБИ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ ТАФАККУРИНИ ЎСТИРИШ (ИНФОРМАТИКА ДАРСЛАРИДА). Educational Research in Universal Sciences, 2(11 SPECIAL), 198-203.

15.Холмуродов, Ш. О. (2024). ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ. " Science Shine" International scientific journal.

16.Xolmurodov, S. O. (2024). O 'QUVCHI TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL METODLAR (O 'YINLAR) DAN FOYDALANISH (1-MODUL). Inter education & global study, (4 (1)), 188-196.

17.Холмуродов, Ш. О. (2024). ЎҚУВЧИ-ТАЛАБАЛАРНИНГ ЎҚУВ МАТЕРИАЛЛАРИНИ ЎЗЛАШТИРИШ ДАРАЖАЛАРИ. " Science Shine" International scientific journal.



Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

КУЛЬТУРНАЯ ЛИНГВИСТИКА ЦВЕТА: ФРАЗЕОЛОГИЯ В ИСПАНСКИХ И УЗБЕКСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ

С.М. Джалилова¹

Самаркандский Государственный Институт Иностранных языков

KEYWORDS

лингвокультурология,
цветовая семантика,
фразеология, испанский
язык, узбекский язык,
национальная картина мира,
символика цвета.

ABSTRACT

В данной статье рассматривается роль цветовой семантики в испанской и узбекской фразеологии, а также её влияние на национальную картину мира. Особое внимание уделяется анализу художественных произведений и пословиц, отражающих культурные особенности восприятия цвета в двух языках. Исследование основано на материалах лингвокультурологических работ, сопоставительном анализе фразеологизмов и их интерпретации в контексте национального сознания.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.15103381](https://doi.org/10.5281/zenodo.15103381)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Введение

Цветовая семантика занимает важное место в языковой картине мира, отражая национальные и культурные особенности народа. Исследование цвета в фразеологии помогает понять, как различные народы интерпретируют окружающий мир и передают это через устойчивые выражения. В данной статье рассматриваются испанские и узбекские фразеологизмы, связанные с цветами, а также их роль в художественных произведениях.

Лингвокультурология изучает связь между языком и культурой, выявляя национальные особенности языкового сознания. В контексте цвета данное направление позволяет рассмотреть культурные и исторические предпосылки формирования устойчивых выражений, связанных с цветом [Зайнутдинов Л.Р., 2021]. Испанский язык богат фразеологизмами, связанными с цветами. Например, выражение "ponerse rojo como un tomate" (букв. "покраснеть, как помидор") обозначает сильное смущение [Гарсия Ф.С., 2018]. Синий цвет в испанской культуре ассоциируется

¹ Самаркандский Государственный Институт Иностранных языков, преподаватель кафедры Испанской и Итальянской филологии

со спокойствием, например, в выражении "estar en una nube azul" ("быть в голубом облаке" — находиться в эйфории) [Лопес М.Г., 2019].

В узбекском языке цветовая семантика также играет значительную роль. Например, выражение "қора кунлар" ("чёрные дни") символизирует трудные времена [Каримов А.Б., 2020]. Зелёный цвет традиционно связан с процветанием и религией, что видно в выражении "яшил йўл" ("зелёный путь" — правильный, честный путь) [Умаров Х.Т., 2022].

Сравнительный анализ показывает, что в испанской и узбекской культурах некоторые цвета имеют схожее значение, но также встречаются различия. Например, в обоих языках чёрный цвет ассоциируется с негативными эмоциями, но в узбекской культуре он также символизирует мудрость [Турсунова А.Н., 2021].

В испанской литературе Габриэль Гарсия Маркес активно использовал цветовую символику. В романе "Сто лет одиночества" жёлтый цвет символизирует роковую судьбу и неизбежность [Фернандес В.И., 2020]. В узбекской литературе Абдулла Қажхор в произведении "Икки эшик ораси" использует красный цвет для передачи напряжённости и страсти [Рахимова С.Т., 2021].

Заключение

Таким образом, цветовая семантика в испанской и узбекской фразеологии имеет как общие, так и специфические черты, отражающие культурное наследие народов. Анализ художественных произведений показывает, что цвет не только является частью языка, но и служит мощным инструментом для передачи эмоционального и культурного контекста.

Литература

1. Гарсия Ф.С. Фразеология испанского языка. – Мадрид: Ediciones Cervantes, 2018.
2. Зайнутдинов Л.Р. Лингвокультурология цвета. – Ташкент: Фан, 2021.
3. Каримов А.Б. Узбекская фразеология: традиции и современность. – Ташкент: Университет, 2020.
4. Лопес М.Г. Символика цвета в испанской культуре. – Барселона: Universidad de Barcelona, 2019.
5. Рахимова С.Т. Цвет и его отражение в узбекской литературе. – Самарканд: Изд-во СГИЯ, 2021.
6. Турсунова А.Н. Национальная семантика цвета. – Ташкент: Фан, 2021.
7. Умаров Х.Т. Лексическая семантика узбекского языка. – Ташкент: Университет, 2022.
8. Фернандес В.И. Цвет в испанской литературе. – Мадрид: Editorial Hispánica, 2020.



Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

UMUMTA'LIM TIL O'RGANUVCHILARINING LINGVISTIK KOMPETENTSIYALARINI MFP TEXNIKASI ORQALI RIVOJLANTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

Ergasheva Rano¹

Buxoro Davlat Universiteti

KEYWORDS

lingvistik kompetensiya,
Model-Focused Practice, chet
tili ta'limi, umumta'lim
maktabi, innovatsion
texnologiyalar, pedagogik
metodlar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada umumta'lim mакtablarida til o'rganuvchilarning lingvistik kompetensiyalarini Model-Focused Practice (MFP) texnikasi orqali rivojlantirish jarayoni tahlil qilinadi. MFP texnikasining afzalliklari, uni tatbiq etishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari muhokama qilinadi. Pedagoglarning metodik tayyorgarligi, texnologik resurslarning yetarliligi va o'quvchilarning faolligini oshirish MFP texnikasining samaradorligini ta'minlashda muhim omillar sifatida ko'rsatiladi. Maqola lingvistik kompetensiyanı rivojlantirish bo'yicha zamonaviy yondashuvlar va innovatsion uslublarga asoslangan.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.15109434](https://doi.org/10.5281/zenodo.15109434)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Zamonaviy dunyoda til o'rganish nafaqat individual rivojlanish, balki jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Xususan, umumta'lim mакtablarida xorijiy tillarni samarali o'rgatish bo'yicha turli innovatsion metodlar va texnologiyalar joriy qilinmoqda. Til o'rganishda lingvistik kompetensiyanı rivojlantirish o'quvchilarning chet tilida erkin fikr bildirish, yozma va og'zaki muloqotda ishtirok etish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Lingvistik kompetensiya tilning fonetik, grammatik, leksik va pragmatik jihatlarini o'zlashtirishni o'z ichiga oladi. Shu sababli, til o'rganishda samarali yondashuvlar ishlab chiqish va ularni dars jarayoniga integratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda til o'qitish metodikasida turli zamonaviy usullar, jumladan, kommunikativ yondashuv, interfaol metodlar va multimodal ta'lim texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Shular qatorida MFP (Model-Focused Practice) texnikasi ham til o'rganish

¹ Buxoro Davlat Universiteti mustaqil tadqiqotchi

jarayonini samarali tashkil etishda muhim vositalardan biri sifatida qaralmoqda. MFP texnikasi til o'rganishda real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish, o'quvchilarga aniq til strukturasi va grammatic qoidalarni ongli ravishda o'zlashtirishga yordam beradigan yondashuvdir. Ushbu texnika orqali o'quvchilar muloqot jarayonida o'z nutqini ongli ravishda shakllantirish, so'z va iboralardan to'g'ri foydalanish, til elementlarini kontekstda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Biroq, umumta'lim maktablarida ushbu texnikani tatbiq etishda qator muammolar mavjud. Birinchidan, o'qituvchilarning MFP texnikasi bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmaga ega emasligi, uni amaliyotda qo'llashda qiyinchiliklarga duch kelishi muammolardan biridir. Ko'pgina pedagoglar an'anaviy dars o'tish usullariga o'rganib qolgan bo'lib, yangi texnologiyalarni qo'llashga ehtiyojkorlik bilan yondashadi. Ikkinchidan, o'quvchilar ham yangi metodga moslashishda muammolarga duch kelishlari mumkin, chunki MFP texnikasi faqat passiv qabul qilish emas, balki faol ishtirokni talab qiladi. Bu esa ba'zi o'quvchilar uchun qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Uchinchidan, umumta'lim maktablarida o'quv jarayonini zamonaviy texnikalar asosida tashkil etish uchun yetarli moddiy-texnik baza har doim ham mavjud emas. MFP texnikasi o'quvchilarning faolligini oshirish, muloqot muhitini yaratish va real vaziyatlar asosida mashqlar bajarishni talab qiladi. Buning uchun zamonaviy darsliklar, multimedia resurslari, interaktiv materiallar zarur. Afsuski, ko'pgina maktablarda bu kabi resurslar yetarlicha ta'minlanmagan.

Shu bilan birga, MFP texnikasining samarali qo'llanishi uchun dars jarayonida o'quvchilarni rag'batlantirish, ularning o'z fikrini erkin ifodalashiga sharoit yaratish va qo'llab-quvvatlash muhimdir. Buning uchun o'qituvchilar MFP texnikasini aniq strategiya asosida tatbiq etishi, dars jarayonida o'quvchilar uchun real hayotiy muloqot sharoitlarini yaratishi lozim. O'quvchilar orasida mustaqil fikrlash, tahliliy yondashish va o'z fikrlarini grammatic jihatdan to'g'ri ifodalash qobiliyatini rivojlantirish ushbu texnikaning muhim maqsadlaridan biridir. Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida lingvistik kompetensiyani MFP texnikasi orqali rivojlantirishda uchraydigan asosiy muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi. MFP texnikasi asosida olib borilgan tadqiqotlar, uning samaradorligi va amaliyotdagি natijalari ham ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, pedagoglarning ushbu texnikani qo'llash bo'yicha malakasini oshirish, maktablarda zamonaviy til o'rgatish metodlarini joriy etish va o'quvchilarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Umumta'lim maktablarida chet tillarni o'qitish jarayoni doimiy ravishda takomillashtirib borilayotgan sohalardan biri bo'lib, bu jarayonda lingvistik kompetensiyani rivojlantirish ustuvor maqsadlardandir. Lingvistik kompetensiya o'quvchilarning til tizimini to'liq tushunishi, uni amaliy qo'llay olishi, so'z boyligini kengaytirishi va grammatic jihatdan to'g'ri muloqot qila olishini ta'minlaydi. Ushbu kompetensiyani rivojlantirishda zamonaviy metodik yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Xususan, Model-Focused Practice (MFP) texnikasi til o'rganish jarayonida samarali yondashuvlardan biri bo'lib, u o'quvchilarga muloqotda faollikni oshirish, til strukturasi bo'yicha ko'nikmalarni mustahkamlash hamda real hayotiy vaziyatlar orqali mashqlar bajarish imkoniyatini yaratadi.

MFP texnikasi asosiy e'tiborni til o'rganish jarayonida o'quvchilarning faol ishtirokiga qaratadi. An'anaviy yondashuvlar aksariyat hollarda qoidalar va grammatic formulalarni yodlashga asoslangan bo'lsa, MFP texnikasi tilni tabiatiga mos ravishda o'rganish tamoyillariga asoslanadi. Ushbu texnika orqali o'quvchilar dars jarayonida modellashtirilgan suhbatlarda qatnashadilar, muloqotga kirishadilar va real hayotda qo'llanishi mumkin bo'lgan jumlalarni shakllantirishga harakat qiladilar. Bu esa til o'rganish jarayonini tabiiylashtirishga va o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Shunga qaramay, umumta'lim maktablarida MFP texnikasini tatbiq etishda muayyan muammolar mavjud. Ulardan biri o'qituvchilarning ushbu texnikani yetarli darajada o'zlashtirmaganligi va amaliyotda uni qo'llashga qiyonalishidir. O'qituvchilar ko'pincha an'anaviy yondashuvlarga tayanib dars o'tishadi va yangi metodlarni o'zlashtirish uchun yetarlicha resurs yoki bilimga ega emasliklari mumkin. Shu sababli, ushbu texnikaning samarali tatbiq etilishi uchun avvalo pedagoglar maxsus tayyorgarlikdan o'tishlari, ularning metodik ko'nikmalari oshirilishi lozim.

Ikkinci muammo esa o'quvchilarning ushbu texnikaga moslashishidagi qiyinchiliklar bilan bog'liq. An'anaviy yondashuvlarga o'rganib qolgan o'quvchilar uchun MFP texnikasida faol ishtirok etish, real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish va o'z fikrlarini to'g'ri ifodalash bosqichma-bosqich rivojlantirilishi lozim. Buning uchun o'qituvchilar har bir o'quvchining individuallagini inobatga olib, ularning tayyorgarlik darajasiga mos keladigan mashqlar ishlab chiqishlari kerak.

MFP texnikasi samarali natija berishi uchun zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirilgan holda qo'llanishi maqsadga muvofiqdir. Masalan, multimedya vositalari, virtual ta'lif muhitlari va interaktiv platformalar yordamida o'quvchilar til o'rganish jarayoniga faolroq jalb qilinadi. Bunday yondashuv nafaqat o'quvchilarning qiziqishini oshiradi, balki ularga mustaqil ta'lif olish imkoniyatini ham yaratadi. Shu bilan birga, MFP texnikasi asosida mobil ilovalar yoki sun'iy intellektga asoslangan dasturlar yordamida til o'rganish samaradorligi oshirilishi mumkin.

Biroq, umumta'lim maktablarida bunday texnologiyalardan keng foydalanish imkoniyatlari har doim ham mavjud emas. Ko'pgina maktablarda zamonaviy interaktiv ta'lif resurslari yetarli emasligi sababli, o'qituvchilar an'anaviy metodlarga qaytishga majbur bo'ladilar. Shuningdek, maktablarning texnik ta'minoti, internetga ulanish sifati va o'quvchilarning shaxsiy qurilmalarga ega bo'lish darjasasi ham bu texnikaning muvaffaqiyatli qo'llanishiga ta'sir qiluvchi omillar qatoriga kiradi.

MFP texnikasini yanada samarali tatbiq etish uchun pedagoglarning malakasini oshirish, o'quvchilarning faolligini rag'batlantirish va dars jarayonida zamonaviy texnologiyalarni integratsiya qilish lozim. Shuningdek, ta'lif tizimida ushbu texnika asosida maxsus dars rejalarini ishlab chiqish, metodik qo'llanmalar yaratish va o'qituvchilar uchun seminar-treninglar tashkil etish ham muhim hisoblanadi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, MFP texnikasi o'quvchilarning o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. O'quvchilar ushbu yondashuv orqali o'z nutqiy xatolarini anglash, grammatic tuzilmalardan to'g'ri foydalanish va kommunikativ

malakalarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ularning kelajakda xorijiy tilni samarali o'zlashtirishlariga va amaliy qo'llashlariga zamin yaratadi. Shunday qilib, umumta'lim mакtablarida lingvistik kompetensiyalarni MFP texnikasi orqali rivojlantirish dolzarb masalalardan biri bo'lib, uning samarali qo'llanishi uchun pedagoglarning tayyorgarlik darajasini oshirish, texnologik resurslarni kengaytirish va o'quvchilarni faol o'rganish jarayoniga jalb qilish lozim. Barcha yuqoridagi muammolar tizimli ravishda hal etilgan taqdirda, til o'rganish samaradorligi oshib, o'quvchilarning chet tilida erkin muloqot qila olish qobiliyatlari rivojlanadi.

Til o'rganish jarayoni doimiy takomillashuv va innovatsion metodlarga asoslangan holda rivojlanib borishi zarur. Lingvistik kompetensiya zamonaviy ta'lim tizimida asosiy tarkibiy qismlardan biri bo'lib, o'quvchilarning chet tilida to'g'ri muloqot qila olish, so'z boyligini oshirish, grammatik me'yorlarga rioya qilish va real hayotiy vaziyatlarda tilni faol qo'llay olish kabi ko'nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Ushbu maqolada umumta'lim mакtablarida til o'rganuvchilarning lingvistik kompetensiyalarini Model-Focused Practice (MFP) texnikasi orqali rivojlantirish masalalari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadi, ushbu texnika chet tili ta'limida samarali natjalarga erishish imkonini beradigan zamonaviy yondashuvlardan biri hisoblanadi.

MFP texnikasining asosiy afzalliklaridan biri – u o'quvchilarni dars jarayoniga faol jalb qilishi va ularning amaliy nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilganligidir. An'anaviy ta'lim metodlarida o'quvchilar ko'pincha grammatik qoidalarga urg'u berilgan mashqlarga duch kelishadi, bu esa ularning muloqotga kirishish qobiliyatini cheklab qo'yadi. MFP texnikasi esa til o'rganish jarayonini tabiylashtiradi, ya'ni o'quvchilar real hayotiy vaziyatlarda qo'llash mumkin bo'lган so'z va iboralarni o'zlashtiradi, muloqot qilish jarayonida tilni amaliy qo'llashga harakat qiladi.

Shu bilan birga, ushbu texnikani tatbiq etishda qator muammolar mavjud. Ulardan biri o'qituvchilarning ushbu metodni to'g'ri qo'llash bo'yicha yetarlicha bilim va tajribaga ega emaslidigidir. Aksariyat pedagoglar an'anaviy dars o'tish uslublariga ko'proq urg'u berib, yangi innovatsion metodlarni amaliyatga tadbiq etishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Shu sababli, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish, ularni MFP texnikasining nazariy va amaliy jihatlari bilan tanishtirish zarur. Maxsus treninglar, seminarlar va amaliy mashg'ulotlar tashkil etish orqali pedagoglarning kompetensiyasini oshirish mumkin.

Ikkinci asosiy muammo – o'quvchilarning ushbu texnikaga moslashishdagi qiyinchiliklaridir. Ba'zi o'quvchilar an'anaviy yondashuvlarga o'rganib qolganligi sababli, yangi texnika bo'yicha ishlashda noqulaylik sezishlari mumkin. Ayniqsa, past motivatsiyaga ega o'quvchilar dars davomida faol bo'lishni istamaydi yoki nutqiy xatolardan qo'rqib, kommunikatsiyaga kamroq kirishadi. Bunday holatlarning oldini olish uchun o'qituvchilar o'quvchilarga psixologik jihatdan yondashib, ularning o'ziga bo'lган ishonchini oshirishlari lozim. Rag'batlantirish tizimi, interaktiv mashg'ulotlar va o'yinli metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarning til o'rganishga bo'lган qiziqishini oshirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, lingvistik kompetensiyani rivojlantirish umumta'lim tizimidagi eng muhim vazifalardan biri bo'lib, uning muvaffaqiyatlari amalga oshirilishi uchun MFP texnikasi

kabi innovatsion yondashuvlarni samarali qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'quvchilarning chet tilini amaliy o'rganish darajasini oshirishga, ularning mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, ta'lif tizimida ushbu texnikaning keng qo'llanilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish hamda pedagogik innovatsiyalarni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lishi lozim.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Ellis, R. (2009). The differential effects of focused and unfocused written corrective feedback in an English as a foreign language context. *System*, 37(3), 353–365. <https://doi.org/10.1016/j.system.2009.06.001>
2. Nation, P. (2013). Learning vocabulary in another language. Cambridge University Press.
3. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and methods in language teaching (3rd ed.). Cambridge University Press.
4. Larsen-Freeman, D., & Anderson, M. (2011). Techniques and principles in language teaching (3rd ed.). Oxford University Press.
5. Lightbown, P. M., & Spada, N. (2020). How languages are learned (5th ed.). Oxford University Press.
6. Long, M. H. (2015). Second language acquisition and task-based language teaching. Wiley-Blackwell.



Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

ОСОБЕННОСТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УРОВНЯ УРБАНИЗАЦИИ

Рахимова Мадина¹

Хидирова Шахзода²

Турон университет

KEYWORDS

Развитие урбанизации, глобальной экономикой, транспортной и социальной, ресурс, субъект.

ABSTRACT

Урбанизация — это процесс перемещения населения из сельских районов в города и появления различных социально-экономических изменений в городах. При этом уровень урбанизации в разных регионах может быть различным. Развитие урбанизации зависит от экономического состояния, социальной инфраструктуры, системы управления и природных ресурсов региона. Повышение уровня урбанизации должно осуществляться через систематизацию и использование эффективных методов управления территориальным развитием.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.1510945](https://doi.org/10.5281/zenodo.1510945)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Эта работа изучает современные формы урбанизации, процессы, связанные с глобальной экономикой и технологическими изменениями. Повышение уровня урбанизации должно быть связано с региональными стратегиями развития. В каждом регионе экономические изменения, развитие промышленности и демографический рост по-разному влияют на урбанизацию. Политики управления, инвестиционные стратегии и меры, направленные на обеспечение территориальной устойчивости, являются важными факторами в систематизации региональной урбанизации.

Основные направления для кардинального улучшения процесса урбанизации в стране включают активизацию процессов урбанизации в рамках реализации новой жилищной политики. Это включает использование механизмов привлечения финансовых ресурсов субъектов предпринимательства через ипотечное кредитование и инвестиции для строительства доступного жилья для мало- и среднедоходных семей, а также обеспечение инженерной, транспортной и социальной инфраструктуры.

¹ Ассистент преподавателя Турон университета

² Студентка Турон университета

Следующие меры также предусматриваются:

- обеспечение прав собственности на земельные участки под жилые и нежилые здания для физических и юридических лиц;
- создание условий для включения земельных участков в гражданский оборот;
- совершенствование административного регулирования миграционных процессов, создание условий для свободного передвижения населения из сельских районов в города;
- улучшение благосостояния населения крупных городов, расширение использования экономических и промышленных ресурсов, содействие полной и эффективной занятости населения в этих городах;
- создание технопарков и укрепление их систем в учреждениях высшего образования и научно-исследовательских институтах;
- использование преимуществ агломерации для повышения доходов населения и создания устойчивых рабочих мест в сфере промышленности, услуг и сервисов, а также внедрение международного опыта в управлении средними городами и районными центрами;
- расширение спутниковых городов с хорошими транспортными связями с крупными городами и сокращение промышленной зоны в центре крупных городов с увеличением территории для общественно-деловых зон.

В стратегии "Узбекистан – 2030" установлена цель увеличить уровень урбанизации с 51% до 60% к 2030 году. В этом плане предусмотрено превращение городов Самарканда и Намангана в "миллионные города", увеличение числа городов и районов с населением более 300 тысяч человек до 28, а также разработка генеральных планов для всех населенных пунктов.

В связи с вышеизложенным специалисты Института макроэкономических и региональных исследований проанализировали тенденции развития урбанизации в Узбекистане. В последние 10 лет в Узбекистане численность городского и сельского населения увеличилась на 20,7%. При этом уровень урбанизации оставался в пределах 50-51%, за исключением Ташкента, где он значительно выше. Без учета Ташкента в других регионах уровень урбанизации составлял около 46-47%.

С увеличением привлекательности Ташкента для трудоспособного населения город сталкивается с ростом миграции. Например, 64% постоянных жителей Ташкента — люди трудоспособного возраста, в то время как в других регионах этот показатель не превышает 54%. С момента обретения независимости, численность городского населения Узбекистана увеличилась на 10%, что, в частности, стало возможным благодаря административным изменениям, включая превращение около 1000 сельских населенных пунктов в города в 2009 году. В 1991 году городское население составляло 40,3% от общей численности населения страны, а в 2018 году этот показатель увеличился до 50,6%.

Уровень урбанизации в Узбекистане значительно ниже, чем в других странах. В международном рейтинге, составленном ООН, Узбекистан занимает 155-е место среди

233 стран по уровню урбанизации. Средний мировой показатель составляет 55,3%. С целью активизации процесса урбанизации в своем обращении к парламенту президент Шавкат Мирзиёев установил стратегическую цель — достичь уровня урбанизации 60% к 2030 году. Тем не менее, несмотря на усилия, уровень урбанизации в стране по-прежнему не соответствует современным требованиям комплексного развития городов, и Узбекистан заметно отстает от мировых тенденций. Поэтому уровень урбанизации остается нестабильным.

Для эффективного регулирования процессов урбанизации и внедрения современных рыночных механизмов, направленных на оборот земельных участков, необходимо обеспечить:

- повышение уровня создания высокодоходных рабочих мест;
- улучшение подготовки квалифицированных кадров;
- развитие социальной инфраструктуры и улучшение качества социальных услуг.

Кроме того, создание новых предприятий и рабочих мест в сфере промышленности и услуг в таких областях, как Андижан, Хорезм, Ташкент, Бухара, Джиззак, Наманган и Республика Каракалпакстан оказывает положительное влияние на урбанизацию. Для повышения уровня урбанизации в этих регионах важно разработать региональные программы, повышая степень специализации территорий и улучшая экономическую структуру через создание промышленных и специальных экономических зон.

Заключение и предложения. Для повышения уровня урбанизации необходимо сосредоточиться на создании высокооплачиваемых рабочих мест, улучшении уровня подготовки кадров, развитии социальной инфраструктуры и улучшении качества социальных услуг. Все это будет способствовать улучшению условий жизни и развитию процессов урбанизации.

Источник и литература

1. Michaels G., Rauch F., Redding S. J. Urbanization and structural transformation //The Quarterly Journal of Economics. – 2012. –127(2). – P. 535-586.
2. Shukhratovich M. Sh. Managing changes in the structure of employment in the regions of Uzbekistan //South Asian Journal of Marketing & Management Research. – 2021. –11(2). – P. 52-62.
3. Sivaev D. et al. The Time is Now. – 2022. P.26.
4. Jedwab R. Urbanization without structural transformation: Evidence from consumption cities in Africa // George Washington University.-1/2-2024. P.120.
7. Rakimova M.Sh. INCREASING THE LEVEL OF URBANIZATION BY DEEPENING STRUCTURAL CHANGES //Journal of Management Value & Ethics, – 2023.– P. 86-93
8. Рахимова Мадина. ГРАДОСТРОИТЕЛЬСТВО В КОНТЕКСТЕ ТРАНСФОРМАЦИИ // Economy and Innovation. Volume: 36 | 2023



Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

MAQSUD SHAYXZODANING HAYOTI VA IJODI (1908 -1967) YILLARI

Sayfutdinova Ruzigul¹

Elmurodov Hamidillo²

Toshkent davlat transport universiteti

KEYWORDS

Maqsud Shayxzoda, o'zbek adabiyoti, otashnafas publisist, serqirra ijodkor, tarjima asarlari, dramaturg, vatanparvarlik va birdamlilik tuyg'ulari, ta'lim, tarjimonlik.

ABSTRACT

Ulkan so'z san'atkorlarining qadr-qimmati, umrzoqligi, badiiy mahoratdagi ustozlik darajasini o'lchaydigan eng haqqoniy va ishonchli andaza zamon va kitobxon hisoblanar ekan, bunday sermashaqqat sinovdan sharaf bilan o'tolgan nodir siymolar qatorida Maqsud Ma'sumbek o'g'li Shayxzodaning tabarruk nomini faxr va mehr bilan yodga olamiz.

Maqsud Shayxzoda

o'zbek adabiyoti tarixida o'ziga xos ijodiy yo'li va boy merosi bilan alohida o'rinn egallagan ijodkorlardan biridir. Ozarbayjonning Oqtosh shahrida ziyoli oilada dunyoga kelib, taqdir taqozosi bilan uning hayoti va ijodi O'zbekiston bilan bog'lanadi. Ushbu maqolada, serqirra ijodkor, ikki xalqning chinakam dilbandi bo'lgan va ozar va o'zbek adabiyotiga ulkan hissa qo'shgan ijodkor Maqsud Shayxzoda faoliyati va ijodi haqida fikr va mulohazalar qilinadi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.1510950](https://doi.org/10.5281/zenodo.1510950)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Maqsud Shayxzoda 1908-yil 7-noyabrda Ozarbayjonning Ganja viloyatiga qarashli Oqtosh shahrida ziyoli oilada tug'ilgan. Uning otasi Ma'sumbek nafaqat shifokor, balki ilm-fan va adabiyotga ham chuqur mehr qo'ygan kishi bo'lib, oilada ilmiy va badiiy muhit shakllanishiga katta hissa qo'shgan. Yosh Shayxzoda oilasidagi bu ma'rifatli muhit ta'sirida shakllandi. Maqsud Shayxzoda Ozarbayjonda Sho'ro hokimiyatining dastlabki yillaridayoq komsomol safiga kirdi. Oqtosh komsomol tashkilotining eng birinchi kotibi bo'lib ishladi. Boshlang'ich ma'lumotni Oqtoshda olgan Maqsud Shayxzoda 1921-yilda Bokudagi dorilmuallimingga kirib, o'qishni davom ettirdi.

1923-yilda Maqsud Shayxzoda "28 aprel inqilobi" pyesasini yozdi va bu asar Oqtoshda mahalliy havaskorlar to'garagining kuchi bilan sahnaga qo'yildi.

Shayxzoda 1925-yilda dorilmualliminni tamomlab, Dog'istonda Darband va Mo'ynanoq

¹ Toshkent davlat transport universitetini Avtomobil yo'llari muhandisligi fakulteti "AYQ va EQ" kafedrasi dotsenti

² Toshkent davlat transport universitetini Avtomobil yo'llari muhandisligi fakulteti YMAL-6 guruhi talabasi

shaharlarida o'qituvchilik qila boshladi. 1927-yilda uning ilk katta asari "Narimon haqida xalq masali" Bokuda chiqadigan "Maorif va madaniyat" jurnalining 3-sonida e'lon qilindi. Maqsud Shayxzodaning hayot yo'li oson kechmadi. U 1927-yilda millatchilikda ayblanib, qamaldi va 3 yilga surgun jazosiga hukm etildi. Jazoni o'tash uchun uni Toshkentga jo'natadi. Maqsud Shayxzoda 1928-yilda Toshkentga kelib, tez orada o'zbek adabiy hayotining faol ishtirokchisiga aylandi. U dastlab turli gazeta va jurnallarda ishladi, keyinchalik esa Fanlar Qo'mitasining Til va adabiyot institutida ilmiy xodim sifatida faoliyat yuritdi. U adabiyotga yangicha nazar bilan qarar, zamonaviy she'riyatga o'ziga xos ovoz olib kirgan ijodkor edi. Shayxzoda o'zbek mumtoz adabiyotini chuqur o'rganib, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodiy merosini ilmiy jihatdan tadqiq etdi. Uning ilmiy ishlari filologiya sohasida ham muhim o'rinn tutadi. 1935-1938 yillarda Fanlar Qo'mitasi qoshidagi Til va adabiyot institutida ilmiy xodim sifatida ishladi. 1938-yildan umrining so'ngiga qadar Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutining "O'zbek mumtoz adabiyoti" kafedrasida dotsent lavozimida xizmat qilib, malakali kadrlar yetishtirishga o'z hissasini qo'shdi.

Shayxzodaning adabiy faoliyati 1929-yildan boshlangan bo'lib, uning dastlabki she'riy to'plamlari – "O'n she'r" (1932), "Undoshlarim" (1933), "Uchinchi kitob" (1934) va "Jumhuriyat" (1935) asarlari adabiyotga o'ziga xos ovozga ega bo'lgan shoir kirib kelayotganidan darak berdi. Shoirning ijodi mustahkam milliy ruh, Vatanga bo'lgan sadoqat va insoniy qadriyatlarga chuqur hurmat bilan yo'g'rilgan edi.

SHE'R CHIN GO'ZALLIK SINGLISI EKAN...

She'rsiz qalblarga achinaman men
Ularda na tonglar kunduzin boshlar,
Na oqshom yulduzlar ufsin ochar keng,
Na bahor chog'ida sayraydi qushlar,
Qo'shiqsiz uylarga kulgi yoqmaydi,
Xonodon ahlining qovog'i osiq.
Hatto derazadan quyosh boqmaydi,
Soatning o'zi ham tiqillar bosiq.

1958-yilda Shayxzoda o'zining mashhur "Toshkentnoma" lirik dostonini yaratdi. Ushbu doston qadimiyligi va ayni paytda zamonaviy Toshkent shahriga bag'ishlangan bo'lib, shoirning o'z ona yurti bo'lmish Ozarbayjondan uzoqda yashasa-da, o'zbek xalqi madaniyatiga qanchalik chuqur singib ketganini ko'rsatadi.

Shayxzoda tarjimon sifatida ham katta ishlarni amalga oshirgan. U Pushkining "Mis chavandoz", Lermontovning "Kavkaz asiri", Mayakovskiyning "Juda soz" dostonlari va ko'plab she'rlarini o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan. Bundan tashqari, Shekspirning "Hamlet", "Romeo va Julyetta" tragediyalari va sonetlarini, Nozim Hikmatning she'riy asarlarini, shuningdek, Ozarbayjon shoirlari ijodini ham tarjima qilgan. Uning tarjimalari faqat so'zma-so'z o'girish bilan cheklanmay, asarlarning badiiy ruhini, estetik qiymatini saqlab qolishga qaratilgan edi.

Adib o'zbek adabiyoti tarixi, xalq og'zaki ijodi, xususan, Alisher Navoiy merosini o'rganish borasida ham muhim ilmiy tadqiqotlar olib borgan. U filologiya fanlari nomzodi unvoniga ega

bo'lib, o'zbek adabiyotshunosligi rivojiga salmoqli hissa qo'shgan. Uning ilmiy ishlari nafaqat o'zbek, balki jahon adabiyotshunosligida ham e'tirof etilgan.

Shayxzoda 1967-yil 19-fevralda vafot etdi va Toshkentning Farobiq qabristoniga dafn etildi. U Ozarbayjon tuprog'ida tug'ilgan bo'lsa-da, taqdir taqozosini bilan o'zbek diyoriga kelib, bu yurtda butun borlig'i bilan ijod qilib, xalq e'tirofiga sazovor bo'ldi. Uning nomi o'zbek adabiyoti tarixida abadiy saqlanib qoladi. Shoir umrining so'nggida shunday aytadiki:

Umrlar bo'ladiki tirigida o'likdir,

Umrlar bo'ladiki o'lgan odam mudom tirikdir.

Xulosa qilib aytganda: Maqsud Shayxzoda ikki xalq she'riyati cho'qqisini egallagan shoirlardandir. O'zbek xalqi doim shunday ulug' ijodkoriborligidan faxrlanadi. O'ylaymanki, biz yosh avlod va keying avlodlar ham Maqsud Shayxzoda she'riyati gulshanidagi gullaridan ifor, she'riyati va adabiyotidan esa muhabbatni his etib yashaydi. Shayxzoda o'z ijodida milliy va xalqaro mavzularni o'zaro uyg'unlashtirgan. Uning asarlari odatda insoniylik adolat, millat va ma'naviyat masalalarini qamrab oladi. Shoir o'zbek xalqining og'ir kechinmalari va orzularini she'riyat orqali barcha jabhalarda ifoda etgan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodi – O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, Toshkent, O'zbekiston Milliy Ensiklopediya bosh tahriri.
2. M. Qosimov. "O'zbek adabiyoti tarixi", Toshkent, Fan nashriyoti, 1985.
3. S. Umarov. "O'zbek she'riyatida vatanparvarlik mavzusi", Toshkent, 2001.
4. Shayxzodaning adabiy va tarjima asarlari – O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi fondlaridan olingan materiallar.



Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

HUDUDLARDA SANOAT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Alimardanov M.I.¹

Risqimov Rufatali²

O'zbekiston Respublikasi Oriental Universiteti

KEYWORDS

Maqsud Shayxzoda, o'zbek adabiyoti, otashnafas publisist, serqirra ijodkor, tarjima asarlari, dramaturg, vatanparvarlik va birdamlilik tuyg'ulari, ta'lim, tarjimonlik.

ABSTRACT

Ulkan so'z san'atkorlarining qadr-qimmati, umrzoqligi, badiiy mahoratdagi ustozlik darajasini o'lchaydigan eng haqqoniy va ishonchli andaza zamon va kitobxon hisoblanar ekan, bunday sermashaqqat sinovdan sharaf bilan o'tolgan nodir siymolar qatorida Maqsud Ma'sumbek o'g'li Shayxzodaning tabarruk nomini faxr va mehr bilan yodga olamiz.

Maqsud Shayxzoda

o'zbek adabiyoti tarixida o'ziga xos ijodiy yo'li va boy merosi bilan alohida o'rinn egallagan ijodkorlardan biridir. Ozarbayjonning Oqtosh shahrida ziyoli oilada dunyoga kelib, taqdir taqozosi bilan uning hayoti va ijodi O'zbekiston bilan bog'lanadi. Ushbu maqolada, serqirra ijodkor, ikki xalqning chinakam dilbandi bo'lgan va ozar va o'zbek adabiyotiga ulkan hissa qo'shgan ijodkor Maqsud Shayxzoda faoliyati va ijodi haqida fikr va mulohazalar qilinadi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.15109583](https://doi.org/10.5281/zenodo.15109583)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

KIRISH

Hududiy sanoatni rivojlantirish har bir mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy farovonligini ta'minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi. Sanoat tarmoqlarining hududiy jihatdan rivojlanishi mahalliy xomashyo resurslaridan samarali foydalanish, yangi ish o'rinalarini yaratish, eksport salohiyatini oshirish va hududlarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash imkonini beradi.

Bugungi kunda sanoatning innovatsion rivojlanishi, ekologik barqarorlik, transport va logistika tizimining takomillashtirilishi hamda ishlab chiqarish klasterlarini shakllantirish ustuvor yo'nalishlar sifatida qaralmoqda. Xususan, sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish va raqamlashtirish hududiy iqtisodiyotni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Oriental Universiteti i.f.d., prof.

² O'zbekiston Respublikasi Oriental Universiteti

